RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

«O‘ZBEKISTON TUMANLARINI KOMPLEKS O‘RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI»

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

20-aprel, 2026-yil

zenodo

Academic Sciense Puplishing,

Academic Research Publisher hamda

UniScience Journali hamkorligida

****

«O‘ZBEKISTON TUMANLARINI KOMPLEKS O‘RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI»

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.

Toshkent

April 20, 2026

****

O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari //Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Tashkent. April 20, 2026.

Konferensiya tahririyat a’zolari

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

„O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari“ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — O‘zbekiston tumanlarini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ekologik, tarixiy-madaniy, ilmiy-texnik va hududiy rivojlanish jihatlaridan kompleks o‘rganish, mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilish, ularning amaliy yechimlarini ishlab chiqish hamda fanlararo yondashuv asosida hududlar taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy taklif va tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Maqolalarning mazmuni, undagi ma’lumotlar, faktlar va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (April 17, 2026, Protocol No. 13).

MUNDARIJA

🌿 TUMANLAR RIVOJLANISHIDA TABIIY RESURSLAR, EKOLOGIK BARQARORLIK VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI 8

G‘ALLAOROL TUMANI IQLIMINING UZOQ MUDDATLI O‘ZGARISHLARI VA ULARNING TABIIY-GEOGRAFIK HAMDA XO‘JALIK AHAMIYATI 9

QASHQADARYO VILOYATI TUMANLARINING TABIIY-RESURS SALOHIYATI VA ULARDAN EKOLOGIK BARQAROR FOYDALANISH STRATEGIYALARI 20

RELYEF VA BUZILGAN YERLAR REKULTIVATSIYASI (KATTAQO‘RG‘ON TUMANI MISOLIDA) 25

BULUNG‘UR TUMANI HUDUDIDA MUHANDISLIK GEOMORFOLOGIYASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI 34

🌍 O‘ZBEKISTON TUMANLARINING GEOGRAFIK TADQIQI: TABIIY, IQTISODIY-IJTIMOIY VA DEMOGRAFIK JIHATLAR 39

JIZZAX SHAHRIGA UMUMIY IQTISODIY VA IJTIMOIY-GEOGRAFIK TAVSIF 40

JIZZAX SHAHRINING IQTISODIY-IJTIMOIY VA GEOGRAFIK RIVOJLANISH QONUNIYATLARI 46

KULJUKTOV TOG‘LARINING STRTIGRAFIK XUSUSIYATLARI 55

NAMANGAN IQLIM SHAROITIDA MANZARALI O‘SIMLIK PLUMERIANI KO‘PAYTIRISH 68

MARHAMAT TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI, RESURS SALOHIYATI VA MA’MURIY-HUDUDIY TARKIBI 74

CHUST TUMANINING IJTIMOIY-GEOGRAFIK IMKONIYATLARI 81

💼 TUMANLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, INVESTITSIYA VA HUDUDIY BOSHQARUV MASALALARI 89

FARG‘ONA TUMANINING AGROTURISTIK SALOHIYATI: RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA HUDUDIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 90

MILLIY TURIZM BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA “KONTENT MARKETING” TAMOYILLARINING ASOSLARI 97

HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: TUMANLAR IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA INVESTITSIYALAR VA BOSHQARUV TIZIMINING O‘RNI 102

MECHANISMS FOR INTEGRATING DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES INTO THE TERRITORIAL GOVERNANCE SYSTEM UNDER THE CONDITIONS OF COMPREHENSIVE STUDY OF DISTRICTS IN THE KASHKADARYA REGION 109

TURIZMNI HUDUDIY KLASTERLASH VA QIYMAT ZANJIRI ASOSIDA TUMANLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH HAMDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI 114

Qishloq xo‘jaligi, agrotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligida tumanlar salohiyati 122

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ASALARICHILIK SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 123

MOSH O‘SIMLIGIDA BARG SATHINING SHAKLLANISHIGA URUG‘ EKISH MUDDATLARI HAMDA EKISH ME’YORLARINI TA’SIRI 129

QISHLOQ XO‘JALIGIDA YUQORI MAHSULDOR QORAMOLLARDA NEKROBAKTERIOZNING TA’SIRI VA UNI OLDINI OLISH ORQALI TUMANLAR SALOHIYATINI OSHIRISH 135

Tumanlarda ta’lim, pedagogik innovatsiyalar va ilmiy salohiyatni rivojlantirish 143

MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MAKTABI — ZAMONAVIY STEM TA’LIM MODELI SIFATIDA 144

Tumanlar miqyosida sog‘liqni saqlash, tibbiyot, farmatsevtika va aholi salomatligi muammolari 152

BEMORLARNING PSIXIK TIKLANISH FAOLIYAT DINAMIKASI 153

Tarix, madaniy meros, filologiya, falsafa va san’atshunoslikda tumanlar kesimidagi tadqiqotlar 156

BADIIY TARJIMANING LINGVISTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI . 157

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA QARSHI SHAHRINING SHAHARSOZLIK HUSUSIYATLARI 163

LINGUISTIC ASPECTS OF DISCOURSE ANALYSIS 173

QIRG‘IZISTONDAGI O‘ZBEKLAR: DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR VA MILLIY-MADANIY MARKAZLARNING IJTIMOIY FAOLIYATI TARIXI 179

QIRG`IZISTONDAGI O‘ZBEK MILLIY-MADANIY MARKAZI TARIXIDAN LAVHALAR. (1991-2025-yillar) 200

HYBRIDITY AND IDENTITY CRISIS IN ZADI SMITH’S CHARACTERS . 223

ITALYAN MAQOLLARIDA ERKAK VA AYOL OBRAZLARINING QIYOSIY LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI 230

USTYURT KARVON YO‘LLARI TIZIMIDA OV INSHOOTLARI (ARANLAR) TIPOLOGIYASI: TABIIY VA IJTIMOIY-GEOGRAFIK TADQIQ 236

1960–1980-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ AHOLISINING MODDIY AHVOLI VA MEHNAT SAMARADORLIGI 242

ARXEOLOGIK VA ARXITEKTURA TADQIQOTLARI ASOSIDA JAMPIQ QAL’ANING TARIXIY QIYOFASINI REKONSTRUKTSIYA QILISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI 248

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ TÚSLIK RAYONLARÍNDAǴÍ MÁDENIYAT TARAWLARÍNÍŃ ÓZGESHELIGI 254

📑 Texnika, arxitektura, raqamli texnologiyalar va infratuzilmani rivojlantirishning hududiy masalalari 266

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA BINO TOMLARI LANDSHAFTINI LOYIHALASH (NUKUS SHAHRI MISOLIDA) 267

2-KARBOKSIBENZOL DIAZONIY XLORID TUZINING FENOL BILAN REAKSIYASI 275

SHAHAR TIPIDAGI AHOLI PUNKTLARINING REJAVIY TUZILMASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI (QONLIKO’L TUMANI MARKAZI MISOLIDA) 280

NUKUS SHAHRI MISOLIDA IQLIMGA MOSLASHUVCHAN SHAHARSOZLIKNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI 286

⚖️ Jamiyat va huquq: tumanlar kesimida sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, yuridik va harbiy tadqiqotlar 291

RAHBAR KADRLAR BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHRISHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI 292

IJTIMOIY ONG TIZIMIDA QO‘RQUV VA XAVOTIRNI: IJTIMOIY-FALSAFIY VA TARIXIY TAHLILI 299

PROSPECTS FOR DEVELOPING COMMAND, LEADERSHIP, AND MANAGERIAL COMPETENCIES OF JUNIOR COMMANDERS IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 303

ZAMONAVIY YOSHLARDA BEGONALASHUV JARAYONI 311

O‘ZBEKISTONDA ILMIY-TADQIQOT LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING YANGI VA ESKI MEXANIZMI QIYOSIY TAHLILI VA TADQIQI 322

TOK-SHOULARDA HUDUDIY MUAMMOLARINI YORITISH VA AUDITORIYA INTERAKTIVLIGI 328

SIYOSIY DISKURSDAGI RITORIK STRATEGIYALAR 333

JAMIYATDA IJTIMOIY ISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA)..... 340
ISMOIL JO‘RABEKOVNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY SIYOSATIDAGI O‘RNI VA FAOLIYATI..... 351
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕЖИВАНИЯ БОЛЕЗНИ РЕБЁНКА РОДИТЕЛЯМИ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В СЕМЬЕ 356

TUMANLAR RIVOJLANISHIDA TABIIY RESURSLAR, EKOLOGIK BARQARORLIK VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

G‘ALLAOROL TUMANI IQLIMINING UZOQ MUDDATLI O‘ZGARISHLARI VA ULARNING TABIIY-GEOGRAFIK HAMDA XO‘JALIK AHAMIYATI

Baxramov Ravshan Yolqin o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

e-mail:ravshanbaxramov33@gmail.com

Tojiyeva Sitora Abdurasul qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada G‘allaorol tumani iqlimining 1933–2025-yillar oralig‘idagi uzoq muddatli o‘zgarishlari meteorologik kuzatuv ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda harorat dinamikasi, yog‘ingarchilik rejimi, qurg‘oqchilik hodisalari hamda ekstremal iqlimiy og‘ishlar o‘rganilgan. Natijalar hududda iqlimning izchil isib borayotganini, qish faslining yumshayotganini va yoz oylarida issiqlik kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi va qurg‘oqchilik davrlarining ortishi aniqlangan. Ushbu o‘zgarishlarning tabiiy-geografik jarayonlarga, jumladan tuproq unumdorligi, suv resurslari va ekotizimlarga, shuningdek qishloq xo‘jaligi faoliyatiga ta’siri ilmiy asosda baholangan. Tadqiqot natijalari hududda iqlim o‘zgarishlariga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *G‘allaorol tumani, iqlim o‘zgarishi, global isish, harorat dinamikasi, yog‘ingarchilik, qurg‘oqchilik, ekstremal iqlim hodisalari, tabiiy-geografik jarayonlar, qishloq xo‘jaligi, ekologik ta’sir.*

Abstract: *This article analyzes the long-term climate changes in G‘allaorol district during the period 1933–2025 based on meteorological observation data. The study examines temperature dynamics, precipitation regime, drought events, and*

extreme climatic anomalies. The results show a consistent warming trend in the region, with milder winters and increasingly hot summers. In addition, a decrease in precipitation and an increase in drought periods have been identified. The impacts of these changes on natural-geographical processes, including soil fertility, water resources, ecosystems, and agricultural activities, have been scientifically assessed. The findings are of great importance for developing adaptation strategies to climate change in the region.

Keywords: *G‘allaorol district, climate change, global warming, temperature dynamics, precipitation, drought, extreme climate events, natural-geographical processes, agriculture, ecological impact.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы долгосрочные изменения климата Галлааральского района в период 1933–2025 гг. на основе данных метеорологических наблюдений. В исследовании рассмотрены динамика температуры, режим осадков, засушливые явления и экстремальные климатические отклонения. Результаты показывают устойчивое потепление климата в регионе, смягчение зимнего сезона и усиление летней жары. Также выявлено снижение количества осадков и увеличение продолжительности засушливых периодов. Влияние этих изменений на природно-географические процессы, включая плодородие почв, водные ресурсы, экосистемы, а также сельскохозяйственную деятельность, было научно оценено. Полученные результаты имеют важное значение для разработки стратегий адаптации к изменению климата в регионе.*

Ключевые слова: *Галлааральский район, изменение климата, глобальное потепление, динамика температуры, осадки, засуха, экстремальные климатические явления, природно-географические процессы, сельское хозяйство, экологическое воздействие.*

Kirish. G‘allaorol tumani — Jizzax viloyatining g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (avval Yangiqo‘rg‘on tumani nomi bilan yuritilgan). Tuman hududi shimolda Forish

tumani, sharqda Jizzax tumani, janubda Baxmal tumani hamda g‘arb va janubi-g‘arbda Samarqand viloyati bilan chegaradosh [5].

Hudud relyefi murakkab bo‘lib, markaziy va g‘arbiy qismi tekisliklardan, shimoliy va shimoli-g‘arbiy qismi esa adir va tog‘lardan iborat. Tuman Nurota tog‘lari va Molguzar tog‘i oralig‘ida joylashgan bo‘lib, balandliklar 380–400 m dan 1600–1900 m gacha o‘zgaradi. Hududdan Sangzor daryosi oqib o‘tadi va asosiy geomorfologik shakllanishlarda muhim rol o‘ynaydi [4].

Iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yozlari issiq va quruq, qishlari sovuq. O‘rtacha harorat yanvarda −2°C, iyulda +32°C, yillik yog‘in miqdori esa 326 mm atrofida. Tuproqlari asosan lyoss va sariq tuproqlardan tashkil topgan bo‘lib, bo‘z, och bo‘z va tipik bo‘z tuproqlar keng tarqalgan [4].

Mazkur tabiiy-geografik sharoitlar G‘allaorol tumanini iqlimiy tadqiqotlar uchun muhim hududga aylantiradi. Relyef, tuproq, yog‘ingarchilik va harorat ko‘rsatkichlarining o‘ziga xosligi global iqlim o‘zgarishlarining mahalliy ta’sirini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. G‘allaorol tumani iqlimiy dinamikasini o‘rganishda asosiy manba sifatida meteorologik kuzatuv stansiyalarining ko‘p yillik ma’lumotlari xizmat qiladi. Hududdagi meteorologik stansiya 40°02'08" shimoliy kenglik va 67°34'36" sharqiy uzunlikda, dengiz sathidan 601 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, 1933-yildan boshlab muntazam ravishda harorat, yog‘ingarchilik va boshqa iqlimiy ko‘rsatkichlarni qayd etib kelmoqda [6]. Ushbu stansiya ma’lumotlari G‘allaorol tumani iqlimining uzoq muddatli dinamikasini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

1933–1990 yillar oralig‘ida qayd etilgan ma’lumotlar hudud iqlimining keskin kontinental xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu davrda qish fasli sovuq, yoz esa issiq va quruq kechgan. Yanvar oyida harorat ko‘pincha –10°C atrofida bo‘lgan, iyul oyida esa 27–28°C gacha ko‘tarilgan. 1990–2025 yillarda esa kuzatuvlar global iqlim o‘zgarishlarining mahalliy darajadagi ta’sirini yaqqol ko‘rsatmoqda: qish fasli

yumshab, yanvar oyidagi harorat ko‘pincha –5°C atrofida, ayrim yillarda esa 0°C ga yaqinlashgan; yoz oylarida esa 30°C dan yuqori haroratlar qayd etilgan.

Meteorologik ma’lumotlar manbalari sifatida faqat stansiya kuzatuvlari emas, balki onlayn ma’lumotlar bazalari, xalqaro iqlimiy tahlil markazlari va adabiy manbalar ham qo‘llanilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati, Jahon meteorologiya tashkiloti (WMO) va global iqlim modellarining ma’lumotlari G‘allaorol tumani iqlimiy dinamikasini yanada kengroq kontekstda baholash imkonini beradi [2].

1933–2025 yillar oralig‘ida to‘plangan ma’lumotlar oylik va yillik harorat ko‘rsatkichlari, mutlaq maksimal va minimal qiymatlar, vegetatsiya davri davomiyligi va yog‘ingarchilik miqdorini o‘z ichiga oladi. Bu ma’lumotlar asosida fasliy kontrastlar, ekstremal og‘ishlar va anomal yillar aniqlanadi. Masalan, 1976, 1994, 2010 va 2021 yillarda bahor va yoz oylarida keskin harorat ko‘tarilishi kuzatilgan, 1950-yillar oxiri va 1985-yilda esa qish oylarida –10°C dan past haroratlar qayd etilgan (1-jadval).

Meteorologik ma’lumotlarning ilmiy ahamiyati shundaki, ular iqlimiy tendensiyalarni aniqlash, prognoz modellarini ishlab chiqish va mahalliy agroekologik strategiyalarni shakllantirish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uzoq muddatli kuzatuvlar yordamida G‘allaorol tumani iqlimining izchil isib borishi, qishning yumshashi va yozning issiqroq kechishi ilmiy asosda tasdiqlanadi.


Umuman olganda 1933–2025 yillar oralig‘ida to‘plangan meteorologik ma’lumotlar G‘allaorol tumani iqlimiy dinamikasini o‘rganishda eng muhim manba hisoblanadi (1-jadval). Bu ma’lumotlar nafaqat nazariy tahlil, balki amaliy qo‘llanilish uchun ham dolzarbdir. Ular qishloq xo‘jaligi rejimlarini optimallashtirish, suv resurslarini boshqarish va ekologik monitoringni kuchaytirishda bevosita qo‘llanilishi mumkin.

Yillar	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	yillik
1933				13.2	19.5	23	27.9	25.5	17	9.7	4.6	0.4	
1934	-10.4	1.5	6.4	11.5	14.5	23.2	25.3	24.8	15.4	8.6	0.9	1	10.23
1935	-9	2.9	4.9	12.5	18	20.4	26.5	25.6	16.5	11.3	1.3	1	10.99
1936	-4.4	1.9	3.9	12	18.6	25	26.1	23.2	19	12.7	5.3	-1.4	11.83
1937	-4.8	1.5	3.5	9.9	17.8	23.9	27.7	25.5	19.5	9	0.5	-2.6	10.95
1938	-0.8	3.2	4.2	15.1	21.1	23.7	25.3	24.8	16.7	8.9	2.4	-0.6	12.00
1939	0.3	1	4.8	10.4	18.8	25.5	27.9	24	18.1	10.5	5.5	4.4	12.60
1940	0.3	2.5	4.8	14.9	18.4	26.2	28	24	18.6	13.6	5.4	3	13.31
1941	-1.9	4.9	8.9	13.6	20.6	26.9	25.5	25.4	18.8	13.4	3.9	1.8	13.48
1942	0.1	-1.2	6.7	11.5	18.7	23.6	27.6	23.4	17	11.5	6.7	0.7	12.19
1943	-3.2	-1.5	3.4	12.1	18	22.5	28.1	24	17.2	8.8	4.3	1.4	11.26
1944	0.3	3.8	9.9	13.3	20.3	24.4	28.6	24.8	17.2	10.4	3.4	-8.1	12.36
1945	-3.6	-4.2	3	13.5	17.5	22.7	25.4	26.2	19.2	12.1	3.3	0.7	11.32
1946	-1.1	5.4	7.3	13.7	21.6	24	25.7	25	18.1	12.6	0.9	-7.6	12.13
1947	-1.9	2.2	10.6	12.8	17.3	21.7	25.5	25.4	18.4	11.5	7.1	-0.1	12.54
1948	1.8	2.2	4.9	11.6	18.2	23.6	28	24.8	17.8	9.9	3.2	-3.8	11.85
1949	-3.7	1	5.1	12.3	16.7	22.1	26.7	24.2	17.1	7.8	1.7	-0.9	10.84
1950	-5.7	-5.4	7.5	11.6	20.8	25	27.6	25.2	17.4	10.7	-0.1	-9.3	10.44
1951	-5	-6	3.5	13.9	19.5	21.7	26.3	24.6	19.9	12.6	4.7	3.1	11.57
1952	0.4	5.2	6	12.8	17	23.9	27.5	25.4	17.5	10.6	0	-2.3	12.00
1953	0.9	4.5	5.6	12.3	18.3	23.6	28	24.4	18.4	8.4	0.4	-1.9	11.91
1954	-1.2	-2.4	1.9	13.4	18.2	21.9	25.3	24	18.8	11.4	1.9	-2.3	10.91
1955	-0.7	4	5.8	10.7	18.5	24	26.7	25.9	18.6	9.5	6.6	3	12.72
1956	-2.9	-0.4	5.1	14.3	19.5	22.7	29.6	25	18.5	11.6	5.7	-2.2	12.21
1957	-5.6	-4.7	6.5	10.6	18.3	24.2	25.4	24.5	19	10.4	2.5	0	10.93
1958	1.2	4	8.5	12.3	16	24.1	27.7	23.5	18.7	10.6	0.6	2.6	12.48
1959	0.8	-3.5	4.9	15.2	18	23.9	25.3	25.7	21.2	11.7	3.2	-5	11.78
1960	0	4.5	1	10.5	16.1	24.1	25.3	24.3	18.1	11.9	4.3	-0.1	11.67
1961	-0.4	0.2	7	13.1	21.5	24.3	28	24.7	19	7.9	4	2.9	12.68
1962	-1.4	4.7	10.2	12.3	18.4	23.6	28.3	25.2	17.4	10.2	2	-4.4	12.21
1963	0.2	5.9	7.2	14.9	18.1	25.5	26.8	23.9	18.3	13.6	4.8	-1.8	13.12
1964	-9	0.7	8.6	12.1	17.2	23.4	25.8	24	18.4	8.3	4.7	-4.2	10.83
1965	-2.4	0.8	5.2	13	19.7	24.4	27.6	24.5	18.2	12.7	7.5	1	12.68
1966	2.1	5.2	6.8	12.6	17.8	26.4	27.3	25.7	19.2	10.8	1.6	0.4	12.99
1967	-3.3	0.1	6.9	13.8	18	24.4	26.8	24.7	18.8	10.9	6.6	2.7	12.53
1968	1	1.2	8.2	11	17.7	24.2	26.3	24.3	18	10.7	5.8	0.3	12.39
1969	-10.4	-11	4.7	12.7	17.7	22.3	25.4	24.2	18.2	12.2	4.7	5.1	10.48
1970	-1.5	4.5	5.8	14.5	19.1	23.2	25.7	24.6	17.6	12	5.7	-2	12.43
1971	-11.1	-1.8	9	13	19.2	25.3	26.6	23.2	18.5	12	8.5	4.4	12.23
1972	-6.3	-11.6	3	13.4	18	23.2	24.1	22.7	18	11.8	6.5	-3.2	9.97
1973	-5.3	2.1	5.8	14	18.3	25.4	27.6	25.4	16.5	12.1	5.8	-0.3	12.28
1974	-7.1	-4.8	5.8	13.6	19.7	24.6	27.6	23.1	18.5	11.7	6	-2.4	11.36
1975	-0.7	-0.8	8.1	14.9	18.7	25.4	27.5	24.8	19	10.7	1.1	-0.1	12.38
1976	1.1	-0.6	4.8	13.6	19.4	23.8	27.4	25.5	18.3	10.2	0.9	-1.9	11.88
1977	-7.8	-1	9.6	16.1	20.5	26.9	26.9	24.4	19.2	11.2	8.8	1.2	13.00
1978	-1.2	-3.2	6	14.3	18.1	24.4	27.5	23.3	20	12.6	3.6	4.9	12.53
1979	-2	2.2	6.4	13.9	15.5	22.5	26.8	24.4	18.5	13.7	3.3	2.8	12.33
1980	-1.7	-3.2	5.4	16.3	19.6	24.6	27	24.4	18.6	11.9	9.3	3.3	12.96
1981	2.5	2	8.8	13.1	18.3	23.2	26.4	24	19.1	9.5	5.3	2	12.85
1982	-0.2	0.8	5.4	15	20.5	24.4	26.2	24	17.8	11.9	0.6	-3.3	11.93
1983	-0.3	3.7	5.5	13.9	18.7	24.2	27.8	25.9	18.7	11.2	6.6	0.7	13.05
1984	-1.5	9.4	6.4	13.2	19	25.4	28.4	26.7	17.6	11.2	6.2	-1.4	13.38
1985	-3.8	2.1	4.5	14.9	18.7	25.1	27.2	23.5	19.4	10.6	3.2	1	12.20
1986	2	1.9	3.2	12.6	20.4	23.9	26.9	24.7	19.9	11.8	4.1	0	12.62
1987	1.8	3.1	8.4	11.1	18	23.2	24.8	26	18.5	8.3	4.7	2.1	12.50
1988	0	1.2	6.3	14.7	17.4	25.1	27.6	23.8	18.7	11	8	3.8	13.13
1989	-4.9	-5.3	7.1	11.3	17.1	23.9	27	24.5	17.6	13.3	4.7	4.5	11.73
1990	-1.9	2.8	6.7	12.4	18.8	25.9	26.1	25.3	19.5	11.2	6.8	-0.7	12.74
1991	-3.8	1.1	5.8	13.9	17.5	22.9	26.7	24.1	19.1	11.3	5.8	2.9	12.28
1992	0.1	4.1	4.9	13.5	15	22.3	26	22.8	17.3	10.7	6.9	3.7	12.28
1993	-1	2	5.7	13.1	16.4	23.3	26.1	23.7	18.8	9.9	2.7	-1.7	11.58
1994	-1.7	-4.6	7.8	10.8	19	25.4	26.6	25.4	16.1	11.9	9.9	0.8	12.28
1995	-0.7	2.3	6.2	12.8	18.6	24	26.9	24.6	18.2	10.5	6.1	-2.1	12.28
1996	-3.8	-0.7	4.5	12.7	17.9	24.1	26.5	23.8	19.5	11.1	3	2.7	11.78
1997	0.8	-1.9	6.9	14.7	17.3	25.3	27.5	24.6	19.1	14.8	3.9	0.8	12.82
1998	-1.1	-1	5.5	14.7	17.1	23.2	26.9	25.1	20.3	11.2	6	2.8	12.56
1999	0.9	5.8	5.4	11.3	18.4	23.2	25	26.5	19.5	13.3	5	2.3	13.05
2000	1.4	1.5	10.2	18.2	22.7	25.8	27.8	27	20.8	11.6	5.6	4.2	14.73
2001	-0.4	4.3	10.8	17.3	24.8	27.8	27	25.6	19	12.9	9.3	3.8	15.18
2002	3.4	4.7	10.8	14.2	19.3	25.2	27.3	26.9	21.2	16.8	9.4	-2.4	14.73
2003	4	4.4	7.4	11.7	18.1	24.3	28	26.1	21	15.9	7.4	1.4	14.14
2004	4.3	7	9.4	13.8	21.6	25.1	26.4	25.4	20.3	11.4	10	2	14.73
2005	0.3	-1.9	11	14.4	18.9	25.9	27.7	24.8	21.2	13.3	6.3	2.7	13.72
2006	-4.4	5.6	9.8	15.6	21.5	25.1	26	25.4	18.8	15.6	7.8	-1.4	13.78
2007	0.2	4.1	7.2	16.5	19.5	25.4	27.3	25.2	19.6	10.1	7.5	0.7	13.61
2008	-10.1	-2.8	12.9	15.5	21.6	26.2	27.8	26.2	18.8	13	5.9	1.5	13.04
2009	1.4	5.2	9.6	11.3	18.8	23.3	26.7	24.6	19.8	13	6	3.3	13.58
2010	3.4	1	10.1	15.3	19.3	24.4	26.8	25.8	19.4	14.7	6.8	0.9	13.99
2011	-0.5	1.4	7.3	15.8	21.5	25.7	27	25.7	19.9	13.4	3.6	-2.2	13.22
2012	-1.5	-2.4	5.4	17.7	20.2	25.1	26.9	26.2	19.1	12.8	4.8	-2.2	12.68
2013	2.2	3.3	9.4	13.4	19.6	25	27	25	21.7	12.8	6.2	1.3	13.91
2014	0.5	-4.4	7	12.1	21.4	25.7	25.7	25	20.2	11.6	3.6	1.2	12.47
2015	1.6	4.6	6.5	15.9	21.2	26.6	28.4	24.9	19.2	13.3	6	3.3	14.29
2016	2.8	4.3	11.3	13.8	20.8	26	27.8	26	22.5	10.7	2.9	2.3	14.27
2017	1.9	0.5	6.6	13.3	22.3	25.6	28.5	25.2	20.7	13.6	7.3	-0.1	13.78
2018	-0.5	1.5	11.6	13.8	19.2	25.5	28.4	24.7	18.9	11.3	4.3	2.4	13.43
2019	3.2	3.7	10.1	14.1	19.3	23.7	28.7	25.1	18.8	13.1	3.6	3.6	13.92
2020	0.6	4.6	9.3	14.2	19.6	24.4	26.9	24.6	17.4	10.4	1.1	-1.3	12.65
2021	-1.6	5.6	7.7	14.4	22.1	26.6	28.7	26.1	20.5	9.8	4	3.7	13.97
2022	3.4	4.4	7	18.2	19.9	25.4	27.8	23.9	20.6	12.4	7.4	-1.4	14.08
2023	-7.4	4	12.5	14.7	19.9	26.3	28.2	25.4	19.4	14.4	9.6	3.1	14.18
2024	3.5	1.9	7.8	15.4	19.1	26.9	28	26.4	19.3	13.4	7.5	-1.3	13.99
2025	0.4	2.7	8.5	16.8	22.5	26.1	28.9	25.8	20.9	13.8	5.3	3.9	14.63

1-jadval. G’allaorol tumanining1933-2025-yillardagi havo haroratining oylik va yillik ko’rsatkichlari jadvali (https://www.pogodaiklimat.ru/ sayt ma’lumotlari).

G‘allaorol tumani iqlimiy kuzatuvlari 1933-yildan boshlab muntazam ravishda olib borilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar hudud iqlimining uzoq muddatli dinamikasini ilmiy asosda o‘rganish imkonini beradi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, 1933–1990

yillar oralig‘ida yillik o‘rtacha harorat 10–12°C atrofida bo‘lgan, qish fasli keskin sovuq, yoz esa mo‘tadil issiq kechgan. 1990–2025 yillarda esa yillik o‘rtacha harorat 13–15°C gacha ko‘tarilib, qish faslining yumshashi va yozning issiqroq kechishi kuzatilgan. Bu jarayon global iqlim o‘zgarishlarining mahalliy darajadagi ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi (1-chizma).



1-chizma. G’allaorol tumani har 5 yillikdagi havo harorati yillik ko’rsatkichlari va trend chizig’i(muallif tomonidan 1-jadval asosida tayyorlangan).

Uzoq muddatli tendensiyalarni tahlil qilish natijasida har yili o‘rtacha +0.03–0.04°C isish kuzatilgani aniqlangan. Bu ko‘rsatkich hudud iqlimining izchil isib borayotganini tasdiqlaydi. Masalan, 1933-yilda yillik o‘rtacha harorat 10.29°C bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 14.63°C ga yetgan (1-chizma). Bu o‘zgarishlar qishning yumshashiga, vegetatsiya davrining uzayishiga va ekstremal issiq kunlar sonining ortishiga olib kelmoqda.

Fasliy kontrastlar ham sezilarli darajada o‘zgargan. Avvalgi davrlarda yanvar oyida –10°C atrofidagi sovuq haroratlar qayd etilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda yanvar

oyidagi harorat ko‘pincha –5°C atrofida, ayrim yillarda esa 0°C ga yaqinlashgan. Yoz oylarida esa harorat 30°C dan yuqori qayd etilib, ekstremal issiq kunlar soni ortgan. Bu holat hududda qurg‘oqchilik xavfini kuchaytirib, suv resurslariga bosimni oshirgan.

Uzoq muddatli tendensiyalarni grafik tahlil qilish natijasida harorat chiziqlarining izchil ko‘tarilishi kuzatiladi. Bu jarayon global isishning hududiy aks-sadosi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ayrim yillarda anomal sovuq yoki issiq davrlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya iqlimning izchil isib borayotganini ko‘rsatadi.

Ekstremal og‘ishlar ham ilmiy tahlilda alohida o‘rin tutadi. Masalan, 1950-yillarda qish oylarida –10°C dan past haroratlar qayd etilgan, 2010-yillarda esa yoz oylarida 38–39°C gacha ko‘tarilgan haroratlar kuzatilgan. Bu ekstremal holatlar global iqlim o‘zgarishlarining mahalliy darajadagi ta’sirini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

G‘allaorol tumani havo haroratining uzoq muddatli tendensiyalari izchil isish jarayonini ko‘rsatmoqda. Har yili o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi, qishning yumshashi va yozning issiqroq kechishi global isishning mahalliy darajadagi ta’sirini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Bu natijalar qishloq xo‘jaligi rejimlarini qayta ko‘rib chiqish, suv resurslarini boshqarish va ekologik moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

G‘allaorol tumani iqlimiy sharoitida yog‘ingarchilik rejimi va qurg‘oqchilik hodisalari alohida ilmiy ahamiyatga ega. 1933–1990 yillar oralig‘ida yillik yog‘in miqdori o‘rtacha 320–340 mm atrofida bo‘lgan, yog‘ingarchilik asosan bahor va kuz oylarida kuzatilgan. Bu davrda qish fasli sovuq va quruq kechgan, bahor oylarida esa ekinlar uchun yetarli darajada namlik ta’minlangan. 1990–2025 yillarda esa yog‘ingarchilik miqdori izchil kamayib, ayrim yillarda 280–300 mm gacha tushgan. Bu holat hududda qurg‘oqchilik xavfini kuchaytirgan va suv resurslariga bosimni oshirgan.

Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yog‘ingarchilikning fasliy taqsimoti ham o‘zgarib bormoqda. Bahor oylarida yog‘in miqdori kamayib, kuzda esa ayrim yillarda kuchli yomg‘ir va sel hodisalari kuzatilgan. Bu jarayon ekinlar vegetatsiya davriga bevosita ta’sir qilib, hosildorlikning pasayishiga olib kelgan. Qish faslida esa qorli kunlar soni kamayib, qishning yumshashi kuzatilgan. Masalan, 1930–1950 yillarda qish oylarida 10–12 kun qor yog‘ishi qayd etilgan bo‘lsa, 2000-yillarda bu ko‘rsatkich 3–4 kun atrofida qolgan.

Qurg‘oqchilik dinamikasi ham ilmiy tahlilda muhim o‘rin tutadi. Ayrim yillarda, masalan 1976, 1994 va 2010 yillarda bahor va yoz oylarida keskin qurg‘oqchilik kuzatilgan. Bu davrlarda yog‘ingarchilik miqdori normadan 30–40% kam bo‘lgan, natijada ekinlar hosildorligi keskin pasaygan. Qurg‘oqchilikning kuchayishi suv resurslaridan foydalanish rejimini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Global isish jarayoni yog‘ingarchilik rejimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Haroratning izchil ko‘tarilishi bug‘lanish jarayonini tezlashtirib, tuproq namligini kamaytiradi. Bu holat qurg‘oqchilik xavfini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, ekstremal ob-havo hodisalari — kuchli yomg‘ir, sel va shamol bo‘ronlari — so‘nggi yillarda ko‘payib, hudud ekologik muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[8].

Yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilik dinamikasini grafik tahlil qilish natijasida umumiy tendensiya aniqlangan: yillik yog‘in miqdori izchil kamayib bormoqda, qurg‘oqchilik davrlari esa ko‘paymoqda. Bu jarayon global iqlim o‘zgarishlarining mahalliy darajadagi ta’sirini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

G‘allaorol tumani yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilik dinamikasi global isishning mahalliy ko‘rinishini yaqqol ko‘rsatmoqda. Yog‘in miqdorining kamayishi, qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ortishi hudud qishloq xo‘jaligi va suv resurslari boshqaruvi uchun jiddiy muammo hisoblanadi[9]. Shu sababli, bu jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish va moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Global iqlim o‘zgarishlari G‘allaorol tumani ekologik muvozanati va xo‘jalik faoliyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. 1933–2025 yillar oralig‘ida yillik o‘rtacha

haroratning 11°C dan 14.6°C gacha ko‘tarilishi hududda qishning yumshashiga, yozning issiqroq kechishiga va vegetatsiya davrining uzayishiga olib kelgan. Bu jarayon qishloq xo‘jaligi rejimlarini tubdan o‘zgartirib, ekinlar sikli, hosildorlik darajasi va suv resurslaridan foydalanish tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ekologik jihatdan global isish tuproq unumdorligining pasayishi, suv resurslariga bosimning ortishi va qurg‘oqchilik xavfining kuchayishi bilan bog‘liq[1]. Bahor va yoz oylarida yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi tuproq namligini keskin pasaytirib, ekinlarning vegetatsiya davrida yetarli namlik olishini cheklaydi. Qish faslida qorli kunlar sonining kamayishi esa yer osti suvlarining to‘lish jarayonini sekinlashtiradi. Bu holat suv resurslarini boshqarishda yangi strategiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir nuqtayi nazaridan, global isish qishloq xo‘jaligi ekinlarining vegetatsiya davrini o‘zgartirib, hosildorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [7]. Masalan, bug‘doy, paxta va sabzavot ekinlarining ekish va yig‘im-terim davrlari o‘zgarib, agrotexnik rejimlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Ekstremal issiq kunlar sonining ortishi chorvachilik faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, hayvonlarning issiqlikka chidamliligini pasaytiradi, kasalliklar xavfini kuchaytiradi[11].

Global isishning mahalliy ekologik ta’siri biologik xilma-xillikning kamayishi bilan ham bog‘liq. O‘rmon va yaylov ekotizimlarida o‘zgarishlar kuzatilmoqda, ayrim o‘simlik va hayvon turlari moslashuv qobiliyatini yo‘qotmoqda. Bu jarayon hududning ekologik barqarorligiga tahdid solib, tabiiy resurslardan foydalanish rejimini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuningdek, tuproq eroziyasi, shamol ta’sirida lyoss qatlamlarining yemirilishi va cho‘llanish jarayonlari ham global isishning mahalliy oqibatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda [3].

Sog‘liqni saqlash sohasida ham global isishning ta’siri sezilarli. Issiq to‘lqinlar sonining ortishi inson salomatligiga xavf tug‘dirib, yurak-qon tomir va nafas olish kasalliklari ko‘payishiga olib kelmoqda. Qishning yumshashi esa ayrim yuqumli

kasalliklarning tarqalish davrini uzaytirib, mahalliy aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[11].

Turizm faoliyatida iqlimiy sharoitning o‘zgarishi mavsumiylikni o‘zgartirib, yangi moslashuv strategiyalarini talab qilmoqda. Bahor va kuz fasllarining iliqroq kechishi turizm mavsumini uzaytirsa-da, yozning haddan tashqari issiq bo‘lishi turistik faoliyatni cheklab qo‘yishi mumkin. Shuningdek, shifobaxsh mineral suv manbalari va tabiiy landshaftlar global isish ta’sirida ekologik bosim ostida qolmoqda[11].

Global isishning mahalliy ekologik va xo‘jalik ta’siri G‘allaorol tumani misolida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Haroratning izchil ko‘tarilishi, yog‘ingarchilikning kamayishi, qurg‘oqchilik xavfining kuchayishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi hudud ekologiyasi va xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda[10]. Shu sababli, ilmiy asoslangan moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish, suv resurslarini tejash, agroekologik texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov P. *O‘zbekiston tabiiy geografiyasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 320 b.
2. FAO (Food and Agriculture Organization). *Climate-smart agriculture in arid regions.* – Rome: FAO, 2020. – 150 p.
3. Gerasimov I.P. *Ekologicheskie problemy nastoyashchey i budushchey geografii mira.* – Moskva: Nauka, 1985. – 256 s.
4. Hakimov Q.M., Odilova O. *Jizzax viloyati geografiyasi.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015. – 180 b.
5. Haydarov H. *Jizzax viloyati tarixi.* – Toshkent: Mehnat, 1996. – 200 b.
6. Haydarov H., Pardaev M. va boshq. *G‘allaorolnoma.* – Toshkent, 1996. – 150 b.

7. Haydarova S. *Jizzax viloyati tog‘li hududlar qishloqlarining rivojlanish xususiyatlari* // O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. – Toshkent, 2009. – 33-jild. – B. 120–130.

8. Iqlim o‘zgarishining atrof-muhitga ta’sirini tushunish va Markaziy Osiyo ekologiyasi istiqbollari: ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2024. – 210 b.

9. IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change). *Climate Change 2021: The Physical Science Basis.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 394 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati. *O‘zbekiston hududida iqlim o‘zgarishi bo‘yicha kuzatuv va tahlil hisobotlari.* – Toshkent, turli yillar.

11. Rafiqov A.A. *Geografik prognozlashtirish asoslari.* – Toshkent: Universitet, 2003. – 180 b.

QASHQADARYO VILOYATI TUMANLARINING TABIIY-RESURS SALOHIYATI VA ULARDAN EKOLOGIK BARQAROR FOYDALANISH STRATEGIYALARI

Suyunova Dilnoza

Qarshi davlat universiteti

e-mail: dilnozasuyunova9811@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining noyob tabiiy-geografik joylashuvi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy omil sifatida tahlil qilinadi. Hisor tizmasining dam olish salohiyati va Kitob davlat geologik qo'riqxonasi ilmiy hamda sayyohlik jozibasi tadqiqot davomida solishtirma tarzda o'rganildi. Statistik ma'lumotlar mintaqaning infratuzilmasidagi mavjud nomutanosibliklarni tasdiqlaydi. Xulosa qismida viloyatning "ekologik brendi"ni yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo, tabiiy boyliklar, Hisor tizmasi, ekoturizm, infratuzilma indeksi, dam olish, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется уникальное природно-географическое положение Кашкадарьинской области как основополагающий фактор обеспечения экономической стабильности региона. В ходе исследования были сравнительно изучены рекреационный потенциал горного хребта Хисар, а также научная и туристическая привлекательность Государственного геологического заповедника «Китаб». Статистические данные свидетельствуют о существующих диспропорциях в инфраструктуре региона. В заключительной части представлены практические предложения по созданию «экологического бренда» области и приведению качества услуг в соответствие с международными стандартами.*

Ключевые слова: *Кашкадарья, природные ресурсы, Хисарский хребет, экотуризм, индекс инфраструктуры, рекреация, устойчивое развитие.*

Abstract. *This article analyses the unique natural-geographical location of Kashkadarya Province as a fundamental factor in ensuring regional economic stability. The recreational potential of the Hisar Range and the scientific and tourist appeal of the Kitab State Geological Reserve were comparatively studied during the research. Statistical data evidence the existing imbalances in the region's infrastructure. The concluding section offers practical proposals for creating the province's “ecological brand” and aligning service quality with international standards.*

Keywords: *Kashkadarya, natural resources, Hisar Range, ecotourism, infrastructure index, recreation, sustainable development.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda turizm sohasi nafaqat dam olish sanoati, balki milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning strategik harakatlantiruvchi omili sifatida ham tan olinadi [1]. Butun dunyo bo'ylab sayyohlar oqimining antropogen hududlardan tabiiy landshaftlarga, ya'ni ekologik yo'nalishlarga o'zgarishi, masalan, Qashqadaryo kabi ekotizimlarga boy mintaqalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi [2]. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining turizm siyosati ham mintaqaviy salohiyatdan samarali foydalanishga qaratilgan [3].

Qashqadaryo mintaqasi o'zining xilma-xil iqlim sharoitlari va noyob ekotizimi bilan ajralib turadi. Sharqiy hududlardagi baland tog' cho'qqilaridan tortib tepaliklar va tekisliklargacha bo'lgan keng landshaftlarda o'n dan ortiq istiqbolli turizm turlarini (trekking, tog'ga chiqish, agriturizm va boshqalar) rivojlantirish imkoniyati mavjud [4]. Resurs bazasining kengligiga qaramay, bu resurslarni real iqtisodiy foydaga aylantirish mexanizmlarida tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Ushbu tadqiqot mavjud resurslar bilan erishilgan natijalar o'rtasidagi nomuvofiqlikni ilmiy jihatdan asoslashni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tayyorlashda mintaqaviy iqtisodiyotni baholash uchun miqdoriy va sifatli tahlil usullari qo'llanildi. Empirik ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va mintaqaviy tarmoq bo'limlarining hisobotlariga asoslangan [6]. Bundan tashqari, tog'li hududlarda turizmni boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba va nazariy konseptlar o'rganildi [7]. SWOT-tahlil usulidan foydalangan holda mintaqaning turizm sohasidagi kuchli va zaif tomonlari, xususan transport logistikasi va ob'ektlardagi xizmat darajalari bo'yicha tizimlashtirildi.

Natiijalar. Garchi mintaqaviy turizm sohasining dinamikasi ijobiy bo'lsa-da, tuzilma nomutanosibligi aniq ko'rinadi, o'sish asosan ziyorat turizmi hisobiga amalga oshmoqda.

1-jadval

Ko‘rsatkich nomi	Miqdor (birlik)	Rivojlanish darajasi
Jami mehmonxonalar va mehmon uylari	94	Qoniqarli
Mavjud yotoqlar soni	8 503	Past
Yillik xorijiy turistlar tashrifi	48 000+	O‘rtacha
Ekologik marshrutlar soni	12	Past

2024-yil boshida mintaqaviy turizm sektori holatining tahlili[1]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqadagi 94 ta turar joy inshootlarining aksariyati Shahrisabz va Karshi ma'muriy markazlarida to'plangan [9]. Tog'li hududlarda (Hisorak, G'elon, Ko'l qishloqlari) mehmonxonalar soni mavjud dam olish salohiyatiga mos kelmaydi. Biroq aynan shu hududlar ekoturizm markaziga aylanish uchun barcha tabiiy va iqlim sharoitlariga ega. 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, tog' turizmi bo'yicha talab o'tgan yilga nisbatan 14 foizga oshgan, ammo aloqa va yo'l infratuzilmasi bu talabni to'liq qondirishga imkon bermayapti [10].

Munozara va takliflar. Qashqadaryo viloyatining turizm strategiyasida faqat tarixiy va madaniy merosga tayanish kutilgan iqtisodiy natijalarni bermasligi

[1] Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanib tuzilgan (2024).

mumkin. Xalqaro tajriba (Shveytsariya, Avstriya va qo'shni Qirg'iziston misolida) tog' manzaralari barqaror daromad manbai ekanligini isbotlaydi [8]. Kitob Davlat Geologik Qo'riqxonasi kabi obyektlar nafaqat dam olish maskanlari, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun "o'ziga xos ochiq havodagi laboratoriya" maqomiga ham ega [5].

Taklif etilayotgan ustuvor yo'nalishlar:

— Infratuzilmani modernizatsiya qilish: tog'li qishloqlarga boruvchi yo'llarni xalqaro standartlarga muvofiq ta'mirlash va yuqori tezlikdagi internet qamrovini ta'minlash.

—— Mavsumiylikni minimallashtirish: qishki turizm klasterlarini (to'xtatilgan kabellar, chang'i bazalari) tashkil etish orqali sayyohlik mavsumini uzaytirish. Inson kapitalini rivojlantirish: chekka hududlar aholisi uchun turizm boshqaruvi va chet tillari bo'yicha qisqa muddatli trening kurslarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatining tabiiy resurslarini «ishlov berilmagan javohir»ga qiyoslash mumkin. Mintaqada ekoturizmni tumanlar kesimida tizimli tashkil etish, nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki tabiiy landshaftlarning antropogen bosim ostida degradatsiyaga uchrashining oldini olishga xizmat qiladi. Hisor tizmasi va Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi kabi noyob ob’ektlarning «ekologik brendi»ni yaratish, hududga sifatli xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning strategik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tog‘li tumanlardagi transport logistikasi va raqamli infratuzilmani xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, chekka qishloqlardagi aholi bandligini ta’minlash va migratsiya darajasini kamaytirishning muhim omilidir. Davlat investitsiyalari va xususiy sektor tashabbuslarining sinergiyasi mintaqaviy ekotizimni asrab-avaylash bilan birga, viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Turizm to‘g‘risida (yangi tahrir). — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: statistik to‘plam. — Toshkent, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Hududlar bo‘yicha turizm salohiyati va sayyohlar oqimi bo‘yicha tahliliy hisobot. — 2024.

4. Abduganiev A. Iqtisodiy geografiya va turizm asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

5. Kholmatov A. O‘zbekistonning tabiiy merosi va ekoturizm salohiyati // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. — 2023. — № 4. — B. 15–22.

6. Qashqadaryo viloyati hokimligi. 2024–2026 yillar uchun viloyatni kompleks rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi. — Qarshi, 2023.

7. UNWTO (Jahon Turizm Tashkiloti). 2030-yilga qadar turizm: global sharh. — Madrid: UNWTO, 2023.

8. Smith J. Tog‘ turizmi va mahalliy iqtisodiy rivojlanish. — London: Routledge, 2021.

9. Hall C. M. Turizm va dam olish geografiyasi: atrof-muhit, joy va makon. — Nyu-York: Taylor & Francis, 2020.

10. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Turizm sohasidagi tuzilma islohotlarining samaradorligi: tahliliy hisobot. — Toshkent, 2023.

RELYEF VA BUZILGAN YERLAR REKULTIVATSIYASI (KATTAQO‘RG‘ON TUMANI MISOLIDA)

Toshmamatov Ravshan Sherzod o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Toshmamatovravshanbek03@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda Kattaqo‘rg‘on tumani hududida relyef xususiyatlari va antropogen ta’sir natijasida buzilgan yerlarning shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, degradatsiyaga uchragan hududlarni rekultivatsiya qilishning ilmiy-amaliy asoslari ko‘rib chiqilib, hudud uchun mos rekultivatsiya usullari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari hududiy yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *relyef, rekultivatsiya, degradatsiya, eroziya, antropogen ta’sir, melioratsiya, yer resurslari*

Kirish

Relyef hududning tabiiy-geografik asosini tashkil etuvchi muhim komponent bo‘lib, u yer resurslaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligi joylashuvi va ekologik jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda inson faoliyati natijasida ko‘plab hududlarda yerlarning buzilishi, degradatsiyasi va xo‘jalik uchun yaroqsiz holatga kelishi kuzatilmoqda.

Kattaqo‘rg‘on tumani Samarqand viloyatining g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, asosan Zarafshon vodiysi tekisliklari va qisman adir hududlaridan iborat. Hudud relyefi va iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi uchun qulay bo‘lsa-da, noto‘g‘ri foydalanish natijasida yerlarning degradatsiyasi kuchaymoqda.

Hudud relyefining umumiy tavsifi. Kattaqo‘rg‘on tumani Samarqand viloyatining g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, shimolda Qo‘shrabot tumani,

sharqda Ishtixon tumani, janubi-sharqda Pastdarg‘om tumani, janubda Nurobod tumani, janubi-g‘arbda Narpay tumani hamda g‘arbda Navoiy viloyatining Xatirchi tumani bilan chegaradoshdir. Tuman hududi xalqaro davlat chegaralari bilan tutashmaydi.

Geologik tuzilishi. Tuman hududi O‘rta Zarafshon okrugida joylashgan hamda geologik-geomorfologik tuzilishi va shakllanishi ham okrug bilan uzviy bog‘liq. Hududning yer yuzasi asosan paleogen, neogen va antropogen davr cho‘kindi jinslaridan tarkib topgan. Bu jinslarning ustki qismini esa Zarafshon daryosi va uning irmoqlari olib kelgan alluvial yotqiziqlar qoplab olgan. Bu yer neogen davrigacha dengiz bo‘lgan. Neogen davridagi alp orogenetik jarayon ta’sirida vodiy quruqlikka aylangan, Zarafshon daryosi o‘z o‘zanini chuqurlashtirib qator qayirlar hosil qilgan. Bu qayirlar to’rtlamchi davrning alluvial, proluvial, eol jarayonlari tufayli vujudga kelgan shag‘al, konglomerat, qumoq, gil va lyoss kabi jinslardan tashkil topgan.

Tuman Zarafshon vodiysining tekislik qismida joylashganligi sababli, geologik kesimning ustki qatlamlari asosan yosh cho‘kindi yotqiziqlardan tarkib topgan. Biroq hududning shimoliy qismida joylashgan Oqtog‘ tizmasida Ordovik, Silur va Toshko‘mir sistemalariga mansub yotqiziqlar hamda intruziv jinslar uchraydi. Janub tomonga qarab mutlaq balandlikning pasayib borishi bilan tog‘oldi va tekislik hududlarida mazkur jinslar o‘rnini To‘rtlamchi sistemasining Neopleystosen va Galotsen davrlariga oid yotqiziqlar egallaydi. Tumanning janubiy qismida, xususan Kattaqo‘rg‘on suv ombori atrofida Neopleystosen davr yotqiziqlari keng tarqalgan.

Kattaqo‘rg‘on tumani hududida to‘rtlamchi davrning alluvial, proluvial va eol yotqiziqlarining keng tarqalganligi hududda unumdor tuproqlar shakllanishiga zamin yaratgan. Bu esa sug‘oriladigan dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, aholi punktlarining asosan vodiy va tekislik hududlarida joylashishiga sabab bo‘lgan. Shimoliy qismdagi tog‘li hududlarda esa geologik tuzilishning murakkabligi tufayli aholi siyrak joylashgan va xo‘jalik faoliyati cheklangan.

Yerusti tuzilishi. Tumanning relyefi asosan yassi tekisliklardan iborat bo‘lib, sharqdan g‘arbga tomon nishablik kuzatiladi. Masalan sharqda Buloqcha aholi punkti yaqinida mutloq balandlik 579 metr, Oqdaryo suv omborining yaqinida, Ko‘kcha qishlog‘ida – 486 metr, Payshanba shaharchasida – 471 metr, Oqdaryo va Qoradaryo birlashgan joyda – 414 metrni tashkil etadi. Shuningdek, markaziy qismidan Zarafshon daryosi oqib o‘tadigan hududdan shimol va janubga borgan sari relyefning asta-sekin ko‘tarilib borishi xosdir. Hududning o‘rtacha mutlaq balandligi taxminan 450 metrni tashkil etadi. Eng baland nuqtasi tumanning shimoliy qismida joylashib, 1736 metrga yetadi. Moybuloq aholi punkti yaqinida mutlaq balandlik 580 metr, Kattaqo‘rg‘on shahri atrofida esa 450 metrni tashkil etadi. Eng past joylar tumanning markaziy qismiga to‘g‘ri kelib, ularning mutlaq balandligi 400 metrdan yuqori hisoblanadi.

Hozirgi relyefni vujudga kelishida Zarafshon daryosi va uning shimoliy hamda janubiy qismidagi tog‘lardan boshlanadigan soylar katta rol o‘ynagan. Zarafshon daryosi o‘rta qismida qator qayirlar hosil qilgan. Tog‘lardan boshlanadigan vaqtli daryochalar va soylar Zarafshon qayirini perpendikul kesib, juda ko‘p jarliklar hosil qilgan hamda parchalab yuborgan.

Kattaqo‘rg‘on tumani relyefining asosan tekisliklardan iborat bo‘lishi hamda Zarafshon vodiysi bo‘ylab joylashganligi qishloq xo‘jaligi va aholi joylashuvi uchun qulay tabiiy sharoit yaratadi. Daryo vodiylari va sug‘oriladigan tekisliklarda aholi zich joylashgan hamda dehqonchilik rivojlangan bo‘lsa, shimoldagi tog‘ va tog‘oldi hududlarida relyefning baland va parchalanganligi sababli aholi kamroq joylashgan va xo‘jalik faoliyati asosan chorvachilik bilan bog‘liq.

Buzilgan yerlarning shakllanish omillari. Buzilgan yerlar — bu tabiiy yoki antropogen omillar ta’sirida o‘zining tabiiy tuzilishi, unumdorligi va xo‘jalik ahamiyatini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan hududlardir. Kattaqo‘rg‘on tumani sharoitida bunday yerlarning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u tabiiy-geografik sharoitlar hamda inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Hududda

yerlarning degradatsiyaga uchrashi asosan tabiiy omillar bilan bir qatorda antropogen bosimning kuchayishi natijasida yuzaga kelmoqda.

Tabiiy omillar ichida suv eroziyasi muhim o‘rin egallaydi. Sug‘oriladigan yerlarning keng tarqalganligi va suvdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida tuproqning ustki unumdor qatlami yuvilib ketadi. Bu jarayon ayniqsa yerning nishabligi oz bo‘lgan tekisliklarda ham noto‘g‘ri sug‘orish texnologiyalari sababli yuzaga kelishi mumkin. Natijada tuproq strukturasining buzilishi, oziq moddalarining kamayishi va hosildorlikning pasayishi kuzatiladi.

Shuningdek, shamol eroziyasi ham hududda sezilarli ahamiyatga ega. Iqlimning quruq va kontinental xususiyatga ega bo‘lishi, o‘simlik qoplamining siyraklashuvi natijasida tuproqning mayda zarrachalari shamol ta’sirida uchib ketadi. Bu esa tuproqning mexanik tarkibini yomonlashtiradi va uning unumdor qatlamini kamaytiradi.

Iqlim omillari ham buzilgan yerlar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Yoz faslining juda issiq va quruq kelishi, bug‘lanishning yuqori darajada bo‘lishi tuproqdagi namlik muvozanatini buzadi. Buning natijasida sho‘rlanish jarayoni kuchayadi, tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari o‘zgaradi. Ayniqsa, yer osti suvlari sathining yuqori bo‘lishi va kuchli bug‘lanish natijasida tuzlar tuproq yuzasida to‘planadi.

Antropogen omillar esa hududda buzilgan yerlarning shakllanishida yetakchi omil hisoblanadi. Eng avvalo, noto‘g‘ri sug‘orish va melioratsiya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim muammo hisoblanadi. Sug‘orish me’yorlariga rioya qilinmasligi, ortiqcha suv berilishi hamda drenaj tizimining samarali ishlamasligi natijasida tuproq sho‘rlanadi, yer osti suvlari sathi ko‘tariladi va botqoqlanish jarayonlari yuzaga keladi. Bu esa yerlarning xo‘jalik uchun yaroqsiz holga kelishiga olib keladi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan intensiv va ba’zan noto‘g‘ri foydalanish ham muhim omillardan biridir. Bir xil ekinlarni ketma-ket ekish, agrotexnik qoidalarga rioya qilmaslik, o‘g‘itlardan me’yordan ortiq

foydalanish tuproq unumdorligini pasaytiradi va degradatsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

Texnogen omillar, jumladan qurilish ishlari, yo‘l infratuzilmasining kengayishi, yer qazish faoliyati ham tuproqning tabiiy qatlamini buzadi. Bunday jarayonlarda tuproqning unumdor ustki qatlami yo‘qoladi yoki aralashib ketadi, natijada yerlarning qayta tiklanishi murakkablashadi.

Shuningdek, o‘simlik qoplamining kamayishi yoki butunlay yo‘qolishi ham muhim omil hisoblanadi. O‘simliklar tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoya qiluvchi tabiiy qatlam hisoblanadi. Ularning yo‘qolishi bilan tuproq ochiq qoladi va degradatsiya jarayonlari tezlashadi.

Umuman olganda, Kattaqo‘rg‘on tumani hududida buzilgan yerlarning shakllanishi bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, antropogen omillar ustunlik qilmoqda va tabiiy jarayonlar bu ta’sirni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli yer resurslaridan oqilona foydalanish, ilmiy asoslangan sug‘orish va melioratsiya tizimlarini joriy etish hamda ekologik muvozanatni saqlash bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi.

Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish. Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish — bu tabiiy yoki antropogen omillar ta’sirida degradatsiyaga uchragan hududlarni qayta tiklash, ularning ekologik holatini yaxshilash va xo‘jalik faoliyatiga qayta jalb etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar majmuasidir. Kattaqo‘rg‘on tumani sharoitida rekultivatsiya jarayoni ayniqsa muhim bo‘lib, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlashda katta ahamiyatga ega.

Jangeldi svitasi - to‘q va och – kulrang, mayda donali, Organik-detritli, yupqa va o‘rta qatlamli ohaktoshlar bilan braxiopodalarning yirik chig‘anoq komplekslaridan tashkil topgan. Braxiopodalar yuqori venlok podyarusining yoshini aniqlashda yordam beradi. Svita qalinligi 800-900 m.

Yuqori silur - S_2

O‘zaro chegaralanmagan ludlov va prjidol yaruslari – S_2(ld-p)

Bashgujumdi svitasi - notekis almashinuvchi, mikritli, mayda donali oxaktoshlardan, yirik yo‘l-yo‘l linza ko‘rinishidagi ohaktoshlardan, mayda donali yumaloqlangan gil-dolomitli ohaktoshlar bilan siyrak korall-stromatopora faunalardan tashkil topgan. Svita qalinligi 700 – 800 m. [7,8,10].

Devon sistemasi – D

Quyi devon - D_1; o‘zaro chegaralanmagan loxkov va praj yaruslari - D_1(l-p)

Turkmentau svitasi. Mayda donali, kulrang, to‘q kulrang oxaktoshlar korall va braxiopoda fauna qoldiqlari kuzatiladi. Svita qalinligi - 400m.

Ems yarusi - D_1e

Sultanbibi svitasi - (quyi qismi) krinoidno-detritli, to‘lqinsimon qatlamli, kulrang va to‘q kulrang ohaktoshlar linzasimon o‘zgarishga uchragan kremniyli jinslar va och qizg‘ish-qoramtir, oxakli alevrolitlar, dolomitli, sarg‘ish-qoramtir ohaktoshlardan tashkil topgan. Organik olami tabulyatlar, braxiopodplar va konodontalardan iborat. Svita qalinligi 180-400 m.

O‘rta devon-D_2; O‘zaro chegaralanmagan eyfel va jivet yaruslari–D_2 (ef-žv)

Sultonbibi svitasi - (yuqori qismi) organik-detritli, xar-xil donali, kremniylashgan, och kulrang va kulrang ohaktoshlardan, linzasimon kremniyli jinslardan tarkib topgan. Svita qalinligi 100 m.

Yuqori devon - D_3; Frans yarusi – D_3f

Arapkazgan svitasi - (quyi qismi) to‘q-jigarrang tovlanuvchi, yupqa qatlamli, kulrang kremniyli jinslardan va mayda donali ohaktosh qatlamlarining linzalaridan va qatlamlar tarkibidagi organik qoldiqlardan tashkil topgan. Svita qalinligi-60 m.

Arapkazgan svitasi - (yuqori qismi) to‘q kulrang, kulrang, qalin qatlamli ohaktoshlar, och qizg‘ish-qoramtir, ohakli alevrolitlar va kremniyli jislarning qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi-20 m. [5,7,8,12].

Karbon (toshko‘mir) sistemasi – C

O‘rta sarbon - C_2; Moskov yarusi - C_2 m

Taushan svitasi - yotqiziqlari Markaziy Qizilqum, Kuljuktovning shmoliy va janubiy qiyaliklarida tarqalgan. Shmoliy qiyaliklarda tarqalgan svita yotqiziqlarining kismasi ikki qismga ajratiladi. Quyi (qalinligi-50 m) qismi – doimiy almashinuvchi yupqa plitkasimon, yo‘l-yo‘l, kulrang, to‘q kulrang, ko‘kimtir-yashil rangli kremniy qatlamlari va kulrang, to‘q kulrang, uglerod-gilli slanslar, mayda donali, to‘q kulrang oxaktoshlardan tashkil topgan. Kismaning bu qismida linza ko‘rinishidagi zangori-yashil, yashilsimon-kulrang, to‘q qizil tufoqumtoshlar, tuflar va yashilsimon-kulrang liporitli porfirlar, ularni tuflarining qatlamlari aniqlangan. Konglomerat va konglobrekchiya, oxaktosh glibalari bilan silur, devon, karbon davri faunalarini qamrab olgan yirik yumaloqlangin tog‘ jinsi bo‘laklarining goizonti ajratilgan. Yuqori (qalinligi-500 m) qismi – doimiy takrorlanuvchi, kulrang, to‘q kulrang qumtoshlar, alevrolitlar bilan slans qatlamlari, gravelit, tufoqumtosh, tufogravelit linzalari, o‘rta va nordon tarkibli effuzif jinslarining linzalaridan tarkib topgan. Qumtoshlar va slanslar tarkibida floralar xam kuzatiladi. Umumiy qalinligi-550 m. Quyi chegara aniqlanmagan, yuqori chegara kamistin svitasining burchak nomuvofiqligi bilan yopilgan.

Kamistin svitasi - Kuljuktovning markaziy va sharqiy qismida, shmoli-g‘arbiy kenglik bo‘yicha o‘ziga xos tasma ko‘rinishida kuzatiladi. Qumtoshlar, gravelitlar, slanslar, konglomeratlar, yumaloqlangan yirik tog‘ jinsi bo‘laklari, asosan terrigen jinslardan tashkil topgan. Svita qalinligi-500 m [5,7,8,10].

Bo‘r sistemasi - K

Quyi bo‘r - K_1; apt yarusi - K_1a; o‘rta - yuqori podyaruslar - K_1a_{2-3}

Kuljuktovda ushbu bo‘linma ko‘lamida nomuvofiqlik bilan paleozoy yotqiziqlariga yotuvchi tuzkoy (K_1a_{2-3} tz) (Tuzkoy, Markaziy Qizilqum. I.M. Abduazimova, Ye.M. Shvetsova, 1987) va kalaata (K_2a_3 kl) (Kalaata, S. Kizilkumi. I.M. Abduazimova, Ye.M. Shvetsova, 1987) svitalari ajratilgan.

Tuzkoy svitasi (K_1a_2 tz_1) (quyi qismi) paleozoy yotqiziqlariga transgressiv yotuvchi va kulrang, mayda donali gravelitlar, och kulrang, sarg‘ish-kulrang, graviyli qumtoshlardan, ikki tabaqali va qorinoyoqli mollyuskalardan tashkil topgan. Bu faunalar o‘rta apt podyarusi uchun xarakterli hisoblanadi. Qalinligi 6 m. Tuzkoy svitasining yuqori qismi almashinib yotuvchi xar xil donali, kulrang, mustahkam gravelit va mayda donali, och kulrang qumtosh pachkasidan tashkil topgan. Qalinlik 5-40 m

Kalaata svitasi - to‘q kulrang, deyarli qora gillar, mayda ko‘mirlashayotgan o‘simlik detritlari bilan alevrolit, qumtosh qatlamlaridan tashkil topgan va paleontologik jihatdan ancha boy xarakterga ega. Svita yotqiziqlarining quyi qismidagi gillar temirlashgan konkretsiyalar bilan ikki tabaqali mollyuska va ammonitlarni qamrab olgan. Svita qalinligi 5-60 m

Alb yarusi - K_1al, quyi-o‘rta podyarusi - K_1al_{1-2}

Kuljuktovdagi bo‘r davri yotqiziqlarining bu satxida *jamanyar (K_1al_{1-2} dž)* (Jamanyar soyi bo‘yicha olingan, Markaziy Qizilqum. I.M. Abduazimova, 1987) svitasi ajratilgan. Svita to‘q kulrang, yashilsimon-kulrang, alevrolitli gillar bilan mayda temirlashgan konkretsiyalarni hamda yumaloqlangan ikki tabaqali mollyuska va ammonit yadrolarini qamrovchi alevrolit va qumtosh qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 17-90 m.

Yuqori podyarus - K_1al_3

Kuljuktovning kismalarida (*Tuzkoy, Jamanyarsay, Shuruk* va boshqalar), *uzunquduq (K_1al_3 uz)* (Uzunquduk qudug‘i bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum, I.M. Abduazimova, E.M. Shvetsova, 1987) va *shuruk (K_1al_3 šr)* svitalari

ajralib turadi. (Shuruk qudug‘i bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum, I.M. Abduazimova, E.M. Shvetsova, 1987).

Uzunquduq svitasi - kulrang, sarg‘ish-kulrang, rang-barang alevrolitli gillar, kulrang alevrolitlardan iborat bo‘lib, ular temirlashgan qumtoshlar, shag‘al va konglomeratlar konkretsiyalari bilan birikib turadi. Svita qalinligi 4-50 m. Svita yotqiziqlari jamanyar svitasi yotqiziqlariga muvofiq yotadi. Gillarda yuqori alb yotqiziqlariga xos bo‘lgan foraminiferaning ko‘plab kvarslashgan va temirlashgan chig‘anoqlari mavjud.

Shuruk svitasi - kulrang yashilsimon-kulrang, alevrolitlar, gillar, to‘k jigarrang va temirlashgan (Fe_2O_3-32-58% tarkibiga ega) kumtoshlar, gravelitlardan tashkil topgan. Svita qalinligi 5-35 m. Svita yotqiziqlari uzunquduq svitasi yotqiziqlariga muvofiq yotadi.

Yuqori bo‘r - K_2, senoman yarusi - K_2s

Donguztau svitasi yotqiziqlari (K_2s_{1-2} dn) (Donguztau qiri bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum I.M.Abduazimova, 1988) g‘isht rangli-qizil, kulrang mayda donali qumtoshlar, alevrolitli gillar, kulrang, yashilsimon-kulrang, ko‘kimtir va och kulrang gilli alevrolitlardan tashkil topgan, pastki qismida qumtoshlar, gravelitlar, kulrang konglomeratlar joylashgan. Svita qalinligi 40-144 m. Svita yotqiziqlari shuruk svitasi yotqiziqlari ustki qismida nomuvofiq yotadi.

Uchquduq svitasi (K_2s_3 uč) (Uchquduq, Markaziy Qizilqum I. M. Abduazimova, 1988), Donguztau svitasi yotqiziqlariga muvofiq yotuvchi, ostki qismida mayda donali, yashilsimon-kulrang, jigarrang qumtoshlar, xar xil donali, kulrang, gravelitlar, yuqori qismida yashilsimon-kulrang, alevrolitli gillar va mayda donali, kulrang, yashilsimon-kulrang qumtoshlar bilan gravelit qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 5-35 m.

Turon yarusi - K_2t, Quyi-O‘rta podyaruslar K_2t_{1-2}

Ushbu sathda Jeyrantuy va Kendiktubin svitalari ajratilgan. *Jeyrantuy svitasi (K_2t_1 džr)* (Jeyrantuy, Markaziy Qizilqum. I.M.Abduazimova, 1988) burg‘u qudug‘i kismalarida va yer yuzasidagi ochilmalarda alevrolitli, yashilsimon-kulrang gillar

bilan sariq, yashilsimon-kulrang, alevrolit va pushti, kulrang qumtosh qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 40-110 m. Svita uchquduq svitasi yotqiziqlariga nomuvofiq joylashgan.

Kendiktubin svitasi (K_2t_2 knd) (Kendiktubin qudug‘i bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum. I.M. Abduazimova, 1988) kvars-slyudali, mayda donali, sarg‘ish-yashil, yashilsimon-sariq qumlar, och kulrang, rang-barang, g‘ishtsimon-qizg‘ish, mayda donador qumtoshlar, uglerodli o‘simlik detritlari bilan rang-barang, yashilsimon-kulrang, alevrolitli gillar va sarg‘ish, gilli alevrolit qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 14-45 m. Jeyrantuy svitasi yotqiziqlariga muvofiq yotadi.

Turon yarusi, yuqori turon podyarusi - Santon yarusi - K_2t_3-st

Ushbu bo‘linma *Laulau svitasi* bilan ikkita podsvitani o‘z ichiga oladi, *laulau svitasi quyi podsvitasining (K_2t_3-k ll_1)* (laulau qudug‘i bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum. I. M. Abduazimova, 1988), pastki qismida qumlar, kumtoshlar, sarg‘ish-yashil, pushti-siren rangli, yashilsimon-kulrang, kulrang gillar; yuqori qismida - temirlashgan, jigarrang kumtoshlar; kumlar sarg‘ish-yashil, yashilsimon-kulrang gillar hosil bo‘gan. Svita qalinligi 68-87 m. Kendiktubin svitasi yotqiziqlariga muvofiq joylashgan.

Kampan-maastrixt yaruslari - K_2km-m

Kuljuktov maydonida ushbu cho‘kindi qatlamlar Karakata svitasining tarkibiy qismi bo‘lib *(K_2k kr_1)* ikkta podsvita bilan ajratiladi. (Korakata havzasi bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum. I. M. Abduazimova, 1988 y.). Quyi qismi mayda donali, kvarsli, yashilsimon-sarik, yashil ranglar bilan ifodalangan qumlar, qumtoshlar, kulrang, alevritli gillardan tashkil topgan. Svita qalinligi 4-65 m.

Yuqori podsvita turli donali, yashilsimon-sariq, qumtoshlardan va temirli konkretsiyalar bilan gil qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 4-27

m.Oxaktoshlarda ikki tabaqali mollyuskalar aniqlan. O‘rta Osiyo paleobiogeografik mintakasidagi bir xil yoshli maastrixt yotqiziqlariga xosdir. [1,2,3,4,6,9,11]

Paleogen sistemasi - P

Quyi paleogen - P_1, Paleotsen - P_1^1

Dat-Tanet (yuqori) yaruslari - P_1^1d-$P_1^2t^2$

Oqjar svitasi (P_1^1d-z ak) (Oqjar soyiga ko‘ra nomlangan, Tojik depressiyasi. K.V. Bobkov, G.P. Kreidenkov, 1961) oq, sarg‘ish, brekchiya ko‘rinishidagi, chaqiqtosh, och va to‘k kulrang ohaktoshlar va qumtoshlardan tashkil topgan. Svita qalinligi 12 m gacha.

Buxoro svitasi (P_1^2t1 bh) (Buxoro shaxriga ko‘ra nomlangan. O.S. Vyalov, 1934 y.) asosan oq, qumtoshli ohaktoshlardan tashkil topgan. Svita qalinligi 5 m gacha.

Qozoq tog‘ svitasi ($P_1^2t^2$ kz) (Qozoq tog‘lari bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum. R.K. Makarova, A.A. Abdusamatov, Stratigrafik lug‘at, 2001 y) sariq, kulrang qumlar, gillardan tashkil topgan. Svita qalinligi 8 m gacha.

Quyi - o‘rta eotsen ($P_2^1 – P_2^2$), ipr yarusi (quyi qismi) - P_2^1i

Nuri svitasi (P_2^1i nr) (Nure shaxri bo‘yicha nomlangan, Markaziy Qizilqum. A.V. Begishev, A. Kutepov. O‘zbekiston stratigrafik lug‘ati, 2001 y) g‘arbiy, markaziy, sharqiy Qizilqum, Zirabuloq-Ziayetdin va Nurota ko‘tarilmalari atrofila tarqalgan. Stratotip Sangruntog‘ tog‘larida joylashgan. Svita yotqiziqlari eng to‘liq kuzatilgan kismalar Nuri tog‘idan 0,5 km masofada joylashgan burg‘u quduqlarining kismalaridir. Nuri svitasi kulrang, yashil gillar va limonitlashgan jinslardan tashkir topgan. Svita qalinligi 20 m gacha.

Ipr (yuqori)-Barton (quyi) yaruslari P_2^1i- P_2^2b

Sugrali svitasi (P_2^2i-P_2^2b sg) (Sugrali qudug‘iga ko‘ra nomlangan, markaziy Qizilqum.

R.K. Makarova, E.F. Sasir, Stratigrafik lug‘at, 2001 y) g‘arbiy, markaziy, sharqiy Qizilqum, Buxoro depressiyasi, Zirabuloq-Ziayetdin va Nurota ko‘tarilmalari atrofini qamrab olgan. Stratotip Sugrali qishlog‘idan 8 km janubda joylashgan

(Tamditog‘ tog‘lari). Svita yotqiziqlari kulrang, jigarrang mergellar va kulrang oxaktosh qatlamlaridan tashkil topgan. Svita qalinligi 40 m gacha.

O‘rta - yuqori Eotsen - (P_2^2 - P_2^3), Barton yarusi (yuqori) - P_2^2 b^2

Ushbu bo‘limga kultaban va maral svitalari kiradi.

Kultaban svitasi (P_2^2 b^2 kl (t)) (Qizilqum. R.K. Makarova, E.F. Sasir. O‘zbekistonning stratigrafik lug‘ati, 2001 y) g‘arbiy, markaziy va sharqiy Qizilqum, Orol dengizining sharqiy mintaqasi, Sultonuvays Buxoroning shimoli-g‘arbiy pasttekisligi, Zirabuloq-Ziayetdin va Nurota ko‘tarilmalari atrofida tarqalgan. Stratotip Tamduquduq qudug‘idan sharqda 7 km. masofada joylashgan. Svita yotqiziqlari yupqa qatlamli, yashil, yashil-kulrang, kuchsiz temirlashgan gillardan iborat bo‘lib qalinligi 180 m gacha yetadi.

Priabon yarusi - P_2^3-p

Maral svitasi (P_2^3p mr (mrl)) (Maral qudug‘i nomidan olingan, Markaziy Qizilqum. R.K. Makarova, E.F. Sasir, O‘zbekistonning stratigrafik lug‘ati, 2001 y) markaziy, g‘arbiy, sharqiy Qizilqum, sharqiy Orol dEngizi mintakasi, Buxoro pasttekisliklarining shimoli-g‘arbiy qismida tarqalgan. Stratotip Mingbuloq havzasida joylashgan. Svita yotqiziqlari oq, kulrang gillardan tashkil topgan va qalinligi 52 m gacha yetadi.

Paleogen va neogen sistemalari

Oligotsen - Quyi Miotsen - P_3 - N_1, Sarbotir svitasi P_3 - N_1^1sr

Sarbotir svitasi (Sarbotir qudug‘iga ko‘ra nomlangan, Markaziy Qizilqum, M.N. Gramm, 1959) qizil rangdagi oligotsen-erta miotsen yotqiziqlaridan tashkil topgan. Litologik hususiyatlarga ko‘ra u ikki qismga bo‘linadi: quyi qismi – gillar bilan kamdan kam uchraydigan qumtosh qatlamlaridan tashkil topgan, yuqori qismi – qumtoshlardan tashkil topgan. Svita yotqiziqlarining qalinligi 19-45 m.

Sarbotir svitasiga erta-o‘rta miotsen agitman svitasi, kamdan kam eopleystotsenning tashakir svitasi yotqiziqlari nomuvofiq joylashadi (Kuljuktovning janubiy etaklarida va Ayakagitma havzasi hududida), ba’zi hollarda esa qoplamaga ega bo‘lmasdan yer yuzasiga ochilib yotgan joylarini ko‘ramiz. Svita qatlamlari

tarkibida bir nechta kimyoviy elementlarning yuqori qiymati aniqlangan. [5,7,8,10,11]

Neogen sistemasi

Quyi - o‘rta miotsen $N_1^1 – N_1^2$

Agitman svitasi $N_1^1 – N_1^2 ag$. Kuljuktov va uning atrofidagi hududlarda, ayniqsa shimoliy yon bag‘rida, Kuljuktov va Auminzatau o‘rtasidagi sinklinal muldasmida rivojlangan. Svita yotqiziqlari deyarli xamma joyda kam tarqalgan, bu esa uni aniqlab olishni osonlashtiradi. Tarkibi g‘ishtsimon-qizil, jigarrang, och jigarrang alevrolit va gillardan tashkil topgan. Svita qalinligi 50-115 m.

Agitma svitasida oltin, kumush, selen va tantal elementlarining yuqori qiymati, seriyeviy guruxining (La-Se-Ib) kamyob yer elementlari yuqori qiymati kayd etilgan.

To‘rtlamchi sistemasi - Q

Yuqori eopleystotsen

Tashaqir svitasi - $QE_{II}tš$. Svita Kuljuktovningning janubiy etaklarida va Agitman havzasining sharqiy chekkasida aniqlangan. Litologik tarkib qumlar va shag‘allardan iborat. Vaqtinchalik oqar suvlarning cho‘kindi qatlamlari: bo‘shoq shag‘al, mayda tuprok aralashmasidan iborat. Svita qalinligi 6 m gacha [5,7,8,10,11].

Kuljuktov tog‘larining stratigrafik tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Stratigrafik to‘liqlik: Hududda paleozoydan kaynozoygacha bo‘lgan cho‘kindi, vulkanogen va terrigen jinslar majmuasi mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos qalinlikka (masalan, Jangeldi svitasi 800-900 m) ega.

Paleontologik asos: Har bir stratigrafik birlik braxiopodalar, trilobitlar, ammonitlar va foraminiferlar kabi organik qoldiqlar yordamida ilmiy asoslangan va xalqaro miqyos bilan bog‘langan.

Iqtisodiy ahamiyat: Ayrim svitalarda, xususan, Neogen davriga tegishli Agitman svitasida oltin, kumush, selen, tantal va kamyob yer elementlarining yuqori qiymatlari qayd etilgan bo‘lib, bu hududning sanoat salohiyatini ko‘rsatadi.

Geologik jarayonlar: Yotqiziqlar orasidagi burchakli nomuvofiqliklar va transgressiv yotish holatlari (masalan, Tuzkoy va Donguztau svitalarida) hududning murakkab tektonik rivojlanish tarixidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айсанов Я.Б. Геологическое строение и основные черты минерагении палеозойских образований гор Кульджуктау. «Фан», Т., 1978 г.

2. Колдаев А.А. Цеолитосодержащие породы Западного Узбекистана и проблема их использования. «Фан», т., 1989 г.

3. Metodik qo‘llanma Maxsus kurslar uchun labaratoriya mashg‘uloti. “Geokimyoviy tadqiqot ma’lumaotlarini qayta ishlash va talqin qilish” Toshkent 1994y.

4. Голованов И.М., Диваев Ф.К. Геолого-промышленные типы месторождений чёрных, цветных и редких металлов Узбекистана и их связь с магматизмом. Магматические, метасоматичесие формации и связанное с ними оруденение. Матер. научн. конференции (3-5 мая 2005 г.). Ташкент, АН РУз, Ташкент, 2005.

5. Скрябин В.Ф., Диваев Ф.К., Пирназаров М.М. Геохимические поиски рудных месторождений в Узбекистане: общие сведения, опыт применения, задачи и пути их решения, рекомендации Методическое пособие ташкент – 2016

6. Стратиграфический словарь Узбекистана. /Под ред. З.М Абдуазимовой. Ташкент, ГИДРОИНГЕО. Тр. ИМРа. 2001

7. Миркамалов Р.Х., Диваев Ф.К., Темуров Б.З., Узоков Р.Т О тектонической структуре гор Кульджуктау, “Актуальные проблемы

геологического образования в Республике и перспективы развития наук о Земле”, Тошкент, 2020 г., с. 241-245;

8. Давлатов Н.Х., Ким И.А., Биостратиграфическое расчленение и корреляция девонских отложений гор Кульджуктау (Центральные Кызылкумы). Геология и Минеральные ресурсы 2020 № 6.,с.5

9. Дынкин М.А. и др. – Отчет о результатах поисковых и поисково-оценочных работ Восточо-Кульджуктаусской ГГП за 1973-1975 гг. Фонды Госкомгеологии РУз, Т., 1975 г.

10. Дюков Ю.Ф. и др. – Отчет о результатах детальных поисковых работ на золото комплексом геолого-геофизических методов в восточной части гор Кульджуктау (Отчет Гужумдинской ПРП за 1975-1978 гг.). Фонды Госкомгеологии РУз, Т,1978 г.

11. Журавлев Г.И. и др. – Отчет о результатах работ Таушанской ГГП за 1986-1971 гг. Фонды Госкомгеологии РУз, Т., 1972 г.

12. Крикунова Л.М. и др. – Выявление новых объектов железорудного сырья в меловых отложениях южного и северного обрамления хр.Кульджуктау для расширения минерально-сырьевой базы Республики Узбекистан. Отчет о результатах тематических работ за 2007-2009 гг. Фонды Госкомгеологии РУз, Т., 2009 г.

NAMANGAN IQLIM SHAROITIDA MANZARALI O‘SIMLIK PLUMERIANI KO‘PAYTIRISH

Karimova Gulsevar Erkinjon qizi
Namangan davlat texnika universiteti
E-mail:karimgulsevar01.@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada manzarali o‘simlik hisoblangan Plumeria rubrani ko‘paytirish usullari, ayniqsa vegetativ usullar orqali ko‘paytirishning samaradorligi yoritilgan. Qalamcha orqali ko‘paytirish texnologiyasi, ildiz hosil bo‘lish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, jumladan harorat, namlik va substratning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida optimal agrotexnik sharoitda o‘simliklarning tez va sifatli ko‘payishi aniqlangan. Olingan natijalar manzarali bog‘dorchilik va issiqxona sharoitida o‘simlik yetishtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Plumeria rubra, manzarali o‘simlik, vegetativ ko‘paytirish, qalamcha, ildizlanish, substrat, harorat, namlik, stimulyator, ko‘chat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы размножения декоративного растения Plumeria rubra, в частности, эффективность вегетативного размножения. Анализируется технология размножения черенками, важность факторов, влияющих на процесс формирования корней, включая температуру, влажность и субстрат. Результаты исследования показали быстрое и качественное размножение растений в оптимальных агротехнических условиях. Полученные результаты имеют важное практическое значение в декоративном садоводстве и тепличном выращивании.*

Ключевые слова: *Plumeria rubra, декоративное растение, вегетативное размножение, черенкование, укоренение, субстрат, температура, влажность, стимулятор, рассада.*

Annotation: *This article examines propagation methods for the ornamental plant Plumeria rubra, specifically the effectiveness of vegetative propagation. It analyzes the technology of propagation by cuttings and the importance of factors influencing root formation, including temperature, humidity, and substrate. The study's results demonstrate rapid and high-quality plant propagation under optimal growing conditions. These findings have important practical implications for ornamental horticulture and greenhouse cultivation.*

Key words: *Plumeria rubra, ornamental plant, vegetative propagation, cuttings, rooting, substrate, temperature, humidity, stimulant, seedling.*

Asosiy qism. Plumeria rubra o’simligi tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan, manzarali o‘simlik bo‘lib, u aholi yashash joylarini ko’kalamzorlashtirish ishlarida qimmatli ahamiyat kasb etadigan o’simlik hisoblanadi. Uning rang-barang gullari, yoqimli xushbo‘y hidi, yog‘ochlashgan shoxlari va yaltiroq barglari uni nafaqat estetik jihatdan jozibali, balki ekologik va madaniy jihatdan ham qimmatbaho qiladi.

Plumeria rubraning shoxlari keng va yog‘ochlashgan o’simlik hisoblanadi. Barglari yirik, yaltiroq va yashil, suvni yaxshi saqlaydi. Gullari oq, sariq, pushti yoki qizil ranglarda bo‘ladi, markazi odatda sariq rangda bo’ladi. Gullari juda xushbo‘y, ayniqsa kechqurun hidi kuchayadi. Bu hasharotlarni jalb qilishga moslashgan tabiiy xususiyati hisoblanadi. Barglari yilning salqin oylarida to‘kiladi. Gullari yozda shoxlarning uchida paydo bo‘ladi. Ko‘pincha ko‘p va ko‘zga tashlanuvchan, ular kuchli xushbo‘y va beshta barglari bor. Gullar ertalab va kechqurun o‘zlarining xushbo‘y hidlarini chiqaradilar. Bu xushbo‘y atirgul va sitrus o’simliklarini hidlariga o‘xshaydi.Barg chiqarmasdan ham gullashi mumkin, bu hususiyat tropik o‘simliklarda kam uchraydi. Plumeria rubra daraxti nafaqat manzarali, balki

ekologik foydali o‘simlik hisoblanadi: u changlatuvchi hasharotlarni jalb qiladi, shahar havosini tozalashga yordam beradi va tropik landshaft dizaynining ajralmas qismidir.

Plumeria rubraning madaniy va estetik ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Aholi yashash joylariga va yo’l yoqalariga, bog‘ va hovlilarga manzarali daraxt sifatida ekish mumkin. Gullari va shoxlari gulchambar yashashda, parfumeriyada va manzarali bezaklarda ishlatish mumkin. Landshaft dizaynda estetik go‘zallikni oshiradi. Shahar va qishloq hududlarida yashil muhitni yaratishda ahamiyati katta. Quyidagi rasmda Plumeria rubraning ko’rinishi tasvirlangan.

Plumeria rubradan xalq tabobatida qadim qadimdan foydalanib kelingan. Gullari bosh og‘rig‘i, stress, tinchlantiruvchi va terini yumshatishda ishlatiladi. Barglari shish, yallig‘lanish va mayda jarohatlarda foydalaniladi. Po‘stlog‘i va shoxlari esa isitma tushirish, ich ketish kabi holatlarda damlama ko‘rinishida ishlatilib kelinadi. Ammo noto‘g‘ri ishlatilsa terini kuydirishi yoki allergiya keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun xalq tabobatida ehtiyotkorlik talab qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bu o‘simlikda flavonoidlar, glikozidlar va antioksidant moddalar mavjudligi aniqlangan.

Plumeria rubra o‘simligi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu o‘simlikning biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, dorivorlik ahamiyati hamda ko‘paytirish texnologiyalari bo‘yicha turli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

2016 yilda Patel tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda *Plumeria rubra* o‘simligining ekstraktlari kosmetologiya va farmatsevtika sohalarida qo‘llanilishi mumkinligi aniqlangan. U o‘simlik tarkibidagi bioaktiv moddalar teri kasalliklarini davolashda samarali ekanligini qayd etadi.

O‘zbekistonlik olimlardan A.Karimov 2020 yilda “Botanika asoslari” asarida tropik o‘simliklarning biologik xususiyatlari, jumladan *Plumeria* turkumining ekologik talablarini yoritib bergan. U o‘simlikning issiqsevarligi, yorug‘likka talabchanligi va yaxshi drenajlangan tuproqlarda yaxshi rivojlanishini ta’kidlaydi.

Yana bir tadqiqotchi M.Abdullayev tomonidan manzarali o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda *Plumeria rubra*ni issiqxona sharoitida yetishtirish va ko‘paytirish usullari o‘rganilgan. Uning fikricha, sun’iy iqlim sharoitida qalamcha usuli orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Plumeria rubrani ko‘paytirishning bir necha samarali usullari mavjud. Ular quyidagilar hisoblanadi:

a) qalamchalari orqali ko‘paytirish

Bu usul eng ommaviy va natijali usul hisoblanadi. Yosh shoxchalardan 10–15 smli qalamcha tayyorlanadi. Qalamchalar nam va unumdor tuproqqa ekiladi. Ildiz otishi uchun turlicha fitogormonlar ishlatish mumkin bo’ladi.

b) urug‘lari orqali ko‘paytirish

Gulchilik soxasida bu usul kam ishlatiladi. Faqat tabiiy holatda yoki seleksionerlar tomonidan qo‘llaniladi.

Plumeria rubra qalamchalarini ildiz oldirish 4 xil substratlarda: oddiy tuproq, unumdor tuproqli substrat, qumli substrat (parnikda) va tumanlatib sug‘oruvchi issiqxonada qumli substratda o‘tkazildi. Ushbu substratlarni novda qalamchalarini ildiz olishiga va ildiz olgan ko‘chatlarini vegetatsiya davomida o‘sishiga ta’siri o‘rganildi. Novda qalamchalarini tayyorlash butalar kuzgi tinim davriga kirgandan so‘ng, noyabr oxirida va erta bahorda, ularda shira xarakati boshlanmasdan turib amalga oshirildi.

Tajribalar quyidagicha o‘tkazildi: Plumeria rubrani bahor faslini oxiri va yoz faslini boshida ko‘paytirish eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Qalamchani kesilgan joyiga ko‘mir surtish samarali hisoblanadi, sababi shoxni chirishini kamaytiradi. Qalamchani tayyorlab transheyalarda vertikal holda tuproqqa ko‘mib qo‘yildi va kesilgan shoxni tuproqqa 7–10 sm chuqurlikda ekildi;

Qalamchalar uzunligi ularni ildiz olishiga va ko‘chatlarni o‘sishiga ta’sirini o‘rganish uchun 10 sm, 15 sm va 20 sm li novda qalamchalaridan foydalanildi. Geteroauksinning 0,01% eritmasidan foydalanildi. Geteroauksinning novda qalamchalarini ildiz olishiga 14, 18 va 22 soatlik ta’siri o‘rganildi. Nazoratda

qalamchalar 14 soat oddiy suvda ushlab turildi. Sug‘orish dastlab juda kam, keyinchalik ildiz chiqguncha asta-sekin oshirib boriladi.

Plumeria rubraning urug‘lari orqali ko‘paytirish usulida urug‘lar nam tuproqqa sepildi, muhit 25–30°C ushlab turildi. Nihollar 7–14 kunda unib chiqdi.

Ko‘chatlarni vegetatsiya davrida o‘sish dinamikasini o‘rganish uchun har oyda ko‘chatlarning balandligi, vegetatsiya yakunida balandligi, diametri va saqlanish darajasi o‘rganildi.

Quyidagi 1-jadvallarda Plumeria rubraning qalamchasi va urug’i orqali ko’paytirishni agrobiologic tahlili keltirilgan.

1-jadval:

Qalamcha va urug‘ orqali ko‘paytirishning agrobiologik tahlili

Ko‘rsatkichlar	Qalamcha orqali ko‘paytirish	Urug‘ orqali ko‘paytirish
Genetik xususiyat	Ona o‘simlikka to‘liq o‘xshash	Nav xususiyatlari o‘zgarishi mumkin
Ildiz hosil bo‘lish muddati	3–6 hafta	2–4 hafta (unib chiqish)
Gullashga kirish vaqti	1–2 yil	2–3 yil

Plumeria rubra o‘simligini ko‘paytirish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qalamcha orqali ko‘paytirish nav xususiyatlarini to‘liq saqlab qolish, tezroq gullash va barqaror natija olish imkonini berdi. Urug‘ orqali ko‘paytirish esa ko‘proq ko‘chat yetishtirish va seleksiya ishlari uchun qulay, biroq gullash muddati nisbatan kechroq va genetik o‘zgaruvchanlik kuzatildi. Tadqiqot natijalariga muvofiq amaliy ko‘kalamzorlashtirishda qalamcha usuli samaraliroq hisoblanadi.

Urug’ orqali ko’paytirishda esa ilmiy tadqiqotlarda va seleksiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Plumeria rubra biologik, ekologik va manzaraviyligi jihatdan foydali o‘simlik hisoblanadi. Plumeria rubra nafaqat landshaft dizaynda, balki ilmiy tadqiqot, ekologiya va madaniy-estetik maqsadlarda ham katta ahamiyatga ega. Bu o‘simlik inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalovchi tirik timsoldir va uni o‘rganish, ko’paytirish hamda oqilona foydalanish manzarali bog‘dorchilik va ko’kalamzorlashtirish sohasida muhim o’simlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Misirova S., Ilxomiddinova Z., Karimova G. Technology of Cultivating Plumeria Rubra Ornamental Tree under the Climatic Conditions of Uzbekistan. American Journal of Botany and Bioengineering Volume: 2 | Number: 12 (2025) Dec.

2. Karimova G. Plumeria plant biology, cultivation techniques and pest control measures. formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: a collection scientific works of the International scientific conference (13 December 2025).

MARHAMAT TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI, RESURS SALOHIYATI VA MA’MURIY-HUDUDIY TARKIBI

Muqumjonova Iroda

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Andijon viloyatining janubiy qismida joylashgan Marhamat tumanining tabiiy geografic va resurs salohiyati, ma’muriy-hududiy tuzilishi iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tumanning geografik o‘rni, maydoni, chegaralari, relyefi, iqlimi, suv va tuproq resurslari, ularning xo‘jalikdagi ahamiyati, shuningdek, tarixiy shakllanishi va hozirgi ma’muriy tuzilishi ko‘rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Marhamat tumani Farg‘ona vodiysining janubidagi agrar hududlardan biri bo‘lib, uning tabiiy sharoiti intensiv sug‘orma dehqonchilik, ayniqsa sabzavotchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Maqola hududiy geografiya, iqtisodiy-geografik tahlil va ma’muriy geografiya nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.*

Kalit so‘zlar: *Marhamat tumani, Andijon viloyati, tabiiy sharoit, tabiiy resurs, ma’muriy-hududiy bo‘linish, geografik o‘rin, sug‘orma dehqonchilik, sabzavotchilik, Farg‘ona vodiysi.*

Аннотация. *В данной статье с экономико-географической точки зрения анализируются природно-географические особенности, ресурсный потенциал, а также административно-территориальная структура Мархаматского района, расположенного в южной части Андижанской области. В ходе исследования рассматриваются географическое положение района, его площадь, границы, рельеф, климат, водные и почвенные ресурсы, их хозяйственное значение, а также историческое формирование и современное административное устройство. Проведённый анализ*

показывает, что Мархаматский район является одним из аграрных районов юга Ферганской долины, а его природные условия создают благоприятные предпосылки для развития интенсивного орошаемого земледелия, в особенности овощеводства, садоводства и животноводства. Статья имеет важное значение с точки зрения региональной географии, экономико-географического анализа и административной географии.

Ключевые слова: *Мархаматский район, Андижанская область, природные условия, природные ресурсы, административно-территориальное деление, географическое положение, орошаемое земледелие, овощеводство, Ферганская долина.*

Abstract. *This article analyzes the natural-geographical characteristics, resource potential, and administrative-territorial structure of Marhamat District, located in the southern part of Andijan Region, from an economic-geographical perspective. The study examines the district’s geographical location, area, boundaries, relief, climate, water and soil resources, their economic significance, as well as its historical formation and current administrative structure. The analysis shows that Marhamat District is one of the agrarian areas in the southern part of the Fergana Valley, and that its natural conditions provide favorable opportunities for the development of intensive irrigated agriculture, particularly vegetable growing, horticulture, and livestock breeding. The article is significant from the perspectives of regional geography, economic-geographical analysis, and administrative geography.*

Keywords: *Marhamat District, Andijan Region, natural conditions, natural resources, administrative-territorial division, geographical location, irrigated agriculture, vegetable growing, Fergana Valley.*

Marhamat tumani Andijon viloyatining hududiy tizimida tabiiy geografik va xo‘jalik ahamiyati yuqori bo‘lgan tumanlaridan biridir. Uning hududi kichik maydonga ega bo‘lishiga qaramay, aholi zichligi, sug‘orma dehqonchilikning

rivojlanganligi, tog‘oldi va tekislik landshaftlarining uyg‘unligi, shuningdek, transchegaraviy joylashuv xususiyati bilan ajralib turadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra tuman aholisi 193,3 ming kishini tashkil etgan; bu ko‘rsatkich uning Andijon viloyatidagi demografik salohiyati yuqori hududlardan biri ekanini ko‘rsatadi[25].

Marhamat tumani dastlab 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Keyinchalik ma’muriy-hududiy islohotlar ta’sirida 1963-yilda yondosh tuman bilan birlashtirilgan, 1965-yil 15-fevralda esa tuman nomi o‘zgartirilib, markazi hozirgi Asaka shahriga ko‘chirilgan. So‘ngra 1970-yil 7-dekabrda Marhamat tumani yana alohida tuman sifatida qayta tashkil etilgan. Demak, tumanning hozirgi ma’muriy qiyofasi bir necha bosqichli hududiy qayta tuzishlar natijasida shakllangan[26].

Geografik o‘rni nuqtai nazaridan Marhamat tumani Andijon viloyatining janubiy qismida joylashgan. U shimolda Asaka va Buloqboshi tumanlari, sharq va janubda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati Aravon tumani, g‘arbda esa Farg‘ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh. Tumanning maydoni 0,32 ming km² (321 km²) ga teng. Aholi soni zichligi har bir km.kv ga 601 kishi to‘g‘ri keladi. Aholi zichligining yuqoriligi yerdan oqilona foydalanish, yer va suv resurslarini samarali boshqarish zaruratini kuchaytiradi[27].

Marhamat tumanining tabiiy sharoiti, avvalo, relyef tuzilishida ko’zga tashlanadi. Tumanning shimoliy hamda shimoli-sharqiy qismi asosan tekisliklardan, qolgan qismi esa tog‘ etaklari va yonbag‘irlaridan iborat. Oloy tizmasi etaklaridagi landshaft elementlari, xususan Ulug‘tog‘ va Tuyamo‘yin adirlari, hududning geomorfologik qiyofasini belgilaydi. Shu bois Marhamat tumani sof tekislik hududi emas, balki tekislik va tog‘oldi o‘tish zonasi xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab tabiiy geografik hususiyatga ega. Aynan ana shu morfostruktura qishloq xo‘jaligi

[25] **Marhamat tumani hokimligi.** Marhamat tumani haqida [Elektron resurs]. – URL: https://gov.uz/oz/marhamat/pages/about

[26] **Marhamat tumani** [Elektron resurs] // Qomus.info – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – URL: https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/marhamat-tumani/

[27] **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Andijon viloyatida demografik holat (2025-yil yanvar–dekabr) [Elektron resurs]. – 2026. – URL: https://andstat.uz/uploads/docs/1703Demo2025dekabr.pdf

yerlarining joylashuvi, sug‘orish tizimlari yo‘nalishi va aholi punktlarining hududiy tarqalishiga ta’sir ko‘rsatadi[28].

Tuman iqlimi keskin kontinental xususiyatga ega. Iyul oyining o‘rtacha harorati 26,1°C, yanvar oyiniki esa 2,9 °C atrofida, yillik yog‘in miqdori 218–320 mm ni tashkil etadi. Vegetatsiya davrining 220 kun davom etishi esa issiqsevar ekinlar, ayniqsa sabzavot, poliz, yem-xashak va bog‘dorchilik ekinlari uchun qulay agroiqlimiy sharoit yaratadi. Biroq yog‘inning nisbatan kamligi tuman xo‘jaligida tabiiy namlikka tayanuvchi dehqonchilikdan ko‘ra sug‘orma dehqonchilikning ustuvorligini belgilaydi[29].

Marhamat tumanining suv resurslari uning xo‘jalik ixtisoslashuvini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tuman hududidan Qoradaryoning quyi irmoqlari bilan bog‘liq suv tizimlari — Shahrixonsoy, Janubiy Farg‘ona va Karkidon kanallari o‘tadi, sug‘orishda esa asosan Janubiy Farg‘ona kanali va Aravonsoydan foydalaniladi. Bu esa hududda sug‘orma dehqonchilikning yahshi rivojlanishiga imkon bergan. Sug‘orish tizimining rivojlanganligi sababli tuman yerlarida dehqonchilik yuqori intensivlik bilan olib boriladi va u viloyat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida sezilarli o‘rin egallaydi[30].

Tuproq qoplami jihatidan Marhamat tumanida asosan bo‘z tuproqlar, adir etaklarida o‘tloq-bo‘z, o‘tloq va botqoq-o‘tloq tuproqlar tarqalgan. Bunday tuproq tarkibi, suv bilan ta’minlangan sharoitda, serhosil dehqonchilik uchun qulay hisoblanadi. Tabiiy o‘simlik qoplami orasida shuvoq, sho‘ra, boshoqlilar, efemer va efemeroidlar, soy bo‘ylarida tol, terak va butazorlar o’sadi. Demak, tumanning tabiiy resurs bazasi, bir tomondan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlariga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, landshaft ekologik barqarorligini ta’minlovchi komponentlar tizimini ham tashkil etadi[31].

[28] **Samiyev U.A., Eshimova F.D.** Marhamat tumanining geografik o‘rni va turistik imkoniyatlari // International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory. – 2024. – Vol. 2, Issue 1.

[29] **Marhamat tumani** [Elektron resurs] // Qomus.info – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – URL: https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/marhamat-tumani/

[30] O‘sha manba.

[31] O‘sha manba.

Tabiiy resurslarning xo‘jalik ahamiyati statistik ko‘rsatkichlarda ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda Marhamat tumani 268 706,7 tonna sabzavot yetishtirib, viloyat hududlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallagan. Bu raqam tumanning agroiqlimiy va sug‘orish sharoiti sabzavotchilik uchun ayniqsa qulay ekanini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Marhamat tumanining tabiiy resurslari nafaqat mahalliy ehtiyojni ta’minlaydi, balki Andijon viloyati agrar bozorining muhim tayanchlaridan biri sifatida xizmat qiladi[32].

Tuman markazi – Marhamat shahri. Tuman tarkibida 1 shahar, 10 shaharcha mavjud[33]. Tumanda bugungi kunda 49 ta mahalla fuqarolar yig’inlari (MFY) faoliyat ko‘rsatmoqda. 2025-yil 25-yanvarda Xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashi tumanning ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalari yuzasidan alohida qaror qabul qilgani hududiy boshqaruv masalalari amaliy darajada doimiy ravishda takomillashtirib borilayotganini ko‘rsatadi[34].

Demografik salohiyatiga ko‘ra ham mazkur tuman viloyatda alohida o‘rin tutadi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, Marhamat tumanining doimiy aholisi 191268 nafar bo‘lib, shundan 149784 nafari shahar, 41484 nafari qishloq aholisi hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich tumanda urbanizatsiya kuchli ekanini, lekin qishloq xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq qishloq aholi qatlamining ham muhim o‘rin tutishini anglatadi. Shuning uchun Marhamat tumanining ma’muriy tuzilishi shaharlashuv va agrar hududiy tashkil etilish o‘rtasidagi o‘ziga xos muvozanatni ifodalaydi[35].

Xulosa qilib aytganda, Marhamat tumani Andijon viloyatining janubidagi muhim tabiiy-geografik va ma’muriy hududlardan biridir. Uning 1926-yilda tashkil

[32] **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Andijon viloyatida 2025-yilda qancha sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan [Elektron resurs]. – 17.02.2026. – URL: https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13593-andijon-viloyatida-2025-yilda-qancha-sabzavot-mahsulotlari-yetishtirilgan

[33] **Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M.** Shaharlar geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 184 b.

[34] **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.** (hujjat nomi) [Elektron resurs]. – URL: https://www.lex.uz/docs/-7339939

[35] **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Marhamat tumanida doimiy aholi soni qanchaga yetdi? [Elektron resurs]. – 22.08.2025. – URL: https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13333-marhamat-tumanida-doimiy-aholi-soni-qanchaga-yetdi

topishi, 1960-yillardagi ma’muriy o‘zgarishlar va 1970-yildagi qayta tiklanishi tuman tarixining asosiy bosqichlarini tashkil etadi. Transchegaraviy geografik o‘rni, kichik maydoniga nisbatan katta demografik sig‘imi, tekislik va tog‘oldi landshaftlarining uyg‘unligi, sug‘oriladigan yerlar, qulay iqlim va unumdor yer resurslari tuman xo‘jaligining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Ayniqsa, sabzavotchilik bo‘yicha yetakchi ko‘rsatkichlar Marhamat tumanining agrar ixtisoslashuvini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur tumanni rivojlantirishning kelajak istiqbollaridagi ustuvor yo‘nalishlar sifatida uning mavjud yer-suv hamda katta mehnat resurslari salohiyatidan unumli foydalanishni kuchaytirish, innovatsiyalarni joriy qilish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Marhamat tumani hokimligi.** Marhamat tumani haqida [Elektron resurs]. – URL: https://gov.uz/oz/marhamat/pages/about (murojat sanasi: 2026-03-09)

2. **Marhamat tumani** [Elektron resurs] // Qomus.info – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – URL: https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/marhamat-tumani/ (murojat sanasi: 2026-04-11)

3. **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Andijon viloyatida demografik holat (2025-yil yanvar–dekabr) [Elektron resurs]. – 2026. – URL: https://andstat.uz/uploads/docs/1703Demo2025dekabr.pdf

4. **Samiyev U.A., Eshimova F.D.** Marhamat tumanining geografik o‘rni va turistik imkoniyatlari // International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory. – 2024. – Vol. 2, Issue 1.

5. **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Andijon viloyatida 2025-yilda qancha sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan [Elektron resurs]. – 17.02.2026. – URL: https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13593-andijon-viloyatida-2025-yilda-qancha-sabzavot-mahsulotlari-yetishtirilgan

6. **Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M.** Shaharlar geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 184 b.

7. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.** (hujjat nomi) [Elektron resurs]. – URL: https://www.lex.uz/docs/-7339939 (murojat sanasi: 2026-04-11)

8. **Andijon viloyati statistika boshqarmasi.** Marhamat tumanida doimiy aholi soni qanchaga yetdi? [Elektron resurs]. – 22.08.2025. – URL: https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13333-marhamat-tumanida-doimiy-aholi-soni-qanchaga-yetdi

CHUST TUMANINING IJTIMOIY-GEOGRAFIK IMKONIYATLARI

Yusupova Muattar

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan viloyatining qadimiy va iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lgan Chust tumanining ijtimoiy-geografik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tumanning geografik o‘rni, demografik salohiyati, aholi joylashuvi, mehnat resurslari, hunarmandchilik an’analari, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Chust tumani Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgani, Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegaradoshligi, qadimiy hunarmandchilik markazi sifatidagi mavqei va aholi sonining barqaror o‘sib borayotgani uning hududiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Maqolada tumanning mavjud imkoniyatlari bilan bir qatorda, bandlik, ijtimoiy himoya, infratuzilma va hududiy rejalashtirish bilan bog‘liq ayrim muammolar ham ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Chust tumani, ijtimoiy geografiya, aholi joylashuvi, mehnat resurslari, hunarmandchilik, xizmatlar sohasi, ijtimoiy infratuzilma, hududiy rivojlanish.*

Abstract*. This article analyzes the socio-geographical opportunities of Chust district, one of the historically and socio-economically important territories of Namangan region. The study examines the district’s geographical location, demographic potential, population distribution, labor resources, traditional handicrafts, transport and communication advantages, education, healthcare and service infrastructure. Chust district’s location in the northern part of the Fergana Valley, its border position with the Kyrgyz Republic, its reputation as an ancient*

handicraft center and its steadily growing population create favorable conditions for territorial development. The article also discusses some challenges related to employment, social protection, infrastructure and spatial planning.

Keywords: *Chust district, social geography, population distribution, labor resources, handicrafts, service sector, social infrastructure, territorial development.*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-географические возможности Чустского района, одного из исторически и социально-экономически значимых районов Наманганской области. В исследовании рассматриваются географическое положение района, демографический потенциал, размещение населения, трудовые ресурсы, традиции ремесленничества, транспортно-коммуникационные возможности, образовательная, медицинская и сервисная инфраструктура. Расположение Чустского района в северной части Ферганской долины, его приграничное положение с Кыргызской Республикой, статус древнего центра ремесленничества и устойчивый рост численности населения создают благоприятные условия для территориального развития. В статье также освещаются отдельные проблемы, связанные с занятостью, социальной защитой, инфраструктурой и территориальным планированием.*

Ключевые слова: *Чустский район, социальная география, размещение населения, трудовые ресурсы, ремесленничество, сфера услуг, социальная инфраструктура, территориальное развитие.*

Kirish

Ijtimoiy geografiya hududlarning aholi, mehnat resurslari, turmush darajasi, xizmat ko‘rsatish tizimi, ijtimoiy infratuzilma, madaniy meros va hududiy rivojlanish imkoniyatlarini o‘rganadigan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Har bir tuman yoki shahar o‘zining tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy shakllanish jarayoni, demografik tarkibi, xo‘jalik ixtisoslashuvi va ijtimoiy infratuzilmasi bilan boshqa hududlardan farqlanadi. Shu jihatdan Chust tumani Namangan viloyatining ijtimoiy-geografik jihatdan o‘ziga xos hududlaridan biri hisoblanadi.

Chust tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan bo‘lib, Namangan viloyatining g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Tuman sharqdan To‘raqo‘rg‘on, shimoli-sharqdan Kosonsoy, janub va g‘arbdan Pop, janubi-sharqdan Mingbuloq tumanlari, shimoldan esa Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,92 ming km² ni tashkil etadi. Tuman markazi — Chust shahri bo‘lib, tarixiy rivojlanish jarayonida u hunarmandchilik, savdo va madaniy aloqalar markazi sifatida shakllangan.

Chust tumanining ijtimoiy-geografik imkoniyatlarini o‘rganish nafaqat viloyat ichidagi hududiy rivojlanish tafovutlarini aniqlash, balki aholi bandligi, turizm, hunarmandchilik, kichik biznes va ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish uchun ham muhimdir. Chunki tumanning rivojlanish imkoniyatlari faqat tabiiy resurslar bilan emas, balki inson kapitali, mehnat madaniyati, tarixiy an’analar, transport aloqalari va mahalliy iqtisodiy faoliyat turlari bilan ham belgilanadi.

Asosiy qism

Chust tumanining eng asosiy ijtimoiy-geografik imkoniyatlaridan biri uning qulay geografik o‘rnidir. Tuman Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida, Chatqol tog‘ tizmasi etaklariga yaqin hududda joylashgan. Rasmiy ma’lumotlarda tuman hududining katta qismi adir va past-baland tekisliklardan iborat ekani, janubiy qismi esa Sirdaryoga tutash tekisliklardan tashkil topgani qayd etiladi. G‘ovasoy, Olmossoy, Shataksoy, Rezaksoy va Karkidonsoy kabi soylarning mavjudligi hududda suv resurslaridan foydalanish, sug‘orma dehqonchilik va aholi punktlarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan .

Tuman hududida Chust kanali, G‘ovasoy gidrouzeli, Ko‘ksaraksoy suv ombori va Chust nasos stansiyasining mavjudligi qishloq xo‘jaligi va aholi turmush sharoitlari uchun muhim infratuzilmaviy asos yaratadi. Ayniqsa, adir va tog‘oldi hududlarida suvdan samarali foydalanish masalasi dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikning istiqbolini belgilaydi. Shu sababli Chust tumanining tabiiy-geografik sharoiti ijtimoiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liqdir. Tabiiy sharoit,

relyef, suv manbalari va yer resurslari aholi joylashuvi, xo‘jalik tarmoqlarining hududiy tarkibi hamda transport yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Chust tumanining ikkinchi muhim imkoniyati uning demografik salohiyatidir. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlarida Chust tumani aholisi 2024-yilda 285,6 ming, 2025-yilda 291,4 ming, 2026-yilda esa 296,7 ming kishi sifatida berilgan. Bu ko‘rsatkichlar tumanda aholi soni izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi . Aholi sonining ko‘payishi, bir tomondan, mehnat resurslari bazasini kengaytiradi, ikkinchi tomondan esa yangi ish o‘rinlari, uy-joy, ta’lim, tibbiyot va kommunal xizmatlarga talabni oshiradi. Demak, demografik o‘sish tuman uchun imkoniyat ham, boshqarilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy masala hamdir.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-may holatida Chust tumanida doimiy aholi soni 281,0 ming kishini tashkil etgan va 2022-yilga nisbatan 1,9 foizga ko‘paygan. Aholi zichligi esa 1 km² ga 298,9 kishini tashkil qilgan . Bu ko‘rsatkich Chust tumanida yer resurslaridan oqilona foydalanish, aholi punktlarini to‘g‘ri rejalashtirish, ichki yo‘llar, maktablar, tibbiyot muassasalari va xizmat ko‘rsatish obyektlarini aholining real ehtiyojidan kelib chiqib joylashtirish zarurligini anglatadi.

Chust tumanining ijtimoiy-geografik salohiyatida hunarmandchilik alohida o‘rin egallaydi. Chust shahri qadimdan pichoqchilik va do‘ppichilik markazi sifatida tanilgan. O‘zbekiston turizm portali Chustni vodiyning eng qadimiy shaharlaridan biri sifatida tavsiflab, uning noyob pichoqlari va an’anaviy do‘ppilari bilan mashhurligini qayd etadi. Manbada Chust O‘rta Osiyoning qadimiy metallga ishlov beruvchi markazlaridan biri ekani, shaharda pichoq yasovchi ustalar mavzesi mavjudligi ham ko‘rsatilgan . Bu holat Chust tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hunarmandchilikni oddiy ishlab chiqarish turi emas, balki hududiy brend, madaniy meros va turizm resursi sifatida baholash imkonini beradi.

Chust pichoqlari va Chust do‘ppilari mahalliy aholi bandligini ta’minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish va etnoturizmni kengaytirishda muhim resurs bo‘la oladi. Agar ushbu an’anaviy

mahsulotlar zamonaviy dizayn, elektron savdo, eksport, turistik marshrutlar va hunarmandlar mahallasi konsepsiyasi bilan bog‘lansa, tuman iqtisodiyotida qo‘shimcha qiymat yaratuvchi yangi yo‘nalishlar shakllanadi. Bunday yondashuv Chustni Namangan viloyatining hunarmandchilik va madaniy turizm markazlaridan biri sifatida mustahkamlashi mumkin.

Tumanning ijtimoiy infratuzilmasi ham uning rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydigan muhim omildir. Rasmiy tuman ma’lumotlarida Chustda umumta’lim maktablari, iqtidorli bolalar internatlari, san’at va musiqa maktablari, kasb-hunar maktablari, kutubxonalar, klub muassasalari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog‘lari, sport obyektlari faoliyat yuritishi qayd etilgan . Bu infratuzilma aholining bilim darajasini oshirish, yoshlarni kasbga yo‘naltirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va madaniy ehtiyojlarni qondirishda muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, kasb-hunar ta’limi bilan hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va kichik sanoat tarmoqlarini bog‘lash Chust tumani uchun amaliy natija berishi mumkin. Chunki tumanda tarixiy tajriba va mehnat ko‘nikmalari mavjud. Bunday sharoitda yoshlarni faqat umumiy nazariy bilim bilan emas, balki amaliy kasb, tadbirkorlik ko‘nikmasi va hududga mos iqtisodiy faoliyatga tayyorlash muhim hisoblanadi.

Transport-geografik o‘rin ham Chust tumani imkoniyatlarining muhim tarkibiy qismidir. Tuman hududi orqali Farg‘ona halqa avtomobil yo‘li o‘tishi, Chustdan Namangan shahriga avtobus qatnovi mavjudligi hududiy aloqalarni kuchaytiradi . Transport aloqalari aholining mehnat migratsiyasi, mahsulotlar savdosi, xizmat ko‘rsatish markazlariga chiqish, ta’lim va tibbiyot muassasalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, Chustning Pop, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on va Mingbuloq tumanlari bilan tutashligi uni viloyat ichidagi iqtisodiy aloqalarda faol hududga aylantiradi.

Chust tumanining rivojlanishida viloyat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham muhim ahamiyatga ega. Namangan viloyatida so‘nggi yillarda kichik sanoat zonalari, mahalla infratuzilmasi, ichki yo‘llar, servis obyektlari, oilaviy

tadbirkorlik va investitsion loyihalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, viloyatda 2020–2024-yillarda ko‘plab sanoat zonalari tashkil etilgani, 2025–2029-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturida iqtisodiyot hajmini oshirish, mikroloyihalarni moliyalashtirish va aholi bandligini ta’minlash maqsadlari belgilangan . Bu jarayonlar Chust tumaniga ham bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Chust tumanining ijtimoiy-geografik imkoniyatlarini baholashda mavjud muammolarni ham ko‘rsatish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 15-avgustdagi qarorida Namangan viloyatida aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy daftarlarga kiritilgan aholiga yordam ko‘rsatish borasida ayrim kamchiliklar mavjudligi qayd etilgan. Xususan, Chust tumanida tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarga amaliy yordam ko‘rsatish masalasi tilga olingan . Bu esa tumanda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, ehtiyojmand guruhlar bilan manzilli ishlash va mahalla darajasida monitoringni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Chust tumanining istiqboldagi rivojlanishi uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ajratish mumkin. Birinchidan, aholi zichligi va demografik o‘sishni hisobga olgan holda yangi ish o‘rinlari yaratish zarur. Ikkinchidan, hunarmandchilikni klaster asosida rivojlantirish, Chust pichog‘i va do‘ppisini hududiy brend sifatida targ‘ib qilish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, turizm va xizmat ko‘rsatish sohasini mahalliy madaniyat, tarixiy meros va xalq amaliy san’ati bilan bog‘lash kerak. To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, bog‘dorchilik, chorvachilik va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish orqali tuman iqtisodiyotining barqarorligini oshirish mumkin. Beshinchidan, ta’lim, kasb-hunar, sog‘liqni saqlash va transport infratuzilmasini aholi ehtiyojiga mos holda modernizatsiya qilish zarur.

Xulosa

Chust tumani Namangan viloyatining ijtimoiy-geografik jihatdan katta imkoniyatlarga ega hududlaridan biridir. Uning qulay geografik o‘rni, Qirg‘iziston

Respublikasi bilan chegaradoshligi, Farg‘ona vodiysi ichidagi transport aloqalari, ko‘p sonli va o‘sib borayotgan aholisi, qadimiy hunarmandchilik an’analari, sug‘orma dehqonchilik imkoniyatlari hamda ijtimoiy infratuzilmasi tumanning hududiy taraqqiyotida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Chust pichoqchiligi va do‘ppichiligi tumanning madaniy-iqtisodiy brendi sifatida nafaqat ichki bozor, balki turizm va eksport yo‘nalishida ham muhim ahamiyatga ega.

Biroq mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun tuman rivojlanishiga kompleks yondashuv talab etiladi. Aholi sonining o‘sishi bandlik, uy-joy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish tizimiga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shu sababli Chust tumanida ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, hunarmandchilik klasterlarini tashkil etish, turizmni rivojlantirish va mahallalar kesimida ijtimoiy muammolarni manzilli hal etish ustuvor vazifalar hisoblanadi. Ilmiy jihatdan qaralganda, Chust tumani ijtimoiy-geografik imkoniyatlari tabiiy resurslar, inson kapitali, madaniy meros va hududiy boshqaruv omillarining o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Chust tumani hokimligi. Chust tumani haqida umumiy ma’lumotlar [Elektron resurs]. — Chust tumani hokimligi rasmiy sayti.

2. Chust tumani hokimligi. Tuman tabiiy sharoiti, xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilmasi haqida ma’lumotlar [Elektron resurs]. — Chust tumani hokimligi rasmiy sayti.

3. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Chust tumani aholisi 1,9 foizga ko‘paygan [Elektron resurs]. — 31.05.2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Doimiy aholi soni: Chust tumani bo‘yicha statistik ma’lumotlar [Elektron resurs]. — SIAT statistik ma’lumotlar bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Chust shahri — hunarmandchilik markazi [Elektron resurs]. — O‘zbekiston turizm portali.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi. Namangan viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish dasturlari ijrosi to‘g‘risida: KQ-222-V-son qaror, 15.08.2025 [Elektron resurs].

7. Namanganning iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda [Elektron resurs]. — O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 27.04.2025.

TUMANLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, INVESTITSIYA VA HUDUDIY BOSHQARUV MASALALARI

FARG‘ONA TUMANINING AGROTURISTIK SALOHIYATI: RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA HUDUDIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Hamidaxon Rustamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail:kodirovakhamida@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona tumanining agroturistik salohiyati va undan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning tabiiy-geografik sharoiti, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hamda turizm infratuzilmasi o‘rganilib, ularning agroturizmni rivojlantirishdagi o‘rni baholangan. Shuningdek, mavjud resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilinib, agroturizmni yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *agroturizm, hududiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, turizm salohiyati, hududiy tafovut, infratuzilma.*

Abstract. *This article analyzes the agrotourism potential of the Fergana district and the issues of its effective use. The study examined the natural and geographical conditions of the region, agricultural sectors and tourism infrastructure, and assessed their role in the development of agrotourism. The level of use of existing resources was also analyzed, and proposals and recommendations were developed for the further development of agrotourism.*

Keywords: *agritourism, regional development, agriculture, tourism potential, regional disparities, infrastructure.*

Аннотация. *В данной статье анализируется агротуристический потенциал Ферганского района и вопросы его эффективного использования. В исследовании изучены природно-географические условия региона,*

сельскохозяйственные сектора и туристическая инфраструктура, а также оценена их роль в развитии агротуризма. Проанализирован уровень использования существующих ресурсов, разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию агротуризма.

Ключевые слова: *агротуризм, региональное развитие, сельское хозяйство, туристский потенциал, региональные различия, инфраструктура.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida turizmni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va daromad manbalarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizm integratsiyasining samarali shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Agroturizm nafaqat turistlarga qishloq hayoti, dehqonchilik jarayonlari va milliy an’analarni bevosita kuzatish imkonini beradi, balki qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa hududlarning ichki resurslaridan samarali foydalanish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ekologik muvozanatni saqlash kabi vazifalarni hal etishda muhim omil hisoblanadi. Agroturizm qishloq hududlarining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida qaralib, u turizm va qishloq xo‘jaligi integratsiyasiga asoslanadi[6].

O‘zbekiston, xususan, Farg‘ona viloyati o‘zining qulay tabiiy-iqlimiy sharoiti, serhosil yerlari, rivojlangan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va boy madaniy merosi bilan agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat hududida bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa qishloq xo‘jaligi faoliyat turlari keng rivojlangan bo‘lib, ular agroturistik xizmatlarni tashkil etishda asosiy resurs sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, viloyat tumanlarida agroturizmni rivojlantirish darajasi bir xil emas. Ayrim tumanlarda tabiiy va iqtisodiy salohiyat yuqori bo‘lishiga qaramay, infratuzilmaning

yetarli rivojlanmaganligi, turizm xizmatlari sifati pastligi va marketing tizimining sustligi sababli mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Bu esa hududlar kesimida agroturizm rivojlanishida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur holat Farg‘ona viloyati tumanlarida agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kompleks o‘rganish, mavjud hududiy farqlarni aniqlash hamda ularni samarali rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Farg‘ona tumani Farg‘ona viloyatining muhim agrar hududlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinni egallaydi. Hududning unumdor tuproqlari, qulay iqlim sharoiti va sug‘orish tizimlarining rivojlanganligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq hududlarini kompleks rivojlantirish, turizm salohiyatini oshirish hamda aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi “Farg‘ona turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5-son qarori doirasida Farg‘ona tumanining turizm salohiyatidan samarali foydalanish, tog‘li hududlarning zaxira imkoniyatlarini ishga tushirish, aholini xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, tumanning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, turistlar va tadbirkorlik subyektlari uchun infratuzilma yaratish, master reja asosida xizmat ko‘rsatish majmualarini tashkil qilish, xalqaro kurort zonasini rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsad qilingan. Xususan, qarorda “Shohimardon-Yordon” umummavsumiy xalqaro kurort zonasi, “Chimyon” sanatoriy-kurort zonasi, “Vodil” agroturizm klasteri, “Avval” ko‘ngilochar turizm majmualarini tashkillash ko‘zda tutilgan [1]. Shu nuqtayi nazardan, Farg‘ona tumanining mavjud tabiiy, agroiqtisodiy va ijtimoiy resurslarini kompleks tahlil qilish hamda ularni agroturizmni rivojlantirishda samarali foydalanish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Farg'ona viloyatida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sayyohlar oqimi yildan-yilga barqaror

o'sib bormoqda. Farg'ona viloyati Turizm boshqarmasining 2024-yil yakunlari bo‘yicha rasmiy hisobotiga ko'ra, viloyatga tashrif buyurgan jami sayyohlar soni 3 mln 550,6 ming nafarni tashkil etib, belgilangan yillik reja 115 foizga bajarilgan. Ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki turizm yo'nalishida 3 mln 75 ming nafar vatandoshimiz viloyatning diqqatga sazovor joylarida dam olgan bo'lsa, xorijiy sayyohlar soni 475,6 ming nafarga yetgan. Solishtirish uchun, 2023-yilda xorijiy turistlar soni 430 ming nafarni tashkil etgan edi, bu esa bir yil ichida 10.6 foizli o‘sish sur'atini anglatadi [3]. Turistik oqimning sezilarli qismi aynan agroturizm va ekoturizm salohiyati yuqori bo'lgan tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Masalan, Farg‘ona tumanining (Vodil, Chimyon) geografik qulayligi va xizmatlar xilma-xilligi sababli, viloyatga kelayotgan xorijiy sayyohlarning sezilarli qismi aynan ushbu tuman rekreatsion imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

Agroturizm loyihalarining muvaffaqiyati bevosita hududning tabiiy-iqlimiy sharoiti bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu borada Farg‘ona tumani viloyatda yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Farg‘ona tumani Farg‘ona viloyatining muhim agrar hududlaridan biri bo‘lib, uning tabiiy-geografik sharoiti agroturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Hudud relyefi asosan tekislik va tog‘oldi zonalaridan iborat bo‘lib, dengiz sathidan 600–1200 metr balandlikda joylashgan. Tumanning iqlimi kontinental bo‘lib, yozlari issiq, qishlari nisbatan yumshoq kechadi. Hududdan oqib o‘tuvchi Shohimardonsoy, Marg‘ilonsoy va Oltiariqsoy kabi daryolar qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash bilan birga, rekreatsion imkoniyatlarni ham kengaytiradi. Shuningdek, Chimyon hududidagi mineral suv manbalari sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun muhim tabiiy resurs hisoblanadi.

Farg‘ona tumani iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Hududda qulay iqlim sharoiti, unumdor tuproqlar va rivojlangan sug‘orish tizimlari dehqonchilikni samarali tashkil etish imkonini beradi. Tumanda asosan meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik tarmoqlari

rivojlangan. Ayniqsa, meva va sabzavot yetishtirish yuqori darajada bo‘lib, aholi tomorqa xo‘jaliklari hamda fermer xo‘jaliklari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Issiqxona xo‘jaliklarining kengayib borayotgani yil davomida mahsulot yetishtirish imkonini yaratmoqda. Chorvachilik sohasida esa qoramolchilik va parrandachilik rivojlangan. Farg‘ona viloyatida faoliyat olib borayotgan fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarining soni 2025-yilda jami 10585 tani tashkil etib, shundan 890 tasi Farg‘ona tumani hududiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Farg‘ona tumani, Rishton(1244ta), O‘zbekiston(1127ta) va Quva(981ta) tumanlaridan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Yana shuni ta’kidlash joizki tumanda mavjud korxonalarning katta qismi 710tasi bog‘dorchilik-uzumchilik tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa Farg‘ona tumanida agroturizmni yanada rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat mavjudligi anglatadi.

Farg‘ona tumani viloyat markaziga yaqinligi hamda transport aloqalarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda hududda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida turistlar oqimi ortib bormoqda.

1-jadval

Farg‘ona viloyatidagi mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyuradigan obyektlar to‘g‘risida ma’lumot

Jami	shundan, yo‘nalishlar kesimida						
	Sayyohlar tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlar soni	Eko va agroturizm obyektlari soni	Hunarmandchilik markazlari soni	Tibbiyot turizm obyektlari soni	Oromgohlar	MICE turizm obyektlari soni	Boshqalar
163	51	31	18	21	20	15	7

muallif tomonidan ferganaturizm.uz ma’lumotlari asosida tuzildi

Farg‘ona viloyatida mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyuradigan obyektlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududda jami 163 ta turizm obyektlari mavjud. Ushbu obyektlar yo‘nalishlar kesimida notekis taqsimlangan bo‘lib, ularning asosiy qismini madaniy meros obyektlari tashkil etadi 51 ta. Bu viloyatda tarixiy-madaniy turizmning ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

Eko va agroturizm obyektlari soni 31 tani tashkil etib, bu yo‘nalish ham rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, tibbiyot turizmi (21 ta) va oromgohlar (20 ta) salmog‘ining nisbatan yuqoriligi hududda sog‘lomlashtirish va dam imkoniyatlari mavjudligini bildiradi. Hunarmandchilik markazlari (18 ta) milliy an’ana va madaniyatni saqlash hamda turistlarni jalb etishda muhim o‘rin tutadi. Madaniy meros obyektlarining 4 tasi, Eko va agroturizm obeyktlarining 5 tasi, tibbiyot turizm obyektlarining 11 tasi Farg‘ona tumanida joylashgan bo‘lib, hududda turistik marshrutlarni xilma-xil tashkillash uchun asos bo’ladi. Mavjud tabiiy resurslar, qishloq xo‘jaligi salohiyati va madaniy meros obyektlari hududda turizmning diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Farg‘ona tumani agroturistik salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish maqsadida quyidagi asosiy yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

1. Agroturizm integratsiyasini kuchaytirish. Fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini turizm xizmatlari bilan uyg‘unlashtirish orqali agroturizm klasterlarini shakllantirish.

2. Infratuzilmani modernizatsiya qilish. Turistik hududlarga olib boruvchi transport yo‘llari, muhandislik tarmoqlari va raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

3. Xizmatlar sifatini oshirish. Fermer xo‘jaliklarida mehmon qabul qilish, local mahsulotlarni taqdim etish va agroekoturistik xizmatlarni joriy etish.

4. Targ‘ibot va kadrlar tayyorlash. Hududning turistik brendini shakllantirish, raqamli marketingni kuchaytirish hamda soha mutaxassislarini tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Xulosa

Farg‘ona viloyati, xususan Farg‘ona tumani misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hudud agroturizmni rivojlantirish uchun yetarli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarga ega. Qulay iqlim sharoiti, unumdor yerlar, rivojlangan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hamda boy madaniy meros obyektlari hududning turizm salohiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va hududning investitsion jozibadorligini kuchaytirish mumkin. Buning uchun infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, zamonaviy marketing usullarini joriy etish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi PQ–5-son qarori “Farg‘ona turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. O‘zbekiston turizm statistikasi bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.

3. Farg‘ona viloyati Turizm boshqarmasi. Viloyat turizm salohiyati va rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot. – Farg‘ona, 2024.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami. – Toshkent, 2025.

5. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Rural Development Report. – Madrid, 2023.

6. Hall C. M., Sharples L. Tourism in Rural Areas: Development and Impacts. – London: Routledge, 2003.

7. Lane B. What is Rural Tourism? // Journal of Sustainable Tourism. – 1994. – Vol. 2, No. 1–2. – P. 7–21.

8. Farg‘ona viloyati turizm portali: https://ferganaturizm.uz

MILLIY TURIZM BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA “KONTENT MARKETING” TAMOYILLARINING ASOSLARI

Bozorov Samar Safarovich

Qarshi davlat universiteti

E-mail: samarbozorov575@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turizm sohasida kontent marketing tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlari hamda ularning milliy turizm brendini shakllantirishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Kontent marketingning turistik destinatsiya imijini mustahkamlash, turistlar oqimini oshirish va turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy olimlar qarashlari tahlil qilinib, kontent marketingni turizm marketingining muhim strategik instrumenti sifatida qo‘llash zaruriyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *kontent marketing, turizm marketingi, turizm brendi, turistik destinatsiya, raqamli marketing, marketing kommunikatsiyalari, brend identiteti, turizm imiji, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of content marketing principles in the tourism sector and their role in forming a national tourism brand. The importance of content marketing in strengthening the image of a tourist destination, increasing the flow of tourists and ensuring the economic efficiency of the tourism sector is substantiated. The views of foreign scholars are also analyzed and the need to use content marketing as an important strategic instrument of tourism marketing is highlighted.*

Keywords. *content marketing, tourism marketing, tourism brand, tourist destination, digital marketing, marketing communications, brand identity, tourism image, competitiveness, economic efficiency.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты принципов контент-маркетинга в туристическом секторе и их роль в формировании национального туристического бренда. Обосновывается важность контент-маркетинга в укреплении имиджа туристического направления, увеличении потока туристов и обеспечении экономической эффективности туристического сектора. Также анализируются мнения зарубежных ученых и подчеркивается необходимость использования контент-маркетинга как важного стратегического инструмента туристического маркетинга.*

Ключевые слова: *контент-маркетинг, туристический маркетинг, туристический бренд, туристическое направление, цифровой маркетинг, маркетинговые коммуникации, фирменный стиль, туристический имидж, конкурентоспособность, экономическая эффективность.*

Kirish. Zamonaviy global turizm bozorida mamlakat yoki hududning turistik salohiyatini targ‘ib qilishda marketing kommunikatsiyalarining yangi shakllari keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va internet platformalarining rivojlanishi natijasida turizm marketingida kontent marketing alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kontent marketing turistik destinatsiya haqida foydali, qiziqarli va ishonchli axborot yaratish hamda uni turli raqamli kanallar orqali auditoriyaga yetkazish jarayonini anglatadi. Shu sababli milliy turizm brendini shakllantirishda kontent marketing tamoyillarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Kontent marketing tamoyillarini o‘rganishning mohiyati shundan iboratki, turizm brendi faqat reklama yoki marketing kampaniyalari orqali emas, balki turistlar uchun qimmatli bo‘lgan axborot va tajribalar orqali shakllanadi. Bunda turistik destinatsiyaning tarixiy-madaniy merosi, milliy an’analari, tabiiy resurslari, gastronomiyasi va turistik xizmatlari haqidagi mazmunli kontent yaratiladi. Mazkur kontent turistlar ongida mamlakat yoki hudud haqida ijobiy tasavvur hosil qilib, turizm brendining identitetini mustahkamlaydi. Shuningdek, kontent marketing

orqali turistlar bilan doimiy kommunikatsiya o‘rnatilib, turistik destinatsiya haqidagi axborot oqimi tizimli ravishda boshqariladi.

Kontent marketing tamoyillarini o‘rganishning muhimligi shundaki, zamonaviy turistlar sayohat qilishdan oldin asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar va turizm platformalari orqali ma’lumot izlaydi. Shuning uchun sifatli va kreativ kontent turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, vizual kontent (foto va videolar), storytelling strategiyalari, bloglar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi postlar turizm brendining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan kontent marketing turizm marketingining muhim strategik instrumenti sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Biz olib borayotgan tadqiqotda kontent marketing tamoyillarini o‘rganishning ahamiyati esa turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liqdir. Kuchli turizm brendi va samarali kontent strategiyasi turistlar oqimini oshirish, turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Natijada turizm sektori hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanadi. Shu sababli milliy turizm brendini shakllantirishda kontent marketing tamoyillarini chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kontent marketing tamoyillarini o‘rganish milliy turizm brendini shakllantirish, turizm marketingini takomillashtirish hamda mamlakatning turistik imijini xalqaro miqyosda mustahkamlashning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Bu yondashuv turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish va uning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Joe Pulizzi kontent marketing nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U kontent marketingni auditoriyaga qimmatli va foydali axborot yaratish hamda uni tizimli ravishda tarqatish orqali mijozlarni jalb qilish jarayoni sifatida ta’riflaydi. Pulizzi kontent marketingning asosiy tamoyillari sifatida **auditoriyaga yo‘naltirilganlik, sifatli kontent yaratish, doimiylik va qiymat yaratish**

tamoyillarini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyillar turizm marketingida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turistik destinatsiya haqida ishonchli va qiziqarli kontent yaratishga xizmat qiladi. Kotler va Keller marketing nazariyasida kontent marketingni zamonaviy marketing kommunikatsiyasining muhim instrumenti sifatida ko‘rsatadi. Ularning fikricha, kontent marketing mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kontent marketing tamoyillari sifatida ular **mijoz ehtiyojlariga mos kontent yaratish, ishonchli axborot taqdim etish va kommunikatsiyaning uzluksizligini ta’minlash**ni muhim deb hisoblaydilar. Robert Rose va Joe Pulizzi kontent marketing strategiyasini ishlab chiqishda kontentning **strategik rejalashtirilishi, auditoriya segmentatsiyasi va kontentning tizimli boshqaruvi** muhim ekanini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, kontent marketing strategiyasi brend identitetini mustahkamlash hamda iste’molchilar bilan barqaror kommunikatsiya o‘rnatishga xizmat qiladi.

Holliman va Rowley kontent marketing tamoyillarini strategik marketing kommunikatsiyasi nuqtai nazaridan o‘rgangan. Ular kontent marketingning asosiy tamoyillari sifatida **foydali kontent yaratish, auditoriya bilan interaktiv kommunikatsiya o‘rnatish hamda kontent orqali brend qiymatini oshirish**ni ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar kontent marketing mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Rebecca Lieb kontent marketingni brend kommunikatsiyasining strategik instrumenti sifatida ko‘rib chiqadi. U kontent marketing tamoyillari sifatida **kontentning relevanti, foydaliligi va auditoriyaga mosligi**ni asosiy omil sifatida ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, sifatli kontent brend imijini mustahkamlash hamda iste’molchilar bilan barqaror aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kontent marketing tamoyillari marketing kommunikatsiyasining zamonaviy shakli sifatida auditoriya ehtiyojlariga mos kontent yaratish, sifatli va ishonchli axborot taqdim etish, kontentni tizimli ravishda tarqatish hamda brend identitetini mustahkamlash kabi prinsiplarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar turizm marketingida ham muhim ahamiyatga ega

bo‘lib, turistik destinatsiya haqida ijobiy imij shakllantirish, turistlar bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatish hamda turizm brendining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Joe Pulizzi. Epic Content Marketing: How to Tell a Different Story, Break through the Clutter, and Win More Customers by Marketing Less. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 352 p.

2. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education Limited, 2016. – 714 p.

3. Robert Rose, Joe Pulizzi. Managing Content Marketing: The Real-World Guide for Creating Passionate Subscribers to Your Brand. – Cleveland: Content Marketing Institute, 2011. – 240 p.

4. Gillian Holliman, Jennifer Rowley. Business to business digital content marketing: marketers’ perceptions of best practice // Journal of Research in Interactive Marketing. – 2014. – Vol. 8, No. 4. – P. 269–293.

5. Rebecca Lieb. Content Marketing: Think Like a Publisher – How to Use Content to Market Online and in Social Media. – Indianapolis: Que Publishing, 2012. – 256 p.

6. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice*. – 7th ed. – Pearson, 2019. – 570 p.

7. Ryan D. *Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation*. – 4th ed. – Kogan Page, 2020. – 312 p.

8. World Tourism Organization. *Tourism and Digital Transformation*. – Madrid: UNWTO, 2019. – 98 p.

9. Tuten T. L., Solomon M. R. *Social Media Marketing*. – 3rd ed. – Sage Publications, 2017. – 368 p.

10. Bala M., Verma D. A critical review of digital marketing // *International Journal of Management, IT & Engineering*. – 2018. – Vol. 8, No. 10. – P. 321–339.

HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: TUMANLAR IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA INVESTITSIYALAR VA BOSHQARUV TIZIMINING O‘RNI

Jurayev Zuhriddin Akrom o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
E-mail: @jorayevz075f@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalari, investitsiya faoliyatini kengaytirish va hududiy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida tumanlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *tuman iqtisodiyoti, investitsiya, hududiy boshqaruv, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, investitsion muhit, mahalliy iqtisodiyot, innovatsiya*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития экономики районов, расширения инвестиционной деятельности и совершенствования системы территориального управления. Также освещаются вопросы эффективного использования экономического потенциала регионов, развития инфраструктуры и повышения инвестиционной привлекательности. В результате исследования разработаны практические рекомендации по обеспечению устойчивого развития экономики районов.*

Ключевые слова. *экономика районов, инвестиции, территориальное управление, экономическое развитие, инфраструктура, инвестиционный климат, местная экономика, инновации*

Abstract. *This article examines the key issues of developing district economies, expanding investment activities, and improving territorial governance systems. It also highlights the effective use of regional economic potential, infrastructure development, and increasing investment attractiveness. Based on the research, practical recommendations for ensuring sustainable development of district economies are proposed.*

Keywords. *district economy, investment, regional governance, economic development, infrastructure, investment climate, local economy, innovation*

Kirish. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat yirik shaharlar yoki markaziy hududlar, balki eng quyi bo‘g‘in hisoblangan tumanlar iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Aynan tuman darajasida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va kichik biznes faoliyati shakllanadi hamda aholining asosiy daromad manbalari yaratiladi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa tumanlar iqtisodiyotini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

1. Tuman iqtisodiyotining mazmuni va rivojlanish omillari

Tuman iqtisodiyoti — bu ma’lum hududda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy resurslar va xo‘jalik yuritish subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi tizimdir. Uning rivojlanishi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ular ichida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

Birinchidan, tabiiy-iqtisodiy salohiyat. Har bir tuman o‘ziga xos resurslarga ega bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyat yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, ayrim hududlar qishloq xo‘jaligiga, boshqalari sanoat yoki xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Ikkinchidan, mehnat resurslari. Aholining soni, malakasi va bandlik darajasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, infratuzilma. Yo‘llar, elektr energiyasi, suv ta’minoti, aloqa tizimlari kabi infratuzilma elementlari iqtisodiy faollikni belgilovchi muhim omildir.

To‘rtinchidan, boshqaruv sifati. Mahalliy boshqaruv organlarining samarali faoliyati hudud rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shu jihatdan qaraganda, tuman iqtisodiyotini rivojlantirish — bu kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayondir.

2. Investitsiya faoliyatining tuman iqtisodiyotidagi o‘rni

Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ular orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, texnologiyalar yangilanadi va ish o‘rinlari ko‘payadi. Ayniqsa, tumanlar uchun investitsiyalar jalb etish masalasi muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar ko‘proq qulay biznes muhiti mavjud bo‘lgan hududlarga yo‘naltiriladi. Shu sababli tumanlarda investorlar uchun qulay sharoit yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- huquqiy barqarorlik va kafolatlar
- soliq va bojxona imtiyozlari
- infratuzilmaning rivojlanganligi
- yer resurslaridan foydalanish imkoniyati

Shu bilan birga, mahalliy investitsiyalarni faollashtirish ham muhimdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ichki investitsiya manbalarini kengaytirish mumkin.

Investitsiya loyihalarini tanlashda hududning ixtisoslashuvi, resurslari va bozor talabi hisobga olinishi lozim. Aks holda, investitsiyalar kutilgan natijani bermasligi mumkin.

3. Hududiy boshqaruv tizimining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri

Hududiy boshqaruv tizimi iqtisodiy rivojlanishni tashkil etish va muvofiqlashtirishda markaziy o‘rin egallaydi. Samarali boshqaruv tizimi mavjud bo‘lmagan hududda iqtisodiy o‘sishga erishish qiyin.

Hozirgi sharoitda hududiy boshqaruv quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilishi zarur:

- ochiqlik va shaffoflik
- tezkorlik va moslashuvchanlik
- natijadorlik va samaradorlik
- aholining manfaatlarini hisobga olish

Ko‘plab tumanlarda boshqaruv tizimi hali ham an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lib, bu esa zamonaviy iqtisodiy talablar bilan mos kelmaydi. Masalan, qaror qabul qilish jarayonining cho‘zilishi, resurslardan samarasiz foydalanish kabi holatlar uchrab turadi.

Shu bois, hududiy boshqaruvni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda mavjud muammolar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda bir qator tizimli muammolar mavjud:

Avvalo, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Bu holat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatining kengayishiga to‘sqinlik qiladi.

Ikkinchi muammo — investitsiyalar yetishmasligi. Ko‘plab hududlar investorlar uchun yetarlicha jozibador emas.

Uchinchi muammo — malakali kadrlar tanqisligi. Zamonaviy texnologiyalarni boshqarish va ishlab chiqarishda malakali mutaxassislar yetishmaydi.

To‘rtinchi muammo — iqtisodiyotning tor ixtisoslashuvi. Ayrim tumanlar faqat bitta soha bilan cheklanib qolgan, bu esa iqtisodiy barqarorlikni pasaytiradi.

Bundan tashqari, logistika tizimining rivojlanmaganligi ham mahsulotlarni bozorlarga yetkazishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

5. Tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Mavjud muammolarni bartaraf etish va tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, investitsiya muhitini yaxshilash. Bu borada ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va investorlar uchun qulay sharoit yaratish zarur.

Ikkinchidan, infratuzilmani modernizatsiya qilish. Yo‘l, transport, energetika va aloqa tizimlarini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning muhim omilidir.

Uchinchidan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish. Yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish mumkin.

To‘rtinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Raqamli iqtisodiyot elementlari va zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi.

Beshinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Ta’lim tizimini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish, hududiy boshqaruvni takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali tumanlarning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Kelgusida tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va samarali boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Shu bilan birga, tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuman tabiiy resurslari, demografik holati, ishlab chiqarish salohiyati va geografik joylashuviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, yagona standart yondashuvdan ko‘ra, differensial va manzilli rivojlanish strategiyalarini qo‘llash samaraliroq natija beradi.

Bundan tashqari, hududiy boshqaruv tizimida samaradorlikni oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida

baholash tizimini takomillashtirish lozim. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

Tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yana bir muhim yo‘nalish — bu davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishdir. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar sifatini oshirish mumkin.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish, jumladan, elektron boshqaruv tizimlari, onlayn xizmatlar va raqamli platformalarni rivojlantirish hududiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, investitsiya muhitining yaxshilanishiga va tadbirkorlik faoliyatining faollashishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tumanlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish, samarali boshqaruv tizimini yaratish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni o‘z ichiga oladi. Aynan shu yo‘nalishlarda olib boriladigan izchil islohotlar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-5780-son qarori “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son qarori “Hududlar iqtisodiyotini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tahliliy hisobotlar*. – Toshkent, 2022–2024.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. *Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2022–2025.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Hududiy investitsiya va kreditlash bo‘yicha yillik hisobotlar*. – 2022–2024.

8. Statistika agentligi. Hududiy statistika ma’lumotlari. — URL: https://stat.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy rivojlanish siyosati. — URL: https://mineconomy.uz

MECHANISMS FOR INTEGRATING DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES INTO THE TERRITORIAL GOVERNANCE SYSTEM UNDER THE CONDITIONS OF COMPREHENSIVE STUDY OF DISTRICTS IN THE KASHKADARYA REGION

Kurbonova Malika Ahmad kizi

Karshi State University

Email: malikatourism2025@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati tumanlarini kompleks o‘rganish sharoitida raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini hududiy boshqaruv tizimiga integratsiyalash mexanizmlari tahlil qilinadi. Hududiy boshqaruv samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, viloyat miqyosida raqamli infratuzilma, elektron hukumat va axborot tizimlarining rivojlanish darajasi baholanadi. Tadqiqot natijasida hududiy boshqaruvni raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, hududiy boshqaruv, Qashqadaryo viloyati, tumanlar rivojlanishi, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, raqamli transformatsiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются механизмы интеграции технологий цифровой экономики в систему территориального управления на примере районов Кашкадарьинской области. Анализируется роль цифровых технологий в повышении эффективности управления, развитии инфраструктуры и совершенствовании информационных систем. Особое внимание уделено уровню цифровизации в районах области. По результатам исследования предложены направления развития цифрового управления.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, территориальное управление, Кашкадарьинская область, развитие районов, электронное правительство, цифровая инфраструктура, цифровая трансформация*

Abstract.*This study analyzes the mechanisms for integrating digital economy technologies into the territorial governance system based on the case of districts in Kashkadarya region. It highlights the role of digital technologies in improving governance efficiency, infrastructure development, and information systems. Special attention is given to the level of digitalization across districts. Based on the findings, recommendations for enhancing digital governance at the regional level are proposed.*

Keywords: *digital economy, regional governance, Kashkadarya region, district development, e-government, digital infrastructure, digital transformation.*

Main part. Currently, digital technologies play a significant role in improving the territorial governance system and increasing economic efficiency in Uzbekistan. In particular, the implementation of digital economy technologies in the comprehensive development of districts in large regions such as the Kashkadarya region has become a pressing issue [9]. In recent years, the share of the digital economy in the country’s gross domestic product has accounted for approximately 2.2–2.5%, and this indicator has been gradually increasing [15].

Digitalization processes are also developing steadily in the Kashkadarya region. In 2023–2024, internet coverage in the region reached an average of 65–70%, with 75–80% in central areas and around 45–55% in remote districts [14]. The number of electronic government services exceeds 300 types, and approximately 60% of the population uses these services [15].

The application of digital technologies in the territorial governance system is enhancing economic efficiency. In agriculture, productivity has increased by 10-15%, while in industry, costs have decreased by 8–12%. In the service sector, the volume of e-commerce has doubled [3;10].

Table 1.

Digital development indicators in the Kashkadarya region

Indicators	Central areas	Remote districts	Remarks
Internet coverage	75–80%	45–55%	Developing
Electronic services	300+ services	150–200 services	Gradually expanding
Digital literacy	60–65%	40–50%	Needs improvement
IT infrastructure	Developed	Limited	Requires investment

As a result of digital transformation, the service sector is becoming one of the leading sectors of the economy. E-commerce, online banking services, and digital platforms are significantly increasing economic activity. At the same time, disparities in the level of digital development between regions persist, which requires a comprehensive approach.

Table 2.

The impact of digital transformation on the economy

Sector	Technology	Outcome
Agriculture	Monitoring, GPS	Productivity +10–15%
Industry	Automation	Costs -8–12%
Services	E-commerce	Volume doubled
Employment	IT professions	New job opportunities

The role of human capital is crucial in the process of integrating digital economy technologies into the territorial governance system. The level of digital literacy averages 50–55%, indicating the need for further improvement. At the same time, the share of young people studying in the field of IT accounts for 12–15% [15].



Figure 1. Digital transformation model for regional governance (Kashkadarya region)

As shown in Figure 1, the digital transformation model for regional governance in the Kashkadarya region is based on the integration of key components such as digital infrastructure, e-government services, human capital, innovation ecosystem, and the service sector. These elements interact within a unified digital ecosystem, ensuring efficient governance, improved service delivery, and sustainable regional economic growth. The model emphasizes that balanced development of these components is essential for enhancing competitiveness and reducing regional disparities.

REFERENCES

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 1096 p.

2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 589 p.

3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94.

4. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102.

5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.

6. Krugman P.R. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p.

7. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

8. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 556 p.

9. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 172 p.

10. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.

11. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1995. – 368 p.

12. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 304 p.

13. Chenery H.B., Syrquin M. Patterns of Development, 1950–1970. – London: Oxford University Press, 1975. – 230 p.

14. Vahobov A.V. O‘zbekiston iqtisodiyoti va mintaqaviy rivojlanish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – 320 b.

15. G‘ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.

17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Raqamli iqtisodiyot va AKT rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2023.

18. IT Park Uzbekistan. Annual Report on IT Sector Development. – Tashkent, 2023

TURIZMNI HUDUDIY KLASTERLASH VA QIYMAT ZANJIRI ASOSIDA TUMANLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH HAMDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Toshev Nurbek Janon o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

e-mail: toshevnurbek497@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o‘rni, hududiy klasterlash yondashuvi hamda qiymat zanjiri asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda turizm klasterlari orqali hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va boshqaruv samaradorligini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tumanlar kesimida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm klasteri, hududiy rivojlanish, qiymat zanjiri, investitsiya, iqtisodiy samaradorlik, hududiy boshqaruv.*

Abstract. *This article scientifically substantiates the role of the tourism sector in the development of the regional economy, the approach to regional clustering, and mechanisms for increasing efficiency based on the value chain. The study analyzes the issues of strengthening regional economic integration through tourism clusters, increasing investment attractiveness, and improving management efficiency. Also, proposals are developed for the development of tourism infrastructure and expanding the diversification of services in the regions.*

Keywords: *tourism cluster, regional development, value chain, investment, economic efficiency, regional management.*

Аннотация. *В данной статье научно обосновывается роль туристического сектора в развитии региональной экономики, подход к региональному кластеризации и механизмы повышения эффективности на основе цепочки создания стоимости. В исследовании анализируются вопросы укрепления региональной экономической интеграции посредством туристических кластеров, повышения инвестиционной привлекательности и повышения эффективности управления. Также разработаны предложения по развитию туристической инфраструктуры и расширению диверсификации услуг в регионах.*

Ключевые слова: *туристический кластер, региональное развитие, цепочка создания стоимости, инвестиции, экономическая эффективность, региональное управление.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, tumanlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda xizmatlar sektori, jumladan turizm sohasi muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omil, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi, yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, tumanlar darajasida turizmni rivojlantirish hududiy iqtisodiyotni jonlantirish, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xizmatlar sifati va diversifikatsiyasining pastligi, hamkorlik mexanizmlarining sustligi kabi muammolar mavjud bo‘lib, ular ushbu sohaning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.


Mazkur muammolarni hal etishda zamonaviy iqtisodiy yondashuvlardan biri sifatida turizmni hududiy klasterlash konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Klasterlash orqali hududdagi turizm subyektlari - mehmonxonalar, transport xizmatlari, ovqatlanish korxonalari, madaniy obyektlar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro integratsiya kuchayadi, natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va yagona hududiy turistik mahsulot shakllanadi. Bu esa tuman iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, turizmni rivojlantirishda qiymat zanjiri yondashuvi alohida o‘rin tutadi. Mazkur yondashuv turistik xizmatlarni yaratish va iste’molchiga yetkazib berish jarayonidagi barcha bo‘g‘inlarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Qiymat zanjiri elementlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash orqali xizmatlar sifati oshiriladi, xarajatlar optimallashtiriladi va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligi kuchayadi.

O‘zbekiston sharoitida, xususan tumanlar kesimida turizmni klasterlash va qiymat zanjiri asosida rivojlantirish masalalari hali yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu bois, turizmni hududiy klasterlash va qiymat zanjiri asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - turizmni hududiy klasterlash va qiymat zanjiri yondashuvlari asosida tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirish hamda samaradorlikni oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun hududiy turizm tizimining mavjud holati tahlil qilinadi, klasterlashning iqtisodiy afzalliklari asoslab beriladi hamda qiymat zanjiri elementlarini integratsiyalash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism. Tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o‘rni va ahamiyatini baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy iqtisodiy tizimlarning samaradorligini oshirish, mavjud resurslardan kompleks va oqilona foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish jarayonlarida turizmning roli ortib bormoqda. Shu nuqtai

nazardan, turizmni hududiy klasterlash va qiymat zanjiri asosida rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Turizm klasteri va qiymat zanjiri asosida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish modeli

Birinchidan, turizmni hududiy klasterlash tumanlar iqtisodiyotining tizimli rivojlanishini ta’minlovchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Klasterlash — bu muayyan hududda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy subyektlar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va infratuzilma elementlarining integratsiyalashuvi jarayonidir. Turizm klasterlari doirasida mehmonxonalar, transport xizmatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, madaniy va tarixiy obyektlar, savdo subyektlari hamda turizmni qo‘llab-quvvatlovchi boshqa infratuzilmalar yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Bunday integratsiya natijasida xizmatlar sifati oshadi, xarajatlar kamayadi va hududiy iqtisodiyotda sinergetik samaradorlik yuzaga keladi.

Hududiy klasterlashning muhim afzalliklaridan biri - bu iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasida kooperatsiyaning kuchayishidir. Masalan, mehmonxona va transport xizmatlari o‘rtasidagi uzviy hamkorlik turistlar uchun qulay sharoit yaratadi, ovqatlanish va ko‘ngilochar xizmatlar bilan integratsiya esa turistik mahsulotning jozibadorligini oshiradi. Natijada, turistlarning hududda qolish muddati uzayadi va ularning xarajatlari ortadi, bu esa tuman iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad olib keladi.

Ikkinchidan, turizmni rivojlantirishda qiymat zanjiri yondashuvi muhim metodologik asos hisoblanadi. Qiymat zanjiri turistik mahsulotni yaratish, uni shakllantirish va yakuniy iste’molchiga yetkazib berish jarayonidagi barcha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu zanjir transport xizmatlaridan boshlanib, joylashtirish, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, savdo va boshqa qo‘shimcha xizmatlar bilan yakunlanadi. Har bir bo‘g‘inning samarali faoliyati umumiy natijaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Qiymat zanjiri yondashuvining asosiy ustunligi shundaki, u har bir bo‘g‘inning qo‘shilgan qiymatini aniqlash va uni optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, transport xarajatlarini kamaytirish yoki xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish orqali umumiy turistik mahsulotning narxi pasaytirilishi va raqobatbardoshligi oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatish orqali turistlarning qoniqish darajasi ortadi, bu esa hududning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tumanlar iqtisodiyotida turizm klasterlarini shakllantirish investitsiya jarayonlarini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Klasterlash investorlarga aniq va barqaror biznes muhiti yaratadi, chunki bunda barcha zarur infratuzilma va xizmatlar tizimi shakllangan bo‘ladi. Natijada, xususiy investitsiyalar hajmi ortadi, yangi loyihalar amalga oshiriladi va hududda iqtisodiy faollik kuchayadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari,

subsidiyalar va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari investitsion jozibadorlikni yanada oshiradi.

Hududiy boshqaruv tizimining samaradorligi ham turizmni klasterlash jarayonida muhim omil hisoblanadi. Tuman darajasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yagona strategiya ishlab chiqilishi, barcha manfaatdor tomonlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini keng qo‘llash orqali infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xizmatlar sifatini oshirish mumkin.

To‘rtinchidan, turizmni hududiy klasterlash va qiymat zanjiri asosida rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Raqamli platformalar orqali turistik xizmatlarni bron qilish, marketing faoliyatini yuritish, turistlar oqimini boshqarish va tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa xizmatlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlari turizm xizmatlarining qulayligini oshiradi.

Beshinchidan, tumanlar kesimida turizmni rivojlantirishda hududiy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har bir hududning o‘ziga xos tabiiy, madaniy va tarixiy resurslari mavjud bo‘lib, ularni kompleks tarzda rivojlantirish orqali turizm salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Masalan, tarixiy obidalar, milliy hunarmandchilik, an’anaviy oshxona va madaniy tadbirlar turistik mahsulotning ajralmas qismi sifatida shakllantirilishi lozim.

Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlash ham turizmni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Turizm faoliyati atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishi va ekologik muvozanat saqlanishi zarur. Bu borada “yashil turizm” konsepsiyasini joriy etish, ekologik standartlarga rioya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizmni hududiy klasterlash va qiymat zanjiri asosida rivojlantirish tumanlar iqtisodiyotining samaradorligini oshirishda

kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon faqatgina iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, turizmni rivojlantirish strategiyasi kompleks va tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilishi zarur.

Natijada, hududiy klasterlash va qiymat zanjiri integratsiyasi orqali tumanlarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining umumiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.

2. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90.

3. UNWTO. Tourism and Competitiveness Report. – Madrid: World Tourism Organization, 2020. – 120 p.

4. OECD. Tourism Trends and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 300 p.

5. Kaplinsky R., Morris M. A Handbook for Value Chain Research. – Ottawa: IDRC, 2001. – 113 p.

6. Gereffi G., Fernandez-Stark K. Global Value Chain Analysis: A Primer. – Durham: Duke University, 2016. – 34 p.

7. UNDP. Local Economic Development and Tourism. – New York: UNDP, 2019. – 85 p.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qarori. Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Turizm sohasiga oid statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2023.

11. WTTC. Travel & Tourism Economic Impact Report. – London, 2023.

12. Briedenhann J., Wickens E. Tourism Routes as a Tool for the Economic Development of Rural Areas // Tourism Management. – 2004. – Vol. 25. – P. 71–79.

13. Novelli M., Schmitz B., Spencer T. Networks, Clusters and Innovation in Tourism // Tourism Management. – 2006. – Vol. 27. – P. 1141–1152.

14. Hjalager A.-M. A Review of Innovation Research in Tourism // Tourism Management. – 2010. – Vol. 31. – P. 1–12.

15. Sharpley R. Tourism Development and the Environment. – London: Routledge, 2009. – 256 p.

QISHLOQ XO‘JALIGI, AGROTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIDA TUMANLAR SALOHIYATI

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ASALARICHILIK SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Bazarov Sanjar Safarovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

E-mail: jsafarov595@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda iqlim omillarining asalarichilik samaradorligiga ta’siri hamda innovatsion texnologiyalarning ushbu ta’sirni yumshatuvchi roli empirik tahlil asosida o‘rganilgan. Natijalar harorat, yog‘in va qurg‘oqchilik indekslari samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini, smart-uya va raqamli monitoring texnologiyalari esa bu salbiy ta’sirni kamaytirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, integral indekslar (CTI, DTI/BTI, BEI) asosida hududiy farqlar aniqlanib, mintaqaviy moslashgan boshqaruv zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar. *iqlim omillari, asalarichilik samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, smart-uya, raqamli monitoring, CTI, DTI, BEI, empirik tahlil, hududiy farqlar.*

Abstract. *This thesis examines the impact of climate factors on beekeeping efficiency and the mitigating role of innovative technologies based on empirical analysis. The results indicate that temperature, precipitation, and drought indices significantly affect efficiency, while smart hives and digital monitoring technologies reduce these negative impacts. Additionally, the use of integrated indices (CTI, DTI/BTI, BEI) allows for a more accurate assessment of regional differences, highlighting the need for region-specific adaptive management strategies.*

Keywords. *climate factors, beekeeping efficiency, innovative technologies, smart hive, digital monitoring, CTI, DTI, BEI, empirical analysis, regional differences.*

Аннотация. *В данной работе на основе эмпирического анализа исследуется влияние климатических факторов на эффективность пчеловодства, а также роль инновационных технологий в смягчении данного воздействия. Результаты показывают, что температура, количество осадков и индекс засухи оказывают значимое влияние на эффективность, в то время как технологии «умных ульев» и цифрового мониторинга снижают их негативное воздействие. Кроме того, использование интегральных индексов (CTI, DTI/BTI, BEI) позволяет более точно выявить региональные различия и обосновывает необходимость разработки адаптивных стратегий управления.*

Ключевые слова. *климатические факторы, эффективность пчеловодства, инновационные технологии, умный улей, цифровой мониторинг, CTI, DTI, BEI, эмпирический анализ, региональные различия.*

Kirish. Iqlim omillarining asalarichilik samaradorligiga sezilarli ta’siri mavjud. Iqlim ko‘rsatkichlari, xususan o‘rtacha harorat, yog‘in miqdori va qurg‘oqchilik indeksi asalarichilik samaradorligiga (asal hosildorligi, koloniya saqlanishi va daromad) statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Empirik tahlil natijalari ushbu omillarning ayrim hududlarda samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy xavf manbai ekanini tasdiqlaydi.

Innovatsion texnologiyalar iqlim zarbalarini yumshatuvchi omil hisoblanadi. Empirik panel regressiya modellari innovatsion texnologiyalar (smart-uya, raqamli monitoring, raqamli platformalar) iqlim omillarining salbiy ta’sirini kamaytiruvchi moderator omil ekanini ko‘rsatadi. Iqlim × texnologiya interaksiya termini musbat va statistik ahamiyatli bo‘lib, texnologiyalar mavjud sharoitda asalarichilik samaradorligi barqarorroq bo‘lishini isbotlaydi.

Integral indekslar asosida baholash empirik tahlilning aniqligini oshiradi. Iqlim xavfi indeksi (CTI), texnologik tayyorgarlik indeksi (DTI/BTI) va asalarichilik samaradorligi indeksi (BEI) asosida olib borilgan empirik baholash natijalari alohida ko‘rsatkichlarga nisbatan hududiy farqlarni aniqroq aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv empirik tahlilning kompleks va tizimli xarakterini ta’minlaydi. Hududiy (mintaqaviy) farqlar empirik jihatdan tasdiqlanadi. Empirik tahlil Qashqadaryo viloyati tumanlari o‘rtasida iqlim xavfi, texnologiya darajasi va asalarichilik samaradorligi bo‘yicha sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat asalarichilikni rivojlantirishda yagona yondashuv emas, balki mintaqaviy moslashgan strategiyalar zarurligini asoslaydi.

Asosiy qism. Biz olib borayotgan tadqiqotda iqlim o‘zgarishi sharoitida asalarichilik samaradorligiga iqlim omillarining (harorat, yog‘in va qurg‘oqchilik) statistik jihatdan sezilarli ta’siri empirik tahlil asosida aniqlanib, ushbu ta’sir hududiy kesimda farqlanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

-Innovatsion texnologiyalar (smart-uya, raqamli monitoring va platformalar) asalarichilikda iqlim zarbalarini yumshatuvchi moderator omil ekanligi panel regressiya va interaksiya terminlari orqali empirik jihatdan isbotlanadi.

Asalarichilikda iqlim xavfi, texnologik tayyorgarlik va samaradorlikni yagona tizimda baholash imkonini beruvchi integral indekslar (CTI, DTI/BTI va BEI) ishlab chiqildi va ularning empirik tahlildagi ustunligi ilmiy asoslandi.

Qashqadaryo viloyati sharoitida innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur’atlari oshgan sari iqlim o‘zgarishining asalarichilik samaradorligiga salbiy ta’siri sezilarli darajada kamayishi prognoz-scenariylar asosida ilmiy jihatdan isbotlandi.

Dissertatsiyada iqlim omillarining asalarichilik samaradorligiga ta’siri empirik baholandi, innovatsion texnologiyalar ushbu ta’sirni yumshatuvchi mexanizm sifatida isbotlandi va integral indekslar asosida mintaqaviy moslashgan baholash modeli ishlab chiqildi.



***1**-rasm. Iqlim omillarining asalarichilik samaradorligiga ta’siri va innovatsion texnologiyalar asosida mintaqaviy moslashgan integral baholash modeli.*

Rasmni elementlari bo‘yicha tahlil qilganimizda, iqlim omillari bloki harorat, yog‘ingarchilik, shamol, qurg‘oqchilik asalarichilik samaradorligiga tashqi ekzogen ta’sir etuvchi iqlim omillarini ifodalaydi. Haroratning keskin o‘zgarishi asalarilar biologik sikliga, yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilik nektar bazasiga, shamol esa uchish faolligi va koloniyalar barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Empirik tahlilda ushbu omillar asalarichilik samaradorligining pasayishiga olib keluvchi asosiy xavf manbalari sifatida baholangan.

Asalarichilik samaradorligi asal ishlab chiqarish hajmi, oilalar soni, hosildorlik va biologik barqarorlik kabi asosiy natijaviy ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Rasmda u markazga joylashtirilishi orqali iqlim va texnologik omillar ta’sirida shakllanuvchi asosiy bog‘lovchi o‘zgaruvchi (dependent variable) ekanligi ta’kidlangan.

Empirik baholash mexanizmi iqlim omillari va asalarichilik samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ekonometrik va statistik usullar orqali baholanganini anglatadi. Panel ma’lumotlar, regressiya modellari va elastiklik koeffitsientlari asosida iqlim omillarining salbiy ta’siri ilmiy jihatdan isbotlangan**.**

Innovatsion texnologiyalar raqamli monitoring, aqlli uyalar, ekologik texnikalar iqlim omillarining salbiy ta’sirini yumshatuvchi (moderator) mexanizm sifatida talqin qilinadi. Raqamli monitoring orqali mikroiqlim nazorati, aqlli uyalar yordamida resurslardan samarali foydalanish va ekologik texnologiyalar orqali barqarorlikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Empirik natijalarga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar joriy etilgan hududlarda samaradorlik pasayishi sezilarli darajada kamaygan.

Moslashtiruvchi mexanizmlar innovatsion texnologiyalarning amaliy boshqaruv mexanizmlariga aylanishini ko‘rsatadi. Ya’ni, texnologiyalar faqat vosita emas, balki iqlim xavflariga moslashuvni ta’minlovchi strategik instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

Mintaqaviy moslashgan baholash modeli tadqiqotning mualliflik konseptual natijasi hisoblanadi. Model hududlarning iqlim sharoiti, texnologik ta’minlanganligi va asalarichilik rivojlanish darajasidagi farqlarni hisobga olgan holda moslashgan baholash imkonini beradi.

Integral indekslar tizimi I_1 – Iqlim indeksi**:** hududiy iqlim xavflari darajasi, **I_2 –** Texnologiya indeksi**:** raqamli va innovatsion texnologiyalar qamrovi, I_3 – asalarichilik indeksi**:** ishlab chiqarish va biologik samaradorlik, ularning vaznlangan yig‘indisi orqali integral moslashuv indeksi hisoblanadi. Bu yondashuv mintaqalar kesimida solishtirma tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abd El-Wahab H. S., Darwish A. A., Hassan A. M. Precision apiculture and its impact on honey bee colony performance // *Journal of Apicultural Science*. – 2020. – Vol. 64, № 2. – P. 45–58.

2. Ferrari P. Smart hive systems and IoT applications in beekeeping // *Computers and Electronics in Agriculture*. – 2019. – Vol. 162. – P. 123–130.

3. Conte G. G., Migliorini P. ICT applications in apiculture: A tool for improving sustainability // *Agricultural Systems*. – 2018. – Vol. 162. – P. 1–10.

4. Kourtesis D. Digital transformation in precision agriculture and apiculture // *Information Processing in Agriculture*. – 2021. – Vol. 8, № 3. – P. 321–330.

5. Stahlschmidt S. Acoustic monitoring and artificial intelligence in beekeeping // *Biosystems Engineering*. – 2020. – Vol. 195. – P. 1–10.

6. Catania P. Machine learning applications for predicting honey bee colony performance // *Computers and Electronics in Agriculture*. – 2021. – Vol. 180. – P. 105889.

7. Tilman D. *Biodiversity and Ecosystem Functioning* / D. Tilman. – Princeton: Princeton University Press, 2001. – 412 p.

8. Rockström J., Steffen W., Noone K. et al. A safe operating space for humanity // *Nature*. – 2009. – Vol. 461. – P. 472–475.

9. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution* / K. Schwab. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 172 p.

10. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age* / E. Brynjolfsson, A. McAfee. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.

11. Porter M. E., Heppelmann J. E. How smart, connected products are transforming competition // *Harvard Business Review*. – 2014. – Vol. 92, № 11. – P. 64–88.

12. Abdurahmonov M. *Qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanish asoslari* / M. Abdurahmonov. – Toshkent: Fan, 2018. – 280 b.

13. Nabiev B. *Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish* / B. Nabiev. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 312 b

MOSH O‘SIMLIGIDA BARG SATHINING SHAKLLANISHIGA URUG‘ EKISH MUDDATLARI HAMDA EKISH ME’YORLARINI TA’SIRI

Xudoyberdiyeva Shaxnoza Davlatovna

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti

(E-mail): ddeiti-19@mail.ru.

Rahmonov Shuxratjon Husanboyevich

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tatqiqot insituti. Andijon ilmiy tajriba stansiyasi. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasi

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda barg sathining shakllanishi moshning Baraka navida urug‘ ekish muddati va ekish sxemasining ta’siriga muvofiq o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, birinchi muddatda (10–15 iyun) ekilgan va 60x5–1 hamda 76x5–1 sxemalarida barg sathi maksimal qiymatlarga ega bo‘ldi. Barg sathining o‘sishi o‘simliklarning rivojlanish bosqichlariga qarab farqlanib, dukkaklash fazasida eng yuqori darajaga yetadi, pishish fazasida esa pastki yarus barglarining qarishi va qurishi sababli kamayadi.*

Kalit so‘zlar: *barg sathi, urug‘ ekish muddati, ekish sxemasi, mosh, fotosintetik faollik.*

Annotatsiya: *V dannom issledovanii izuchalos formirovanie ploщadi listev u sorta masha Baraka v zavisimosti ot srokov poseva i sxem poseva. Rezultatы pokazali, chto maksimalnaya ploщad listev bыla zaregistrirovana u variantov, poseyannыx v pervыy srok (10–15 iyunya) po sxemam 60×5–1 i 76×5–1. Rost ploщadi listev varirovalsya v zavisimosti ot faz razvitiya rasteniy, dostigaya maksimuma v faze formirovaniya struchkov i snijayas v faze sozrevaniya iz-za stareniya i usыxaniya nijnix yarusov listev. Poluchennыe dannыe imeyut*

prakticheskoe znachenie dlya optimizatsii fotosinteticheskoy aktivnosti i sovershenstvovaniya texnologiy poseva.

Klyuchevыe slova: *ploщad listev, sroki poseva, sxema poseva, mash Baraka, fotosinteticheskaya aktivnost.*

Abstract: *This study investigated leaf area development in the Baraka variety of mung bean (Vigna radiata) depending on sowing dates and planting schemes. The results indicated that the maximum leaf area was observed in the variants sown in the first period (June 10–15) under the 60×5–1 and 76×5–1 schemes. Leaf area growth varied according to plant developmental stages, reaching its peak at the podding stage and decreasing during the ripening stage due to senescence and drying of lower canopy leaves. The findings are valuable for optimizing photosynthetic activity and improving sowing technology.*

Keywords: *leaf area, sowing date, planting scheme, Baraka mung bean, photosynthetic activity.*

Kirish. Mosh o‘simligida barg sathining shakllanishi fotosintez jarayoni samaradorligi va hosildorlik darajasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Barg maydonining rivojlanishi ko‘p jihatdan urug‘ ekish muddatlari va ekish sxemalariga bog‘liq bo‘lib, ular o‘simliklarning ozuqa maydoni, yorug‘lik va namlikdan foydalanish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ekish muddatining maqbul tanlanishi o‘simliklarning qulay agroklimatik sharoitlarda barqaror o‘sib-rivojlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, ekish sxemasi va ko‘chat qalinligi barg sathining shakllanishi hamda fotosintetik faollik darajasiga bevosita ta’sir etadi. Shu bois, moshning “Baraka” navida turli urug‘ ekish muddatlari va ekish sxemalarining barg sathi shakllanishiga ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharxi. X.A.Idrisov va U.O. Nurmatovlar yozishicha, Toshkent viloyati o‘tloqi-botqoq tuproqlarida moshning, Navro‘z va Durdona navlarini 20 iyun’ muddatida va gektariga 400 ming urug‘ sarflangan variantlarda dukkaklanish

fazasida barg sathi eng yuqori bo‘lgani (Navro‘z-34,6 ming m², Durdona-34,7 ming m²) aniqlangan[4].

I.V. Massino va N.S. Umarova yozishicha, dukkakli don ekinlarini takroriy ekin sifatida ekish o‘simliklarda umumiy barg sathining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Barg sathining rivojlanish darajasi fotosintez jarayoni samaradorligini belgilab, hosil elementlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi[5].

I.A. Israilov ta’kidlashicha, dukkakli don ekinlari, jumladan moshni takroriy ekin sifatida yetishtirish uchun qulay hisoblanadi. “Radost”, “Durdona” va “Zilola” navlari bug‘doy ang‘iziga turli muddatlarda (25.06; 05.07; 15.07) ekilganda, erta ekish barg yuzasining shakllanishi va fotosintez mahsuldorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Erta muddatlarda barg yuzasi 25,3-33,7 ming m²/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, kech ekishda ushbu ko‘rsatkich 24,3-30,7 ming m²/ga bo‘lganligi aniqlangan[6].

Tadqiqot metodologiyasi va uslubi. Tadqiqotlar 2022 yilda Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining Farg‘ona ilmiy tajriba stansiyasi markaziy tajriba maydonida moshning Baraka navida olib borildi. Tajriba uch xil ekish muddatida (10-15.06; 20-25.06; 1-5.07) hamda 60x5-1, 60x10-1, 60x15-1, 76x5-1, 76x10-1 va 76x15-1 ekish sxemalarida o‘rganildi. Tadqiqot 18 variant va 4 takrorlanishdan iborat bo‘lib, xar bir qaytariq maydoni 240 m^2, hisoblash maydonchasi esa 120 m^2 ni tashkil etdi. Fenologik kuzatuvlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” hamda «Metodika Gosudarstvennogo sortoispытaniya selskoxozyaystvennых kultur» asosida olib borildi, natijalar esa «Metodika polevogo opыta» uslubi bo‘yicha statistik tahlil qilindi [1,2,3].

Tatqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barg sathining shakllanishi urug‘ ekish muddati va ekish sxemalariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Barg sathi o‘simlik rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kam bo‘lib, keyinchalik o‘sib borishi va dukkaklash fazasida eng yuqori ko‘rsatkichga yetishi kuzatildi. Pishish fazasiga kelib esa barg sathi pastki yarus barglarining qarishi va qurishi natijasida

kamayishi aniqlandi.

Birinchi muddat (10–15 iyun) ekilgan variantlarda barg sathining eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligi kuzatildi. Shoxlanish fazasida qator orasi 60 sm ekilgan variantlarda barg sathi 14,7–15,3 ming m²/ga oralig‘ida bo‘ldi. Eng yuqori ko‘rsatkich 60x5-1 sxemada ekilgan variantda kuzatilib, barg sathi 15,3 ming m²/ga ni tashkil etdi. Qator orasi 76 sm bo‘lgan variantlarda esa barg sathi 12,9–15,1 ming m²/ga oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich 76x5–1 sxemada (15,1 ming m²/ga) qayd etildi.

G‘unchalash fazasiga kelib barg sathi yanada ortib bordi. Qator orasi 60 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 21,1–24,3 ming m²/ga ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 60x5-1 sxemada ekilgan variantda (24,3 ming m²/ga) kuzatildi. Qator orasi 76 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 19,8–23,9 ming m²/ga oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori natija 76x5–1 sxemada (23,9 ming m²/ga) kuzatildi.

Gullash fazasida barg sathining yanada oshishi kuzatildi. Qator orasi 60 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 36,6–40,4 ming m²/ga ni tashkil etdi. Bu fazada ham eng yuqori ko‘rsatkich 60x5–1 sxemada (40,4 ming m²/ga) aniqlandi. Qator orasi 76 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 34,9–39,6 ming m²/ga oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich 76x5–1 sxemada (39,6 ming m²/ga) qayd etildi.

Dukkaklash fazasida barg sathi maksimal darajaga yetdi. Qator orasi 60 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 43,2–47,8 ming m²/ga ni tashkil etdi. Eng yuqori natija 60x5–1 sxemada ekilgan variantda (47,8 ming m²/ga) kuzatildi. Qator orasi 76 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 41,0–47,0 ming m²/ga oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich 76x5–1 sxemada (47,0 ming m²/ga) qayd etildi.

Pishish fazasiga kelib barg sathi kamayishi kuzatildi. Qator orasi 60 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 25,3–29,1 ming m²/ga ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 60x5–1 sxemada (29,1 ming m²/ga) qayd etildi. Qator orasi 76 sm bo‘lgan variantlarda barg sathi 23,5–28,5 ming m²/ga oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori natija 76x5–1 sxemada (28,5 ming m²/ga) kuzatildi.

Ikkinchi muddatida (20–25 iyun) barg sathi ko‘rsatkichlari birinchi muddatga

nisbatan biroz past bo‘lganligi kuzatildi. Shoxlanish fazasida barg sathi 11,9–14,1 ming m²/ga oralig‘ida bo‘ldi. G‘unchalash fazasida bu ko‘rsatkich 19,0–22,1 ming m²/ga ni, gullash fazasida 32,8–38,0 ming m²/ga ni tashkil etdi. Dukkaklash fazasida barg sathi 37,6–43,8 ming m²/ga gacha ortdi. Pishish fazasiga kelib esa barg sathi 21,7–26,2 ming m²/ga oralig‘ida bo‘ldi. Bu muddatda ham eng yuqori ko‘rsatkichlar 60x5–1 va 76x5–1 ekish sxemalarida kuzatildi.

1-jadval.

Urug‘ ekish muddatlari va ekish me’yorlarini barg sathining shakllanishiga ta’siri, 2022-yil.

№	Ekish muddatlari	Urug‘ ekish sxemasi	Ko‘chat qalinligi, ming tup/ga	Shoxlanish,		G‘unchalash,		Gullash,		Dukkaklash,		Pishish,	
				tup/sm²	ming m²/ga	tup/sm²	ming m²/ga	tup/sm²	ming m²/ga	tup/sm²	ming m²/ga	tup/sm²	ming m²/ga
1	10-15.06	60x5-1	333,3	49,7	15,3	79,2	24,3	133,4	40,4	159,0	47,8	96,8	29,1
2		60x10-1	166,7	96,5	14,9	150,8	23,2	255,4	38,9	301,3	45,7	182,6	27,7
3		60x15-1	111,1	140,5	14,7	205,9	21,1	357,8	36,6	423,1	43,2	247,8	25,3
4		76x5-1	263,1	61,3	15,1	97,3	23,9	162,9	39,6	194,9	47,0	118,2	28,5
5		76x10-1	131,6	111,1	13,7	185,8	22,8	313,7	38,3	373,1	45,3	224,9	27,3
6		76x15-1	87,7	158,1	12,9	244,1	19,8	431,4	34,9	509,3	41,0	291,9	23,5
7	20-25.06	60x5-1	333,3	45,4	14,1	71,4	22,1	124,3	38,0	145,5	43,8	85,7	25,8
8		60x10-1	166,7	89,5	13,7	138,4	21,1	244,2	37,0	280,1	42,3	162,3	24,5
9		60x15-1	111,1	123,8	12,8	189,5	19,4	341,2	34,8	389,4	39,6	230,1	23,4
10		76x5-1	263,1	57,2	13,9	89,4	21,5	156,6	37,4	182,0	43,2	110,4	26,2
11		76x10-1	131,6	110,8	13,5	172,5	20,8	293,7	35,3	346,7	41,5	217,2	26,0
12		76x15-1	87,7	145,8	11,9	234,9	19,0	406,9	32,8	467,7	37,6	269,9	21,7
13	1-5.07	60x5-1	333,3	45,4	13,9	71,6	21,7	125,1	37,8	140,6	42,1	81,8	24,5
14		60x10-1	166,7	88,1	13,5	136,5	20,7	239,4	36,2	270,4	40,8	155,1	23,4
15		60x15-1	111,1	122,2	12,6	186,3	19,0	329,4	33,5	377,2	38,1	221,8	22,4
16		76x5-1	263,1	56,3	13,7	88,0	21,1	152,5	36,4	174,4	41,5	107,0	25,6
17		76x10-1	131,6	108,5	13,3	167,2	20,3	291,3	35,1	334,7	40,2	208,2	25,0
18		76x15-1	87,7	138,2	11,4	214,9	17,6	395,8	32,1	450,5	36,4	257,4	20,8

Uchinchi muddatida (1–5 iyul) barg sathining shakllanishi yanada pasaygani aniqlandi. Shoxlanish fazasida barg sathi 11,4–13,9 ming m²/ga ni tashkil etdi. G‘unchalash fazasida 17,6–21,7 ming m²/ga, gullash fazasida 32,1–37,8 ming m²/ga bo‘ldi. Dukkaklash fazasida barg sathi 36,4–42,1 ming m²/ga gacha yetdi. Pishish fazasiga kelib esa 20,8–25,6 ming m²/ga oralig‘ida bo‘ldi. Bu muddatda ham nisbatan yuqori natijalar 60x5–1 va 76x5–1 ekish sxemalarida kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari barg sathining shakllanishi urug‘ ekish muddati va ekish sxemalariga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Erta muddatda ekilgan variantlarda barg sathi yuqori bo‘lib, fotosintetik faollikning kuchli shakllanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Shuningdek, o‘simliklar qalinligi ortishi

bilan gektar maydonida barg sathi ko‘payishi, ammo bir tup o‘simlikka to‘g‘ri keladigan barg maydoni kamayishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, moshning Baraka navini ekishda birinchi muddat (10–15 iyun) hamda 60x5–1 va 76x5–1 ekish sxemalari ekilgan variantlarda barg sathining eng yuqori darajada shakllanishini ta’minladi. Ushbu variantlarda dukkaklash fazasida barg sathi 47,8–47,0 ming m²/ga ni tashkil etib, boshqa variantlarga nisbatan yuqori natijalar qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zRITI. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. — Toshkent, 2007. — 33–61-b.
2. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Вып. 2: Зерновые, крупяные, зернобобовые, кукуруза и кормовые культуры. — Москва, 1989. — С. 30–38.
3. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта (с основами статической обработки результатов исследований). — 5-е изд., доп. и перераб. — М.: Агропромиздат, 1985. — С. 253–255.
4. Idrisov X. A., Nurmatov U. O. file:///C:/Users/hi-tech/Downloads/
5. Массино И. В., Умарова Н. С. Формирование площади листьев сортов сои в повторных посевах в зависимости от сроков сева // ЎЗПИТИ илмий конференцияси. — Ташкент, 2009. — С. 18–20.
6. Israilov I. A. Takroriy ekilgan mosh navlarining fotosintetik faoliyati // Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini jurnali. — 2024. — № 5. — 152–156-b.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA YUQORI MAHSULDOR QORAMOLLARDA NEKROBAKTERIOZNING TA’SIRI VA UNI OLDINI OLISH ORQALI TUMANLAR SALOHIYATINI OSHIRISH

Худоёрова Ф.А.

Ветеринария илмий тадқиқот институти

E-mail: feruza.vetuz@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda yuqori mahsuldor qoramollarda nekrobakteriozning tarqalishi, uning sut ishlab chiqarish samaradorligi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotlar 2025 yillarda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi 3 ta sut yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarida olib borildi.*

Natijalar kasallik rivojlanishida tuyoq kasalliklari, metabolik buzilishlar, noto‘g‘ri oziqlantirish va zoogigiyenik sharoitlarning yetarli emasligi asosiy trigger omillar ekanligini ko‘rsatdi. Nekrobakterioz tufayli sut mahsuldorligi o‘rtacha 10–15% ga kamayishi aniqlanib, bu holat tuman miqyosida oziq-ovqat ta’minotiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, kasallikning keng tarqalishi va mikroorganizmlar assotsiatsiyasi antibiotiklardan foydalanish hajmini oshirib, antibiotik rezistentlik shakllanish xavfini kuchaytirishi qayd etildi.

Integratsiyalashgan profilaktika modeli qo‘llanilganda kasallik uchrash chastotasi kamaygani, hayvonlar sog‘lig‘i yaxshilangani va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari barqarorlashgani aniqlandi. Ushbu yondashuv nekrobakteriozni samarali nazorat qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va tumanlar agrar salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *nekrobakterioz, yuqori mahsuldor qoramollar, Fusobacterium necrophorum, trigger omillar, sut mahsuldorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, antibiotik rezistentlik, agrotexnologiyalar, profilaktika modeli, tumanlar agrar salohiyati*

Abstract. *This study examines the prevalence of necrobacteriosis in high-yielding dairy cattle and its impact on milk production efficiency and food security. The research was conducted during 2025 in three dairy farms located in the Yukori Chirchik district of the Tashkent region.*

The results demonstrated that hoof diseases, metabolic disorders, improper feeding, and inadequate zoohygienic conditions are the main trigger factors contributing to disease development. Necrobacteriosis led to an average decrease in milk productivity by 10–15%, which may negatively affect food supply at the district level.

In addition, the widespread occurrence of the disease and the involvement of microbial associations increase the use of antibiotics, thereby raising the risk of antimicrobial resistance.

The implementation of an integrated prevention model resulted in a reduction in disease incidence, improvement in animal health, and stabilization of production indicators. This approach is effective for controlling necrobacteriosis, ensuring food security, and enhancing the agricultural potential of districts.

Keywords: *Necrobacteriosis, high-yielding dairy cattle, fusobacterium necrophorum, trigger factors, milk productivity, food security, antimicrobial resistance, agrotechnologies, prevention model, agricultural potential of districts*

Аннотация. *В данном исследовании изучены распространённость некробактериоза у высокопродуктивного крупного рогатого скота, а также его влияние на эффективность молочного производства и продовольственную безопасность. Исследования проводились в 2025 годах на трёх молочных фермах, расположенных в Юкоричирчикском районе Ташкентской области.*

Результаты показали, что основными триггерными факторами развития заболевания являются болезни копыт, метаболические нарушения,

несбалансированное кормление и недостаточный уровень зоогигиенических условий. Установлено, что некробактериоз приводит к снижению молочной продуктивности в среднем на 10–15%, что может отрицательно сказаться на продовольственном обеспечении на уровне района.

Кроме того, широкое распространение заболевания и участие микробных ассоциаций способствуют увеличению применения антибиотиков и повышению риска формирования антибиотикорезистентности.

Применение интегрированной модели профилактики позволило снизить частоту заболевания, улучшить состояние животных и стабилизировать производственные показатели. Данный подход является эффективным для контроля некробактериоза, обеспечения продовольственной безопасности и повышения аграрного потенциала районов.

Ключевые слова: *Некробактериоз, высокопродуктивный крупный рогатый скот, fusobacterium necrophorum, триггерные факторы, молочная продуктивность, продовольственная безопасность, антибиотикорезистентность, агротехнологии, профилактическая модель, аграрный потенциал районов*

Tadqiqot maqsadi — yuqori mahsuldor qoramollarda nekrobakteriozning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy trigger omillarni aniqlash, uning sut ishlab chiqarish samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sirini baholash hamda integratsiyalashgan profilaktika modeli asosida tumanlar agrar salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- nekrobakteriozning tarqalish darajasi va klinik xususiyatlarini aniqlash;
- kasallik rivojlanishida asosiy trigger omillarni baholash;
- sut mahsuldorligiga ta’sirini aniqlash;
- integratsiyalashgan profilaktika modelining samaradorligini baholash;
- tumanlar agrar salohiyatini oshirishga ta’sirini asoslash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotlar 2025 yil Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida joylashgan sut yo‘nalishidagi 3 ta fermer xo‘jaligida olib borildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida yuqori mahsuldor, asosan golshtein-friz zotli sog‘in sigirlar tanlab olindi.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi nekrobakteriozning chorvachilik ishlab chiqarish samaradorligiga, xususan sut mahsuldorligiga va shu orqali tuman agrar salohiyatiga ta’sirini aniqlashga qaratildi. Shu bilan birga kasallik rivojlanishiga sabab bo‘luvchi asosiy trigger omillar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari o‘rganildi.

Klinik tekshiruvlar davomida hayvonlarning umumiy holati, oqsoqlik darajasi, tuyoq to‘qimalaridagi o‘zgarishlar, interdigital yallig‘lanish va nekrotik jarayonlar baholandi. Ushbu ko‘rsatkichlar kasallikning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga ta’siri bilan birgalikda tahlil qilindi.

Bakteriologik tahlillar uchun jami 63 ta patologik namuna yig‘ilib, laboratoriya sharoitida tekshirildi. Namunalar aseptik qoidalarga rioya etilgan holda olinib, anaerob sharoitda kitt–tarozzi muhiti va qonli agar yordamida o‘rganildi. Inkubatsiya 37°c haroratda 48–72 soat davomida olib borildi. Ajratilgan mikroorganizmlar morfologik va biokimyoviy belgilariga ko‘ra aniqlanib, fusobacterium necrophorum ga mansubligi tasdiqlandi.

Shuningdek, xo‘jaliklarda mavjud agrotexnologik va zoogigiyenik sharoitlar, jumladan pol qoplamasi, namlik darajasi, oziqlantirish tizimi, hayvonlar zichligi va parvarish sharoitlari baholandi. Ushbu omillar nekrobakterioz rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy trigger omillar sifatida tahlil qilindi hamda ularning chorvachilik mahsuldorligi va tuman miqyosidagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi.

Tadqiqot doirasida aniqlangan omillarni kamaytirishga qaratilgan integratsiyalashgan profilaktika modeli ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu model zoogigiyenik sharoitlarni yaxshilash, oziqlantirishni muvozanatlashtirish, tuyoq parvarishini optimallashtirish va stress omillarini kamaytirishga asoslandi.

Olingan natijalar qiyosiy tahlil va variatsion-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, nekrobakteriozning sut ishlab chiqarish hajmiga, oziq-ovqat xavfsizligiga va tumanlar agrar salohiyatiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqori mahsuldor qoramollarda nekrobakteriozning keng tarqalganligi va uning chorvachilik ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Kasallikning rivojlanishi bir qator o‘zaro bog‘liq trigger omillar bilan belgilanib, ular xo‘jaliklar darajasidan tashqari tuman miqyosidagi agrar barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bakteriologik tahlillar natijasida olingan 63 ta patologik namunaning 80,0% ida anaerob mikroorganizmlar, asosan fusobacterium necrophorum aniqlanishi ushbu patogenning kasallik etiologiyasida yetakchi rol o‘ynashini tasdiqladi. Shu bilan birga mikroorganizmlarning assotsiatsiya holatida uchrashi kasallikning og‘ir va asoratlangan shakllarda kechishiga olib kelishi qayd etildi. Bu holat nekrobakterioz patogenezida mikrob omillarning kompleks ta’siri muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Klinik kuzatuvlar natijasida kasallikning eng ko‘p uchraydigan shakli tuyoqning distal qismlarida rivojlanishi aniqlanib, dastlab yallig‘lanish jarayonlari, keyinchalik esa nekrotik va yiringli o‘zgarishlar bilan murakkablashishi kuzatildi. Og‘ir holatlarda patologik jarayon chuqur to‘qimalarga tarqalib, hayvonlarning umumiy fiziologik holatini yomonlashtirdi.

Tadqiqot davomida nekrobakterioz bilan kasallangan hayvonlarda sut mahsuldorligining o‘rtacha 10–15% ga kamayishi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich xo‘jaliklar darajasida iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi bilan birga, tuman miqyosida sut ishlab chiqarish hajmining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari ham bevosita ta’sir ostida qoladi.

Aniqlanishicha, kasallik rivojlanishida asosiy trigger omillar sifatida tuyoq kasalliklari, yuqori namlik darajasi, noto‘g‘ri oziqlantirish, metabolik buzilishlar hamda zoogigiyenik sharoitlarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi muhim rol

o‘ynaydi. Ushbu omillar birgalikda ta’sir qilib, nafaqat kasallik rivojlanishini kuchaytiradi, balki chorvachilik mahsuldorligining pasayishiga ham olib keladi.

Shuningdek, kasallikning keng tarqalishi va mikroorganizmlar assotsiatsiyasi mavjudligi antibiotik vositalardan foydalanish hajmini oshiradi. Bu esa uzoq muddatda antibiotik rezistentlik shakllanish xavfini kuchaytirib, oziq-ovqat xavfsizligi va veterinariya nazorati tizimiga qo‘shimcha yuklama keltiradi.

Tadqiqot doirasida qo‘llanilgan integratsiyalashgan profilaktika modeli trigger omillarni kompleks bartaraf etishga qaratilgani bilan ajralib turdi. Model amaliyotga joriy etilgan xo‘jaliklarda kasallik uchrash chastotasi kamaygani, hayvonlarning umumiy holati yaxshilangani va sut mahsuldorligining barqarorlashgani kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, zoogigiyenik sharoitlarni yaxshilash, oziqlantirishni muvozanatlashtirish va hayvonlar uchun qulay muhit yaratish orqali nekrobakteriozni samarali nazorat qilish mumkin. Bu esa bevosita chorvachilik ishlab chiqarish hajmini oshirishga va tumanlar agrar salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, nekrobakteriozni faqat veterinariya muammosi sifatida emas, balki agrar tizim samaradorligiga ta’sir etuvchi kompleks omil sifatida baholash zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa

Yuqori mahsuldor qoramollarda nekrobakterioz keng tarqalgan ko‘p omilli kasallik bo‘lib, uning rivojlanishi asosan zoogigiyenik, oziqlantirish va metabolik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari kasallikning chorvachilik ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini, xususan sut mahsuldorligining o‘rtacha 10–15% ga kamayishiga olib kelishini tasdiqladi.

Aniqlanishicha, nekrobakteriozning yuqori darajada uchrashi nafaqat alohida xo‘jaliklar, balki tuman miqyosida sut ishlab chiqarish hajmining pasayishiga sabab bo‘lib, bu holat oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, kasallikning keng tarqalishi va mikroorganizmlar assotsiatsiyasi antibiotiklardan foydalanish hajmini oshiradi hamda antibiotik rezistentlik

rivojlanish xavfini kuchaytiradi. Bu esa zamonaviy chorvachilikda kasalliklarni nazorat qilish masalasini yanada dolzarb qiladi.

Trigger omillarni kompleks bartaraf etishga asoslangan integratsiyalashgan profilaktika modeli kasallik uchrash chastotasini kamaytirish, hayvonlar sog‘lig‘ini yaxshilash va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

Shu asosda, nekrobakteriozni samarali nazorat qilish chorvachilik mahsuldorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va tumanlar agrar salohiyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tuman miqyosida ushbu kasallikning kamaytirilishi sut ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali hududning oziq-ovqat ta’minoti va iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nagaraja T.G., Lechtenberg K.F. Liver abscesses in feedlot cattle: a review. Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. 2007;23(2):351–369.

2. Checkley S.E., Campbell J.R., Chirino-Trejo M., Janzen E.D. Efficacy of vaccination against Fusobacterium necrophorum for control of liver abscesses and footrot in cattle. Canadian Veterinary Journal. 2005;46:1002–1007.

3. Berg J.N., Scanlan C.M. Studies on Fusobacterium necrophorum: biotypes, virulence, and antibiotic susceptibility. American Journal of Veterinary Research. 1982;43(9):1580–1586.

4. Tan Z.L., Nagaraja T.G., Chengappa M.M. Selective enumeration of Fusobacterium necrophorum from bovine samples. Journal of Microbiological Methods. 1994;19:33–39.

5. Greenough P.R. Bovine laminitis and lameness: pathogenesis and prevention. Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. 2007;23(2):331–350.

6. Blowey R., Weaver A. Color atlas of diseases and disorders of cattle. 3rd ed. Mosby Elsevier; 2011.

7. Quinn P.J., Markey B.K., Leonard F.C., FitzPatrick E.S., Fanning S., Hartigan P.J. Veterinary microbiology and microbial disease. 2nd ed. Wiley-Blackwell; 2011.

8. Radostits O.M., Gay C.C., Hinchcliff K.W., Constable P.D. Veterinary medicine: a textbook of the diseases of cattle, horses, sheep, pigs and goats. 10th ed. Saunders Elsevier; 2007.

9. Marshall B.M., Levy S.B. Food animals and antimicrobials: impacts on human health. Clinical Microbiology Reviews. 2011;24(4):718–733.

10. Van Boeckel T.P., Brower C., Gilbert M. et al. Global trends in antimicrobial use in food animals. Proceedings of the National Academy of Sciences. 2015;112(18):5649–5654.

TUMANLARDA TA’LIM, PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ILMIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MAKTABI — ZAMONAVIY STEM TA’LIM MODELI SIFATIDA

Qurbonova Zulxumor Asqar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining shakllanishi, xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, Ulug'bek rasadxonasining tashkil etilishi va u yerdagi ilm-fanning rivoji, ilmiy muhit va ustoz-shogird an'analari va ta'lim integratsiyasi yoritiladi. Shuningdek, Ulug'bekning ilmiy faoliyati davomida yozgan asarlari ya'ni "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" asari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Zamonaviy ta'limda STEM ta'lim metodi va Ulug'bek maktabidagi ilmiy faoliyat integratsiyasi qiyoslanadi. Natijada bugungi ta'lim tizimini rivojlantirishdagi tarixiy ilmiy maktabining o'rni asoslab beriladi va shuningdek uni zamonaviy ta'limga qo'llanilishi ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so’zlar: *Mirzo Ulug’bek, STEM ta’limi, Ulug’bek rasadxonasi, ta’lim integratsiyasi, astronomiya, Ziji Jadidi Ko’rogoniy.*

Abtract. *This article analyzes the formation, characteristics, and stages of development of the scientific school of Mirzo Ulugbek. In particular, the establishment of the Ulugbek Observatory and the development of science there, the scientific environment, the traditions of the master-apprentice system, and the integration of education are highlighted. Additionally, detailed information is provided about Ulugbek’s scientific works, namely the "Zij-i Jadid-i Kuragoni." The STEM education method in modern education and the integration of scientific activity in Ulugbek’s school are compared. As a result, the role of the historical scientific school in the development of today’s education system is substantiated, and its application in modern education is also demonstrated.*

Key words: *Mirzo Ulug‘bek, STEM education, Ulug‘bek Observatory, educational integration, astronomy, Zij-i Jadid-i Kuragoni.*

Аннотация. *В данной статье анализируются формирование, особенности и этапы развития научной школы Мирзо Улугбека. В частности, освещаются создание обсерватории Улугбека и развитие науки в ней, научная среда, традиции наставничества «учитель–ученик» и интеграция образования. Также приводится подробная информация о научных трудах Улугбека, а именно о произведении «Зидж-и джадид-и Курагони». Сравниваются метод STEM в современном образовании и интеграция научной деятельности в школе Улугбека. В результате обосновывается роль исторической научной школы в развитии современной системы образования, а также показано ее применение в современном образовании.*

Ключевые слова: *Mirzo Ulug‘bek, STEM-образование, Улугбекская обсерватория, интеграция образования, астрономия, Зидж-и Джадиди Курагони.*

Bugungi axborot asrida nafaqat O’zbekiston balki butun dunyo ta’lim tizimlarini rivojlantirmasdan taraqqiyotga erisha olmaydi. “Bugungi kunda Samarqand, Buxoro va shu kabi yirik ilmiy markazlarda yetishib chiqqan o‘rta asr olimlarining hissasi zamonaviy rivojlangan davlatlarning ilmiy yutuqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu olimlar orasida Mirzo Ulug‘bek alohida o‘rin tutadi, uning ilmiy merosi bugungi kunda ham jahon ilm-fanini ilhomlantirib kelmoqda”[1]. “1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyatini o‘rganish hamda ommalashtirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mahalliy va xalqaro konferensiyalar tashkil etish, shuningdek, uning davriga oid me’moriy yodgorliklarni asrab-avaylash yo‘nalishida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi”[2]. Hozirgi zamonaviy STEM ta’lim modeli bilan Mirzo Ulug’bek asos solgan ilmiy maktabni integratsion yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilishga e’tibor qaratiladi va bu yondashuvning hozirgi zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Mirzo Ulug’bek Markaziy Osiyodagi eng muhim ilmiy markazlardan biri bo‘lgan Samarqand rasadxonasining qurilishiga tashabbus ko‘rsatdi, ta’lim muassasalari va kutubxonalar tashkil etdi hamda o‘z davrining yetuk olimlarini jalb qildi. Ushbu sa’y-harakatlari orqali u o‘sha davrning yirik ilmiy markazlariga tenglashadigan intellektual muhit shakllanishiga hissa qo‘shdi. Mirzo Ulug‘bek faoliyati faqat tashkiliy ishlar bilan cheklanmagan. U shaxsan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlarda ishtirok etib, aniq o‘lchov va tizimli kuzatuv usullarini ishlab chiqdi, bu esa o‘z davri uchun nihoyatda yuqori aniqlikdagi natijalarga erishish imkonini berdi.

Uning faoliyati Markaziy Osiyoda astronomiya, matematika va ilmiy metodning rivojiga muhim hissa bo‘ldi. Ulug‘bekning ilmiy merosi bugungi kunda ham fan tarixi tadqiqotchilari va astronomlar e’tiborini tortib, ilmiy izlanishlarning muhim obyekti bo‘lib qolmoqda. Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) Temuriylar sulolasi hukmdori Shohruh oilasida tug‘ilgan bo‘lib, bu unga ta’lim olish va Temuriylar davrining intellektual muhitiga kirish imkonini bergan. U yoshlik chog‘idanoq matematika, astronomiya, falsafa va gumanitar fanlar bo‘yicha tizimli ta’lim olgan va bu uning kelajakdagi ilmiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratgan.

Hukmron sulola a’zosi sifatidagi yuqori mavqei va zimmasiga yuklatilgan ma’muriy vazifalarga qaramay, Ulug‘bek davlat arbobi va olim sifatidagi faoliyatni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtira oldi hamda siyosiy hokimiyat bilan ilmiy izlanishning noyob uyg‘unligini namoyon etdi. 1411-yilda Mirzo Ulug‘bek Samarqandda ilmiy markaz tashkil etdi, bu markaz tez orada mintaqaning intellektual hayotining asosiga aylandi. U o‘z davrining yetuk olimlari — astronomlar, matematiklar va faylasuflarni faol ravishda taklif etib, bilim almashinuvi va hamkorlikdagi tadqiqotlar uchun qulay ilmiy muhit yaratdi. Davlat faoliyati doirasida u o‘sha davr uchun eng ilg‘or astronomik kuzatuv asboblari bilan jihozlangan Samarqand rasadxonasining qurilishini, shuningdek, ta’lim muassasalari va kutubxonalar barpo etilishini tashabbus qildi.

Ushbu tashabbuslar ta’limni tizimlashtirish va bilimlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini berdi. “Ziji Koragani” Ulug‘bek qalamiga mansub eng mashhur asardir. Unda 1 018 ta qo‘zg‘almas (sobit) yulduzlarning joylashuvi va katalogi aniqlangan. Shuningdek, Samarqand kengligiga nisbatan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari hududida joylashgan 683 ta geografik nuqtaning koordinatalari belgilangan. Ulug‘bek rasadxonasi tadqiqotlari natijasida yaratilgan matematika va astronomiyaga oid bir qator noyob asarlar bugungi kunda ham olimlar e’tiborini tortib kelmoqda. 1941-yilda Ulug‘bek rasadxonasi haqida risola yozilgan.

E. Masson shunday deb yozgan: “Poytaxtdagi eng yaxshi badiiy va me’moriy kuchlar jalb etilgan ushbu rasadxona o‘zining g‘ayrioddiy shakllari bilangina emas, balki tashqi bezakdagi rang uyg‘unligining o‘ziga xosligi bilan ham o‘sha davrning boshqa yirik jamoat binolaridan ajralib turardi. Shu bilan birga, astronomlarning sirli tuman bilan qoplangan kuzatuvlari zamondoshlarida ixtiyorsiz hurmat tuyg‘usini uyg‘otgan bo‘lib, bu holat ulug‘vor bino sifatida e’tirof etilgan”[3]. Uning ilmiy faoliyati shu tarzda baholanib, u va Samarqand butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Tabiatan u tinchliksevar, vatanparvar, ilm-fan va bunyodkorlikni yuksak qadrlovchi inson bo‘lgan. Otasi Shohruh vafotidan so‘ng, 1447-yilda Temuriylar sulolasining boshqaruvini o‘z zimmasiga olgan. Mirzo Ulug‘bek davrida Movarounnahrda dunyoviy fanlar bilan bir qatorda tarix, adabiyot va san’at, xususan, tasviriy san’at ham yuksak darajada rivojlangan.

Ulug‘bekning ukasi Boysunqur ham ilmiy-adabiy mavzularda o‘zaro yozishmalar olib borgani ma’lum. Ulug‘bek Nizomiy Ganjaviy uslubi va maktabi hamda ozarbayjon shoiri Amir Xusrav Dehlavi ijodi ustuvorligi masalasida she’riy munozaralarda ishtirok etgan. U o‘z ona tilidan tashqari arab va fors tillarini ham mukammal bilgan (o‘sha davrdagi chig‘atoy-turkiy til). “Tarix-i Rashidiy” asarida “Muhammad Haydar Mirzo Ulug‘bekni “tarixnavis donishmand bo‘lgan va ‘To‘rt ulus tarixi’ni ham yozgan”[4] deb ta’riflaydi. Bu asar “Tarixi arba’ ulus” bo‘lib,

unda XIII asr va XIV asr birinchi yarmida Chingizxon tomonidan bosib olingan davlatlarning siyosiy hayoti yoritilgan.

Ulug‘bek rasadxonada ko‘plab ilmiy kuzatuvlar olib borgan. Ushbu kuzatuvlar natijasida “1437-yilda “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari yakunlangan. To‘rt qismdan iborat bu asarning ikkinchi qismi 22 bobdan tashkil topgan bo‘lib, 1 018 ta yulduzning turg‘un holatini aks ettiradi”[5]. Ushbu asar astronomiya fanida juda qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yirik ilmiy manbadir va asrlar davomida keng qo‘llanib kelgan. Hozirda uning qisqartirilgan nusxalaridan to‘rttasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi Angliyada, biri Hindistonning Bankipur shahridagi kutubxonada, yana biri esa AQShdagi Garvard universitetida saqlanadi.

STEM ta’limi konsepsiyasi “XX asrning ikkinchi yarmida AQShda shakllana boshlagan. 1950–1960-yillarda kosmik poyga hamda ilmiy raqobatning kuchayishi natijasida ta’lim tizimida matematika va tabiiy fanlarga alohida e’tibor berila boshlandi. 1983-yilda e’lon qilingan “A Nation at Risk” hisobotida esa ta’lim sifatini va uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi ta’kidlanib, bu STEM yondashuvining rivojlanishiga asos yaratdi. “STEM” atamasi ilmiy muomalaga birinchi marta 2001-yilda Judith A. Ramaley tomonidan kiritilgan”[6]. STEM yondashuvi an’anaviy o‘qitish tizimidan farqli ravishda fanlarni alohida emas, balki ularni hayotiy muammolar bilan bog‘liq holda integratsiyalashgan tarzda o‘rganishni nazarda tutadi. Masalan, o‘quvchilar suv resurslarini tejashga oid loyiha ustida ishlaganda fizika, matematika va texnologiya bilimlaridan birgalikda foydalanadilar.

“STEM atamasi Science(fan), Technology(texnologiya), Engineering(muhandislik) va Mathematics(matematika) sohalarini anglatadi. Turli iqtisodiy tarmoqlar STEM sohalarida yuz berayotgan texnologik innovatsiyalarga bog‘liq bo‘lganligi sababli ko‘plab mamlakatlar barqaror iqtisodiy rivojlanish, ish o‘rinlarining ko‘payishi va global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish strategiyasi sifatida ta’lim tizimida STEMga ustuvor ahamiyat bermoqda”[7]. STEM ta’limi dastlab iqtisodiy va siyosiy omillar ta’sirida shakllangan bo‘lsa-da,

hozirda u jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarni hamda demokratiya va ijtimoiy adolat kabi gumanistik maqsadlarni rivojlantiruvchi bilim sifatida qayta talqin qilinmoqda.

STEM ta’limi uchun uchta asosiy maqsad belgilangan: STEM savodxonligi, 21-asr ko‘nikmalariga ega STEM mutaxassislari (masalan, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlik va muloqot) hamda STEM tadqiqotchilari va innovatorlari. Ta’lim jarayonida STEM ta’limining asosiy maqsadi STEM savodxonligini shakllantirish hisoblanadi. STEM savodxonligini uch jihat orqali izohlaydi: STEMga oid masalalar bo‘yicha savollar berish, muammolarni hal qilish, hodisalarni tushuntirish va dalillarga asoslanib xulosalar chiqarish uchun bilim, munosabat va ko‘nikmalarga ega bo‘lish; Tadqiqot (inquiry) va dizayn usullaridan foydalanishni tushunish; STEM g‘oyalaridan fuqaro sifatida muammolarni tahlil qilishda foydalanish. STEM fanlarining xususiyatlarini empirik tahlil qilib, STEM savodxonligi foydali pedagogik tushuncha ekanligini ko‘rsatgan. Ularning tahliliga ko‘ra, STEM savodxonligi STEM fanlariga xos umumiy amaliyotlarni (masalan, diagrammalar, grafiklar va sxemalardan foydalanish) qamrab oladi va bu amaliyotlar jamiyat a’zolariga STEMga oid masalalarni tushunish hamda fuqarolik muhokamalarida ishtirok etish imkonini beradi.

Mirzo Ulug’bek asos solgan Ulug’bek akademiyasi tarixiga nazar tashlasak uning nafaqat Sharq, balki jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Uning faoliyatiga nazar tashlasak asosan tabiiy- ilmiy faoliyatini nazariya va amaliyot bilan uyg’un holda olib borganligini guvohi bo'lamiz. Mirzo Ulug’bek asosan kuzatuv astronomiyasi, matematik hisob-kitoblar va amaliy ilmiy tajribalar bilan uyg’unlashgan holda ilmiy faoliyatini olib brgan. Bu yondashuv hozirgi zamonaviy STEM ta’lim modeli tamoyillariga mos keladi. zamonaviy STEM ta’limining asosiy xususiyatlaridan biri ham fanlarni alohida emas, balki integratsion yondashuv asosida o'qitish hisoblanadi.

Bu o’qitish uslubi o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammoga tez va oson yechim topish qobiliyati va imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ulug’bek ilmiy maktabi ham bu yondashuvga yorqin misol bo’la oladi. Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan ilmiy yangiliklarni yaratilishida ham integratsion yondashuvni ko’rishimiz mumkin. Bu rasadxonada aniq fanlar masalan atranomiya matematik aniq hisob kitoblar bilan integratsiya yani birlashtirilgan. O’sha davrda nafaqat Ulug’bek balki shu rasadxonaning boshqa olimlari ham yulduzlar kuzatuv natijalarini matematik hisob kitoblar orqali ilmiy xulosaga kelishgan.

Hozorgi kunda bu metodni STEM ta’limi bilan bog’lasak haqiqiy hayot muammolarini hal qilish (real world problem solving) yondashuviga misol bo'ladi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiku Ulug’bekning yulduzlar katoligi hamda astronomik jadvallari o'sha davrda juda aniq ko’rsatkichga ega bo'lgan va bu natijalar bugungi kunda ilmiy metodologiyaning rivojlanishiga o’z hissasini qo'shgan. Bundan tashqari o’sha davrda ustoz -shogirt an’anasi hamda jamoviy ilmiy faoliyat muhim o’rin tutgan va buni zamonaviy STEM ta’limi bilan taqqoslasak hamkorlikda o’rganish (collaborative learning) metodiga mos keladi. Ilmiy maktabda olimlar birgalikda ishlashgan va fikr almashishigan va bu orqali tajriba orttirishgan. Bunday yondashuv ilmiy fikrlashni rivojlantirishdan tashqari yangi bilmlar yaratishda muhim rol o’ynagan.

Xulosa qilib aytganda Ulug’bek akademiyasi va STEM ta’lim modeli o'rtasidagi bog’liqlik quyidagilarda nomayon bo’ladi: fanlar integratsiyasi, amaliy tajribaga asoslangan o’qitish metodikasi va hamkorlikdagi ilmiy faoliyat quyidagi bog’liqliklar nafaqat Ulug’bek ilmiy merosining tarixda muhim ahamiyatga ega ekanliginin qolaversa zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarb ahamiyatga egaligini ko’rsatadi.

Birinchidan, Mirzo Ulug’bek asos solgan ilmiy maktab nafaqat o’z davrining ilm-fan taraqqiyotiga qolaversa bugungi zamonaviy ta’lim modellarini ishlab chiqish va rivojlantirishda ham ulkan hissa qo'shdi.

Ikkinchidan, Ulug’bek faoliyatida ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlovchi omillardan biri bu nazariya va amaliyot uyg’unligi,

kuzatuv va matematik tahlilning birgalikda qo’llanilishi hisoblanadi. Bu jihatlar hozirgi zamonaviy STEM ta’limi modelining asosiy tamoyillarga mos keladi.

Uchinchidan, Ilmiy bilimlarning rivojlanishi va uzluksizligini ta’minlagan omillardan biri Ulug’bek akademiyasidagi ustoz-shogird an’anasi va jamoaviy ilmiy faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davronova Z. B. Mirzo Ulugbek’s astronomical and mathematical legacy: its role in the development of scientific thought in Central Asia. 2026. Vol. 6. No. 03.

2. Rasulov G. P. The scientific legacy and character of Mirzo Ulugbek // Indonesian Culture and Religion Issues. 2025. Vol. 2. No. 3. P. 7. https://doi.org/10.47134/diksima.v2i3.224.

3. Masson M. E. Ulug‘bek rasadxonasi va Samarqand arxeologik yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar. Toshkent: Fan, 1950-yillar ilmiy maqolalari to‘plami.

4. Mirza Muhammad Haydar Dughlat. Tarikh-i Rashidi (kritik nashr). London: The Royal Asiatic Society, 1895.

5. Madraximova G. S. Scientific career of Mirzo Ulugbek. 2024. Vol. 4. No. 11.

6. Yeşilyurt S. Yaratıcı düşünme becerisinin eğitim yoluyla geliştirilmesi // Eğitimde Kuram ve Uygulama Dergisi. 2020. Vol. 16. No. 2. P. 240–256.

7. UNESCO. Cracking the Code: Girls’ and Women’s Education in Science, Technology, Engineering and Mathematics (STEM). Paris: UNESCO Publishing, 2017.

Tumanlar miqyosida sog‘liqni saqlash, tibbiyot, farmatsevtika va aholi salomatligi muammolari

BEMORLARNING PSIXIK TIKLANISH FAOLIYAT DINAMIKASI

Karimova Gulchehra Xamidullayevna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
gulikarimova0009@gmail.com

Kirish. Zamonaviy tibbiyotda bemorlarni davolash jarayoni faqat jismoniy sog‘ayish bilan cheklanmaydi. Inson salomatligi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikning uyg‘unligi sifatida qaraladi. Shu sababli bemorlarning psixik tiklanish jarayoni tibbiy amaliyotda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kasallik og‘ir jarrohlik amaliyotlari, travmalar yoki surunkali kasalliklar bemor ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlarda bemorlarda stress, xavotir, depressiya va qo‘rquv kabi psixologik muammolar yuzaga keladi. Bu esa sog‘ayish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi - bemorlarning psixik tiklanish jarayonini o‘rganish, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda psixologik yordamning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Bemorlarning psixik tiklanish jarayoni zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

-Psixik tiklanish bosqichma-bosqich amalga oshadi

-Stress va xavotir sog‘ayish jarayoniga salbiy ta’sir qiladi

-Psixologik yordam tiklanishni tezlashtiradi

-Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi

Shu bois tibbiy amaliyotda psixologik yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Usullar.Mazkur tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Nazariy tahlil.Psixologiya va tibbiyot sohasidagi ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, psixik tiklanish bo‘yicha mavjud qarashlar tahlil qilindi.

Kuzatuv usuli.Turli kasalliklardan keyin davolanayotgan bemorlarning ruhiy holati kuzatildi.

So‘rovnoma.Bemorlar orasida stress darajasi, emotsional holat va psixologik ehtiyojlarni aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazildi.

Taqqoslash usuli.Psixologik yordam olgan va olmagan bemorlar natijalari taqqoslandi.

Natijalar.Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi. Psixik tiklanish bosqichlari aniqlandi.Bemorlarning aksariyatida quyidagi bosqichlar kuzatildi:inkor va tushunmaslik , qo‘rquv va xavotir, moslashuv, tiklanish Stress darajasi yuqori ekanligi aniqlandi.Ko‘pchilik bemorlarda:operatsiya oldidan kuchli xavotir, davolanish jarayonida ruhiy zo‘riqish kuzatildi.

Psixologik yordam samaradorligi.Psixologik yordam olgan bemorlarda: stress darajasi pasaydi,kayfiyat yaxshilandi sog‘ayish tezlashdi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ahamiyati Oila va yaqinlarning yordami bemorning ruhiy tiklanishida muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Muhokama .Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, psixik tiklanish jarayoni murakkab va ko‘p omillarga bog‘liq. Bemorning ruhiy holati uning jismoniy sog‘ayishiga bevosita ta’sir qiladi.

Stress va xavotir organizmda salbiy fiziologik o‘zgarishlarga olib keladi. Masalan:

-yurak urishi tezlashadi

-qon bosimi oshadi

-immun tizimi zaiflashadi

Bu esa davolanish jarayonini qiyinlashtiradi.

Psixologik treninglar, relaksatsiya mashqlari va psixologik maslahatlar bemorning ruhiy barqarorligini tiklashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, operatsiya oldidan psixologik tayyorgarlik bemorning qo‘rquvini kamaytiradi.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi ijobiy munosabat ham muhim ahamiyatga ega. Bemor o‘zini tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilsa, uning tiklanish jarayoni tezlashadi.

Xulosa.Bemorlarning psixik tiklanish jarayoni tibbiy davolashning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

-Psixik tiklanish bir necha bosqichlardan iborat murakkab jarayondir

-Stress va xavotir sog‘ayishni sekinlashtiradi

-Psixologik yordam tiklanishni tezlashtiradi

-Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixologiya asoslari bo‘yicha darsliklar
2. Tibbiy psixologiya manbalari
3. Stress va salomatlik bo‘yicha ilmiy maqolalar
4. Zamonaviy reabilitatsiya tadqiqotlari

🏛 TARIX, MADANIY MEROS, FILOLOGIYA, FALSAFA VA SAN’ATSHUNOSLIKDA TUMANLAR KESIMIDAGI TADQIQOTLAR

BADIIY TARJIMANING LINGVISTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Aliyeva Jasmina Baxodirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Jasminaliyeva286@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi badiiy matnlarning o‘zbek tiliga tarjimasi misollarida J.D.Salinger, J.Djoys, V.Vulf va J.K.Rouling asarlariga tayanib, lingvistik va stilistik xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil etiladi. Tarjima nazariyasining klassik asarlari va o‘zbek tarjimashunosligi asosida lingvistik va stilistik transformatsiyalar, madaniy ekvivalentlik muammolari ko‘rib chiqiladi. Natijada, badiiy tarjima nafaqat til o‘tkazish, balki madaniyatlararo ijodiy muloqot ekanligi isbotlanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, lingvistik xususiyatlar, stilistik xususiyatlar, tarjima siljishlari, madaniy ekvivalentlik, muallif uslubi, ingliz-o‘zbek tarjima.*

Abstract. *This article analyzes the interrelationship between linguistic and stylistic features based on examples of translations of English literary texts into Uzbek, drawing on the works of J.D. Salinger, J. Joyce, V. Woolf, and J.K. Rowling. Drawing on classical works of translation theory by P.Newmark, S.Bassnett, J.C.Catford and Uzbek translation studies by G. Salomov, it examines linguistic and stylistic transformations and issues of cultural equivalence. As a result, literary translation is proven to be not merely linguistic transfer but intercultural creative communication.*

Keywords: *literary translation, linguistic features, stylistic features, translation shifts, cultural equivalence, author’s style, English-Uzbek translation.*

Аннотация. *В данной статье на основе примеров перевода художественных текстов с английского языка на узбекский, с опорой на произведения Дж.Д. Сэлинджера, Дж.Джойса, В.Вулф и Дж.К.Роулинг, анализируется взаимосвязь лингвистических и стилистических особенностей.На основе классических трудов по теории перевода Питер Ньюмарк, Сьюзан Басснетт, Джон Кэтфорд, а также работ узбекского переводоведа Гайрат Саломов рассматриваются лингвистические и стилистические трансформации и проблемы культурной эквивалентности. В итоге доказывается, что художественный перевод — это не просто языковой перенос, а межкультурная творческая коммуникация.*

Ключевые слова: *художественный перевод, лингвистические особенности, стилистические особенности, сдвиги перевода, культурная эквивалентность, авторский стиль, англо-узбекский перевод.*

KIRISH

Badiiy tarjima jarayonida lingvistik va stilistik xususiyatlar markaziy o‘rin tutadi, chunki ular asl matnning nafaqat mazmunini, balki estetik qiymatini, muallifning individual uslubini, obrazli ifodasini, ritmini va o‘quvchiga hissiy ta’sirini saqlab qolishga xizmat qiladi.[36] Tarjima nazariyasida badiiy matn oddiy axborot beruvchi matndan tubdan farqli o‘laroq, lingvistik birliklar (leksika, grammatika, sintaksis, fonetika) va stilistik vositalar (metafora, metonimiya, epitet, ironiya, alliteratsiya, assonans) orqali ijodiy ifodani talab etadi. Bu xususiyatlar tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi: ikki til tizimlaridagi (ingliz tilining

[36] Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988. – 77 b.

analitik tabiati va o‘zbek tilining agglutinativ, SOV tartibli strukturasidagi) farqlarni hisobga olgan holda, asl matnning ruhini, madaniy konnotatsiyasini va estetik yuklamasini o‘zbek tilida qayta yaratish.[37]

Mazkur maqolada badiiy tarjimaning lingvistik va stilistik xususiyatlari nazariy asoslariga asoslanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, tarjima amaliyotidagi roli va ingliz-o‘zbek tarjima misollarida chuqur tahlil qilinadi. Ilmiy dalillarga tayangan holda olib boriladigan ushbu tahlil tarjima nazariyasining klassik asarlari va o‘zbek tarjimashunosligining asoschisi G‘aybulla Salomovning ishlariga asoslanadi. Badiiy tarjima nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot va ijodiy jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi.

METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik va stilistik tahlil metodi qo‘llanildi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy matnlar (J.D.Salingerning “The Catcher in the Rye”, J.Djoysning “Ulysses”, V.Vulfning “Mrs.Dalloway”, J.K.Roulingning “Harry Potter” seriyasi) tanlandi. Tarjima siljishlari (Ketford nazariyasi), dinamik ekvivalentlik (Nayda va Taber) va uslubiy moslashuv (Nyumark) asosida leksik, grammatik, sintaktik, fonetik va semantik darajalarda tahlil o‘tkazildi. Stilistik vositalar (metafora, so‘z o‘yini, ichki monolog) alohida o‘rganildi. O‘zbek tarjimashunosligi materiallari (Salomov asarlari) bilan qiyoslandi. Tadqiqot deskriptiv va transformatsion usullarni birlashtirdi.

NATIJALAR

Badiiy tarjimaning lingvistik xususiyatlari fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va semantik darajalarda namoyon bo‘ladi. Leksik darajada polisemiya va realialar muammo tug‘diradi. Masalan, inglizcha “meat” so‘zi tarixan har qanday ovqatni anglatgan bo‘lsa, hozir faqat go‘sht ma’nosida; o‘zbek tilida “go‘sht” yoki

[37] Bassnett, S. Translation Studies. 4th ed. London: Routledge, 2014. – 30 b.

kontekstga qarab “ovqat” deb tarjima qilinadi, ammo madaniy konnotatsiya saqlanadi.[38] Realialar misoli: “Thanksgiving” – “Shukrona kuni”.

Grammatik va sintaktik darajada ingliz tilining SVO tartibi o‘zbek tilining SOV tartibiga moslashtiriladi. Ketfordning struktural siljishlari qo‘llaniladi: “That the boy came in late upset the teacher” → “O‘g‘ilning kech kelishi o‘qituvchini xafa qildi”.[39] Ellipsis holatlarida (“He came. Late.”) o‘zbek tilida to‘ldiriladi (“U keldi. Kech”).

Fonetik darajada alliteratsiya (Djoysning “Ulysses”dagi “s” tovushlari) o‘zbek tilida ritmik moslashuv orqali kompensatsiya qilinadi. Semantik darajada Nayda va Taberning dinamik ekvivalentligi qo‘llaniladi – ta’sir saqlanadi.[40]

Stilistik xususiyatlar obrazli vositalar, muallif uslubi va matn tuzilishida ko‘rinadi. Rang ramziyligi (“red” – xavf ingliz tilida, quvonch o‘zbek madaniyatida) moslashtiriladi. J.K.Roulingning “You-Know-Who” so‘z o‘yini o‘zbek tilida “Siz-bilgan-u” shaklida saqlanadi. Djoysning “stream of consciousness” va Vulfning ichki monologi sintaksis o‘zgartirib, ritm saqlanadi.

MUHOKAMA

Lingvistik va stilistik xususiyatlar bir-biridan ajralmas: lingvistika “skelet”, stilistika “go‘sht va qon” beradi. Nyumark ta’kidlaganidek, uslub mazmundan muhimroq, chunki muallif dunyoqarashini aks ettiradi.[41] Bassnett badiiy matnni murakkab tizimlar to‘plami deb hisoblaydi va madaniy kontekstni hisobga olishni

[38] Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988. – 78 b.

[39] Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965. – 73 b.

[40] Nida, E.A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 1964. – 120 b.

[41] Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988. – 311 b. (68-69-betlar).

talab qiladi.[42] Salomov badiiy tarjimaning lingvistik-madaniy uyg‘unligini “ijodiy ish” deb baholagan.[43]

Ketfordning siljishlari nazariyasi lingvistik va stilistik aloqani ko‘rsatadi: struktural siljish ritmni saqlaydi. Tarjimon madaniyatlararo vositachi va ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz-o‘zbek tarjimalarda bu xususiyatlar ekvivalentlik muammolarini hal qilishga yordam beradi.[44]

XULOSA

Badiiy tarjima qilishda lingvistik va stilistik xususiyatlar eng muhim omillardan hisoblanadi. Ular tarjimaning asosini tashkil etadi va muvaffaqiyatini belgilaydi. Lingvistik xususiyatlar til farqlarini, stilistik xususiyatlar estetik va emotsional ta’sirni saqlaydi. Bu ikki xususiyat bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Tarjimon ilmiy yondashuv, tajriba va moslashtirish usullari yordamida ularni muvaffaqiyatli hal qiladi. Salomov ta’kidlaganidek, aynan shu xususiyatlar tarjima sifatini yuqori darajaga ko‘taradi.[45]

Natijada, badiiy tarjima oddiy til o‘tkazish emas, madaniyatlar o‘rtasidagi ijodiy muloqot va estetik qayta yaratish jarayonidir. Tarjimon madaniyatlar vositachisi va haqiqiy ijodkor bo‘lib namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv tarjima nazariyasining zamonaviy talablariga to‘liq javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bassnett S. Translation studies. — 4th ed. — Routledge, 2014.

[42] Bassnett, S. Translation Studies. 4th ed. London: Routledge, 2014. – 208 b. (24-bet).

[43] Salomov, G‘. Til va tarjima. Toshkent: Fan, 1980. – 245 b. (156-bet).

[44] Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965. – 110 b. (83-bet).

[45] Salomov, G‘. Til va tarjima. Toshkent: Fan, 1980. – 245 b. (189-bet).

2. Catford J. C. A linguistic theory of translation. — Oxford University Press, 1965.

3. Newmark P. A textbook of translation. — Prentice Hall, 1988.

4. Nida E. A. Toward a science of translating. — Brill, 1964.

5. Salomov G‘. Til va tarjima. — Fan, 1980.

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA QARSHI SHAHRINING SHAHARSOZLIK HUSUSIYATLARI

Atamirzayeva Munavvar Abdurashid qizi

Toshkent Davlat Texnika universiteti

atamirzayeva.phd@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qarshi shahrining tarixiy-geografik rivojlanishi va an’anaviy shaharsozlik tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda shahar hududining qadimiy Nasaf (Naxshab) bilan uzviy bog‘liqligi, ark, shahriston va raboddan iborat uch bo‘g‘inli tuzilmasi hamda voha shaharlariga xos urbanistik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, sug‘orma dehqonchilik, mudofaa inshootlari, savdo yo‘llari va mahalla tizimining shahar makonini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Qarshi shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va me’moriy rivoji Markaziy Osiyo shaharsozlik an’analari doirasida baholanadi.*

Kalit so‘zlar*: Qarshi shahri, Nasaf (Naxshab), shaharsozlik, urbanistika, ark, shahriston, rabod, voha shaharsozligi, mudofaa inshootlari, mahalla tizimi, sug‘orma dehqonchilik, savdo yo‘llari, karvonsaroy, Buxoro amirligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется историко-географическое развитие города Карши и традиционная система градостроительства. В исследовании освещается тесная связь городской территории с древним Насафом (Нахшаб), трёхчастная структура, включающая арк, шахристан и рабад, а также урбанистические особенности, характерные для оазисных городов. Также раскрывается роль ирригационного земледелия, оборонительных сооружений, торговых путей и махаллинской системы в формировании городского пространства. Социально-экономическое и архитектурное развитие города Карши рассматривается в контексте градостроительных традиций Центральной Азии.*

Ключевые слова: *город Карши, Насаф (Нахшаб), градостроительство, урбанистика, арк, шахристан, рабад, оазисное градостроительство, оборонительные сооружения, махалля, ирригационное земледелие, торговые пути, караван-сарай, Бухарский эмират.*

Abstract. *This article examines the historical-geographical development of the city of Karshi and its traditional urban planning system. The study highlights the close connection of the city with ancient Nasaf (Nakhshab), its three-part structure consisting of ark, shahristan, and rabad, as well as urban features typical of oasis cities. It also explores the role of irrigated agriculture, defensive structures, trade routes, and the mahalla system in shaping the urban space. The socio-economic and architectural development of Karshi is evaluated within the framework of Central Asian urban planning traditions.*

Keywords: *Karshi city, Nasaf (Nakhshab), urban planning, urbanism, ark, shahristan, rabad, oasis urbanism, defensive structures, mahalla system, irrigated agriculture, trade routes, caravanserai, Bukhara Emirate.*

Kirish. Markaziy Osiyo shaharsozlik an’analari ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, ular tabiiy-geografik sharoit, siyosiy boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida shakllangan murakkab urbanistik tizimni ifodalaydi. Ayniqsa, voha hududlarida joylashgan shaharlar sug‘orma dehqonchilik, savdo yo‘llari va mudofaa ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Shu jihatdan Qarshi shahri Janubiy O‘zbekistonning muhim tarixiy markazlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tarixshunoslikda Qarshi shahrining tarixiy-geografik rivoji va shaharsozlik xususiyatlari ayrim tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, uning urbanistik tuzilmasini kompleks tarzda, ya’ni tabiiy muhit, ijtimoiy makon va iqtisodiy faoliyat uyg‘unligida tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda Qarshi shahrining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy-geografik yondashuv asosida o‘rganiladi.

Qarshi shahri O‘zbekiston janubidagi qadimiy shaharlar sirasiga kirib, uning shaharsozlik taraqqiyoti Markaziy Osiyo urbanistik an’analari asosida shakllangan. Qadimda Naxshab (Nasaf) nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu shahar tarixan siyosiy, harbiy va savdo markazi sifatida rivojlangan. Qarshi shaharsozlik qiyofasi tabiiy-geografik muhit, sug‘orma dehqonchilik, mudofaa ehtiyojlari hamda ijtimoiy tuzilma bilan chambarchas bog‘liq holda vujudga kelgan.

Shahrisabz vodiysiga kirish qismida, Qashqadaryo daryosining quyi oqimida joylashgan Qarshi Qashqadaryo vohasiga qarashli bo‘lib, uning shaharsozlik tuzilmasida sug‘oriladigan dehqonchilik hal qiluvchi omil bo‘lgan. Daryo va ariq tarmoqlari shahar rejasini belgilab, aholi yashash joylari suv manbalariga yaqin holda joylashtirilgan. Qarshi shaharsozligi voha shaharlariga xos tarzda markaziy qismdan chekka hududlarga bosqichma-bosqich kengayib borgan. Shuningdek, bu shahar qadim zamonlardan beri Buxoro mulklarining g‘arbiy qismini jangovor hujumlardan himoya qilib kelgan[46].

Qarshining shahar yadrosi qadimiy Nasaf shahri bilan bog‘liq bo‘lib, bu hududda ark, shahriston va rabod tizimi aniq shakllangan. Ark — hokimiyat va harbiy boshqaruv markazi, shahriston — asosiy turar-joy va jamoat hududi, rabod esa hunarmandchilik va savdo faoliyati rivojlangan tashqi qismni tashkil etgan. Ushbu an’anaviy uch bo‘g‘inli tuzilma Qarshi shaharsozligining tarixiy uzluksizligini ta’minlagan.

Qarshi shahri tuzulishiga ko’ra ham amirlik tarkibidagi boshqa shaharlardan unchalik farq qilmagan. Shahar strukturasi to’rtta notekis konsentrik doiralardan iborat bo’lgan. Markazda maydon joylashgan bo’lib, u yerda to’rtta madrasa, hammom, kazarma, masjid, bek va to’ralarning alohida devor bilan o’ralgan, g’ishtli minoralar va yopiq yo’laklarga ega binolari joylashgan. Shaharning birinchi doirasi – markaz bo’lib, u arkning qal’a devori hisoblanadi. Uning asosiy ko’chalarga chiqadigan bir necha darvozalari mavjud bo’lgan. Ikkinchi doira shahar devori

[46] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 565.

hisoblanib, uning ham bir nechta darvozalari mavjud bo’lgan. Devor oldida chuqur handaq joylashgan bo’lib, shahar mudofaasida foydalanilgan. Aynan shu devorlarning narigi tarafida o’lkaning hamma nufuzli kishilari istiqomat qilgan va ularning o’z bozorlari va hammomlariga ega bo’lgan. Devor oldida esa gavjum savdo shahri joylashgan[47].

Qarshi tarixan harbiy-strategik ahamiyatga ega shahar bo‘lib, shahar atrofi mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Darvozalar savdo yo‘llari bilan bog‘langan bo‘lib, ular orqali tashqi hududlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar amalga oshirilgan. Mudofaa inshootlari shahar rejasini ixcham va yopiq shaklda rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Xanikov esa Qarshi arki haqida shunday degan: “Buxoro arkining kichikroq nusxasiga o’xshagan hamda uning ichida hokim uyi, bog’li uy (valiaxd shaxzodalarning qarorgohi vazifasini o’tagan), uchta madrasa, katta Juma masjidi mavjud bo’lgan”[48]. 1965-yilda KATE ekspeditsiyasi a’zolari tomonidan o’rganilganda, Qarshi o’rdasining aniq joylashgan o’rni aniq belgilab berildi. Unga ko’ra, qo’rg’onning janubiy burchagida 2,25 gektardan ortiq maydonni egallagan, ammo shahar devoridan 36-50 metr chetroqda alohida joylashgan Qarshi o’rdasi, yani arki XIX asr oxirida haqiqatdan ham o’sha davrdagi Shaxrisabz o’rdasiga qaraganda ancha mustahkam va salobatli bo’lgan. O’rda rejasiga ko’ra, u notekis to’rtburchak shaklida bo’lib, hatto ikki yon tomonining uzunligi ham bir xil bo’lmagan. Paxsa qatlamlarida qurulgan o’rda devorlari ko’p bora yangilanib, ta’mirlanib turilgan. Bunday tadbirlardan biri haqida amir Haydar tomonidan bu yerning beki – mang’itlardan bo’lgan Hakimbiyga yozilgan maktublarda xabar berilgan. O’sha davrda nafaqat qo’rg’on devorlarini kapital ravishda yangilash talab etilgan, balki amir tomonidan o’rdani ham har doim yaxshi holatda saqlash qat’iy tavsiya etilgan, Navro’z bayramidan so’ng issiq kunlar boshlangach uning devorlar

[47] Туркестанские Ведемости, 1879. № 114.
[48] Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Перербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. – С. 108.

balandligini 7 gazgacha yetkazish, ularga yopiq tarzda darvoza qilish hamda to’rt burchakdagi minoralarda turar joy xonalarini qurish buyurilgan[49].

Mahalliy hukmdorlarning qarorgohi bo’lgan O’rda to’rtburchak shaklda, qalinligi 5m, balandligi 3-4 sajenli mudofaa devori bilan o’rab olingan bo’lib, uzunligi 3-3,5 verstni, umumiy maydoni esa 40 ga ni tashkil etgan hamda faqat bitta darvozaga ega bo’lgan[50]. Bu darvoza “Saqlov darvoza”, ya’ni “Himoya darvozasi” deb atalgan[51].

O’rdaning bosh darvozasi o’zining old fasadi bilan registon maydoniga ochilib, shimoliy-sharqiy fasadning shimoliy burchagiga yaqin joylashgan edi. Ular O’rta Osiyo qal’a darvozalari uchun odatiy bo’lgan tarzda qurulgan: yuqorisida tishli kengurulari, ikki yonida minoralar va bir nechta o’q yo’llari bor edi. Bu yerda sarbozlardan iborat bir necha askarlar kecha-kunduznavbatchilik qilgan. Darvoza yaqinida politsiya boshlig’i xonasi bo’lib, kechqurun shaharning to’rt darvoza kalitlari shu yerga olib kelingan va bomdod nomoziga azon aytilmagunicha shu yerda saqlangan. Darvoza yonidan boshlanadigan tor yo’lak O’rdani ikkiga ajratib turgan. Ark devori yonida o’rda aholisiga mo’ljallangan gumbazli masjid joylashgan edi. Hovli yo’lakning ikki tomonida bekning devonxonasi (mirzoxona), xazina xonasining pul ombori, qarshilik sarbozxona, o’rdada xizmat qiluvchi ayrim xizmatchilarning uy-joylari, turli yordamchi binolar, otxona va ovchilik uchun maxsus qushxona joylashgan. Bu binolarning hammasi pishiq g’ishdan qurulgan, yo’lakning o’ziga ham pishiq g’isht yotqizilgan. Yo’lakning chap tomonida saroy joylashgan, oxirida esa saroyning birinchi hovlisiga chiqadigan darvoza qurulgan. Maydoni 10 sajenli bu hovlidan o’tib, ikkinchi hovliga chiqilgan.

Hovli yo’lagining oxirida mehmonlarni qabul qiluvchi qobulxona joylashgan. Qabul xonalari o’ta dabdabali bezaklardan holi bo’lib, silliq oqlangan devorlari va soda bo’yoqlar bilan bezatilgan yog’och shiftlari bor bo’lgan. Shuningdek, bu yerda

[49] Массон М. Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи…. – С. 83.
[50] Маев Н. Город Карши. Туркестанские ведемости, 1879. № 24. Насриддинов Қ. Қарши Қальаси... – Б 33.
[51] Сухарева О. А. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 114.

bekning o’zi va unga eng yaqin kishilar uchun mo’ljallangan ikkinchi, ichki kichik masjid joylashgan. Masjid yonida uncha katta bo’lmagan bog’ bo’lib, uning o’rtasidan to’rtburchak shaklda qazilgan, suv to’ldirilgan hovuz joylashgan. O’rda binolarining aksariyati bir qavatli bo’lib, bazan bolaxonaliga ega bo’lgan. Asosan xom g’isht yoki paxsa devorlardan qurulgan, tomlari tekis tuproq tomlar bo’lgan. Biroq ayrim hovlilar pishiq g’isht bilan qoplangan edi. O’rdaga hizmat ko’rsatish Choringar va Buzrukabad guzarlarida yashovchilarning zimmasidagi majburuyat hisoblangan[52].

Saroy bog’ining boshqa bir tomonida alohida devor bilan o’ralgan haram joylashgan. U chalkash yo’lakli qilib qurulgan, juda toza va chiroyli bo’lib, o’zining alohida gulzori, bog’i, hovuzi va kichik hovlisiga ega bo’lgan. Saroyning ikkinchi hovlisida ikki xonali, poliga marmar yotqizilgan hammom ham bo’lgan. Hammomga gumbazli shift o’rtasidagi tuynukdangina yorug’lik tushgan. U gumbazdan tushurilgan ipga osib qo’yilgan chiroq yordamida yoritilgan. Diametri tahminan bir fut keladigan, yog’och va toshdan tovoqsimon qilib yasalgan idishlar tog’ora vazifasini o’tagan. U burchakda qurulgan oddiy o’choq yordamida isitilgan[53].

Qarshi shaharsozligida bozor va jamoat maydonlari muhim o‘rin tutgan. Bunday qism shahriston qismi bo‘lib, bu qism ham yana bir devor bilan qurshab olingan.Bu devor ortida tepaliklar bo‘ylab xizmatdorlar, boy va zodagon kishilar yashaydigan qism hisoblangan. Ko‘plab hammomlar, masjidlar va madrasalar joylashgan butun boshli ko‘chalar o‘zaro chirmashib, kesishib, go‘yo bir labirint taasurotini beradi. Shahar markazida joylashgan bozor hududi savdo-sotiq, ijtimoiy muloqot va iqtisodiy faollikning markazi bo‘lgan. Bozor atrofida masjidlar, madrasa va karvonsaroylar joylashib, shahar hayotining markazlashtirilgan tuzilmasini shakllantirgan. Qarshi shahrining Buxoro, Samarqand, Kerki, Mozori Sharif va Chorjo‘y o‘rtasida, Zarafshon vodiysidan Amudaryoga boradigan yo‘lning o‘rtasida

[52] Массон М. Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи…. – С. 84.
[53] Яворский И. Л. Путешествие русского посольства..... – С. 52.

joylashgani uni nihoyatda qulay markaziy nuqtaga aylantirgan, bu yerda eng muhim savdo shaharlarini bog‘lovchi barcha savdo yo‘llari kesishgan. Bu karvon yo‘llarining ahamiyatini to‘g‘ri anglagan uzoqni ko‘ra oladigan Buxoro hukmdorlari, ayniqsa amir Abdulahadxon va qadim zamonlarda Amir Temur ham ularni yaxshilash uchun barcha choralarni ko‘rganlar: asosiy yo‘nalishlar bo‘ylab maxsus rabotlar (mustahkamlangan karvonsaroylar), o‘tib ketayotgan karvonlar uchun to‘xtash joylari, quduqlar va sardobalar (suv omborlari) qurulgan. Sardobalar bir-biridan uch farsax masafoda joylashtirilgan[54].

Qarshi shahrida mahalla tizimi an’anaviy shaharsozlikning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilgan. Bir-biriga juda yaqin qurulgan ikki qavatli uylar va deyarli o‘simligi yo‘qligi Sharq shahriga xos umumiy kulrang tusdagi sokin, hatto biroz sokin manzarani yuzaga keltiradi. Mahallalar tor, egri va yopiq ko‘chalar bilan ajralib turgan. Shaharning bu qismida hayot tinch, odamlar gavjumligi sezilmaydi[55]. Turar-joylar ichki hovli tamoyili asosida qurilib, tashqi tomondan yopiq, ichkaridan esa ochiq va qulay makonga ega bo‘lgan. Bunday rejalashtirish issiq iqlim sharoitida yashash uchun qulaylik yaratgan.

Shaharning shahriston qismi ham baland va qadimiy devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, unda ham minoralar va darvozalar bo‘lgan. Bu darvozalar esa savdo-sotiq qizg‘iz kechadigan “quyi”, ya’ni oddiy xalq yashaydigan shaharning asosiy ko‘chalariga olib chiqadi. Devorning tashqarisida, uni o‘rab turgan holda handaq mavjud bo‘lgan. Bu handaqdan esa ko‘p foydalanilmagan, shuning uchun ham sayohatchilar kundaliklarida faqat uning o‘rni haqidagi ma’lumotlar uchraydi[56].
Shaharning uchinchi qismi rabod deb atalib, zodagonlar va xizmatdorlar yashaydigan shahar devorlaridan tashqarida joylashgan. Bu qismda keng savdo hududi yoyilgan bo‘lib, unda har qadamda bozorlar, karvonsaroylar va do‘konlar joylashgan. Bu yerda yuzlab do‘konlarga ega bo‘lgan butun boshli ko‘chalar, turli

[54] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 566.
[55] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 586.
[56] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 586.

tavarlarga to‘la rastalar, katta karvonsaroylar, masjidlar, qadimiy qabristonlar bilan yonma-yon joylashgan. Ko‘chalar egri-bugri shakllangan va odamlar bilan to‘la bo‘lgan. Asosiy bozor deyarli bir verstga cho‘zilib, hizmatkorlar shahri bo‘lgan hududni halqa kabi o‘rab olgan. Logofet bu qismni “qora shahar” deb hisoblab, bu yerdagi ko‘p sonli aholini zodogonlar uchun havfli bo‘lganligini ta’kidlagan[57]. Haqiqatdan ham Shahriston devori darvozalari kechasi har doim yopib qo‘yilib, bomdod namozidan so‘ng ochilgan. Chunki xalq to‘plangan payt hujum ehtimoli bo‘lishidan qo‘rqishgan.

Bu qismdan so‘ng esa, tashqi ko‘rinishi bilan Buxoroga o‘xshash bo‘lgan keng hudud boshlangan. Bu yerda mashhur Qarshi bog‘lari joylashgan bo‘lib, ularning orasida g‘ishtdan va loydan qurulgan uylar, uzumzorlar va bog‘lar bilan o‘ralgan devorlar ko‘rinadi.

Qarshi Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmoqlari bilan bog‘langan shahar bo‘lib, savdo-sotiq shaharsozlik rivojida muhim rol o‘ynagan. Karvonsaroylar va savdo ko‘chalari shahar ichki tuzilmasining muhim elementlari hisoblangan. Bu holat Qarshining iqtisodiy jihatdan faol va ochiq shahar sifatida shakllanishiga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijasida Qarshi shahrining tarixiy-geografik rivojlanishi Markaziy Osiyo voha shaharlariga xos an’anaviy urbanistik model asosida shakllangani aniqlandi. Shahar tuzilmasida ark, shahriston va raboddan iborat uch bo‘g‘inli tizimning uzluksizligi hamda Nasaf (Naxshab) bilan tarixiy bog‘liqligi ilmiy asosda ko‘rsatildi. Qarshi shahrining makoniy rivojlanishi sug‘orma dehqonchilik va suv tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aholi joylashuvi va xo‘jalik faoliyati suv manbalari atrofida shakllangani aniqlandi. Shuningdek, shahar rejasida konsentrik rivojlanish elementlari mavjudligi uning bosqichma-bosqich kengayganidan dalolat beradi. Tahlillar Qarshining mustahkam mudofaa tizimiga ega bo‘lgan harbiy-strategik markaz ekanini ko‘rsatdi. Shahar devorlari, darvozalar

[57] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 587.

va arkning joylashuvi makonning ixcham va yopiq shaklda rivojlanishiga xizmat qilgan. Diniy inshootlar, bozorlar va karvonsaroylar esa shahar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy markazlari sifatida shakllangan. Natijada Qarshi shahrining shaharsozlik qiyofasi tabiiy muhit, mudofaa ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllangan murakkab tizim sifatida baholandi.

Ilmiy yangilik sifatida Qarshi shahrining urbanistik rivoji kompleks yondashuv asosida — tabiiy-geografik sharoit, sug‘orma dehqonchilik, harbiy-strategik ehtiyojlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘zaro ta’siri kontekstida talqin qilindi. Nazariy jihatdan esa ushbu yondashuv Qarshini Buxoro amirligi davrida shakllangan klassik voha shahri modeli sifatida qayta baholash va Markaziy Osiyo urbanistik tizimlari evolyutsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. –С. 565.

2. Туркестанские Ведемости, 1879. № 114.

3. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Перербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. – С. 108.

4. Массон, М.Е. *Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен: Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965–1966 гг.)*. Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1973. – С. 83.

5. Маев Н. Город Карши. Туркестанские ведемости, 1879. № 24.

6. Насриддинов Қ. *Қарши қалъаси*. – Тошкент: Фан, 1980. – С. 33.

7. Сухарева О. А. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 114.

8. Массон, М.Е. *Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен: Из работ Кешской археолого-топографической*

экспедиции ТашГУ (1965–1966 гг.). Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1973. – С. 84.

9. Яворский И. Л. *Путешествие русского посольства через Среднюю Азию в Бухару и Хиву в 1820 году*. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1822. – С. 32

LINGUISTIC ASPECTS OF DISCOURSE ANALYSIS

Ibrohimova Nargizaxon Ilhomjon qizi
QDU
nibrohimova0202@gmail.com

Abstract: *This article examines the linguistic aspects of discourse analysis, one of the most relevant areas of modern linguistics. The aim of the study is to identify the pragmatic features that linguistic units acquire within the framework of text and context. The article is based on qualitative analysis of digital discourse samples from the post-2020 period and Speech Act Theory. The results show that the principle of linguistic economy in discourse is realized through ellipsis and multimodality, where visual markers replace verbal units. The findings of the study serve as a theoretical basis for the development of linguopragmatics and modern communication theory.*

Keywords: *discourse analysis, linguistic context, speech acts, pragmatics, digital discourse, ellipsis, multimodality, linguistic economy.*

Introduction

In modern linguistics, the need to study language not only as a system (langue) but as a living process of communication (parole) has brought the concept of discourse analysis to the center of attention. Discourse is not merely a text, but a speech activity that occurs in a specific social situation, with particular goals and participants[58]. The linguistic aspects of discourse analysis involve the study of the syntactic, semantic, and pragmatic features of language units in close connection with context.

[58] Fairclough, N. (1989). Language and Power. Longman.

In recent years, the development of digital technologies and social networks has given rise to the concept of “internet discourse.” In this environment, language units acquire new linguopragmatic characteristics that differ from those in traditional communication. In particular, the multimodal nature of communication – that is, the use of visual elements (emojis, GIFs, stickers) alongside text – enhances the expressiveness of discourse and complicates the interpretation of speech acts.

The relevance of this study is determined by the necessity of applying discourse analysis methodology to modern communication processes and revealing the pragmatic potential of language within new paradigms. In addition, studying the changing tendencies of language units in various discursive fields is of great importance for solving both theoretical and practical issues in linguistics.

The aim of the study is to identify the main linguistic components of discourse analysis and examine their role in the speech process. To achieve this goal, the following tasks have been set:

To clarify the relationship between discourse and text from a linguistic perspective;

To demonstrate the role of Speech Act Theory in discourse analysis;

To investigate the influence of linguistic context and situational context on meaning generation.

Methods

This study relies on the principles of qualitative analysis and the methodology of contextual study of linguistic units to illuminate the linguistic aspects of discourse analysis. The research material consists of contemporary English-language discourse samples from the post-2020 period, particularly fragments of communication on social networks and digital texts. The methodological foundation is based on Speech Act Theory, which determines the place of linguistic units in speech situations, and pragmatic analysis methods. The main focus was placed not on the dictionary meaning of words and phrases, but on their illocutionary purposes

in the communication process[59]. In addition, an interpretative method was used to study the semantic connections between verbal and non-verbal means, taking into account the multimodal nature of discourse. When selecting text elements, the main criteria were their ability to reflect current communication trends and their compliance with the principles of linguistic economy. During the analysis, descriptive and comparative methods were employed to theoretically substantiate the role of discourse markers in ensuring textual coherence and their connection with social context.

Results

The findings of the study show that linguistic units used in discourse undergo significant semantic transformation depending on the communication environment and the speech intentions of the participants. Linguistic analysis revealed that the traditional lexical meaning of a word becomes secondary in the discursive context, giving way to pragmatic load and situational meaning. In particular, in digital discourse, “meta-communicative” tools such as hashtags and links function not only as organizers of information but also as special linguistic indicators that define the modal and emotional orientation of the text.

Speech Act analysis revealed the dominance of expressive and directive acts in discourse. Speakers tend to load their statements with personal attitudes and shape the listener’s reaction rather than simply stating ideas. In this process, the phenomenon of ellipsis – the omission of verbal units – realizes the principle of linguistic economy. The replacement of omitted text segments by multimodal elements (emojis and pictograms) ensures the compactness and emotional precision of discourse. It was also theoretically confirmed that the use of pragmatic markers and “hedging” devices serves as a key tool for maintaining social distance and managing speech impact in communication.

[59] Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.

Another important aspect identified during discourse analysis is the close connection between language units and situational context. While linguistic context ensures the internal coherence of the text, socio-cultural context determines its interpretation. This requires participants not only to know language rules but also to possess discursive competence.

Discussion

The results obtained during the study confirm that discourse analysis differs fundamentally from traditional text linguistics and once again highlight the dynamic nature of linguistic units. The conclusions show that in modern discourse, the scope of meaning of linguistic units is limited not only by grammatical rules but also by the cognitive and pragmatic intentions of the communication participants. This aligns with the principles of Critical Discourse Analysis proposed by N. Fairclough and demonstrates that language is a powerful tool for shaping social relations[60]. Especially in the digital environment, the variability of language units indicates the development of a new hybrid form of communication (written speech acquiring features of oral speech).

Another key issue at the center of the discussion is the linguistic status of multimodality. While non-verbal means were considered auxiliary elements in traditional linguistics, in modern discourse they appear as equal semantic units alongside verbal text. Through ellipsis and the realization of the principle of linguistic economy, visual signs (emojis) not only express emotions but also become an integral part of the syntactic and semantic integrity of the utterance. This implies the need to further expand discourse analysis methodology in the future and indicates that studying language units only within the verbal domain is no longer sufficient.

Furthermore, the active use of pragmatic markers and hedging devices helps maintain the Gricean maxims of social cooperation between discourse participants. The speaker’s limitation of responsibility for their speech or the establishment of

[60] Fairclough, N. (1989). Language and Power. Longman.

closeness with the audience reveals the strategic nature of discourse. The results of this study are consistent with scientific views after 2020 and support the growing importance of the discursive approach in linguistics.

Conclusion

The conducted research has revealed the dynamic and contextual nature of communication in modern linguistics through the study of the linguistic aspects of discourse analysis. In conclusion, discourse is not merely a collection of linguistic units, but a complex system that integrates language, society, and communicative goals. The semantic transformation of linguistic units and their adaptation to pragmatic intentions identified in the study once again confirm the situational nature of language. In digital discourse, the application of the principle of linguistic economy through ellipsis and the active use of multimodal elements are creating new, more compact and expressive forms of written communication.

In addition, the discursive analysis of speech acts and pragmatic markers has clarified the patterns of social distance between speaker and listener, as well as the management of communication strategies. The interaction between verbal text and visual tools in modern internet discourse demonstrates the high adaptability of the linguistic system.

In the future, deeper research into the linguistic aspects of discourse analysis within the framework of cognitive linguistics and artificial intelligence discourse remains one of the urgent issues of the field. The conclusions of this study will serve as an important theoretical source for scientific research in linguopragmatics, sociolinguistics, and modern communication theory.

References

1. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. — 2nd ed. — Cambridge University Press, 1983.
2. Fairclough N. Language and Power. — Longman, 1989.
3. Gee J. P. An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method. — Taylor & Francis, 1999.

4. Johnstone B. Discourse Analysis. — Wiley-Blackwell, 2018.
5. Levinson S. C. Pragmatics. — Cambridge University Press, 1983.
6. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge University Press, 1969.

QIRG‘IZISTONDAGI O‘ZBEKLAR: DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR VA MILLIY-MADANIY MARKAZLARNING IJTIMOIY FAOLIYATI TARIXI

Muxitdinova Charos Otabek qizi

Buxoro Davlat Universiteti

muhiddinovacharos2@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qirg‘izistondagi o‘zbek jamoasining so‘nggi o‘ttiz yillik demografik rivojlanishi, rasmiy statistika va jamoatchilik tasavvurlari o‘rtasidagi tafovutlar hamda milliy-madaniy markazlarning institutsional o‘rni tahlil qilinadi. Sovet davrining so‘nggi aholini ro‘yxatga olish natijalari, 1999 va 2009 yillardagi demografik ma’lumotlar, shuningdek, mustaqillik davridagi milliy statistika va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida o‘zbeklarning mamlakat umumiy aholisidagi ulushi 13–15 foizlik “koridor” ichida saqlanib qolayotgani ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, janubiy viloyatlardagi yuqori konsentratsiya, mehnat va qochqinlik migratsiyasi, etnik identifikatsiyani o‘zgartirish amaliyoti hamda ro‘yxatga olish jarayonlaridagi ehtiyotkorlik omillari “statistik qisqartirish” haqidagi subyektiv tasavvurni kuchaytirayotgan omillar sifatida baholanadi. Maqolada o‘zbeklarning siyosiy va institutsional darajada kam vakilligi “statistik under-representation” va “institutsional invisibilizatsiya” tushunchalari orqali izohlanadi. Shuningdek, o‘zbek milliy-madaniy markazlari, Bobur nomidagi teatr, o‘zbek tilidagi maktablar va OAVlarning til, ta’lim va madaniyatni saqlash hamda millatlararo muloqotni ta’minlashdagi roli ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Qirg‘iziston, o‘zbek diasporasi, demografik dinamika, statistik under-representation, institutsional invisibilizatsiya, milliy-madaniy markazlar, Bobur teatri, etnik ziddiyatlar, til va ta’lim, janubiy viloyatlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются демографическое развитие узбекской общины Кыргызстана за последние тридцать лет, расхождения между официальной статистикой и общественными представлениями, а также институциональная роль национально-культурных центров. На основе итогов последней советской переписи населения, демографических данных 1999 и 2009 годов, а также национальной статистики и отчетов международных организаций периода независимости показывается, что доля узбеков в общей численности населения страны сохраняется в “коридоре” 13–15 процентов. Вместе с тем высокая концентрация в южных областях, трудовая и беженская миграция, практика изменения этнической самоидентификации, а также факторы осторожности в ходе переписей населения оцениваются как факторы, усиливающие субъективные представления о “статистическом сокращении”. В статье политическая и институциональная слабая представленность узбеков объясняется через понятия “statistical under representation” и “institutional invisibilization”. Кроме того, раскрывается роль узбекских национально-культурных центров, театра имени Бабура, узбекоязычных школ и средств массовой информации в сохранении языка, образования и культуры, а также в обеспечении межнационального диалога.*

Ключевые слова: *Кыргызстан, узбекская диаспора, демографическая динамика, statistical under representation, institutional invisibilization, национально-культурные центры, театр имени Бабура, этнические конфликты, язык и образование, южные области.*

Abstract. *This article analyzes the demographic development of the Uzbek community in Kyrgyzstan over the last thirty years, the discrepancies between official statistics and public perceptions, and the institutional role of national cultural centers. Based on the results of the last Soviet population census, the demographic data from 1999 and 2009, as well as national statistics and reports by international organizations from the independence period, it is shown that the share*

of Uzbeks in the country’s total population has remained within a 13–15 percent “corridor.” At the same time, the high concentration in the southern regions, labor and refugee migration, the practice of changing ethnic identification, and cautious behavior during census-taking are assessed as factors that reinforce subjective perceptions of “statistical reduction.” The article interprets the weak political and institutional representation of Uzbeks through the concepts of “statistical underrepresentation” and “institutional invisibilization.” It also reveals the role of Uzbek national cultural centers, the Babur Theater, Uzbek-language schools and mass media in preserving language, education, and culture, as well as in ensuring interethnic dialogue.

Keywords: *Kyrgyzstan, Uzbek diaspora, demographic dynamics, statistical underrepresentation, institutional invisibilization, national cultural centers, Babur Theater, ethnic conflicts, language and education, southern regions.*

Kirish qismi. Qirg‘iziston Respublikasi ko‘p millatli davlat bo‘lib, unda o‘zbeklar tarixan eng yirik etnik guruhlardan biri sifatida shakllangan. Sovet davrining so‘nggi aholini ro‘yxatga olish natijalaridan tortib mustaqillik davrining demografik hisobotlarigacha bo‘lgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat umumiy aholisi son jihatdan sezilarli o‘sib borgan bo‘lsa-da, o‘zbeklarning rasmiy ulushi asosan 13–15 foizlik diapazon ichida “muzlab qolgan” ko‘rinishga ega. Shu bilan birga, janubiy viloyatlar, ayniqsa O‘sh, Jalolobod va Botken hududlarida o‘zbeklarning yuqori konsentratsiyasi kuzatiladi.

Rasmiy statistik ma’lumotlar va mahalliy elita yoki jamoatchilik vakillarining baholari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligi o‘zbeklar orasida “bizni statistikada kamaytirib yozishyapti” degan kayfiyatni yuzaga keltiradi. Masalan, 2000-yillar o‘rtalarida o‘zbek milliy-madaniy markazlari rahbarlari o‘zbeklar sonini bir million atrofida, mamlakatdagi ulushini esa 18–19 foiz deb baholagan bo‘lsalar, rasmiy ma’lumotlarda bu raqam 14,3 foiz atrofida qayd etilgan. Bunday nomuvofiqliklar nafaqat raqamlar bilan bog‘liq texnik masala, balki etnik guruhning siyosiy mavqei va o‘zini anglashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida qayd etiladi.

Kirishning yana bir muhim jihati shundan iboratki, xalqaro hisobotlar va mahalliy tadqiqotlar Qirg‘izistondagi o‘zbeklarning demografik salmog‘i bilan ularning siyosiy hamda institutsional vakilligi o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik borligini ko‘rsatadi. Masalan, ayrim manbalarda o‘zbeklar aholi tarkibining 14,3 foizini tashkil etishi, ammo parlamentdagi o‘rinlarning atigi 2,5 foizini egallashi qayd etilgan. Bobur nomidagi o‘zbek teatri, o‘zbek tilidagi oliy ta’lim imkoniyatlari va OAVga nisbatan kuzatilgan bosim holatlari ham ushbu nomutanosiblikning madaniy-institutsional ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi.

Keyingi o‘n yilliklarda Qirg‘iziston janubida sodir bo‘lgan 1990 va 2010 yilgi voqealar, ichki va tashqi migratsiya to‘lqinlari, shuningdek, etnik identifikatsiyani o‘zgartirish amaliyoti (bolalarni pasportda boshqa millat sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish) o‘zbek diasporasining demografik manzarasini yanada murakkablashtirgan. Mustaqil komissiyalar va xalqaro tashkilotlar hisobotida yuz minglab insonlarning ichki ko‘chirilgan shaxsga aylangani, minglab o‘zbeklarning vaqtincha qochqin sifatida O‘zbekiston hududiga o‘tib ketgani ta’kidlanadi. Bu jarayonlar rasmiy statistikada to‘liq aks etmasligi, tabiiy demografik o‘sish bilan birga turli yo‘qotishlarning ham bo‘lishi “statistik qisqartirish” haqidagi subyektiv tasavvurni “objektiv quvvat” bilan ta’minlaydi.

Mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligi shundan iboratki, Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasi haqida mavjud tadqiqotlarning bir qismi etnik ziddiyatlar va xavfsizlik masalalariga, ikkinchi qismi esa madaniy meros, til va ta’lim muammolariga alohida-alohida e’tibor qaratadi. Demografik dinamikalar, statistik tafovutlar va milliy-madaniy institutlarning roli yagona tahlil maydoni doirasida kamdan-kam o‘rganilgan. Natijada o‘zbeklarning “soni” va “ovozi” o‘rtasidagi nomutanosiblikni tushuntiruvchi “statistik under-representation” va “institutsional invisibilizatsiya” kabi tushunchalar to‘liq yoritilmay qolmoqda.

Tadqiqotning ob’ekti Qirg‘izistondagi o‘zbek jamoatchiligi, predmeti esa millatning demografik manzarasi, rasmiy statistika va jamoatchilik baholari o‘rtasidagi tafovut hamda o‘zbek milliy-madaniy markazlari, teatrlar, maktablar va

OAVning bu jarayondagi institutsional funksiyasidan iborat. **Maqolaning asosiy maqsadi** Qirg‘izistondagi o‘zbeklarning demografik dinamikasini statistik va sifat jihatdan tahlil qilish, ularning siyosiy va madaniy vakilligi darajasini aniqlash, shuningdek, milliy-madaniy markazlar faoliyatining jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Sovet davridan hozirgi kungacha bo‘lgan asosiy demografik ko‘rsatkichlarni solishtirish;
2. rasmiy statistika va mahalliy liderlar baholaridagi tafovutlarni aniqlash;
3. migratsiya, etnik identifikatsiyani o‘zgartirish va ro‘yxatga olishdagi ehtiyotkorlik omillarining demografik manzara va idrokka ta’sirini tahlil qilish;
4. o‘zbek milliy-madaniy markazlari, Bobur nomidagi teatr va o‘zbek tilidagi ta’lim muassasalarining til, madaniyat va vakillikni saqlashdagi rolini o‘rganish;
5. “statistik under-representation” va “institutsional invisibilizatsiya” tushunchalarini Qirg‘iziston janubidagi real holat misolida asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida demografik va statistik tahlil, xalqaro va milliy hisobotlar kontent-tahlili, tarixiy-solishtirma yondashuv hamda institutlararo taqqoslash usullaridan foydalaniladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasi bir vaqtning o‘zida demografik, siyosiy va madaniy-institutsional o‘lchamlar kesishmasida ko‘rib chiqiladi; milliy-madaniy markazlar esa faqat folklor uyushmasi emas, balki etnik guruhning “ko‘rinuvchanligi” va “eshitiluvchanligini” ta’minlovchi aktor sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasiga oid ilmiy va ekspert adabiyotlarini shartli ravishda bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish 1990 va 2010 yilgi janubiy voqealarga bag‘ishlangan tadqiqotlar bo‘lib,

ularda asosan etnik ziddiyatlarning sabablari, siyosiy inqiroz va xavfsizlik sektorining zaifligi, “gorizontal tengsizlik” muammosi yoritiladi. Xalqaro tashkilotlar, mustaqil komissiyalar va tahlil markazlari tayyorlagan hisobotlarda iqtisodiy jihatdan nisbatan kuchli, biroq siyosiy-institutsional darajada kam vakillikka ega o‘zbek jamoasi bilan aksincha siyosiy hokimiyat resurslariga ega qirg‘iz elitalari o‘rtasidagi nomutanosiblik konfliktlarning strukturaviy fonini yaratgan omillardan biri sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish milliy-madaniy institutlar – o‘zbek milliy-madaniy markazlari, Bobur nomidagi teatr, o‘zbek tilidagi maktablar va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bag‘ishlangan ishlardan iborat. Bu adabiyotlarda 1991 yildan so‘ng Qirg‘izistonda “Millatlar Assambleyasi” va turli milliy-madaniy markazlar tizimi shakllanganligi, o‘zbek markazlari dastlab til, adabiyot, urf-odat va san’atni asrashga qaratilgan “yumshoq” madaniy institutlar sifatida ko‘rilgani ta’kidlanadi. 2000-yillarga kelib, ayniqsa janubiy viloyatlarda o‘zbek milliy-madaniy markazlari tilning rasmiy maqomi, siyosiy vakillik va huquqiy tenglik masalalarini ochiqroq kun tartibiga chiqara boshlagani, bu esa ularning “oddiy folklor” doirasidan chiqib, muayyan siyosiy kuchga aylanganini ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish til va ta’lim sohasiga oid tadqiqotlardir. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari va milliy statistikaga tayanilgan ishlarda mustaqillikning ilk yillarida o‘zbek tilidagi maktablar soni 140 dan ortiq bo‘lgani, biroq 2010 yillarga kelib ularning soni va o‘quvchilar kontingentining keskin qisqargani qayd etiladi. Bu jarayon davlat til siyosatidagi o‘zgarishlar, oliy ta’lim va davlat xizmatiga kirish imtihonlarining qirg‘iz va rus tillariga yo‘naltirilishi, o‘zbek tilidagi darsliklar va pedagogik resurslar yetishmasligi, shuningdek, 2010 yilgi voqealardan so‘ng yuzaga kelgan xavfsizlik muhitining ta’siri bilan izohlanadi. Ayrim tadqiqotlarda o‘zbek yoshlarining “ona tilida o‘qib foyda yo‘q, amaliy hayotda baribir qirg‘iz yoki rus tilini bilish kerak” degan pragmatik pozitsiyaga o‘tishi ham qayd etiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish Qirg‘iziston janubidagi madaniy meros va ramziy makonlar, xususan, Bobur nomidagi o‘zbek teatri, o‘zbek tilidagi OAV va jamoat

tashkilotlari taqdiriga bag‘ishlangan ishlardan iborat. Bobur teatri Qirg‘izistondagi eng qadimiy professional teatr sifatida nafaqat o‘zbek madaniyatining, balki butun mintaqadagi sahna san’ati tarixining muhim qismi sifatida o‘rganiladi. 2010 yilgi zo‘ravonliklarda teatr binosining yoqib yuborilgani bir qator hisobotlarda “madaniy qatlamga qaratilgan hujum” sifatida talqin qilinadi; keyingi yillarda teatrning Qirg‘iziston va O‘zbekiston hamkorligida rekonstruksiya qilinishi esa madaniy diplomatiya va qo‘shma merosni tiklash misoli sifatida baholanadi.

Adabiyotlarda yana bir muhim chiziq – o‘zbek milliy-madaniy markazlarining davlat bilan munosabatlari va ularning siyosiy maqomi masalasidir. 2000-yillarda Jalolobod va O‘shdagi markazlar o‘zbek tilining maqomi, huquqni muhofaza qilish organlarida kamsitishlar, ta’lim va OAVdagi tengsizliklar bo‘yicha prezident va hukumatga bir necha bor petititsiyalar yo‘llagani qayd etiladi. Bu jarayonda K.Botirov kabi liderlar o‘zbek jamiyatining manfaatlarini ochiq himoya qiluvchi figura sifatida ko‘tarilgan, biroq 2010 yil voqealaridan so‘ng rasmiy diskursda ular “separatizm” bilan bog‘langan va ko‘plab o‘zbek liderlari mamlakatni tark etishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng milliy-madaniy markazlarning ustavlari “faqat madaniy faoliyat” bilan cheklanib, ularning siyosiy maydondagi imkoniyatlari keskin toraygani ta’kidlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, mavjud adabiyotlar o‘zbek diasporasi haqidagi tasavvurni turli qirralarda boyitadi. Jumladan, ba’zilari konflikt va xavfsizlik masalalariga, boshqalari til, ta’lim va madaniyatga, yana boshqalari esa milliy-madaniy markazlarning siyosiy roliga urg‘u beradi. Biroq demografik raqamlar, statistik tafovutlar va milliy-madaniy institutlar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni “statistik under-representation” va “institutsional invisibilizatsiya” tushunchalari orqali izohlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois mazkur maqola mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga, Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasining “soni” va “ovozi” o‘rtasidagi nomutanosiblikni yanada chuqurroq ochib berishga qaratilgan.

Asosiy qism. Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasining demografik manzarasi va statistik tafovutlarni tahlil qilish natijasida quyidagicha raqam va dalillarga ega bo‘ldik. Sovet davrining so‘nggi yirik aholini ro‘yxatga olish hisobotlarida (1989) Qirg‘iziston aholisi taxminan 4,4 mln kishini tashkil etib, shundan 12,9 foizi o‘zbeklar bo‘lganligi va bu ular soninig 570 ming nafar ekanligini tasdiqlaydi. 1999 yilgi ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra esa, o‘zbeklar ulushi 13,8 foiz bo‘lib, 5 mln dan ortiq aholining qariyb uchdan bir qismi janubiy viloyatlar – O‘sh, Jalolobod va Botken hududlarida yashagan. 2009 yilgi umumrespublika ro‘yxatida qirg‘izlar 71 foiz, ruslar 7,8 foiz, o‘zbeklar 14,3 foiz deb ko‘rsatiladi. 2021 yil holatiga doir milliy statistika va UNICEF ma’lumotlarida esa qirg‘izlar 74 foiz, o‘zbeklar 14,8 foiz, ruslar 5,1 foiz atrofida ekani qayd etiladi. Demak, 30 yil ichida mamlakat aholisi son jihatidan sezilarli ko‘paygan bo‘lsa ham, o‘zbeklarning ulushi 13–15 foizlik koridor ichida “muzlab” qolgandek ko‘rinadi.

Janubiy shaharlarda aholi milliy tarkibining manzarasi boshqacha bo‘lib, 1989 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘sh shahri markaziy qismlarida o‘zbeklar 46 foizni, qirg‘izlar 24 foizni tashkil etgan, O‘zgandagi shahar aholisi ham asosan o‘zbeklardan iborat bo‘lgani qayd etiladi. Shunday qilib, respublika bo‘yicha “14 foiz” degan raqam janubdagi yuqori konsentratsiyani xira qilib ko‘rsatadi va aynan shu narsa mahalliy o‘zbeklar orasida “bizni statistikada kamaytirib yozishyapti” degan kayfiyatni yuzaga chiqaradi. O‘zbeklar soni masalasida rasmiy statistik bilan jamoatchilik bahosi orasidagi tafovut juda aniq ko‘rinadi. Masalan, 2006 yildagi mitinglar davrida Jalolobоddagi o‘zbek milliy-madaniy markazi rahbari Q.Botirov intervyuda “Qirg‘izistonda o‘zbeklar soni bir million atrofida, biz ikkinchi yirik xalqmiz”, deb ta’kidlagan va bu 2005–2006 yillardagi rasmiy aholi soniga nisbat olsak, 18–19 foiz atrofidagi ulushni anglatadi. Shu paytdagi rasmiy raqamlar esa ularni respublika aholisining 14,3 foizi sifatida qayd etgan.

Bundan tashqari, 2016 yilda e’lon qilingan xalqaro hisobotda shunday vaziyat yuzaga chiqadi, ya`ni, aholi tarkibida o‘zbeklar 14,3 foiz bo‘lsa-da, parlamentdagi o‘rinlarning atigi 2,5 foizi o‘zbek millatiga mansub deputatlar tomonidan

egallangan. Xuddi shu manbada O‘shdagi o‘zbek teatrining yoqib yuborilishi, o‘zbekcha universitet nomining o‘zgartirilishi va o‘zbek tilidagi oliy ta’limga kirish imtihonining bekor qilinishi qayd etilib, o‘zbeklarning rasmiy-madaniy maydonda sezilarli darajada qisqartirilgani namoyon bo‘ladi. Demografik raqamlarda “qisqartirib yozish”ni matematik isbot qilish qiyin emas, ammo, bu siyosiy muammolarni yuzaga chiqarishi vajidan masalaga statistic jihatdan baho bera olamiz xolos. O‘zbeklarning janubdagi haqiqiy ulushi (ayrim shahar va tumanlarda 40–50 foizdan yuqori) aggregatsiyalangan respublika statistikasi ichida “eritib yuborilishi”, o‘zbek elitasining va xalqaro tashkilotlarning ularning siyosiy va ma’muriy tuzilmalarda surunkali kam vakilligi haqidagi ma’lumotlari ana shu “sonimiz ham, ovozimiz ham rasmiy manzarada kamroq ko‘rinadi” degan tuyg‘uni kuchaytiradi. Ilmiy tilda bu “statistik under-representation” va “institutsional invisibilizatsiya” sifatida izohlanadi.

Qirg‘iziston aholisida tug‘ilish ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lib qolayotganiga qaramay, mamlakat mustaqillikdan buyon salbiy migratsion saldo bilan yashab kelmoqda. Har yili yuz minglab fuqarolar, jumladan janubdagi o‘zbeklar ham ish izlab chet elga ketmoqda. 2010 yilgi voqealardan so‘ng janubdan ichki ko‘chish va tashqi migratsiya keskin kuchaydi. Mustaqil komissiya hisobotida taxminan 300 ming kishi ichki ko‘chirilgan shaxsga aylangani, 75 mingga yaqin odam O‘zbekistonga vaqtincha qochib o‘tganini qayd etiladi. Yana bir omil etnik identifikatsiya bo‘lib, mintaqaning o‘ziga xos xususiyati sifatida ba’zi guruhlar siyosiy xavfsizlik nuqtai nazaridan pasportda boshqa millat sifatida yozilish yo‘lini tanlashini ilmiy adabiyotlar ko‘rsatadi. Qirg‘izistonda ham 2010 yildan so‘ng ayrim o‘zbek oilalarida bolalarni “qirg‘iz” yoki “rus” sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish holatlari haqida mahalliy intervyular va matbuot materiallari tilga olinadi. Bu omil ro‘yxatga olishda milliy tarkibni “yumshatib” ko‘rsatishi mumkin, lekin aniq foizni ilmiy tarzda o‘lchash hozircha qiyin. Shunday qilib, o‘zbeklarning demografik ulushi o‘sishi kerak bo‘lgan bir sharoitda, turli omillar uni ushlab turibdi. Jumladan, yuqori tug‘ilish bo‘lsada statistic o‘sishning mavjud emasligi, mehnat va qochqinlik

migratsiyasi, identifikatsiyani o‘zgartirish va 2010 yildan keyingi qo‘rquv va beqarorlik fonida ro‘yxatga olishdagi ehtiyotkorlik. Bu kompleks omillar jamlanib, “statistik qisqartirish” haqidagi subyektiv tasavvurga “objektiv quvvat” beradi.

1960-yillardan boshlab Farg‘ona vodiysiga tog‘li hududlardan qirg‘iz aholisining migratsiyasi kuchaygan, O‘sh va Jalolobod atrofida yer va uy-joy resurslari bo‘yicha raqobat ortgan. Sovet rahbariyatining millatlararo siyosati “do‘stlik va birodarlik” shiori ostida yuritilgan bo‘lsa-da, yer taqsimoti, ish o‘rinlari va kadrlar siyosatida ziddiyatlar sekin-asta yig‘ilib borgan. 1990 yilga kelib, perestroyka va siyosiy liberalizatsiya sharoitida janubda etnik asosdagi tashkilotlar paydo bo‘ladi. Qirg‘izlar “Osh Aimagy”, o‘zbeklar “Adolat” harakatini tuzadilar. “Adolat” 1990 yil mart oyida Jalolobod viloyatida Qirg‘iz SSR tarkibida o‘zbeklar uchun avtonom hudud tuzish, o‘zbek tiliga rasmiy maqom berish kabi talablar bilan Sovet Oliy Kengashiga murojaat qiladi. Bu esa markaziy va mahalliy elita orasida “separatizm”dan qo‘rquvni kuchaytiradi.

1990 yil 4 iyunda O‘sh viloyatidagi “Lenin” kolxoziga tegishli yerlarni qirg‘izlar foydasiga o‘tkazish haqidagi qaror e’lon qilingach, kolxozda ishlovchi o‘zbeklar norozilik bildiradi. Mahalliy hokimiyatning masalani diplomatik yo‘l bilan hal etishga muvaffaq bo‘la olmagani natijasida, 4–8 iyun kunlari O‘sh va O‘zgan atrofida keng ko‘lamli to‘qnashuvlar yuzaga keladi. Mustaqil hisob-kitoblarga ko‘ra, bu voqealarda 300 dan ortiq kishi halok bo‘lgan, 462 kishi og‘ir yaralangan, taxminan 4000 ta jinoyat holati tekshirilgan va 3215 ta jinoyat ishi qayd etilgan. 1500 ga yaqin ish prokuratura tomonidan ko‘rib chiqilib, qariyb 300 ish sudga o‘tkazilgan va 48 nafar shaxs, asosan qirg‘izlar, uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan.

Vaqtinchalik kuchlar yuborilgach, iyun o‘rtalariga kelib tartib qisman tiklangan. Shu bilan birga, O‘zbekistondan O‘shga qarab kelayotgan namanganlik va andijonlik o‘zbeklarning chegaradan o‘tkazilmagani yanada yirik to‘qnashuvning oldini olgani e’tirof etiladi. 1990 yilgi zo‘ravonliklar yechilmagan strukturaviy muammolarni ochib tashladi. Bular janubda yer, uy-joy, bozor infratuzilmasi ustidan

nazorat bo‘yicha raqobatning mavjudligi, shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutning mavjudligi. O‘zbeklar – ko‘proq shahar va bozor, qirg‘izlar – qishloq va dehqonchilikka bog‘langan edi. Qolaversa, o‘zbeklarning iqtisodiy jihatdan nisbatan kuchli, biroq siyosiy-institutsional darajada past vakilligi sabab bo‘lgan edi. Natijada davlat 1990 yildan keyin har qanday o‘zbek siyosiy faolligini “potensial xavf” sifatida ko‘ra boshladi. Shu fon milliy-madaniy markazlarning keyingi shakllanishi va faoliyatiga bevosita psixologik va siyosiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillik davrida o‘zbek milliy-madaniy markazlarining shakllanishi o‘ziga xos tarzda kechdi. 1991 yilda Qirg‘iziston mustaqillikka erishgach, “qirg‘izlar va boshqa xalqlar umumiy uyi” konsepsiyasi asosida Millatlar Assambleyasi va turli milliy-madaniy markazlar tizimi shakllantirildi. O‘zbeklar ham respublika va viloyat darajasida milliy-madaniy markazlar tashkil qildilar; ular dastlab milliy til, adabiyot, urf-odat va san’atni asrashga qaratilgan nisbatan “yumshoq” madaniy institut sifatida ko‘rilardi. 2000-yillarning boshida “Ak-Suy voqealari” va Akaev rejimiga qarshi siyosiy noroziliklar fonida janubdagi o‘zbek jamoasi ham o‘z talablarini ochiqroq ayta boshladi. Oshdagi o‘zbek madaniy markazi 2003 yilda o‘tkazgan so‘rovda respondentlarning 60 foizdan ortig‘i davlat ular manfaatlarini yetarli darajada himoya qilmayotganini, 78 foizdan ko‘prog‘i o‘zbek tiliga rasmiy maqom berishni qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatgan.

2005-yil 24-25-mart kunlari sodir bo‘lgan Tulip inqilobidan so‘ng eski elita almashar ekan, yangi o‘zbek liderlari ham paydo bo‘ldi. Shulardan eng faol va bahsli shaxslardan biri – Jaloloboddagi o‘zbek milliy-madaniy markazi rahbari, tadbirkor Qodirjon Botirov edi. 2005 yilda respublika darajasidagi o‘zbek uyushmasi rahbariyati yangilanib, Botirov markaziy figuraga aylandi; u o‘zbek tiliga rasmiy maqom, siyosiy vakillikni kengaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashni asosiy kun tartibiga olib chiqdi. 2006 yil 24 may kuni Jaloloboddagi o‘zbek milliy-madaniy markazida 400 nafar delegat ishtirokida “xalq qurultoyi” o‘tkazilib, 27 may kuni rasmiy miting o‘tkazish, unda o‘zbek tiliga rasmiy maqom berishni talab qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 27 may kuni o‘tkazilgan mitingda 600–700 kishi

qatnashdi, Konstitutsiyaga o‘zgartishlar kiritish, sud-huquq tizimini isloh qilish, o‘zbek tilining maqomini oshirish talablari ilgari surildi.

Q.Botirov intervyularidan birida o‘zbeklarni bir million atrofida deb baholab, “biz ikkinchi yirik etnik guruhmiz, tilimizning rasmiy maqomi terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi profilaktika vazifasini ham bajaradi”, deya fikr bildiradi. Bu esa qirg‘iz siyosiy elitasining muayyan qismini keskin bezovta qildi. Parlamentda Botirov “janubni beqarorlashtirayotgan siyosatchi” sifatida tanqid qilindi, ayrim deputatlar 1990 yilgi O‘sh voqealarini eslatib, til masalasini siyosiy maydonga olib chiqish “takroriy to‘qnashuvga olib kelishi mumkin”ligini aytdilar. 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab o‘zbek milliy-madaniy markazlari ikki o‘t orasida qoldi. Bir tomondan, o‘zbek jamiyatining til, ta’lim va vakillik haqidagi asosli talablarini davlatga yetkazish zarurati, ikkinchi tomondan, har qanday siyosiy faollikni “separatizm” sifatida talqin qilayotgan millatchi diskurslar. 2006–2010 yillarda Jalolobоddagi markaz Prezident Bakiyev nomiga murojaat qilib, o‘zbek tilining maqomi, huquqni muhofaza qilish organlarida kamsitishlar, o‘zbek tilidagi maktab va OAVning huquqiy maqomi bo‘yicha bir necha marotaba rasmiy petititsiyalar yuborgan. 2006 yilgi murojaatda ular o‘zbeklar respublika aholisining 14,3 foizini tashkil etishini, janubiy viloyatlarda esa ikkinchi yirik xalq ekanini yana bir bor eslatadilar. Natijada milliy-madaniy markazlar oddiy folklor uyushmasidan ko‘ra kengroq funksiyani bajara boshlagan va ular etnik manfaatlarni huquqiy-siyosiy maydonga olib chiqadigan vositachiga aylangan. Aynan shu narsa ularning keyingi taqdirini ham murakkablashtirdi.

2010-yil aprel oyida xalq noroziliklari natijasida Prezident Bakiyev ag‘darilib, vaqtinchalik hukumat shakllanadi. Mamlakat siyosiy institutlari zaiflashgan, xavfsizlik tuzilmalari ichida mafiyaviy va klan guruhlarining ta’siri kuchaygan bir paytda janubda eski ranjishlar yuzaga chiqadi. Tadqiqotchilar 1990 va 2010-yilgi voqealar o‘rtasidagi o‘xshashlikka e’tibor qaratadi va ikkisi ham markaziy hokimiyat inqirozi, elitalar o‘rtasidagi resurslar uchun kurash sharoitida yuz bergan. Uzoq yillar davomida bozor infratuzilmasi va savdo sohasida dominant pozitsiyani

egallagan o‘zbek tadbirkorlari bilan siyosiy-institutsional maydonda ustunlikka ega bo‘lgan qirg‘iz elitalari o‘rtasidagi “gorizontal tengsizlik” ham 2010 yil voqealarining strukturaviy fonini yaratgan omillardan biri sifatida ko‘riladi.

2010-yil 13-14-may kunlari Jalolobodda Bakiyev tarafdorlari viloyat hokimiyati binosini egallab oladilar. Bunga javoban Botirov va o‘zbek milliy-madaniy markazi vakillari vaqtinchalik hukumat tarafini olib mitinglar uyushtiradi. Qarama-qarshi guruhlar o‘rtasida otishmalar sodir bo‘lib, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra kamida bir kishi halok, elliklab odam yaralangan. Ushbu voqealar qirg‘iz millatchi doiralari orasida “o‘zbeklar siyosiy hokimiyatga da’vogarlik qilmoqda” degan kayfiyatni kuchaytiradi. 10-iyun kuni O‘sh shahrida “24 soat” kazinosi yonida qirg‘iz va o‘zbek yigitlari o‘rtasida sodir bo‘lgan oddiy mahalliy mojaro tezda ommaviy to‘qnashuvga aylanadi va kechga borib omma miqyosidagi pogrom va talonchilik boshlangan. Huquqni muhofaza qilish organlari ilk soatlarda vaziyatni jilovlay olmagan, qo‘shinlar kech yuborilgan. Qirg‘iz Bosh prokuraturasi ma’lumotiga ko‘ra, 10–14 iyun kunlari bo‘lib o‘tgan zo‘ravonliklarda 426 nafar odam zo‘ravonlik oqibatida halok bo‘lgan, ularning 276 nafari o‘zbek, 105 nafari qirg‘iz millatiga mansub deb qayd etilgan. 1930 kishi jarohat olgan, 3400 dan ortiq uy va inshoot vayron qilingan. Boshqa manbalarda halok bo‘lganlar soni bundan ham yuqori bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi. BMT agentliklari taxminlariga ko‘ra, 300 mingga yaqin odam ichki ko‘chirilgan shaxsga aylangan, 75 mingga yaqin o‘zbek qochqin sifatida O‘zbekistonga o‘tib ketgan.

Vaqtinchalik komissiya hisobotida qayd etilishicha, 11 iyun kuni O‘shdagi Bobor nomidagi o‘zbek milliy drama teatri, OSH TV telekanali, o‘zbeklarga tegishli bir nechta kafe va do‘konlar ataylab yoqib yuborilgan. Bu hujumlar tasodifiy emas, balki o‘zbeklarning shahar markazidagi ramziy, madaniy izlarini yo‘q qilishga qaratilgan siymolik amallar sifatida talqin qilinadi. Komissiya xulosalarida armiyaning va politsiyaning tashkilotchilikdagi xatolari, ba’zan esa etnik tarafkashlik bilan harakat qilgan holatlari ham alohida qayd etilgan. Ayrim mahallalarda qirg‘iz aholi evakuatsiya qilinib, o‘zbeklar esa o‘z taqdiriga tashlab

qo‘yilgani, keyingi “tozalash” amaliyotlarida ko‘proq o‘zbeklar ushlanib, qiynoqlarga duchor bo‘lgani ko‘rsatib o‘tiladi.

2010 yil voqealarini faqat “etnik nafrat” bilan tushuntirish sodda bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar quyidagi omillarni kompleks tarzda ko‘rsatadi. Bular:

- siyosiy-institutsional inqiroz: Bakiyev rejimining qulashi, xavfsizlik sektoridagi klan raqobati va kriminal tuzilmalarning hukumatga singib ketishi;
- gorizontal tengsizlik: o‘zbeklar savdo va biznesda nisbatan muvaffaqiyatli bo‘lsalar-da, hukumat, xavfsizlik, sud tizimlarida keskin kam vakillikka ega bo‘lgan;
- millatchilik diskursining siyosiy mobilizatsiya vositasiga aylanishi: til, yer, bozor ustidan nazorat masalalarini ko‘targan populistik siyosatchilar qisqa muddatli siyosiy manfaat uchun etnik ajratishlardan foydalangan;
- institutsional zaiflik: politsiya va armiyaning professional tayyorlanmagani, zo‘ravonlikni barvaqt to‘xtatish uchun yetarli siyosiy iroda bo‘lmagani.

Bu jarayonda o‘zbek milliy-madaniy markazlari murakkab rol o‘ynadi. 2006–2010 yillarda UNCC va boshqa markazlar o‘zbek jamoasining til va vakillik haqidagi talablarini ochiq ayta boshlagan, vaqtinchalik hukumatni qo‘llab-quvvatlab Bakiyev tarafdorlariga qarshi mitinglarda faol ishtirok etgan. Shu sababli 2010 yil voqealaridan keyin rasmiy propaganda ushbu markazlar va ularning liderlarini “separatizm”da ayblab, ko‘p hollarda zo‘ravonlikning aybini aynan ulardan izlashga urinadi. Natijada ko‘plab o‘zbek liderlari (jumladan, Botirov) mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘lgan, milliy-madaniy markazlar esa qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, ustavlarini “faqat madaniy faoliyat” bilan cheklash kabi bosimlarga duch kelgan.

Biz o‘rganayotgan tarixiy davrning barcha bosqichida ham til, ta’lim va madaniyat milliy-madaniy markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qolgan. Mustaqillikning ilk yillarida Qirg‘izistonda o‘zbek tilida ta’lim beruvchi maktablar soni 140 dan oshgan; 2002 yil ma’lumotlariga ko‘ra 141 ta o‘zbek maktabida 106 577 nafar bola tahsil olgan. 2012 yilga kelib bu ko‘rsatkich 91 maktab va 40 883

nafar o‘quvchiga tushib ketgan. Shu davr ichida rus tilidagi maktablar soni esa aksincha oshgan. Tadqiqotlar sabablarni bir necha yo‘nalishda ko‘rsatadi. Birinchidan, 2004 yilgi davlat tili haqidagi qonun bilan qirg‘iz tilining rasmiy maqomi kuchaytirildi va davlat xizmatiga kirish, oliy ta’limga kirish imtihonlari asosan qirg‘iz va rus tilida o‘tkazila boshladi. Ikkinchidan, o‘zbek tilidagi darsliklar tanqisligi, o‘qituvchilarning malakasi va moddiy ta’minotidagi muammolar, uchinchidan, 2010 yildan so‘ng ayrim o‘zbek maktablarining rasmiy maqomi o‘zgartirilib, qirg‘iz yoki rus tiliga o‘tishi, o‘zbek tilida oliy ta’limga kirish imtihonining bekor qilinishi, to‘rtinchidan o‘zbek yoshlarining yuqori malakali ish o‘rinlariga kirishda sistematik kamsitilishi, natijada “ona tilida o‘qib foyda yo‘q” degan pragmatik qarashlarning kengayishi.

Bu sharoitda o‘zbek milliy-madaniy markazlari o‘zbek tili va adabiyotini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli to‘garaklar, adabiy kechalar, olimpiadalar, yozma va og‘zaki nutq bo‘yicha tanlovlar tashkil etib kelmoqda; mahalliy biznes va O‘zbekiston bilan hamkorlik asosida darsliklar xarid qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish loyihalarida ishtirok etishi ham qayd etiladi. Bu faoliyatlar o‘zbek tilining jamiyatdagi mavqeyini saqlab qolish, o‘zbekcha maktablar soni qisqarayotgan sharoitda ham kamida sifatni ushlab turishga qaratilgan.

O‘sh shahridagi Bobur nomidagi O‘zbek akademik musiqali drama teatri 1914 yilda Rahmonberdi Madazimov rahbarligidagi truppa asosida vujudga kelgan bo‘lib, Qirg‘izistondagi eng qadimiy professional teatr, Markaziy Osiyoda esa Toshkentdagi Hamza teatridan keyingi ikkinchi eng eski teatr hisoblanadi. Teatr o‘z faoliyatini sovet davrida ham, mustaqillikdan so‘ng ham o‘zbek tilidagi spektakllar, mumtoz va zamonaviy asarlar, milliy kuy-qo‘shiqlarni targ‘ib qilish orqali davom ettirdi. 2010 yil iyun voqealarida teatr binosining yoqib yuborilgani xalqaro hisobotlarda alohida tilga olinadi; u O‘shdagi o‘zbek madaniyatining asosiy ramziy markazlaridan biri bo‘lganligi bois, bu hujum etnik zo‘ravonlikning “madaniy qatlamini” ham ochib beradi. Keyingi yillarda teatrni tiklash masalasi Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy hamkorlik kun tartibiga chiqdi. 2021 yildagi

hukumatlararo kelishuvga muvofiq, O‘zbekiston hukumati teatrni rekonstruksiya qilish uchun 5 mln AQSh dollari ajratdi; rekonstruksiya 2021 yil 5 sentabrda boshlangan va 2023 yil 25 aprel kuni yangilangan binoning rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Bugun Bobur teatri nafaqat o‘zbek tilidagi spektakllar, balki qirg‘iz va boshqa xalqlar dramaturgiyasini ham sahnalashtirayotgan, interetnik muloqotning ramziy maydoniga aylangan. U turli teatr festivallari, TURKSOY loyihalari, bolalar va yoshlar uchun madaniy dasturlar orqali o‘zbek milliy-madaniy merosini janubda ko‘rinadigan, eshitiladigan, ko‘p millatli makonda hamkorlikni kuchaytiradigan muhim institutsiya sifatida faoliyat yuritmoqda.

O‘sh va Jalolobоddagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari bilan bir qatorda, o‘zbek tilidagi OAVlari, xususan, OSH TV, “O‘sh sadosi”, “Jalolobod tongi”, “Axborot” kabi o‘zbekcha gazeta va jurnallar, turli nodavlat tashkilotlar, talabalar va ayollar uyushmalari ham mavjud bo‘lib, ular madaniy merosni asrash, ta’limni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya masalalarida faol bo‘lgan. 2010 yildan so‘ng ba’zi o‘zbek OAVlarining litsenziyasi bekor qilingani, ayrim faol NNTlar soliq va ro‘yxatga olish tekshiruvlari orqali bosim ostiga olingani haqidagi ma’lumotlar mavjud. Shunga qaramay, milliy-madaniy markazlar qator yechim topuvchi yo‘nalishlarda faol bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Qirg‘iz va o‘zbek tillarida lug‘atlar, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda ko‘maklashish, o‘zbek va qirg‘iz yoshlarini birlashtiruvchi sport, teatr va musiqa tadbirlarini tashkil etish, mahalliy hokimiyat bilan hamkorlikda “qardoshlik mahallalari”, qo‘shma madaniyat kunlari o‘tkazish. Bu faoliyatlar ko‘pincha rasmiy statistikada aks etmaydi, lekin ijtimoiy barqarorlik va millatlararo ishonchni tiklashda sezilarli ijtimoiy kapital yaratadi.

Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari tarixiy jihatdan uch bosqichni bosib o‘tmoqda:

1. **Sovetning so‘nggi yillari va 1990-yillar** – asosan madaniy-ma’rifiy vazifalarga ega bo‘lgan, “do‘stlik uylarining” davomi sifatida shakllangan davr.

2. **2000-yillar** – til, siyosiy vakillik va huquqiy tenglik masalalarini ochiq ko‘tara boshlagan, asta-sekin siyosiy aktorga aylangan davr; bu bosqich 2010 yil fojeasi bilan keskin to‘xtaydi.

3. **2010 yildan keyingi davr** – xavfsizlik va milliy birlik diskurslari fonida institutsional imkoniyatlari cheklangan, lekin til, madaniyat, ta’lim sohalarida “yumshoq kuch” sifatida ishlashni davom ettirayotgan davr.

Demografik raqamlar o‘zbeklarning mamlakat hayotida salmoqli ulushi borligini ko‘rsatadi, biroq siyosiy va rasmiy madaniy maydonda ularning ovozi ko‘pincha under-representatsiya qilingan. Shu nuqtai nazardan milliy-madaniy markazlar, Bobur teatri, o‘zbek tilidagi maktablar va OAVlar:

- bir tomondan, milliy til, madaniyat va tarixiy xotirani saqlab qolishning eng muhim institutsional tayanchidir;
- ikkinchi tomondan, millatlararo ko‘prik vazifasini bajarib, qirg‘iz va o‘zbek jamoalarini birgalikdagi tadbirlar, qo‘shma loyihalar orqali birga ushlab turadi;
- uchinchi tomondan esa, siyosiy boshqaruv sifati pastlashgan paytlarda turli millatchi kuchlar tomonidan “ayblov manzili”ga aylantirilishi mumkin bo‘lgan zaif institutlardir.

Ilmiy nuqtai nazardan, Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari tarixi – janubiy mintaqadagi etnik guruhlar o‘rtasidagi kuch, resurs va ramziy makonlar uchun kurashning, bir tomondan, mojarolar, ikkinchi tomondan esa – dialog va murosa orqali integratsiyani ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarning murakkab sintezi sifatida talqin etilishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasining demografik dinamikasi va milliy-madaniy institutlar faoliyati o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ko‘p qirrali tahlil qilishga imkon berdi. Olingan natijalar quyidagi asosiy ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirishga yordam berdi:

Birinchidan, so‘nggi o‘ttiz yil ichida Qirg‘iziston aholisi son jihatdan sezilarli o‘sishiga qaramay, o‘zbeklarning mamlakat umumiy aholisidagi ulushi 13–15

foizlik “koridor” ichida saqlanib qolgan. Shu bilan birga, O‘sh, Jalolobod va Botken viloyatlarida yuqori hududiy konsentratsiya, ichki va tashqi migratsiya, etnik identifikatsiyani o‘zgartirish amaliyoti hamda ro‘yxatga olish jarayonlaridagi ehtiyotkorlik omili “statistik qisqartirish” haqidagi subyektiv tasavvurni kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Demak, rasmiy demografik dinamikani tushunishda faqat raqamlar emas, balki ularni shakllantirayotgan ijtimoiy-siyosiy kontekstni ham hisobga olish zarur.

Ikkinchidan, o‘zbeklarning demografik salmog‘i bilan ularning siyosiy va institutsional vakilligi o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjud. Aholining qariyb oltidan bir qismini tashkil etuvchi etnik guruh parlament, hukumat va xavfsizlik tuzilmalarida ancha kam ulush bilan ifodalanishi “statistik underrepresentation” va “institutsional invisibilizatsiya” tushunchalarini qo‘llashni asoslaydi. Parlamentdagi oz sonli deputatlar, Bobur nomidagi teatr va o‘zbek tilidagi OAVga nisbatan bosim holatlari, o‘zbekcha ta’lim imkoniyatlarining qisqarishi bu nomutanosiblikning siyosiy va madaniy-institutsional ko‘rinishini yaqqol namoyon etadi.

Uchinchidan, 1990 va 2010 yillardagi janubiy voqealar, shuningdek, Tulip inqilobi davrida o‘zbek milliy-madaniy markazlari va ularning yetakchilari atrofida shakllangan bahslar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek jamoasining siyosiy faolligi ko‘pincha xavfsizlik va separatizm diskurslari prizmasida talqin qilingan. Bu holat bir tomondan “gorizontal tengsizlik”ni chuqurlashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan etnik guruhning rasmiy maydondagi ko‘rinuvchanligini cheklab, institutsional invisibilizatsiya jarayonini tezlashtirgan. 2010 yil zo‘ravonliklarida o‘zbek aholisining asosiy talafot ko‘ruvchi guruhga aylanishi, keyingi tergov va sud jarayonlarida ham asosan o‘zbeklarning aybdor sifatida ko‘rsatilishi ushbu nomutanosiblikning qanday ishlashini amaliy darajada namoyish etadi.

To‘rtinchidan, o‘zbek milliy-madaniy markazlari, Bobur nomidagi teatr, o‘zbek tilidagi maktablar va OAVlar faqat folklor va an’analarni saqlovchi tuzilma emas, balki til, ta’lim, madaniy xotira va millatlararo muloqotni ta’minlaydigan

asosiy ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning faoliyati tarixiy jihatdan uch bosqichni bosib o‘tgan:

- sovetning so‘nggi yillari va 1990-yillardagi nisbatan “yumshoq” madaniy bosqich;
- 2000-yillarda til va vakillik masalalarini ochiq ko‘targan nisbatan siyosiy bosqich;
- 2010 yildan so‘ng esa xavfsizlik diskurslari fonida siyosiy jihatdan cheklangan, biroq madaniy va ta’limiy yo‘nalishlarda “yumshoq kuch” sifatidagi rolini davom ettirayotgan bosqich.

Beshinchidan, o‘zbek tilidagi maktablar soni va o‘quvchilar kontingentining qisqarishi, oliy ta’lim va davlat xizmatiga kirish imtihonlarining asosan qirg‘iz va rus tillarida o‘tkazilishi, o‘zbek tilidagi darslik va pedagogik resurslar tanqisligi natijasida “ona tilida ta’lim olishning amaliy foydasi kam” degan pragmatik qarashlar kuchaymoqda. Shu sharoitda milliy-madaniy markazlar, teatr va OAVlar til va madaniyatni saqlash, ikki va ko‘p tillilikni rivojlantirish, o‘zbek va qirg‘iz yoshlarini qo‘shma loyihalar atrofiga to‘plash orqali ijtimoiy ishonchni tiklashda muhim ijtimoiy kapital yaratmoqda.

Yakuniy natija sifatida, Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasining “soni” va “ovozi” o‘rtasidagi nomutanosiblikni faqat demografik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki siyosiy institutlar, til siyosati, ta’lim tizimi va madaniy makonlar kesishmasida tahlil qilish zarurligi ayon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda qo‘llangan “statistik underrepresentation” va “institutsional invisibilizatsiya” tushunchalari kelgusida nafaqat Qirg‘iziston, balki boshqa Markaziy Osiyo davlatlaridagi o‘zbek diasporasi holatini qiyosiy o‘rganish uchun ham konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu ma’noda, teng huquqli fuqarolik, adolatli vakillik, til va ta’lim sohasida inklyuziv siyosat yuritish Qirg‘iziston janubida barqarorlikni mustahkamlash va o‘zbek jamoasining konstruktiv ijtimoiy-siyosiy ishtirokini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Alymbaeva A., Tagarev T. (tahr.). *The Experience of the Kyrgyz Republic in Crisis Management: Lessons for the Future.* – Geneva – Bishkek: Geneva Centre for the Democratic Control of Armed Forces (DCAF), 2015. – 238 b.

2. Esenaliev D., Steiner S. *Are Uzbeks Better off than Kyrgyz? Measuring and Decomposing Horizontal Inequality.* – Discussion Papers of DIW Berlin, No. 1252. – Berlin: DIW Berlin, 2012. – Elektron nashr (EconStor).

3. Equal Rights Trust. *Addressing Discrimination and Inequality in Kyrgyzstan.* – London: The Equal Rights Trust, 2016. – Elektron hisobot.

4. Human Rights Watch. *“Where is the Justice?”: Interethnic Violence in Southern Kyrgyzstan and its Aftermath.* – New York: Human Rights Watch, 2010. – Elektron hisobot (Refworld orqali ham tarqatilgan).

5. Kyrgyzstan Inquiry Commission (KIC). *Report of the Independent International Commission of Inquiry into the Events in Southern Kyrgyzstan in June 2010.* – Helsinki: Kyrgyzstan Inquiry Commission / Crisis Management Initiative, 2011. – 104 b.

6. Melvin N. *Promoting a Stable and Multiethnic Kyrgyzstan: Overcoming the Causes and Legacies of Violence.* – Central Eurasia Project, Occasional Paper Series No. 3. – New York: Open Society Foundations, 2011. – 74 b.

7. Minority Rights Group International. *Kyrgyzstan.* World Directory of Minorities and Indigenous Peoples. – London: MRGI, 2018 (yangilangan nashr). – Elektron ma’lumotnoma (Refworld bazasida ham mavjud).

8. Stewart F. (tahr.). *Horizontal Inequalities and Conflict: Understanding Group Violence in Multiethnic Societies.* – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2008. – 364 b.

9. Stewart F. *Horizontal Inequalities as a Cause of Conflict: A Review of CRISE Findings.*

– World Development Report 2011 uchun tayyorlangan fon hujjati. – Washington, DC: World Bank, 2010. – Elektron maqola.

10. UNICEF. *All Children in School by 2015. Global Initiative on Out-of-School Children: Kyrgyzstan Country Study.* – Bishkek: UNICEF, 2012. – 117 b.

11. UNICEF. *Situation of Children in Kyrgyzstan.* – Bishkek: UNICEF, 2023. – Elektron hisobot (2021 yilgi demografik ma’lumotlar asosida).

12. Yildirim S. *Post-Soviet Migration Patterns in Kyrgyzstan and the Case of Uzbeks.* – Magistrlik dissertatsiyasi. – Ankara: Middle East Technical University, Eurasian Studies bo‘limi, 2019. – Elektron manba (etd.lib.metu.edu.tr).

13. Eurasianet. *Kyrgyzstan: Uzbek-Language Schools Disappearing.* – 6 mart 2013. – Elektron maqola.

14. The Foreign Policy Centre. *Political Crisis: Interethnic Relations Must Be Protected.* – London: The Foreign Policy Centre, 1 mart 2021. – Elektron maqola.

15. TURKSOY. Bobur nomidagi O‘sh o‘zbek akademik musiqa va drama teatrining rekonstruksiyasi va qayta ochilishiga doir axborot materiallari. – TURKSOY rasmiy sayti, 2021–2023 yy. – Elektron xabar.

16. Yo‘ldoshev A.B. Markaziy Osiyo davlatlaridagi o‘zbeklar: tarixiy tahlil (1991-2020) [Matn]: monografiya / Yo‘ldoshev A.B. – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» durdona nashriyoti, -2024. -208 b.

17. Yo‘ldoshev A.B. Qirg`iziston o‘zbeklari jamoat tashkilotlari tarixiga bir nazar // O‘zMU xabarlari. 2022. [1/1/2]. ISNN 2181-7324. –P. 10-

QIRG`IZISTONDAGI O‘ZBEK MILLIY-MADANIY MARKAZI TARIXIDAN LAVHALAR. (1991-2025-yillar)

Muxitdinova Charos Otabek qizi

Buxoro Davlat Universiteti

muhiddinovacharos2@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning etnomadaniy merosni saqlash, diaspora identitetini mustahkamlash hamda davlatning etnik siyosatida tutgan o‘rni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qirg‘iziston aholisi tarkibida o‘zbeklar 2023 yil holatiga ko‘ra 14,8 foizni tashkil etib, mamlakatdagi eng yirik milliy ozchilik sifatida, ayniqsa, janubiy viloyatlar – O‘sh, Jalolobod va Botkendagi shaharlashgan hududlarda zich joylashgan. Post-sovet davrda milliy-madaniy markazlar Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi tizimi doirasida ozchiliklarni “institutsional vakillik” bilan ta’minlovchi asosiy shakllardan biri bo‘lib shakllangan bo‘lsa, o‘zbek markazlari shu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lgan. Tadqiqotning maqsadi Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlarining 1990-yillardan to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy evolyutsiyasini rekonstruksiya qilish, ularning huquqiy-institutsional maqomi, tashkiliy tuzilmasi va ijtimoiy funksiyalarini aniqlash hamda etnik munosabatlar tizimidagi o‘rnini tahlil etishdan iborat. Maqolada o‘zbek milliy-madaniy markazlarining dastlabki davrda madaniy-ma’rifiy, til va an’analarni saqlashga yo‘naltirilgan “yumshoq” faoliyatidan boshlab, ayrim holatlarda siyosiy jarayonlar va etnik ziddiyatlar kontekstida bahsli maydonga aylanishigacha bo‘lgan murakkab transformatsiyasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qirg‘iziston, o‘zbeklar, milliy-madaniy markazlar, etnik siyosat, Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi, etnik ziddiyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari.*

Аннотация. *В статье с исторических позиций анализируются процессы формирования и развития узбекских национально-культурных центров в Кыргызстане, их роль в сохранении этнокультурного наследия, укреплении идентичности диаспоры, а также место в этнической политике государства. По данным на 2023 год, узбеки составляют 14,8 % населения Кыргызстана и являются крупнейшим национальным меньшинством страны, преимущественно компактно проживающим в урбанизированных районах южных областей – Ошской, Джалал-Абадской и Баткенской. В постсоветский период национально-культурные центры в рамках системы Ассамблеи народов Кыргызстана сформировались как одна из основных форм обеспечения «институционального представительства» меньшинств, при этом узбекские центры выступили важнейшим составным элементом данного процесса. Цель исследования – реконструировать историческую эволюцию узбекских национально-культурных центров Кыргызстана с 1990-х годов до настоящего времени, выявить их правовой и институциональный статус, организационную структуру и социальные функции, а также проанализировать их место в системе этнических отношений. В статье прослеживается сложная трансформация узбекских национально-культурных центров – от преимущественно «мягкой» деятельности, ориентированной на культурно-просветительскую работу, сохранение языка и традиций, до превращения в отдельных случаях в спорное поле политических процессов и этнических конфликтов.*

Ключевые слова: *Кыргызстан, узбеки, национально-культурные центры, этническая политика, Ассамблея народов Кыргызстана, этнические конфликты, институты гражданского общества.*

Abstract. *The article offers a historical analysis of the emergence and development of Uzbek national–cultural centres in Kyrgyzstan, examining their role in preserving ethnocultural heritage, consolidating diaspora identity and their place within the state’s ethnic policy. As of 2023, Uzbeks constitute 14.8 per cent of the*

population of Kyrgyzstan and represent the country’s largest national minority, concentrated above all in the urbanised areas of the southern regions of Osh, Jalal-Abad and Batken. In the post-Soviet period, national–cultural centres within the framework of the Assembly of the Peoples of Kyrgyzstan have been formed as one of the main mechanisms for providing “institutional representation” for minorities, with Uzbek centres emerging as an important component of this process. The aim of the study is to reconstruct the historical evolution of Uzbek national–cultural centres in Kyrgyzstan from the 1990s to the present, to identify their legal and institutional status, organisational structure and social functions, and to analyse their place in the system of ethnic relations. The article traces the complex transformation of Uzbek national–cultural centres from their initial “soft” activities focused on cultural and educational work and the preservation of language and traditions to, in certain contexts, becoming a contested arena of political processes and ethnic tensions.

Keywords: *Kyrgyzstan, Uzbeks, national–cultural centres, ethnic policy, Assembly of the Peoples of Kyrgyzstan, ethnic conflicts, civil society institutions.*

Kirish. Sovet davrining so‘nggi choragi va postsovet davrida milliy-madaniy markazlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida etnik guruhlarning institutsional o‘zini o‘zi tashkil etishining asosiy shakllaridan biri sifatida shakllandi. Bu tuzilmalar rasmiy jihatdan madaniy merosni saqlash, tilni qo‘llab-quvvatlash va millatlararo totuvlikni mustahkamlash kabi vazifalarni bajarishi lozim bo‘lsa-da, amaliyotda ular ko‘pincha davlatning millatlararo munosabatlarni boshqarish strategiyasining elementiga aylandi. Qirg‘iziston hududida tashkil etilgan o‘zbek milliy-madaniy markazlari ham ana shu kengroq siyosiy-institutsional kontekstda shakllanib, mahalliy o‘zbek diasporasining madaniy manfaatlari bilan birga, rasmiy etnik siyosatni amalga oshirish instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Qirg‘iziston aholisi tarkibida o‘zbeklar tarixan mamlakat janubidagi Farg‘ona vodiysi bo‘ylab joylashgan bo‘lib, 2009 yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, O‘sh viloyatida ularning ulushi 28 foiz, Jalolobod viloyatida 24,8 foizni tashkil etgan. BMTning

irqiy kamsitishni bartaraf etish bo‘yicha qo‘mitasiga taqdim etilgan so‘nggi hisobotda esa Qirg‘iziston umumiy aholisi tarkibida o‘zbeklar 14,8 foiz bilan eng yirik milliy ozchilik ekanligi qayd etiladi. Ular asosan O‘sh, Jalolobod, Botken viloyatlaridagi shaharlashgan va chegaradosh tumanlarda yashab, savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish sohasi hamda kichik biznesda nisbatan faol qatnashadi. Shu bilan birga, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hisobotlarda etnik ozchiliklarning, jumladan, o‘zbeklarning davlat xizmati va siyosiy institutlarda yetarlicha vakillik topmagani, ularning til va ta’lim sohasidagi ehtiyojlari to‘liq ta’minlanmagani alohida ta’kidlanadi.

Milliy-madaniy markazlar tarixi Qirg‘izistonda 1990-yillar boshida, mamlakat mustaqillikka erishganidan so‘ng shakllana boshlagan yangi millatlararo siyosat doirasida tezlashdi. 1994 yilda tashkil etilgan Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi turli milliy-madaniy markazlarni yagona platformaga jamlab, ularni davlat huzuridagi maslahat-vakillik organiga institutsional bog‘ladi. Shu jarayonda o‘zbek milliy-madaniy markazlari respublika darajasidagi O‘zbek Milliy-madaniy markazi va O‘sh, Jalolobod, Bishkek kabi hududiy bo‘linmalar shaklida tashkil topib, o‘zbek tilidagi madaniy tadbirlar, an’anaviy bayramlar, teatr va folklor jamoalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tuzilmalarga aylandi.

Dastlabki yillarda mazkur markazlar o‘zini asosan madaniy-ma’rifiy maydonda namoyon etgan bo‘lsa, 2000-yillarga kelib ular atrofida siyosiy va ijtimoiy bahslar kuchaygani kuzatiladi. Mustaqil tahlillar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ayrim o‘zbek rahbarlarining milliy-madaniy markazlardan siyosiy mobilizatsiya vositasi sifatida foydalanishga urinishi, o‘z navbatida, hukumat va mahalliy elitalar tomonidan “avtonomiya talablari” va “separatizm” xavfi sifatida talqin qilingani qayd etiladi. Xususan, Jalolobodagi O‘zbek milliy-madaniy markazi rahbari Qodirjon Botirov shaxsi atrofida yuzaga kelgan bahslar va uni 2010 yil janubiy voqealarda “asosiy aybdor” sifatida ko‘rsatuvchi sud qarorlari milliy-madaniy markazlarning madaniy platformadan siyosiy ziddiyat maydoniga tortib kelinganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, o‘zbek milliy-madaniy markazlari

faqat konflikt kontekstida emas, balki kundalik madaniy hayot, tilni saqlash, yoshlar tarbiyasi va transchegaraviy aloqalarda ham sezilarli rol o‘ynab kelmoqda. Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida so‘nggi yillarda faollashgan “xalq diplomatiyasi” tashabbuslari, Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi bilan O‘zbekiston jamoat fondlari o‘rtasidagi hamkorlik aynan o‘zbek milliy-madaniy markazlari ishtirokida amalga oshirilayotgani kuzatiladi. Bu esa mazkur institutlarni nafaqat ichki, balki mintaqaviy madaniy siyosat kontekstida ham o‘rganishni taqozo etadi.

Tarixshunoslikda Qirg‘izistondagi etnik munosabatlar, 1990 va 2010 yillardagi janubiy voqealar, shuningdek, o‘zbek ozchiligining huquqiy holati bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek milliy-madaniy markazlari alohida tarixiy-institutsional fenomen sifatida nisbatan kam tadqiq etilgan. Ko‘plab ishlar ularni faqat konfliktlar fonida qisqa epizod sifatida tilga olib o‘tadi, biroq ularning tashkil topishi, tashkiliy tuzilmasi, ichki evolyutsiyasi va jamiyatdagi real funksiyalari kompleks tarzda tahlil etilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini rekonstruksiya qilish, ularning etnik identitet, madaniy siyosat va davlat-jamiyat munosabatlaridagi rolini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

1. o‘zbek milliy-madaniy markazlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy omillarni aniqlash;
2. respublika va hududiy darajadagi o‘zbek markazlarining tashkiliy tuzilmasi va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini tahlil qilish;
3. 1990–2010 yillardagi etnik ziddiyatlar fonida markazlar atrofidagi siyosiy diskurs va bahslarni tarixiy manbalar asosida ko‘rib chiqish;
4. so‘nggi yillarda Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik, xalq diplomatiyasi, til va ta’lim siyosati kontekstida o‘zbek milliy-madaniy markazlarining yangi funksiyalarini baholash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Qirg‘iziston hududida faoliyat yuritgan va yuritayotgan o‘zbek milliy-madaniy markazlari, predmet sifatida esa ularning tarixiy

rivojlanish dinamikasi, institutsional maqomi va ijtimoiy-siyosiy funksiyalari olinadi. Xronologik jihatdan ish 1990-yillarning boshidan – Qirg‘iziston mustaqillikka erishishi va millatlararo siyosatning yangi modeliga o‘tilish davridan boshlab, 2010 yil voqealari va undan keyingi transformatsiyalar davrigacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi; zarurat tug‘ilganda, Sovet davridagi tarixiy-demografik zamin ham qisqacha yoritiladi. Hududiy jihatdan esa tahlil asosan O‘sh va Jalolobod viloyatlaridagi markazlar faoliyatiga, qisman Bishkekdagi respublika darajasidagi markazga qaratiladi.

Metodologik asos sifatida tarixiy-genetik va tarixiy-qiyosiy yondashuvlar, institutsional tahlil, shuningdek, siyosiy va ommaviy diskurslarni tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Manba bazasini Qirg‘iziston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi materiallari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (BMT qo‘mitalari, OHCHR, nohukumat tashkilotlar), OAV materiallari va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Ilmiy yangilik sifatida o‘zbek milliy-madaniy markazlari ilk bor alohida tarixiy-institutsional fenomen sifatida kompleks ko‘rib chiqilishi, ular faoliyatining madaniy, ijtimoiy va siyosiy o‘lchamlarini bir butun tizimda tahlil qilinishi taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari (MMMarkazlari) tarixi masalasi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar uch asosiy yo‘nalishda to‘planadi:

1. Qirg‘izistonning millatlararo siyosati va institutsional tuzilmalari,
2. o‘zbek diasporasi va janubiy Qirg‘izistondagi etnik munosabatlar,
3. bevosita o‘zbek milliy-madaniy markazlari va ularning siyosiy hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni.

Millatlararo siyosat va institutsional asoslar bo‘yicha tadqiqotlar. Normativ-huquqiy va institutsional yondashuvlarni aks ettiruvchi ishlar, avvalo,

Qirg‘izistonni ko‘p millatli davlat sifatida tavsiflovchi umumiy sharhlar bilan bog‘liq. Globalex platformasida chop etilgan Qirg‘iziston huquqiy tizimiga bag‘ishlangan qo‘llanmada **Qirg‘iziston xalqlari Assambleyasi** mamlakatdagi “eng yirik jamoat tashkiloti” sifatida ta’riflanib, uning tarkibiga barcha milliy-madaniy markazlar kiritilgani alohida qayd etiladi. Bu yondashuvda assambleya va markazlar davlat millatlararo siyosatini amalga oshiruvchi, rasmiy diskursda “hamjihatlikni mustahkamlaydigan” institutlar sifatida ko‘riladi.

M.E.Commercio janubiy Qirg‘izistondagi strukturaviy zo‘ravonlik va “gorizontal tengsizliklar”ni tahlil qilarkan, Askar Akaev davridagi “Qirg‘iziston – umumiy uyimiz” shiori, shuningdek xalqlar Assambleyasi orqali turli millat vakillarini, jumladan, ruslar va o‘zbeklarni institutsional vakillikka jalb etish urinishlarini qayd etadi. Biroq u amalda klanparast kadrlar siyosati va til siyosati natijasida o‘zbeklarning siyosiy vakilligi cheklanganini, assambleya esa ko‘proq ramziy va maslahatchi organ bo‘lib qolganini ta’kidlaydi. Shu ma’noda, assambleya va uning tarkibidagi markazlar haqidagi adabiyotlar ko‘pincha normativ-deklarativ tusga ega bo‘lib, ularning real ta’sir doirasi, ichki kuch munosabatlari va ijtimoiy bazasi yetarlicha yoritilmagan.

Mualliflar qatorida Qirg‘iziston xalqlari Assambleyasini “millatlararo totuvlikning konsolidatsiya qiluvchi organi” sifatida talqin qiluvchi ishlar ham uchraydi; bu tadqiqotlarda milliy-madaniy markazlar asosan madaniy tadbirlar, til kurslari va bayramlar orqali jamiyatni integratsiyalashga xizmat qiluvchi “yumshoq kuch” vositasi sifatida ko‘riladi. Biroq bu ishlar, odatda, empirika kam bo‘lgan, davlat diskursiga juda yaqin turadigan tasviriy yondashuv bilan chegaralanadi.

Qirg‘izistondagi o‘zbeklar va etnik mojarolar bo‘yicha adabiyotlar. Qirg‘izistondagi o‘zbek diasporasi bo‘yicha nisbatan kengroq korpus, avvalo, 1990 yilgi va 2010 yilgi janubiy voqealar bilan bog‘liq. M. E. Commercio janubiy Qirg‘izistonda 1990–2010 yillar oralig‘ida yuzaga kelgan strukturaviy zo‘ravonlikni tasvirlar ekan, sovet davrida o‘zbeklarning siyosiy sohada cheklangani, mustaqillikdan so‘ng esa klanparast siyosat va millatni “milliylashtirish” kursi ularni

yanada siyosiy maydondan siqib chiqarganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘zbeklar janubiy shaharlar savdo va xizmat ko‘rsatish sektorida ustun mavqega ega bo‘lib, iqtisodiy jihatdan nisbatan muvaffaqiyatli qatlam sifatida tasvirlanadi.

Minority Rights Group International’ning 2014 yildagi ma’ruzasida o‘zbeklar Qirg‘iziston aholisining taxminan 14 foizini tashkil etuvchi, lekin davlat organlari va huquqni muhofaza qilish tizimida juda kam vakillikka ega bo‘lgan eng yirik milliy ozchilik sifatida ko‘rsatiladi. Mualliflar fikricha, 2010 yilgi janubiy voqealarda qurbonlarning qariyb 70 foizi o‘zbeklar bo‘lgan, vayron qilingan xonadonlar va mulklar ham asosan o‘zbeklarga tegishli bo‘lgan, biroq keyingi jinoyat ishlari bo‘yicha ayblanuvchilarning 80 foizini aynan o‘zbeklar tashkil etgan. Shu hisobotda mamlakatdagi **Uzbek National Cultural Center** rahbarlari “avtonom hudud” haqidagi gaplarni aytgan-aytmaganiga doir mish-mishlar yoritilib, ayrim qirg‘iz siyosiy yetakchilari bu bayonotlarni atayin bo‘rttirib, etnik vaziyatni keskinlashtirgan bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Madeleine Reeves janubiy Qirg‘izistonda zo‘ravonlikning “etniklashtirilishi”ni tahlil qilarkan, 2010 yil voqealarini “azaliy etnik nafrat” mahsuli sifatida talqin qiluvchi yondashuvni tanqid qiladi. U siyosiy inqiroz, iqtisodiy tengsizlik, jinoyatchi-siyosiy guruhlar faolligi, davlat institutlarining zaifligi va targ‘ibot natijasida ijtimoiy qarama-qarshiliklar etnik tilga ko‘chib, odamlar “o‘zbek” va “qirg‘iz” yorlig‘iga “devorga mixlangandek” qisqa fursatda torayib qolganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv etnik markazlar, jumladan o‘zbek MMMarkazlari, aynan shu jarayonlar fonida qanday o‘rin tutganini o‘rganish zarurligini bilvosita ko‘rsatadi.

Neil Melvin tomonidan tayyorlangan “Promoting a Stable and Multiethnic Kyrgyzstan” nomli tadqiqot Qirg‘izistonning o‘zbek jamoasiga nisbatan siyosatini davriy kesimda ko‘rib chiqadi. Muallif Akaev davrida nisbatan pragmatik, “civij” millatlararo siyosat yuritilganini, xalqlar Assambleyasi va turli markazlar shu siyosatning institutsional ifodasi bo‘lganini, Bakiyev davrida esa janubiy klanlar va agressiv millatchilikning kuchayishi natijasida ayniqsa o‘zbeklar bosim ostida

qolgani, ularning siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ko‘p hollarda e’tiborsiz qolgani haqida yozadi. Muallif 2003 yilda Oshdagi o‘zbek madaniyat markazi tomonidan o‘tkazilgan, respondentlarning 60 foizdan ortig‘i hukumat o‘zbeklarning muammolarini yechmayapti degan fikrni bildirgan so‘rovnomaga ham tayanadi.

Janubiy Qirg‘izistondagi zo‘ravonlikni faqat sodir bo‘lgan joylar emas, balki zo‘ravonlik tarqalmagan hududlar misolida o‘rganuvchi ishlar ham bor. Khamidov, Megoran va Heathershaw tomonidan tayyorlangan **Aravan** misoliga bag‘ishlangan maqola “local turn” konsepsiyasiga tayanib, mahalliy yetakchilar, diniy va jamoat arboblari, shu jumladan mahalliy o‘zbek va qirg‘iz elitalari o‘zaro muzokara va mahalla darajasidagi tashabbuslar orqali zo‘ravonlikning kengayishini qanday to‘xtata olganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘zbek milliy-madaniy markazlari faqat “madaniy tadbirlar tashkilotchisi” emas, balki mahalliy tinchlik va nizolarni boshqarish jarayonlarida ham potensial aktor ekanini anglatadi, biroq mualliflar bu institutlarni alohida tarixiy obyekt sifatida markazga qo‘ymaydi.

O‘zbek milliy-madaniy markazlari bo‘yicha bevosita manbalar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek MMMarkazlarining shakllanishi va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ancha kam. Milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi va rivojlanishini umumiy yorituvchi maqolalar (masalan, A. Keldibek qizi tomonidan Qirg‘izistonda milliy-madaniy markazlar vujudga kelishi va rivojiga bag‘ishlangan tadqiqot) ularni ko‘p millatli jamiyatda til va madaniyatni saqlash, millatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi institut sifatida tasvirlaydi, biroq u yerda o‘zbek markazlarining alohida tarixiy tajribasi va siyosiy faolligi deyarli ajratib ko‘rsatilmaydi.

Morgan Y. Liu tomonidan tayyorlangan, 2025 yilda e’lon qilingan Kennan Cable (Wilson Center) matnida Jalolobodlik tadbirkor va siyosiy arbob **Qodirjon Botirov** o‘z shaxsiy patronaj tarmog‘ining markaziy figuralaridan biri sifatida tasvirlanadi. Muallifga ko‘ra, Botirov 2000 yilga kelib Jalolobodda bozorlar, do‘konlar va **uzbek madaniyat markazi**ni barpo etgan, keyingi o‘n yillikda esa universitet kampusi, gazeta, tibbiyot klinikasi, o‘zbek tilidagi teatr va juma masjidi

rekonstruksiyasi kabi loyihalar orqali shahar iqtisodiy va madaniy landshaftini tubdan o‘zgartirgan. Bu institutlar orqali Botirov uzoq vaqt davomida o‘zbek jamoasi uchun ish o‘rinlari, ijtimoiy xizmatlar va etnik faxr manbai yaratgan, shu bilan birga, o‘zini “multi-etnik hamjamiyat”ni qo‘llab-quvvatlovchi homiy sifatida namoyish etgan. Muallif bu tarmoqni davlat funksiyalarining bir qismini “noformal” tarzda o‘z zimmasiga olgan, deyarli “kvazi-davlat” aktori sifatida talqin qiladi.

Melvinning yuqorida tilga olingan tadqiqotida Botirovga alohida bo‘lim bag‘ishlangan. U Akaev tarafdori bo‘lgan Muhammadjon Mamasaidov 2005 yilda Respublikachilik o‘zbek milliy assotsiatsiyasi rahbarligidan chetlashtirilgach, Botirovning **Respublika O‘zbek milliy assotsiatsiyasi** va “Rodina” (Vatan) harakati atrofida yangi avlod o‘zbek yetakchisi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Botirov u orqali o‘zbek tiliga rasmiy maqom berish, siyosiy vakillikni kuchaytirish va korruptsiyaga qarshi keskin siyosat olib borishni talab qilgan. 2006 yil 27 may kuni Jalolobodda o‘tkazilgan mitingda u o‘zbeklarning “doim sabr qilishga chaqirilishi, ammo muammolar hal etilmasligi”dan noroziligini ochiq bildirgani, bu miting o‘zbeklar 1990 yildan beri ilk bor ommaviy tarzda ko‘chaga chiqqan siyosiy aksiyaga aylangani alohida e’tirof etiladi.

CACI Analyst nashrida bosilgan reportajda 2006 yil may oyida Jalolobodagi **Uzbek National Cultural Center (UNCC)** binosida mintaqa o‘zbek jamoasining 400 nafar delegati ishtirokidagi xalq qurultoyi bo‘lib o‘tgani, unda 27 may kuni o‘zbek tiliga Jalolobod viloyatida rasmiy maqom berishni talab qiluvchi miting o‘tkazish haqida qaror qabul qilingani ta’kidlanadi. Muallif UNCCni nafaqat madaniy, balki siyosiy mobilizatsiya maydoni sifatida ko‘rsatadi. Vashington universiteti tadqiqotchisi N. Wobst tomonidan tayyorlangan ta’lim islohotlariga bag‘ishlangan ishda **Uzbek National Cultural Center** “Qirg‘izistonda o‘zbek manfaatlarini ifodalovchi milliy tashkilot bo‘lib, mamlakat bo‘ylab hududiy bo‘limlarga ega” ekani qayd etiladi. Bu ta’rif o‘zbek MMMarkazlarining mamlakat miqyosida tarmoqlashgan, koordinatsion rolini ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, siyosiy va xavfsizlik bo‘yicha hisobotlar o‘zbek milliy-madaniy markazlari va ularning yetakchilarini davlatning potensial “xavf manbai” sifatida talqin qiladi. Freedom House va boshqa nodavlat tashkilotlar hisobotlarida 2010 yil voqealari arafasida Respublika o‘zbek markazi rahbarlari davlat mukofotlari bilan taqdirlangan bo‘lsa-da, tez orada ularning ayrimlari (jumladan, Botirov)ga nisbatan separatizm va etnik adovat qo‘zg‘atish ayblovlari qo‘yilgani qayd etiladi. Radio Free Europe/Radio Liberty ma’lumotida 2011 yilda Botirov “Jalolobod viloyatidagi o‘zbek madaniyat markazi rahbari” sifatida 2010 yil voqealarida “separatistik targ‘ibot, etnik adovat qo‘zg‘atish va tartibsizliklarni uyushtirish”da ayblanib, qochqin holatda sud qilinayotgani haqida xabar beriladi.

Minority Rights Group International 2014 yilgi hisobotida esa o‘zbek milliy-madaniy markazi yetakchilarining “autonom hudud” haqidagi gaplari haqidagi mish-mishlar ayrim qirg‘iz yetakchilari tomonidan atayin bo‘rttirilgani ehtimoli tilga olinib, markazlar atrofida shakllangan siyosiy diskursning qanchalik qutblashganini ko‘rsatadi. Bu yondashuvlar o‘zbek MMMarkazlari bir vaqtning o‘zida ham “madaniy ko‘prik”, ham “potensial xavf” sifatida ko‘rilgan ikkiyoqlama percepsiyani ochib beradi.

Asosiy qism. Qirg‘iziston aholisi tarkibida o‘zbeklar mustaqillikdan buyon eng yirik milliy ozchilik guruh sifatida e’tirof etiladi. 2010-yillar o‘rtalaridagi xalqaro hisobotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining qariyb chorak qismi etnik ozchiliklardan iborat bo‘lib, ularning taxminan 14 foizini o‘zbeklar tashkil etadi. Ular asosan janubiy viloyatlar – O‘sh, Jalolobod va Batken hamda qisman Chuy vodiysi shahar va qishloqlarida zich joylashgan. Sovet davrida ham, mustaqillikdan keyin ham o‘zbeklar Qirg‘iziston janubida savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish va dehqonchilik sohalarida yetakchi o‘rin tutgan, shu bois hudud iqtisodiyotida muhim rol o‘ynagan. Biroq siyosiy va ma’muriy tuzilmalar tarkibida ularning vakilligi demografik ulushiga nisbatan ancha past bo‘lib qolgan. 1990-yillarda O‘sh viloyati miqyosida o‘zbeklar umumiy aholining chorak qismini tashkil etar ekan, muhim davlat lavozimlarida ularning ulushi 5 foiz atrofida bo‘lgani qayd etilgan.

Etnik muvozanatdagi ushbu nomutanosiblik, iqtisodiy tengsizlik va til bilan bog‘liq masalalar 1990 yil 4–6 iyun kunlari O‘sh va O‘zgand shaharlarida yuz bergan mashhur etnik to‘qnashuvlarga sabab bo‘lgan. Bu voqealar Qirg‘iziston tarixida “O‘sh voqealari” nomi bilan kirgan bo‘lib, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 300–600 kishi halok bo‘lgan. Mazkur fojia keyinchalik 2010 yil iyunidagi janubiy voqealar bilan ko‘p bor qiyoslangan va etnik munosabatlar siyosatini qayta ko‘rib chiqishga undagan. Shunday sharoitda o‘zbek jamoasining o‘zini-o‘zi ifoda etish, madaniy va til huquqlarini himoya qilish hamda davlat bilan muloqot mexanizmlarini shakllantirish zarurati o‘zbek milliy-madaniy markazlari (MMMarkazlar) tashkil topishining asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

Qirg‘iziston Respublikasining ilk Konstitutsiyasi 1993 yil 5 may kuni qabul qilinib, unda fuqarolarning millatidan qat’i nazar tengligi, milliy ozchiliklarning til va madaniyatini rivojlantirish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yildi. Bu normalar keyinchalik milliy-madaniy markazlar uchun asosiy huquqiy tayanch bo‘lib xizmat qildi. 1994 yil 21–22 yanvar kunlari Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Qirg‘iziston xalqlari birinchi Qurultoyi mamlakatdagi 24 ta milliy-madaniy markaz vakillarini jamladi. Qurultoy yakunida “Qirg‘iziston – bizning umumiy uyimiz” shiori ostida deklaratsiya qabul qilinib, Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi (bugungi kunda Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi) tashkil etildi. Mazkur assambleya Prezident huzuridagi maslahat organi sifatida etnik guruhlar, shu jumladan o‘zbeklarning manfaatlarini davlat darajasida ifodalashga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan edi. 1990 yildagi O‘sh voqealari, keyinchalik 2000-yillarda ham vaqti-vaqti bilan yuzaga kelgan etnik taranglik holatlari fonida Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi tizimi millatlararo barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-siyosiy norozi kayfiyatlarni “institutsional ramkaga” solish vositasi sifatida qaraldi. Shu jarayonda o‘zbek milliy-madaniy markazlari assambleya tarkibida muhim o‘rin egallay boshladi.

1990-yillar boshidan boshlab Qirg‘iziston janubida o‘zbeklarning turli jamoat birlashmalari va jamiyatlari paydo bo‘la boshladi. Amerika Ovozi materiallarida ta’kidlanishicha, o‘zbek jamoat uyushmalari “o‘tgan asrning 90-yillarida” tashkil

topa boshlagan bo‘lib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Respublika o‘zbek milliy-madaniy markazi tuzilgan. Respublika markazi Bishkek shahrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan mamlakatning asosiy o‘zbek yashaydigan hududlarida – O‘sh, Jalolobod, Botken viloyatlari hamda poytaxt atrofida hududiy bo‘linmalar shakllandi. Ular Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi tarkibiga kiritildi va assambleya sessiyalarida o‘zbek jamoasining vakillari sifatida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2000-yillarga kelib respublika o‘zbek MMMarkazi bilan bir qatorda O‘sh va Jalolobodda alohida “o‘zbek madaniy markazlari” va turli yoshlar, kasbiy hamjamiyatlarga mansub o‘zbek tashkilotlari ham paydo bo‘ldi. Tadqiqotlarda Uzbek National Cultural Center butun mamlakat bo‘yicha o‘zbek manfaatlarini ifodalaydigan milliy tashkilot bo‘lib, viloyat va shahar darajasida bo‘linmalarga ega ekanligi qayd etiladi. Shu tariqa o‘zbek jamoasi bir nechta darajadagi formal va informal tuzilmalar orqali o‘zini tashkil etuvchi murakkab tarmoqni shakllantirdi.

Respublika o‘zbek milliy-madaniy markazining tashkiliy tuzilmasi odatda quyidagi bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi. **Qurultoy yoki konferensiya** – markazning oliy vakillik organi bo‘lib, hududiy bo‘linmalardan delegatlarni yig‘adi. **Rayosat (prezidium)** va **Boshqaruv kengashi** – markazning strategik qarorlarini qabul qiluvchi ijro organlari. **Hududiy bo‘linmalar** (viloyat va shahar markazlari) – mahalliy darajadagi madaniy, ma’rifiy tadbirlarni tashkil etuvchi asosiy subyektlar. **Sohaviy sektsiyalar** – til va ta’lim, madaniyat va san’at, ommaviy axborot vositalari, yoshlar bilan ishlash, ayollar kengashi va hokazo yo‘nalishlari bo‘yicha ishlovchi bo‘limlar.

Markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi. Birinchidan, t**il va ta’limni qo‘llab-quvvatlash.** O‘zbek tilidagi maktab va sinflarda darsliklar ta’minoti, o‘qituvchilar malakasini oshirish, oliy o‘quv yurtlariga kirishda til omili bilan bog‘liq muammolarni davlat organlari bilan muhokama qilish. Ikkinchidan, m**adaniy tadbirlar va merosni saqlash.** Navro‘z, Mustaqillik bayrami, buyuk allomalar va adiblar (Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy va boshqalar)

yubileylari munosabati bilan anjumanlar, adabiy kechalar, konsert va ko‘rgazmalar tashkil etish. Uchinchidan, **OAV va axborot maydonida ishtirok.** O‘zbek tilidagi gazetalar, radio va teleko‘rsatuvlar, keyinchalik internet nashrlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat telekanallarida o‘zbek tilidagi kontent ulushini oshirish borasidagi takliflar. To‘rtinchidan, **Davlat organlari bilan muloqot.** Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi sessiyalarida qatnashish, parlament va hukumat idoralariga etnik siyosat, til siyosati, ta’lim va huquqni muhofaza qilish organlaridagi muammolar bo‘yicha murojaatlar kiritish. Beshinchidan, t**ranschegaraviy hamkorlik va “xalq diplomatiyasi”.** O‘zbekiston bilan madaniy-gumanitar aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ikki davlat elchixonasi hamda konsulliklari bilan hamkorlik, o‘zbek va qirg‘iz ijodkorlari, olimlari o‘rtasidagi uchrashuvlarni tashkil qilish.

Shu jihatlari bilan o‘zbek MMMarkazlari nafaqat madaniy, balki siyosiy muloqot maydoni sifatida ham shakllandi. 2000-yillarning boshida Qirg‘izistonda til siyosati masalasi kun tartibiga keskin chiqdi. 2004 yil 12 fevralda parlamentning quyi palatasi davlat tili haqidagi qonunga o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha qonun loyihasini muhokama qildi. Bu o‘zgarishlar Qirg‘iz tiliga amalda yagona rasmiy til maqomini berish, siyosiy lavozimlarga da’vogar va talabalar uchun qirg‘iz tilini yaxshi bilish shartini joriy etishni nazarda tutardi. Mazkur jarayon fonida o‘zbek va rus jamoalari vakillari bu qonunni ularning siyosiy vakilligi va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashi mumkin bo‘lgan omil sifatida ko‘rishdi. O‘zbek milliy-madaniy markazi yetakchilari o‘z chiqishlarida o‘zbek tiliga, hech bo‘lmaganda, mintaqaviy darajada rasmiy maqom berish zarurligini takror-takror ilgari surdilar.

Til atrofidagi bahslar 2006 yilda yanada keskinlashdi. 2006 yil 24 may kuni Jalolobod viloyatidagi O‘zbek milliy-madaniy markazida bo‘lib o‘tgan “xalq qurultoyi”da viloyat bo‘yicha o‘zbek jamoasi delegatlari o‘zbek tiliga Jalolobod shahrida rasmiy til maqomini berish masalasini ko‘tardilar. 400 nafar delegat 27 may kuni Jalolobod shahrida miting o‘tkazish haqida qaror qabul qildi. 2006 yil 27 may kuni Jalolobod shahrida bo‘lib o‘tgan ushbu mitingda 600–700 kishi ishtirok etib,

o‘zbek tiliga rasmiy maqom, shuningdek, konstitutsion va sud-huquq tizimlarida islohotlar talab qilindi. Qirg‘iziston parlamenti deputati va Jalolobod viloyatidagi o‘zbek MMMarkazi prezidenti Qodirjon Botirov miting nutqlarida o‘zbeklar janubda “tub aholi” ekani, til ularning konstitutsion huquqi ekanini ta’kidladi. Mazkur voqealar Qirg‘iziston ichki siyosatida o‘zbek MMMarkazlarini yana-da ko‘proq ko‘zga ko‘rinadigan va bahsli aktyorga aylantirdi.

2000-yillarda Jalolobod viloyatidagi o‘zbek madaniy markazi rahbari Qodirjon Botirov shaxsida biznes, xayriya va siyosiy faollik uyg‘unlashgan o‘ziga xos fenomen shakllandi. U Jalolobodda Xalq do‘stligi universitetini ochgan, shahar infratuzilmasiga investitsiyalar kiritgan, turli ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirgan va viloyat o‘zbek milliy-madaniy markaziga rahbarlik qilgan. Botirov 2005–2007 yillarda Qirg‘iziston parlamenti deputati sifatida o‘zbek jamoasining siyosiy vakili sifatida ham namoyon bo‘ldi. 2005–2006 yillardagi “til mitinglari”da aynan Jalolobodda gi o‘zbek markazi atrofida jamlangan faollar tarmog‘i o‘zbeklarning huquqiy va til talablari yuzasidan eng faol kampaniyalarni olib bordi. 2005 yilda Jalolobodda gi o‘zbek jamoasi huquqni muhofaza qilish organlaridagi “o‘zbekofobiya”ga qarshi namoyish ham o‘tkazgani qayd etiladi. Bu davrda o‘zbek milliy-madaniy markazlari klassik “madaniy uyushma” doirasidan chiqib, ma’lum darajada siyosiy mobilizatsiya maydoniga aylana boshladi. Aynan shu jarayon keyinchalik 2010 yil voqealarini talqin qilishda markazlar faoliyatiga nisbatan turli, ko‘pincha qarama-qarshi baholarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

2010 yil aprel oyida Bishkekdagi hokimiyat almashuvi, markaziy hokimiyatning zaiflashishi va janubdagi siyosiy bo‘shliq fonida Qirg‘iziston janubida etnik taranglik keskin kuchaydi. 2010 yil 10–14 iyun kunlari O‘sh va Jalolobod shaharlarida yuzaga kelgan ommaviy tartibsizliklar oqibatida rasmiy ma’lumotlar bo‘yicha 400–450 kishi halok bo‘lgan, yuzlab insonlar yaralangan va yuz minglab aholi vaqtinchalik uyini tark etishga majbur bo‘lgan. Xalqaro hisobotlarda qurbonlarning absolyut ko‘pchiligi o‘zbeklar ekani, vayron qilingan

uy-joy va tadbirkorlik obyektlarining ham asosiy qismi o‘zbeklarga tegishli bo‘lgani ta’kidlanadi.

Voqealarning sabablari va mexanizmlari yuzasidan turli talqinlar mavjud bo‘lsa-da, hukumat organlari va ayrim siyosiy aktorlar tez orada nazarini o‘zbek milliy-madaniy markazlari va ularning yetakchilariga qaratdi. Qodirjon Botirov va Jalolobоddagi o‘zbek madaniy markazi rahbariyati “separatistik targ‘ibot”, “millatlararo adovat qo‘zg‘atish” va “O‘sh hamda Jalolobod voqealarini tashkil etish”da ayblandi. Botirov 2010 yil iyun voqealaridan so‘ng mamlakatni tark etib, dastlab mintaqa mamlakatlarida, keyin Yevropada boshpana izladi. 2011 yil oktyabr oyida Jalolobod shahar sudi uni va yana besh nafar o‘zbek faolini qiyobatan sud qilib, umrbod ozodlikdan mahrum etish hukmini chiqardi. Keyinchalik Botirovga nisbatan ekstraditsiya jarayonlari yuzasidan xalqaro tashkilotlar va BMT qochqinlar bo‘yicha oliy komissari devoni ishtirokidagi bahslar natijasida u Shvetsiyada siyosiy boshpana oldi.

2010 yil voqealari va undan keyingi sud jarayonlarida o‘zbek MMMarkazlarining roli haqidagi bahslar ikki asosiy yo‘nalishda shakllandi. Avvalo, r**asmiy talqin**ga ko‘ra markaz rahbariyati “etnik adovat qo‘zg‘atuvchi siyosiy elita” sifatida ko‘rsatildi, til va hududiy muxtoriyat haqidagi bayonotlar “separatizm” sifatida talqin qilindi. Qolaversa, i**nson huquqlari tashkilotlari va xalqaro ekspertlar pozitsiyasida esa** 2010-yil zo‘ravonliklarida o‘zbek aholisiga nisbatan nishonli va nomutanosib kuch ishlatilgani, biroq keyingi tergov va sud jarayonlarida aynan o‘zbeklar keng ko‘lamda ayblanib, jazolanganini ta’kidladilar. O‘zbek MMMarkazlari yetakchilariga nisbatan chiqarilgan hukmlar ham shu kontekstdagi siyosiy jarayon sifatida talqin qilindi. Bu davr o‘zbek MMMarkazlari tarixida keskin burilish nuqtasi bo‘ldi va markazlar haqidagi siyosiy diskursda ularning legitim “madaniy vositachi” emas, balki ehtimoliy “xavf manbai” sifatidagi obrazi kuchaytirdi va natijada ularning harakat maydoni va siyosiy tashabbuslari ancha cheklab qo‘yildi.

2010 yil voqealaridan so‘ng Respublika o‘zbek milliy-madaniy markazi rahbariyati yangilandi. 2012 yil 19 aprel kuni Ozodlik radiosi Baxtiyor Fattohovni “Qirg‘iziston Respublikasi o‘zbek milliy-madaniy markazi prezidenti” sifatida tilga oladi; u intervyularida o‘zbeklarning Qirg‘izistonning tub aholisi ekanini ta’kidlab, millatchilik kayfiyatlariga javoban etnik totuvlik, huquqiy yo‘l bilan adolatga erishish zarurligini ilgari suradi.Bu davrda markaz faoliyatida bir necha tendensiya kuzatiladi. Birinchidan, o**chiq siyosiy talablar o‘rniga ehtiyotkor nutq.** Til maqomi yoki hududiy muxtoriyat kabi keskin masalalar ochiq siyosiy shior sifatida ko‘tarilmay qo‘yildi; e’tibor ko‘proq sud jarayonlarida adolatni talab qilish, nohaq ayblangan o‘zbek mahbuslar ishini qayta ko‘rib chiqishni so‘rashga qaratildi. Ikkinchidan, m**illatlararo totuvlik diskursining kuchayishi.** Markaz bayonotlarida Qirg‘izistonning hududiy yaxlitligi, “umumiy uy” konsepsiyasi va qirg‘iz-o‘zbek xalqlarining tarixiy qo‘shnichiligi alohida urg‘u bilan ta’kidlana boshlandi. Bu bilan markaz o‘zini “muammo manbai” emas, balki “tinchlik targ‘ibotchisi” sifatida ko‘rsatishga intildi. Uchinchidan, y**angi hamkorlik formatlari.** O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar 2016 yildan boshlab ijobiy tomonga o‘zgargani sari o‘zbek MMMlari ham ikki tomonlama madaniy aloqalarning faol ishtirokchisiga aylanib, adabiy anjumanlar, tarjima loyihalari, ijodiy uchrashuvlarni tashkil etishga faol ishtirok etdilar.

2020 yil 7 aprel kuni O‘zbekiston Prezidenti topshirig‘iga binoan Qirg‘izistonga 17 ta vagonli insonparvarlik yuki yuborilgani haqidagi xabarlar fonida Qirg‘iziston o‘zbek milliy-madaniy markazi rahbari Baxtiyor Qodirov mamlakat nomidan minnatdorchilik bildirar ekan, bu yordamni “Markaziy Osiyo – umumiy uyimiz” g‘oyasining amaliy ifodasi sifatida baholadi. Bu ko‘rinishdagi bayonotlar o‘zbek MMMarkazlarining endilikda mintaqaviy “xalq diplomatiyasi”ning kichik, ammo muhim bo‘g‘iniga aylanganini ko‘rsatadi. 2020-yillar o‘rtalariga kelib, Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi va o‘zbek milliy markazlari hamkorligida qator tadbirlar o‘tkazila boshladi. Masalan, 2024 yil 19 mart kuni Toshkent shahrida Osh viloyati bo‘yicha Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasining yangi

tayinlangan rahbari Berdigul Karaev va O‘shdagi O‘zbekiston Bosh konsulligi vakillari o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi; unda assambleya va o‘zbek milliy markazlari ishtirokida qo‘shma madaniy tadbirlar, vatandoshlar bilan aloqalarni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

2020-yillarda Qirg‘iziston va O‘zbekiston rahbariyatlari o‘rtasida siyosiy ishonchning ortishi, chegaraviy masalalarning bosqichma-bosqich hal etilishi va savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi fonida o‘zbek milliy-madaniy markazlari yangi funksiyalarni bajara boshladi:

1. **Madaniy ko‘prik vazifasi.** O‘zbek va qirg‘iz adabiyoti, kinosi, teatrini o‘zaro tanitish, tarjima loyihalarini amalga oshirish (masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining qirg‘iz tiliga tarjima qilinishi marosimlarida markaz vakillarining ishtiroki) xalqlararo yaqinlashuvni kuchaytirmoqda.

2. **Hududiy hamkorlikning lokal ishtirokchisi.** O‘sh, Jalolobod va Botkenda o‘zbek milliy markazi faollari viloyat va shahar hokimliklari, Qirg‘iziston Xalqi Assambleyasi hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda O‘zbekiston delegatsiyalarini qabul qilish, qo‘shma bayram tadbirlarini o‘tkazish kabi amaliy ishlarni bajaradi.

3. **Jamoani konsolidatsiya qilish.** Qirg‘izistondagi o‘zbek MMMarkazlari Vatandoshlar jamg‘armasi va boshqa transmilliy tuzilmalar bilan birgalikda xorijdagi qirg‘izistonlik o‘zbeklar bilan aloqani yo‘lga qo‘yish, ularning vatanga xayriya va investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishga ham harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, o‘zbek milliy-madaniy markazlari tarixida hal qilinmagan muammolar hamon mavjud bo‘lib, 2010 yil voqealariga oid sud ishlarining qayta ko‘rib chiqilmasligi, umrbod qamoq jazosi olgan o‘zbek faollar taqdirining ijobiy hal etilmasligi, davlat idoralari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish va mahalliy boshqaruv organlarida o‘zbeklarning vakilligi hanuz demografik ulushga mutanosib darajada emasligi, til va ta’lim sohasida o‘zbek maktablarining moddiy-texnik

bazasi, darsliklar bilan ta’minlanishi, abituriyentlar uchun ona tilida test sinovlarining maqomi bilan bog‘liq masalalar shular jumlasiga kiradi.

Biroq, 1990-yillar boshidagi adolat talabi ruhida tashkil topgan o‘zbek milliy-madaniy markazlari 2025 yilga kelib hamon Qirg‘iziston jamiyatidagi eng muhim etnomadaniy institutlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ular o‘zbek tilini va madaniyatini saqlash va rivojlantirish, o‘zbek jamoasining davlat bilan muloqotini ta’minlash, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi “xalq diplomatiyasi”ni kuchaytirishga xizmat qilmoqdalar. Shu ma’noda, Qirg‘istondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari tarixi nafaqat etnik guruh tarixining bir bo‘lagi, balki butun mintaqada millatlararo totuvlik, madaniy ko‘p qirralilik va transchegaraviy hamkorlik evolyutsiyasining muhim ko‘zgusi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tarixiy-institutsional tahlillar Qirg‘istondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari (MMMarkazlari) mintaqadagi etnik siyosat va fuqarolik jamiyati institutlari tizimida murakkab, ko‘p qatlamli hodisa ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. **O‘zbek MMMarkazlarining vujudga kelishi postsovet siyosiy-institutsional o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq.** 1990-yillar boshida Qirg‘iziston mustaqillikka erishishi, millatlararo siyosatning qayta ko‘rib chiqilishi, 1993 yil Konstitutsiyasi va 1994 yil Qirg‘iziston Xalqlari Assambleyasi tashkil etilishi o‘zbek markazlarining huquqiy-institutsional maydonda paydo bo‘lishi uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratdi. MMMarkazlar dastlab o‘zbek diasporasining madaniy manfaatlarini ifodalovchi, til va an’analarni saqlashga xizmat qiluvchi jamoat birlashmasi sifatida shakllandi.

2. **O‘zbek MMMarkazlari o‘zbek diasporasining etnomadaniy identitetini mustahkamlash va uni jamoaviy shaklda ifoda etishning muhim vositasiga aylandi.** O‘sh, Jalolobod, Botken va Bishkekdagi markazlar orqali Navro‘z, Mustaqillik bayrami, allomalar yubileylari, teatr va folklor dasturlari, til va ma’rifatga oid tadbirlar muntazam yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayon nafaqat madaniy

merosni saqlash, balki Qirg‘iziston o‘zbeklari orasida “biz” tuyg‘usini, hududiy va tarixiy yagonalikni mustahkamlashga xizmat qildi.

3. **2000-yillardan boshlab o‘zbek MMMarkazlarining faoliyati asta-sekin siyosiy mazmun bilan to‘ldi va bu ularni bahsli maydonga aylantirdi.** Til siyosati, davlat tili haqidagi qonun, o‘zbek tiliga mintaqaviy maqom berish talablari, shuningdek, Jalolobоddagi markaz atrofida shakllangan siyosiy mobilizatsiya (xalq qurultoylari, mitinglar) MMMarkazlarni klassik “madaniy uyushma” doirasidan chiqarib, etnik-siyosiy bahslar markaziga yaqinlashtirdi. 2010 yil janubiy voqealaridan keyingi sud jarayonlarida ayrim o‘zbek yetakchilarining “asosiy aybdor” sifatida talqin qilinishi markazlar obro‘siga jiddiy zarba berdi va ularni xavfsizlik diskursi markaziga tortdi.

4. **2010 yildan so‘ng o‘zbek MMMarkazlari faoliyatida ehtiyotkorlik, depolitizatsiya va “tinchlik diskursiga qaytish” tendensiyasi kuchaydi.** Rahbariyat yangilanishi, millatlararo totuvlik, hududiy yaxlitlik, “Qirg‘iziston – umumiy uyimiz” g‘oyasini ochiq targ‘ib qilish, keskin siyosiy talablar o‘rniga huquqiy yo‘l bilan adolat izlashni ilgari surish markazlarning yangi strategiyasi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, ular o‘zbek maktablari, til va ta’lim, vakillik masalalarini yumshoq shakllarda ko‘tarishni davom ettirdi.

5. **So‘nggi yillarda o‘zbek MMMarkazlari mintaqaviy “xalq diplomatiyasi” va transchegaraviy hamkorlikning kichik, ammo sezilarli aktoriga aylandi.** Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi siyosiy yaqinlashuv sharoitida qo‘shma madaniy loyihalar, adabiy uchrashuvlar, delegatsiyalar almashinuvi, insonparvarlik aksiyalarida markazlar faol ishtirok etmoqda. Bu holat ularni nafaqat ichki etnik siyosat, balki butun Markaziy Osiyo miqyosidagi madaniy aloqalar tarmog‘iga bog‘laydi.

6. **Shu bilan birga, o‘zbek MMMarkazlari faoliyatini cheklab turgan tizimli muammolar hal etilmay qolmoqda.** 2010 yil voqealariga oid sud ishlarining qayta ko‘rib chiqilmagani, umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan o‘zbek faollar masalasining ochiqligicha qolayotgani, o‘zbeklarning davlat

hokimiyati va huquqni muhofaza qilish organlarida yetarli vakillikka ega emasligi, ona tilidagi ta’lim va darsliklar bilan ta’minlanishdagi muammolar markazlar oldida hanuz dolzarb vazifa sifatida turibdi.

Umuman olganda, Qirg‘izistondagi o‘zbek milliy-madaniy markazlari tarixi 1991–2025 yillar davomida etnik guruhning o‘zini o‘zi tashkil etishi, davlatning millatlararo siyosati va mintaqaviy munosabatlar kesishgan nuqtasida kechgan murakkab jarayonlarni aks ettiradi. Ular bir vaqtning o‘zida madaniy merosni saqlash vositasi, diasporani konsolidatsiya qiluvchi ijtimoiy institut, davlat bilan muloqot kanali va ayrim davrlarda siyosiy ziddiyatlar markaziga tortilgan bahsli aktyor sifatida namoyon bo‘lgan. Shu bois mazkur institutlarni yanada chuqurroq o‘rganish, ularning tajribasidan mintaqadagi millatlararo totuvlik, ko‘p madaniyatlilik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish amaliyotida foydalanish kelgusidagi ilmiy izlanishlar va amaliy siyosat uchun dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Battalova S. A Guide to the Legal System and Legal Research in the Kyrgyz Republic [Elektron resurs]. – *GlobaLex*. – March 2006. – URL: https://www.nyulawglobal. org/globalex/kyrgyz.html (murojaat sanasi: 04.12.2025).

2. Commercio M. E. Structural violence and horizontal inequalities: conflict in southern Kyrgyzstan // *Politics, Groups, and Identities*. – 2018. – Vol. 6. – No. 4. – P. 764–784.

3. Equal Rights Trust. Looking for Harmony: Addressing Discrimination and Inequality in Kyrgyzstan. – London: The Equal Rights Trust, 2016. – (Country Report Series, No. 9). – Elektron nashr. – URL: https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/ Kyrgyzstan_EN_0.pdf (murojaat sanasi: 04.12.2025).

4. Freedom House. Freedom in the World 2017: Kyrgyzstan. – Washington, DC: Freedom House, 2017. – Elektron hisobot. – URL:

https://www.refworld.org/reference/annualreport/ freehou/2017/en/118071 (murojaat sanasi: 04.12.2025).

5. Keldibek kyzy A. Stanovlenie i razvitie natsional’nykh kul’turnykh tsentrov v Kyrgyzstane // *Vestnik Oshskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Istoriya*. – 2023. – № 1(2). – P. 29–39.

6. Khamidov A., Megoran N., Heathershaw J. Bottom-up peacekeeping in southern Kyrgyzstan: how local actors managed to prevent the spread of violence from Osh/Jalal-Abad to Aravan, June 2010 // *Nationalities Papers*. – 2017. – Vol. 45. – No. 6. – P. 1118–1134.

7. Kyrgyzstan Inquiry Commission. Report of the Independent International Commission of Inquiry into the Events in Southern Kyrgyzstan in June 2010. – [S. l.]: Kyrgyzstan Inquiry Commission, 2011. – 88 p.

8. Melvin N. Promoting a Stable and Multiethnic Kyrgyzstan: Overcoming the Causes and Legacies of Violence. – New York: Open Society Foundations, Central Eurasia Project, Occasional Paper Series No. 3, 2011. – 74 p.

9. Minority Rights Group International. State of the World’s Minorities and Indigenous Peoples 2014: Events of 2013 – Asia and Oceania. – London: Minority Rights Group International, 2014. – 58 p.

10. Minority Rights Group International. Uzbeks in Kyrgyzstan [Elektron resurs]. – Minority Rights Group International, 2016. – URL: https://minorityrights.org/communities/uzbeks-2/ (murojaat sanasi: 04.12.2025).

11. Norwegian Helsinki Committee; Memorial Human Rights Center; Freedom House. A Chronicle of Violence: The Events in the South of Kyrgyzstan in June 2010 (Osh Region). – Moscow–Oslo–Washington, DC, 2012. – Taxminan 200 p.

12. Reeves M. Border Work: Spatial Lives of the State in Rural Central Asia. – Ithaca, NY: Cornell University Press, 2014. – 292 p.

13. Reeves M. Getting to the roots of resentment in Kyrgyzstan // *Radio Free Europe/Radio Liberty* (Commentary). – 4 July 2010. – Elektron maqola. –

URL: http://www.rferl.org/content/Getting_To_The_Roots_Of_Resentment_In_Kyrgyzstan/2090331.html (murojaat sanasi: 04.12.2025).

14. UN Committee on the Elimination of Racial Discrimination (CERD). Concluding observations on the eighth to tenth periodic reports of Kyrgyzstan (CERD/C/KGZ/CO/8-10). – Geneva: United Nations, 2018. – Elektron hujjat. – URL: https://docs.un.org/en/CERD/C/KGZ/CO/8-10 (murojaat sanasi: 04.12.2025).

15. Yo‘ldoshev A.B. Markaziy Osiyo davlatlaridagi o‘zbeklar: tarixiy tahlil (1991-2020) [Matn]: monografiya / Yo‘ldoshev A.B. – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» durdona nashriyoti, -2024. -208 b.

16. Yo‘ldoshev A.B. Qirg`iziston o‘zbeklari jamoat tashkilotlari tarixiga bir nazar // O‘zMU xabarlari. 2022. [1/1/2]. ISNN 2181-7324. –P. 10-13.

HYBRIDITY AND IDENTITY CRISIS IN ZADI SMITH’S CHARACTERS

Norbayeva Nasiba

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ikromovanasiba9999@gmail.com

Abstract*. This document explores the themes of hybridity and identity crisis in the works of Zadie Smith, a British author focusing on White Teeth, NW, and The Autograph Man. It leverages postcolonial theory, more specifically Homi K. Bhabha’s “third space” to analyze Smith’s characters and the multicultural contexts which shape their unevenly stitched patchwork identities. This paper emphasizes that hybridity in Smith’s works is not an ideal condition; rather, it is portrayed as emotionally charged and psychologically straining experience steeped in complex turmoil. Crises of identity illustrated through Irie Jones, Millat Iqbal, and Natalie Blake highlight the struggle of constructing a settled self amidst globalization and post-colonialism. Through her depiction of cultural hybridity Smith positions it as an area characterized by possibilities rather than seamlessly at ease which allows her to challenge essentialist perspectives while underpinning the apprehensions that accompany existence among cultures rising from differing eras, class structures or society frameworks. In conclusion, this work argues that through Smith's fiction readers are encouraged to cultivate multifarious identities adaptable to our ever-fluid surroundings countering rigid criteria failing boundary markers.*

Key words*. Hybridity, identity crisis, third-space, post-colonialism, cultural hybridity.*

Аннотация. *В данной работе исследуются темы гибридности и кризиса идентичности в произведениях британской писательницы Зэди Смит, с*

особым акцентом на романах White Teeth, NW и The Autograph Man. В исследовании используется постколониальная теория, в частности концепция «третьего пространства» Хоми К. Бхабхи, для анализа персонажей Смит и мультикультурных контекстов, формирующих их фрагментарную и неоднородную идентичность. Подчёркивается, что гибридность в творчестве Смит не представлена как идеальное состояние; напротив, она изображается как эмоционально напряжённый и психологически сложный опыт, насыщенный внутренними противоречиями. Кризис идентичности, раскрытый на примере таких персонажей, как Ири Джонс, Миллат Икбал и Натали Блейк, демонстрирует трудности формирования устойчивого «я» в условиях глобализации и постколониального мира. Посредством изображения культурной гибридности Смит трактует её как пространство возможностей, а не как гармоничное и бесконфликтное состояние, что позволяет ей оспаривать эссенциалистские представления и одновременно выявлять напряжённость, сопровождающую существование на пересечении различных культур, эпох, социальных классов и общественных структур. В заключение утверждается, что художественный мир Смит побуждает читателя к формированию множественной, гибкой идентичности, способной адаптироваться к постоянно изменяющейся реальности, преодолевая жёсткие границы и фиксированные критерии самоопределения.

Ключевые слова: *гибридность, кризис идентичности, третье пространство, постколониализм, культурная гибридность.*

Annotatsiya. *Mazkur ish britaniyalik adiba Zadi Smit ijodida gibridlik va shaxsiyat inqirozi masalalarini tadqiq etadi. Tahlil White Teeth, NW hamda The Autograph Man asarlariga tayangan holda olib boriladi. Tadqiqotda postkolonial nazariya, xususan, Xomi K. Bhabhaning “uchinchi makon” konsepsiyasi asosida yozuvchi qahramonlari hamda ularning parcha-parcha, notekis “yamoq” singari*

shakllangan o‘zliklarini yuzaga keltiruvchi multikultural muhit tahlil qilinadi. Ishda ta’kidlanishicha, Zadi Smit asarlarida gibridlik ideal holat sifatida emas, balki murakkab ichki ziddiyatlarga boy, hissiy jihatdan tarang va psixologik bosimga to‘la tajriba sifatida tasvirlanadi. Iri Jons, Millat Iqbol va Natali Bleyk obrazlari orqali ochib berilgan shaxsiyat inqirozi globallashuv va postkolonial sharoitda barqaror “men”ni shakllantirish naqadar mushkul jarayon ekanini ko‘rsatadi. Adiba madaniy gibridlikni muammosiz uyg‘unlik emas, balki imkoniyatlarga boy, biroq ichki taranglikdan xoli bo‘lmagan maydon sifatida talqin etadi. Shu orqali u essensialistik qarashlarni shubha ostiga qo‘yadi va turli davrlar, ijtimoiy qatlamlar hamda madaniy tizimlar kesishgan makonda yashash bilan bog‘liq ruhiy iztiroblarni badiiy asosda yoritadi. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot Zadi Smit badiiy olami o‘quvchini o‘zgaruvchan zamon va makon sharoitlariga moslasha oladigan, ko‘p qirrali va moslashuvchan shaxsiyatni shakllantirishga undashini asoslaydi; qat’iy chegaralar va sobit mezonlar esa bunday murakkab voqelikni ifodalashda ojiz ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *gibridlik, shaxsiyat inqirozi, uchinchi makon, postkolonializm, madaniy gibridlik.*

Introduction. In a world of globalisation where geography is no longer a barrier, the cross contamination of different cultures makes the concept of identity more complicated and diverse. For the hybrids (those born into or exposed to amalgam cultural milieus), identity can no longer be seen as fixed, relegated to a single entity, but must be seen as including multiple and frequently transient entities. Few writers of our time demonstrate this complexity equally as well, and as profoundly, as British author Zadie Smith. In her novels – notably White Teeth (2000), NW (2012) and Swing Time (2016) – Smith explores the ways in which we move through culturally hybrid realities, in which belonging is always under negotiation and identity ever-shifting.

This article analyses how hybridity and its consequence - identity confusion, are represented by Smith through her characters from the perspective of postcolonial and cultural theories. Building on the work of such scholars

Zadie Smith's characters frequently inhabit a cultural "in-between" space, a hallmark of Bhabha’s concept of hybridity. This hybridity is not only ethnic or racial but also linguistic, social, and ideological. In *White Teeth*, for example, Irie Jones—the daughter of a Jamaican mother and a white English father—struggles with her physical appearance and her cultural position. Her experiences are shaped by the contradictory expectations of both Jamaican and British societies, neither of which fully accept her. Irie is a symbolic figure of the postcolonial subject who is caught in the “third space,” where cultural meaning is negotiated but also where identity becomes unstable.

Similarly, Millat Iqbal, the son of Bangladeshi immigrants, becomes deeply conflicted as he tries to balance the values of his Muslim upbringing with his desire to fit into British youth culture. His rebellion against both worlds results in his eventual turn to fundamentalism—not out of religious conviction, but as an assertion of identity. This act of radicalization can be read as a response to the alienation and confusion he experiences as a hybrid subject. The very hybridity that should offer him flexibility and fluidity instead generates instability and crisis.

Smith’s representation of these characters illustrates the psychological toll that hybridity can take. Rather than being liberating, cultural hybridity is depicted as a space of emotional turbulence, anxiety, and identity disintegration. The search for wholeness becomes central to many of her characters’ journeys, but it often leads to further fragmentation rather than resolution.

Identity Crisis and the Role of Language. Language plays a crucial role in the construction of identity in Smith’s fiction. Her characters often engage in code-switching, moving between dialects, accents, and registers depending on their social context. This linguistic flexibility reflects their hybrid cultural identities but also

deepens their internal conflict. For example, in *NW*, Natalie Blake (née Keisha) consciously alters her speech, behavior, and even her name as she ascends the social ladder. She adopts a middle-class British persona, distancing herself from her Caribbean roots and working-class upbringing.

However, this act of reinvention leads to a profound identity crisis. Natalie is unable to reconcile the different selves she has inhabited—daughter of immigrants, high-achieving lawyer, wife and mother, sexual experimenter—and ultimately experiences a disconnection from her own life. Her multiple identities are incompatible, and her attempt to control them through performance only increases her alienation. Smith’s portrayal of Natalie suggests that hybridity, while offering the illusion of choice, can result in a fragmentation of self that is difficult to integrate.

The theme of language as identity also surfaces in *The Autograph Man*, where protagonist Alex-Li Tandem, a Jewish-Chinese-English man, frequently manipulates words and cultural references in ways that reflect his confusion and avoidance of real emotional engagement. His mixed heritage and obsession with celebrity culture highlight how identity can be mediated and even distorted through language and representation.

Generational Hybridity and the Myth of Return. Smith often contrasts first-generation immigrants with their children to explore the intergenerational dynamics of hybridity. The older generation, such as Samad Iqbal in *White Teeth*, tends to cling to notions of cultural purity and origin. Samad believes that sending his son Magid back to Bangladesh will preserve traditional values and prevent Western contamination. Yet, when Magid returns, he is more British and secular than ever. This ironic reversal underscores Smith’s critique of the “myth of return”—the idea that one can go back to a pure cultural origin. In reality, culture is always evolving, and the second generation inevitably absorbs aspects of their host country.

The generational conflict also reveals different perceptions of identity. For the older generation, identity is something inherited and fixed; for the younger, it is something to be invented or performed. Irie Jones’s eventual decision to raise her

child without revealing the father’s identity symbolizes a new form of hybridity—one that refuses binary definitions and embraces ambiguity. Smith seems to suggest that a stable identity might not be possible, but self-acceptance in multiplicity is.

Urban Multiculturalism and the Illusion of Belonging. Smith’s settings—especially North-West London—function as microcosms of global hybridity. Her characters live in neighborhoods filled with immigrants, refugees, working-class families, and upwardly mobile professionals. These urban spaces promise diversity and acceptance, yet Smith reveals the tensions and exclusions that persist beneath the surface.

In *NW*, the illusion of multicultural harmony is broken by class stratification and racial prejudice. Leah, a white woman, and Natalie, a black woman, grow apart despite their shared history. Their differing paths expose how hybridity intersects with social and economic pressures, complicating the narrative of equal opportunity. Natalie’s success does not shield her from racism or isolation, while Leah’s liberal guilt and personal insecurities strain her relationships. Smith uses these characters to highlight that multicultural cities, despite their diversity, do not automatically solve the problems of identity. Instead, they become spaces where hybridity is constantly negotiated, sometimes violently.

Conclusion

Zadie Smith’s exploration of hybridity and identity crisis reflects the complex realities of postcolonial and multicultural existence. Her characters, shaped by multiple cultural forces, often experience internal division and emotional instability. Hybridity in Smith’s work is not romanticized but presented as a source of both richness and confusion—a dynamic process that continuously reshapes the self.

Through characters like Irie, Millat, Natalie, and Alex-Li, Smith illustrates the psychological cost of living between worlds. Their struggles challenge essentialist notions of identity and highlight the need for new models of selfhood—ones that accept multiplicity without demanding coherence. Smith’s work ultimately suggests

that identity is a process, not a fixed state, and that hybridity, while fraught with tension, is an inevitable part of modern life.

References

1.Bhabha, Homi K. *The Location of Culture*. Routledge, 1994.

2.Smith, Zadie. *White Teeth*. Penguin, 2000.

3.Smith, Zadie. *NW*. Hamish Hamilton, 2012.

4.Smith, Zadie. *The Autograph Man*. Penguin, 2002.

5.Gilroy, Paul. *The Black Atlantic: Modernity and Double Consciousness*. Harvard University Press, 1993.

6.Hall, Stuart. “Cultural Identity and Diaspora.” *Identity: Community, Culture, Difference*, edited by Jonathan Rutherford, Lawrence & Wishart, 1990.

7.Loomba, Ania. *Colonialism/Postcolonialism*. Routledge, 2015.

ITALYAN MAQOLLARIDA ERKAK VA AYOL OBRAZLARINING QIYOSIY LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Norqulova Marjona Qodirjon qizi
SamDCHTI
marjonanorqulova524@gmail.com
Ilmiy rahbar: Sadikova Bahora Mahmurovna

Annotatsiya. *Mazkur maqolada italyan xalq maqollarida erkak va ayol obrazlarining qiyosiy lingvokulturologik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonida gender asimmetriyasi, semantik baholash, metaforik modellar hamda ijtimoiy rollarning til orqali ifodalanish mexanizmlari aniqlanadi. Erkak va ayol obrazlarining qarama-qarshi talqini italyan xalqining tarixiy-madaniy tajribasi bilan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *gender munosabatlar, qiyosiy tahlil, maqol, erkak obrazi, ayol obrazi, lingvokulturologiya.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный лингвокультурологический анализ образов мужчины и женщины в итальянских пословицах. Рассматриваются семантическая асимметрия, оценочные компоненты и культурные стереотипы, отражающие традиционную модель гендерных отношений.*

Ключевые слова: *гендерные отношения, пословица, образ мужчины, образ женщины, лингвокультурология.*

Abstract. *This article presents a comparative linguocultural analysis of male and female images in Italian proverbs. The study examines gender asymmetry, evaluative semantics, metaphorical patterns, and the reflection of social roles within the Italian linguistic worldview.*

Keywords: *gender relations, proverb, male image, female image, linguoculturology.*

Maqollar har bir xalqning madaniyatini, dunyoqarashini, fikrlashini va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi va o‘quvchiga o‘sha xalq haqida tasavvur uyg'otishga hissa qo‘shadi.

Har bir xalqda bo‘lgani kabi italyan xalqida ham gender munosabatlar mavjud, ya'ni ayol va erkaklarga nisbatan turlicha fikrlash va turlicha munosabatda bo‘lish. Bu albatta maqollarda ham o‘z ifodasini topmay qolmagan. Ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunasi bo'lmish maqollarni o‘qir ekanmiz, ularda ayol va erkaklarga nisbatan salbiy va ijobiy fikrlarga duch kelamiz. Ayollarga ko‘proq go‘zallik, nazokat, sabr-toqat, ozodalik va pazanda kabi sifatlar beriladi. Erkaklarga esa kuchli, aqlli, ma'suliyatli va boshqaruvchanlik sifatlarini loyiq ko'rishadi. Bularning barchasi esa patriarxal davrdan qolib ketgan fikrlar hisoblanadi. Patriarxal madaniyatning asosiy g‘oyasi erkaklarni har bir jabhada – oilada ham ishda ham hukmron ya'ni boshqaruvchi ekanligi, uning obro‘si va mavqei har narsadan ustun ekanligi ta'kidlanadi. Masalan: *C'e l'uomo–c'e il denaro, non c'e l'uomo– non c'e il denaro.(Erkak bor– pul bor, erkak yo‘q– pul ham yo‘q).* Yuqoridagi maqoldan ham erkakni qay darajada ustun deb hisoblanganini bilishimiz mumkin. Ayollar esa erkaklarga so'zsiz itoat etishi, hech bir narsani ularning ruxsatisiz qilishi mumkin emasligi e'tirof etiladi. Ayollarga erkaklarning hayot yo‘lidagi bir qismi sifatida qaraladi. Masalan: *Il sacco l'uomo lo empie e la donna l'attacca. (Erkak qopni to‘ldiradi, ayol esa unga hujum qiladi) ; Le parole son femmine e I fatti son maschi. (So‘zlar ayolga xos, ish esa erkakka). Bu maqollarda ham Ayollarning roli ikkinchi darajaga tushirib ko‘rsatiladi.*

Qiyosiy gender tadqiqotlari zamonaviy lingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Til birliklari orqali erkak va ayol obrazlarining shakllanishi jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va madaniy stereotiplarni ochib beradi. Ayniqsa, maqollar ixcham shaklda umumlashgan

ijtimoiy tajribani ifodalovchi birliklar sifatida gender munosabatlarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Italyan xalq maqollarida erkak va ayol obrazlari ko‘pincha qarama-qarshi qo‘yilib, ularning ijtimoiy vazifalari va baholanish darajasi turlicha talqin qilinadi.

Qiyosiy lingvokulturologik tahlil til birliklarida mujassamlangan madaniy ma’nolarni solishtirish orqali ochib beradi. Gender kontekstida bu yondashuv erkak va ayolga nisbatan qo‘llanilgan semantik modellarni aniqlash imkonini beradi.

Italyan maqollarida ayol obrazi ko‘pincha salbiy yoki cheklangan aksiologik maydonda tasvirlanadi. Ayol obrazi ko‘pincha hissiylik, beqarorlik, ishonchsizlik va nazoratga muhtoj subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ayolga oid maqollarda salbiy baholovchi birliklar ustun bo‘lib, bu holat ayolning jamiyatdagi ikkilamchi mavqei bilan izohlanadi. Masalan: *“Donna e vento cambiano spesso.”* (Ayol va shamol tez-tez o‘zgaradi). Bu maqolda ayolning beqaror tabiati metafora orqali ifodalangan, ya’ni ayolning xarakteri tabiat hodisasi bilan qiyoslanib, uning barqaror emasligi ta’kidlanadi. Shamol metaforasi o‘zgaruvchanlik va ishonchsizlik ramzi sifatida qo‘llaniladi va salbiy baho yuklaydi. Yana bir misol: *“Le donne hanno lunghi capelli e corto cervello.”* (Ayollarning sochi uzun, aqli kalta bo‘ladi). Mazkur maqol ayolni intellektual salohiyatini kamsituvchi stereotipni ifodalaydi. Ushbu birlik patriarxal jamiyatda ayolning aqliy jihatdan emas, balki faqat tashqi ko‘rinish jihatdangina baholanganini ko‘rsatadi. Bu qarashlar esa patriarxal tafakkur mahsuli sifatida talqin qilinadi [2,145].

Erkak obrazi esa aksincha, italyan maqollarida asosan ijobiy baholovchi komponentlar bilan ifodalanadi. Erkak kuch, aql-idrok, barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan: *“Uomo di parola vale più dell’oro.”* (So‘zida turadigan erkak oltindan qimmat). Ushbu maqolda erkakning axloqiy barqarorligi va ijtimoiy ishonchliligi yuqori baholanadi. Erkakning so‘zida turishi madaniy qadriyat sifatida talqin qilinadi. *“Uomo avvisato mezzo salvato.”* (Ogohlantirilgan odam yarim qutqarilgan hisoblanadi) maqolida esa erkak teran

fikrlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi va har qanday vaziyatga qarshi oldindan chora ko‘ra olishi ta’kidlanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, italyan maqollarida erkak va ayol obrazlari o‘rtasida yaqqol aksiologik nomutanosiblik mavjud. Ayolga oid maqollarda salbiy baholash, tanqidiy va ogohlantiruvchi xarakter ustun bo‘lsa, erkakka oid maqollarda ijobiy semantik maydon, rag‘batlantiruvchi va maqtov fikrlar hukmronlik qiladi. Ushbu nomutanosiblik gender asimmetriyasi tushunchasi bilan izohlanadi [3,84-87]. Gender assimetriyasi jamiyatda erkak va ayolga nisbatan turlicha baho berilishning til orqali mustahkamlanishini bildiradi.

Ayol obrazi ko‘pincha tabiat hodisalari yoki o‘zgaruvchan unsurlar bilan qiyoslanadi, erkak esa barqarorlik va mustahkamlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holat italyan xalqining an’anaviy ijtimoiy tuzilmasi bilan bog‘liq. Masalan,

Donna, vento e fortuna cambiano come la luna.(Ayol, shamol va omad oy kabi o‘zgaruvchandir).

La donna è mobile come una piuma nel vento.(Ayol huddi shamoldagi pat kabi xarakatchan).

L'uomo è come il vino, più invecchia più diventa buono.(Erkak vino kabidir, qancha eski bo‘lsa shuncha yaxshi bo‘ladi).

Italyan jamiyatida uzoq vaqt davomida hukmron bo‘lgan patriarxal ijtimoiy model erkakning ustuvor mavqeini mustahkamlab kelgan. Ushbu holat til birliklarida, ayniqsa maqollarda aniq aks etgan [4, 120-143]. Masalan,

L'uomo è capo della casa, la donna è la focolare.(Erkak uy boshlig'i, ayol esa o‘chog‘i).

Mogli e buoi dei paesi tuoi.(Xotin va xo‘kizni o‘z yurtingdan ol).

Chi non ha moglie non ha padrone.(Kimning xotini yo‘q bo‘lsa, xo'jayini ham yo‘q).

Bugungi kunda mazkur maqollar gender tengligi nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilinmoqda. Shunga qaramay, ular madaniy xotira elementi sifatida til tizimida saqlanib qolmoqda.

Chi dice donna dice danno.(Ayol degani zarar degani).

Donne e motori , gioia e dolori.(Ayol va dvigatel, quvonch va qayg‘u).

Qiyosiy lingvokulturologik tahlil italyan maqollarida erkak va ayol obrazlari o‘rtasida yaqqol semantik va aksiologik farq mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu farq italyan xalqining tarixiy-madaniy tajribasi va an’anaviy gender munosabatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, italyan maqollari ham boshqa xalq maqollari kabi shunchaki xalq og‘zaki ijodi namunasi emas, balki asrlar davomida shakllangan kognitiv modellarning lisoniy in'ikosidir. Ulardagi aksiologik nomutanosiblik jamiyatning zamonaviy demokratik tamoyillari bilan qarama-qarshilikka kirishsada, tilning barqaror qatlami sifatida madaniy kodlarni avloddan-avlodga uzatishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barbagallo F. La saggezza popolare: Proverbi italiani. Milano: Mondadori, 2018. -277 p.

2. Berruto G. Sociolinguistica dell’italiano contemporaneo. - Roma: Carocci editore, 2012. - 232 p.

3. Francesco d'Ambra Proverbi italiani ordinati e illustrati. Firenze, Adriano Salani Editori, 1886. -458 p.

4. Lakoff R. Language and Woman’s Place. - New York: Oxford University Press, 2004. - 309 p.

5. Mieder W. Proverbs: A Handbook. - Westport, CT: Greenwood Press, 2004. - XIII + 304 p.

6. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. - Москва: Издательский центр «Академия», 2001. - 208 с.

7. Rossi L. Donna e uomo nei proverbi: Uno studio semantics. Roma: Carocci Editori, 2020. -120 p.

8. Tosi A. Linguaggio e cultura: Il significato dei proverbi italiani. Firenze: Franco Cesato Editore, 2015. -169 p.

USTYURT KARVON YO‘LLARI TIZIMIDA OV INSHOOTLARI (ARANLAR) TIPOLOGIYASI: TABIIY VA IJTIMOIY-GEOGRAFIK TADQIQ

Orazbaeva N.N.

QDU

onursuliw@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ustyurt platosining o‘ziga xos tabiiy-geografik muhitida shakllangan an’anaviy ov inshootlari - aranlarning konstruktiv turlari, ularning hududiy tarqalish qonuniyatlari va karvon yo‘llari bilan bog‘liqligi tadqiq etiladi. Ushbu ishda aranlarning iqtisodiy funksiyalari va ularning mintaqa demografik holatiga ta’siri tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *Ustyurt, aran, xant-tuzoq, tipologiya, sayg‘oq, karvon yo‘li, landshaft arxeologiyasi, etnogeografiya.*

Аннотация: *В данной статье исследуются традиционные охотничьи сооружения - конструктивные виды аран, сформировавшиеся в уникальной природно - географической среде плато Устюрт, закономерности их территориального распространения и взаимосвязь с караванными путями. В данной работе проанализированы экономические функции аранов и их влияние на демографическую ситуацию региона.*

Ключевые слова: *Устюрт, аран, хант-ловушка, типология, сайгак, караванный путь, ландшафтная археология, этногеография.*


Abstract: *This article investigates the structural types of traditional hunting structures-arans-formed within the unique natural-geographical environment of the Ustyurt Plateau, their patterns of territorial distribution, and their connection*

to caravan routes. This paper analyzes the economic functions of the Aran and their impact on the demographic situation of the region.

Keywords: *Ustyurt, Aran, trap, typology, saiga, caravan route, landscape archaeology, ethnogeograp.*

KIRISH

O’zbekistonning shimoli-g’arbiy qismida joylashgan Ustyurt platosi o‘zining keskin kontinental iqlimi va o‘ziga xos geomorfologik tuzilishi bilan ajralib turadi. Tarixan bu hudud nafaqat chorvachilik, balki Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlari o‘tgan tranzit zona hisoblangan. Ustyurt landshaftining eng sirli va kam o‘rganilgan elementlaridan biri - bu mahalliy tilda "aran" deb ataluvchi, kiyik va sayg‘oqlarni ovlash uchun mo‘ljallangan ulkan tosh inshootlardir.Bugungi kunda O‘zbekiston tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturi doirasida Ustyurtning turistik va madaniy salohiyatini aniqlash dolzarb masaladir. Aranlar nafaqat ov quroli, balki qadimgi muhandislik tafakkuri, ijtimoiy hamkorlik va ekologik moslashuvning yorqin namunasidir. Maqolaning maqsadi - aranlarning geografik joylashuvi va arxitektonikasiga ko‘ra tipologiyasini ishlab chiqish hamda ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berishdir.



1-rasm. Aranlarning grafik rekonstruktsiyasi. (O.Masharipov bo‘yicha)

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Kartografik va GIS-tahlil: Google Earth va boshqa aerofotosuratlar yordamida Ustyurt chinklari (jarliklari) bo‘ylab joylashgan aranlarning koordinatalari va shakllari tahlil qilindi.

Tarixiy-geografik determinizm: Tabiiy landshaftning (suv manbalari, yaylovlar, migratsiya yo‘llari) inshootlar qurilishiga ta’siri o‘rganildi.

Tizimli tahlil: Aranlar karvon yo‘llari va quduqlar bilan bog‘liq holda yaxlit bir "hayot ta’minoti tizimi" sifatida ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR

Ustyurt platosida olib borilgan dala tadqiqotlari va aerofotosuratlarni o‘rganish natijasida aranlarning uchta asosiy tipologik guruhi aniqlandi:

1. "V" simon murakkab aranlar (Strategik tip)Bu inshootlar eng keng tarqalgan va samarali tur bo‘lib, ikki qismdan iborat:Yo‘naltiruvchi devorlar: Uzunligi 500 metrdan 2 kilometrgacha boradigan, pastak (0.5–1 m) tosh devorlar. Ular kiyiklarni sezdirmasdan asosiy tuzoqqa yo‘naltiradi.Qabul qilish chuquri (tutqich): Devorlar tutashgan joyda diametri 10–20 metrli doira shaklidagi chuqur yoki baland devorli qo‘rg‘on joylashgan.

2. Chink cheti (tabiiy-geografik) aranlarUstyurtning baland chinklari (jarliklari) yaqinida qurilgan. Ovchilar kiyiklar podasini jarlik chetidagi tor sun’iy yo‘laklarga haydashgan. Bu turdagi aranlar minimal mehnat sarfi bilan maksimal natija berishi bilan ajralib turadi.

3. Karvon yo‘li bo‘yi aranlari (Iqtisodiy tip)Bu inshootlar asosan karvon bekatlari, sardobalar va quduqlar yaqinida joylashgan. Ularning hajmi nisbatan kichik bo‘lib, asosan o‘tkinchi karvonlarni va bekatdagi xizmatchilarni go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashga xizmat qilgan.

Jadval: Aranlarning geografik joylashuv xususiyatlari

Aran tipi	**Asosiy joylashuvi**	**Maqsadi**	**Qurilish materiali**
Chiziqli	Jarlar va chinklar yaqini	Sayg‘oqlarni to‘xtatish	Ohaktosh bo‘laklari
Murakkab (V-simon)	Keng tekisliklar	Ommaviy ov	Tosh va tuproq uyumlari
Mini-aranlar	Karvon bekatlari atrofida	Shaxsiy ehtiyoj uchun	Mahalliy toshlar

MUHOKAMA

Aranlarning tipologik xilma-xilligi Ustyurtda aholi yashash tarzining o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Masalan, ulkan "V" simon aranlarni qurish uchun yuzlab odamlarning jamoaviy mehnati talab etilgan [1]. Bu esa o‘sha davrda (IX-XIV

asrlar) hududda kuchli ijtimoiy ierarxiya va boshqaruv tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.Geografik jihatdan, aranlar sayg‘oqlarning mavsumiy migratsiya yo‘laklarida ("meridianal yo‘nalish") joylashgan.

Karvon yo‘llari bilan aranlarning keroshi (kesishuvi) shuni ko‘rsatadiki, ovchilik mahsulotlari (sayg‘oq shoxi, terisi va quritilgan go‘shti) Ipak yo‘li orqali Xiva va Buxoro bozorlariga, u yerdan esa Xitoy va Yevropaga eksport qilingan [2].Shuningdek, aranlar tizimi mintaqaning demografik sig‘imini oshirgan. Faqat chorvachilik bilan shug‘ullanish qiyin bo‘lgan qurg‘oqchil yillarda ovchilik aholi uchun "xavfsizlik yostig‘i" vazifasini o‘tagan.

XULOSA

Ustyurt aranlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tipologik xilma-xillik: Aranlar landshaftning geomorfologik xususiyatlariga (tekislik yoki jarlik) qarab ixtisoslashgan.

Iqtisodiy integratsiya: Ov inshootlari karvon yo‘llari tizimining ajralmas qismi bo‘lib, mintaqalararo savdoda muhim rol o‘ynagan.

Istiqbol: Bugungi kunda ushbu ob’ektlar Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoq tumanlari uchun yangi turistik brend bo‘lishi mumkin. "Aranlar xaritasi"ni yaratish va ularni ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish etnoturizmni rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. — Toshkent: Fan, 1964. — 156 b.

2. Yagodin V. N. Strelovidnye planirovki Ustyurta (opyt etnoarxeologicheskogo issledovaniya). — Tashkent: Fan, 1991. — S. 45–52.

3. Levshin A. I. Opisanie kirgiz-kazach’ix, ili kirgiz-kaysatskix, ord i stepey. — Almaty: Sanat, 1996. — 254 s.

4. Xoliqov A. O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2012. — 188 b.

5. GOST 7.1-2003. Bibliograficheskaya zapis’. Bibliograficheskoe opisanie. Obshie trebovaniya i pravila sostavleniya. — M.: IPK Izdatel’stvo standartov, 2004.

1960–1980-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ AHOLISINING MODDIY AHVOLI VA MEHNAT SAMARADORLIGI

Shamshetdinova Dilafruza Ismayilovna

Nukus davlat pedagogika instituti

e-mail: dilafruzashamshetdinova1984@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1960-1980 yillarda Qoraqalpog‘iston qishloq aholisining moddiy ahvoli, daromadlari, mehnat samaradorligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari tahlil qilinadi. Hukumat siyosati, agrar islohotlar, kolxoz va sovxozlardagi o‘zgarishlar, shuningdek shaxsiy qo‘shimcha xo‘jaliklar aholi turmush darajasi va ijtimoiy ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpog‘iston, qishloq aholisi, kolxoz, sovxoz, shaxsiy qo‘shimcha xo‘jalik, daromadlar, mehnat samaradorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash*

Abstract. *This article analyzes the material conditions, income, labor productivity, and social support systems of the rural population of Karakalpakstan from 1960 to 1980. It examines how government policies, agrarian reforms, changes in collective and state farms, and personal subsidiary plots influenced the living standards and social conditions of the population.*

Keywords: *Karakalpakstan, rural population, collective farm, state farm, personal subsidiary plot, income, labor productivity, social support*

Аннотация. *В настоящей статье анализируются материальное положение, доходы, производительность труда и системы социальной поддержки сельского населения Каракалпакстана в 1960–1980 годы. Рассматривается влияние государственной политики, аграрных реформ,*

изменений в колхозах и совхозах, а также личных подсобных хозяйств на уровень жизни и социальное положение населения.

Ключевые слова: *Каракалпакстан, сельское население, колхоз, совхоз, личное подсобное хозяйство, доходы, производительность труда, социальная поддержка*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy holati Sovet davlatining agrar siyosati bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Ayniqsa, 1960–1980-yillar davri qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar, ishlab chiqarish munosabatlaridagi o‘zgarishlar va aholi turmush darajasidagi muayyan siljishlar bilan ahamiyatlidir. Bu davrda davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar aholi daromadlari, mehnat samaradorligi va ijtimoiy himoya tizimida o‘z aksini topdi.

Mazkur maqolaning maqsadi – 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘iston qishloq aholisining moddiy ahvoli, daromad manbalari, mehnat samaradorligi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, kolxoz va sovxozlar faoliyati, shaxsiy qo‘shimcha xo‘jaliklarning ahamiyati, infratuzilmaning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham keng yoritiladi

Asosiy qism. 1960-yillar Qoraqalpog‘iston tarixida qishloq aholisining moddiy ahvoli va ijtimoiy hayotida transformatsiya bosqichi bo‘ldi. Bu davrda qishloq xo‘jaligida yirik kolxoz va sovxozlar tashkil etilib, ishlab chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashtirildi va agrotexnik tadbirlar keng joriy etildi. Bu o‘zgarishlar mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Qishloq aholisi daromadlarining asosiy manbai kolxoz va sovxozlardagi mehnat faoliyati bo‘lib qoldi. 1960–1966-yillarda ish haqi sezilarli darajada o‘sdi. 1966 yilga kelib kolxozchilarning o‘rtacha oylik ish haqi 75 rublni, sovxozchilarniki esa 86 rublni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar 1950-yillarga nisbatan 27–33 foizga

o‘sganini ko‘rsatadi [5:216]. Ilgari mehnatga haq to‘lash asosan natural shaklda amalga oshirilgan bo‘lsa, bu davrga kelib pul shaklidagi to‘lovlar keng tarqaldi.

Shu bilan birga, shaxsiy qo‘shimcha xo‘jaliklar qishloq aholisi iqtisodiy hayotida muhim o‘rin egalladi. Aholi o‘z tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish va chorvachilik bilan shug‘ullanish orqali daromad manbai va oziq-ovqat zaxirasini ta’minladi. 1960-yillar boshida shaxsiy xo‘jaliklardan olinadigan daromad umumiy daromadning qariyb 37,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1961 yilda bu ko‘rsatkich 43,8 foizga yetdi. Bu holat shaxsiy xo‘jaliklarning aholi turmushida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Biroq, Xrushyov davrida shaxsiy xo‘jaliklarga nisbatan cheklovlar joriy etildi, ularning yer maydonlari va chorva soni qisqartirildi. Shunga qaramasdan, aholi ushbu xo‘jaliklarni saqlab qolishga harakat qildi va ularni asosiy qo‘shimcha iqtisodiy manba sifatida faol ravishda qo‘llashda davom etdi. [2:104].

Kolxoz va sovxozlarda ishlab chiqarish samaradorligi ham aholi daromadlariga ta’sir qildi. 1960 yilda kolxozlar davlatga 101,8 ming tonna paxta sotgan bo‘lsa, 1966 yilda bu ko‘rsatkich 125,1 ming tonna, 1968 yilda esa 133,8 ming tonnaga yetdi [6:210]. Mehnat samaradorligini oshirish orqali kolxozchilarning oylik ish haqi ham sezilarli darajada ko‘tarildi: 1959-1965 yillarda bir kishi uchun oylik 1,59 rubldan 3,64 rublgacha, ya’ni 227%ga o‘sdi. Shu bilan birga, berilgan don ham 1,6 kg dan 5,7 kg gacha o‘sdi, ya’ni 355%ga ko‘paydi [3:56].

Aholi daromadlarining o‘sishi ularning iste’mol madaniyati va turmush tarzida ham o‘z aksini topdi. 1960-yillar o‘rtalaridan boshlab qishloq aholisi maishiy texnika va transport vositalarini xarid qilish imkoniga ega bo‘ldi. Xususan, 1964-1965 yillarda qishloq aholisi 13136 televizor va radio, 2148 kir yuvish mashinasi, 2929 velosiped, 1936 motosikl, mebel va kiyim-kechak sotib oldi. Bu ko‘rsatkichlar aholining moddiy turmush darajasi va madaniy talablarining ortishiga ishora qiladi [3:56].

Shu bilan birga, qishloq aholisining moddiy ahvolini baholashda ularning xarajatlari va iste’mol tuzilmasini ham hisobga olish zarur. Ushbu davrda

daromadlar o‘sgan bo‘lsa-da, ularning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan. Bu esa aholi hali yuqori farovonlik bosqichiga yetmaganini, balki asosiy ehtiyojlarni qondirish darajasida bo‘lganini ko‘rsatadi.

Infratuzilmaning rivojlanishi ham aholi turmush darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Qishloq joylarda elektrlashtirish, ichimlik suvi ta’minoti, yo‘llar qurilishi va ijtimoiy ob’ektlar sonining ortishi aholi yashash sharoitlarini yaxshiladi. Bu esa o‘z navbatida mehnat unumdorligini oshirish uchun qulay sharoit yaratdi.

Mehnat samaradorligini oshirishda texnika va texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq texnik vositalar yetishmasligi, ulardan samarali foydalanishdagi muammolar va malakali kadrlar tanqisligi ayrim hollarda ishlab chiqarish samaradorligini cheklab qo‘ydi.

Aholi bandligi asosan qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Mavsumiy ish bilan bandlik yuqori bo‘lib, yil davomida barqaror ish bilan ta’minlanish muammolari mavjud edi. Shuning uchun kolxozlar qoshida qo‘shimcha ishlab chiqarish va kichik sanoat korxonalarini tashkil etish orqali aholi bandligini oshirishga harakat qilindi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham qishloq aholisi moddiy ahvoliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 1959-1966 yillarda kolxozchilar pensiya va moddiy yordamlar orqali qo‘shimcha mablag‘lar olib turdi. Masalan, 1959 yildan boshlab respublikadagi 922 kolxozda 4300 kishi pensiya bilan ta’minlangan [1:49]. 1966 yilda pensiya va yordamlar uchun 4,7 million rubl to‘langan, bu 1965 yilga nisbatan deyarli ikki barobar ko‘p edi [6:210]. Shu bilan birga kassalar va ijtimoiy fondlar orqali nogironlar, nafaqadagi pensionerlar, ota-onasiz qolgan bolalar qo‘llab-quvvatlandi. Masalan, Turtko‘l tumanida 1960-1961 yillarda 11614 rubl pul yordami berildi, 32 kishi uy bilan ta’minlandi, 54 kishi uy ta’mirlandi, 28 kishi sanatoriy va dam olish yo‘llanmalariga yuborildi [1:50].

Mehnat samaradorligi va daromadlarning o‘sishi faqat kolxoz va sovxoz bilan cheklanmadi. 1965 yilda kolxozlarda qo‘shimcha ishlab chiqarish va sanoat korxonalari tashkil etish orqali aholi daromadlari yanada ko‘paydi. Bu tadbirlar

qishloq aholisi bandligini ta’minlab, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 1960-1980-yillarda qishloq aholisi daromadlari ko‘paydi, lekin ular hali ham sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga qaraganda kam edi. Masalan, 1980 yilda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘rtacha oylik 147,4 rublni tashkil qilgan bo‘lsa, sanoatda 159 rubl, qurilishda esa 252,1 rubl edi [4:137]. Bu farq qishloq mehnatining raqobatbardoshligini va sohada texnologik rivojlanishning zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, markazlashgan ta’minot tizimi, mahsulotlarga yetishdagi qiyinchiliklar va shaxsiy xo‘jaliklarga qo‘yilgan cheklovlar aholi iqtisodiy faolligini cheklab qo‘ydi. Demografik omillar, jumladan aholi sonining o‘sishi va ko‘p bolali oilalar ulushining yuqoriligi ham oilalarning iqtisodiy yuklamasini oshirdi. Shuningdek, ekologik muammolar, xususan, Amudaryo havzasidagi suv resurslaridan samarasiz foydalanish va yerlarning sho‘rlanishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida aholi daromadlariga ham ta’sir etdi.

Xulosa. 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘iston qishloq aholisining moddiy ahvoli va mehnat samaradorligi ma’lum darajada o‘sdi. Kolxoz va sovxozlarda ishlab chiqarish hajmining ortishi, mehnat samaradorligining oshishi va ish haqining ko‘payishi aholi daromadlarini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, shaxsiy qo‘shimcha xo‘jaliklar aholi iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil bo‘lib qoldi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining rivojlanishi aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o‘ynadi. Aholi moddiy farovonligining oshishi ularning iste’mol madaniyati va hayot sifatida namoyon bo‘ldi.

Biroq, qishloq xo‘jaligi sohasida saqlanib qolgan muammolar – daromadlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, shaxsiy xo‘jaliklarga cheklovlar, ta’minot tizimidagi kamchiliklar va ekologik muammolar – aholi iqtisodiy faolligini to‘liq rivojlantirishga to‘sqinlik qildi.

Shu jihatdan qaraganda, mazkur davrni qishloq aholisi moddiy ahvolining o‘sishi bilan birga, tizimli cheklovlar va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan xarakterlanuvchi davr sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гаипова А. Рост благосостояния трудящихся Каракалпакской АССР. – Нукус, 1974.

2. Конышев Д.Н. Государственная политика ограничения личного подсобного хозяйства (конец 1950-х – начало 1960-х гг.) // Вопросы истории. – 2011. – № 3.

3. Молдахметов К. Подъем материального благосостояния и культурного уровня колхозного крестьянства Каракалпакской АССР в 1959-1965 годы // Вестник КК ФАН УзССР. – 1974. – №4.

4. Народное хозяйство ККАССР за 1976-1980 годы: статистический сборник. – Нукус, 1981

5. Резолюция XXII съезда Коммунистической партии Советского Союза по Отчету Центрального Комитета КПСС // Материалы XXII съезда КПСС. – Москва: Политиздат, 1962.

6. Экономическое преобразование Каракалпакии за годы советской власти. – Нукус, 1969.

ARXEOLOGIK VA ARXITEKTURA TADQIQOTLARI ASOSIDA JAMPIQ QAL’ANING TARIXIY QIYOFASINI REKONSTRUKTSIYA QILISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Tadjetdinov Aziz Maratovich

Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti

e-mail:tajetdinov.aziz889@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jampiq qala yodgorligining tarixiy qiyofasini arxeologik va arxitektura tadqiqotlar asosida rekonstruktsiya qilish masalalari keng yoritilgan. Rekonstruktsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularning ilmiy tahlili hamda zamonaviy yechim usullari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Jampiq qal’a, Xorazm arxitekturasi, arxeologik tadqiqot, rekonstruktsiya, qadimiy shaharsozlik, mudofaa inshootlari, stratigrafiya, 3D modellashtirish, konservatsiya, arxitektura tahlili.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of reconstructing the historical appearance of Jampik qal’a based on archaeological and architectural studies. It focuses on key challenges and modern scientific solutions.*

Keywords: *Khorezm architecture, archaeological research, reconstruction, ancient urban planning, defensive structures, stratigraphy, 3D modeling, conservation, architectural analysis.*

Аннотация. *В статье подробно рассматриваются вопросы реконструкции исторического облика Жампык кала на основе археологических и архитектурных исследований. Особое внимание уделено анализу проблем и современным методам их решения.*

Ключевые слова: *Архитектура Хорезма, археологические исследования, реконструкция, древнее градостроительство, оборонительные сооружения, стратиграфия, 3D моделирование, консервация, архитектурный анализ.*

Kirish. Markaziy Osiyo, ayniqsa Xorazm vohasi, insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda joylashgan Jampiq qal'a o’rta asrlar davrida muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega bo’lgan qal’a sifatida tarixda alohida o’rin tutadi. Uning joylashuvi, mudofaa tizimi va arxitekturasi Xorazm shaharsozlik an’analarini o’rganishda muhim manba hisoblanadi.

Hozirgi kunda yodgorlikning katta qismi vayron holda saqlanib qolgan bo’lib, uning dastlabki qiyofasini tiklash ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Rekonstruktsiya jarayoni faqatgina arxeologik ma’lumotlarga emas, balki arxitekturaviy tahlil, qiyosiy usullar va raqamli texnologiyalarga ham tayanadi.

Asosiy qism. Jampiq qal'a yodgorligi Markaziy Osiyodagi qadimiy mudofaa arxitekturasining yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu qal’aning tarixiy qiyofasini rekonstruktsiya qilish nafaqat arxitektura yoki arxeologiya doirasidagi masala, balki u kompleks ilmiy tadqiqotlarni talab etuvchi murakkab jarayondir. Rekonstruktsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar turli omillar bilan bog’liq bo’lib, ularni hal etish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish zarur.

Eng avvalo, yodgorlikning saqlanish darajasi pastligi rekonstruktsiya ishlarida asosiy muammo sifatida namoyon bo’ladi. Jampiq qal’aning devorlari asosan pastki qatlamlar darajasida saqlangan bo’lib, yuqori qismi deyarli to’liq yemirilgan. Burchaq minorlari, darvoza inshootlari va devor ustki qismidagi mudofaa elementlari yo’qolgan. Bu holat qal’aning vertikal parametrlarini, ya’ni balandligi, ko’rinish profili va siluetini aniqlashni juda qiyinlashtiradi. Ilmiy yechim sifatida arxitekturaviy-muhandislik tahlillari qo’llaniladi. Devor qalinligi, xom g’isht o’lchamlari, qurilish texnologiyasi va poydevor kengligi kabi parametrlar asosida inshootning ehtimoliy balandligi hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga, statik va

konstruktiv tahlil orqali devorlarning yuk ko’tarish qobiliyati baholanadi va shu asosda realistik rekonstruktsiya modellari yaratiladi.

yetkazib berish qobiliyatiga ega. Bu xususiyat ularni sun’iy qon ishlab chiqarishda asosiy komponentlardan biriga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o-aminobenzoy kislota va fenol asosida azobirikma sintez qilish nafaqat oddiy va samarali laboratoriya usuli, balki yuqori darajada nazariy va amaliy ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Ushbu reaksiyada diazotlash va keyingi qo‘shilish bosqichlari mukammal boshqariladigan mexanizm orqali amalga oshadi, natijada yuqori tozalikka ega bo‘lgan mahsulotlar olinadi. Bunday azobirikmalar o‘zining rang beruvchi, elektr o‘tkazuvchanlikni oshiruvchi va biologik faollik kabi xususiyatlari bilan sanoat, tibbiyot hamda materialshunoslikning eng ilg‘or yo‘nalishlarida keng qo‘llanilish imkoniyatiga ega bo‘lib, kelajakda texnologiyalarining asosini tashkil etishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Benkhaya S., M’rabet S., El Harfi A. Classifications, properties, recent synthesis and applications of azo dyes // Heliyon. — 2020. — Vol. 6, № 1. — P. e03271.

2. Liu Z., Fang Y., Liu Y., Fu W., Gan X., Gao W., Tang B. One-Pot Difunctionalization of Aryldiazonium Salts for Synthesis of para-Azophenols // Frontiers in Chemistry. — 2022. — Vol. 10. — Article 818627.

3. Zhang L., Song Q., Wang Y., Chen R., Xia Y., Jin W., Wu S., Chen Z., Iqbal A., Liu C., Zhang Y. Solvent-free mechanochemical synthesis of azo dyes // RSC Mechanochemistry. — 2024. — Vol. 1. — P. 447–451.

SHAHAR TIPIDAGI AHOLI PUNKTLARINING REJAVIY TUZILMASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI (QONLIKO’L TUMANI MARKAZI MISOLIDA)

Saparbaeva Khamida Tursınbay qızı

QDU

h2112amida@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shahar tipidagi aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini rivojlantirish masalalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumani markazi misolida o‘rganilgan. Tadqiqotda hududning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, ekologik omillari, demografik o‘sish dinamikasi va urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilinib, mavjud rejaviy tuzilmaning xususiyatlari aniqlangan. Bioklimatik yondashuvlar, yopiq hovli tizimi, funksional zonalarning joylashuvi va zamonaviy qurilish yechimlarining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, infratuzilma rivoji, aholi zichligini tartibga solish va mahalla tizimini saqlab qolish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida shahar tipidagi aholi punktlarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *shahar tipidagi aholi punktlari, rejaviy tuzilma, urbanizatsiya, bioklimatik yondashuv, hududiy rejalashtirish, aholi zichligi, ekologik muhit, infratuzilma, Qonliko‘l tumani, mahalla tizimi, GIS texnologiyalari.*

Аннотация: *В данной статье изучены вопросы развития планировочной структуры населенных пунктов городского типа на примере центра Канлыкульского района Республики Каракалпакстан. В исследовании проанализированы природно-климатические условия региона, экологические факторы, динамика демографического роста и процессы урбанизации, определены особенности существующей планировочной структуры.*

Обосновано значение биоклиматических подходов, замкнутой дворовой системы, расположения функциональных зон и современных строительных решений. Также были рассмотрены вопросы развития инфраструктуры, регулирования плотности населения и сохранения системы махалли. В результате исследования разработаны научно-практические предложения по комплексному развитию населенных пунктов городского типа.

Ключевые слова: *населенные пункты городского типа, планировочная структура, урбанизация, биоклиматический подход, территориальное планирование, плотность населения, экологическая среда, инфраструктура, Канлыкульский район, махаллинская система, ГИС технология.*

Abstract: *In this article, the issues of developing the planning structure of urban-type settlements were studied using the example of the center of the Kanlykul district of the Republic of Karakalpakstan. The study analyzed the natural and climatic conditions of the region, environmental factors, the dynamics of demographic growth and urbanization processes, and determined the features of the existing planning structure. Bioclimatic approaches, a closed courtyard system, the location of functional zones, and the importance of modern construction solutions are substantiated. Issues of infrastructure development, population density regulation, and the preservation of the mahalla system were also considered. As a result of the research, scientific and practical proposals for the comprehensive development of urban-type settlements were developed.*

Keywords: *urban-type settlements, planning structure, urbanization, bioclimatic approach, territorial planning, population density, ecological environment, infrastructure, Kanlykul district, mahalla system, GIS technology.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining tuman markazlari – shahar tipidagi aholi punktlari (shaharchalar) respublika hududiy tuzilishining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi [5]. Ular iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, urbanizatsiya jarayonlari va tabiiy muhit bilan uyg‘unlashgan holda aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini

shakllantirish orqali mintaqaviy barqarorlikni ta’minlaydi [4]. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumani markazi – Qonliko‘l shaharchasi shahar tipidagi aholi punktlarining tipik namunasi bo‘lib, cho‘l-iqlimiy sharoitlar, Aral dengizi ekologik inqirozi ta’siri va demografik o‘sish fonida rejaviy tuzilmani rivojlantirish masalalari dolzarbligi bilan ajralib turadi [3].

2024-yil 1-iyul holatiga Qonliko‘l tumani doimiy aholisi 54,1 ming kishini tashkil etib, shundan shahar aholisi 13,8 ming kishini (25,5 %) tashkil qiladi [1]. Shaharcha aholisi yiliga o‘rtacha 0,6 % ga o‘smoqda. Tumanning umumiy maydoni 740 km² ni tashkil etadi. Shaharcha Amudaryo pasttekisligida joylashgan bo‘lib, qattiq kontinental iqlim (+40…+45 °C yozgi harorat, chang bo‘ronlari), suv ta’minoti va ekologik bosim sharoitida urbanizatsiya jarayoni kuchaymoqda.

Mazkur tadqiqot shahar tipidagi aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish, Qonliko‘l tumani markazi misolida amaliy muammolarni aniqlash va rivojlanish istiqbollarini belgilashdan iborat. Bu yo‘nalish O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

• **Adabiyotlar va normativ hujjatlar tahlili:** SHNQ 2.07.01-23 “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish”, Qonliko‘l tumani aholi punktining bosh rejasi materiallari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari (2024–2025) [2].

• **Qiyosiy-geografik tahlil:** Shahar tipidagi aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini tabiiy-iqlimiy omillar (cho‘l zonasi, ekologik bosim) va shaharsozlik yechimlari (funksional zonalarning ixcham joylashuvi, ko‘cha-yo‘l tarmog‘i) bilan solishtirish [5].

• **Demografik va iqtisodiy baholash:** Aholi zichligi (shaharchada taxminan 1500–2000 kishi/km²), urbanizatsiya darajasi va qurilish salohiyati GIS asosida

tahlil qilindi. Ma’lumotlar rasmiy statistika, shaharsozlik hujjatlari va ilmiy manbalardan olingan.



Natijalar

Qonliko‘l shaharchasining hozirgi rejaviy tuzilmasi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. **Tabiiy muhitga moslashuv:** Shaharcha cho‘l zonasida joylashgani sababli rejaviy tuzilmada yopiq hovli va atrium tipidagi yechimlar, shuningdek, bioclimatik dizayn elementlari ustunlik qiladi. Bu chang bo‘ronlarini kamaytirish va tabiiy ventilyatsiyani ta’minlash imkonini beradi. Bosh reja asosida yer qavatida ijtimoiy xizmatlar va ko‘kalamzorlashtirish ko‘zda tutilgan[4].

2. **Iqtisodiy-ijtimoiy jihatlar:** Kam qavatli uylarni zamonaviy 4–7 qavatli massivlar bilan bosqichma-bosqich almashtirish shahar zichligini oshirib, infratuzilma xarajatlarini qisqartiradi. Birinchi qavatlarda savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashtirilishi mahalliy iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Mahalla an’analarining vertikal shakli ijtimoiy aloqalarni saqlashga yordam beradi.

3. **Demografik jihatlar:** Shahar aholisining o‘sishi (13,8 ming kishi, 2024) va urbanizatsiya fonida rejaviy tuzilma zichlik muammosini hal qilishga qaratilgan. Hozirgi zichlik ko‘rsatkichlari bosh reja doirasida kengayish (tumanning

qo‘shimcha hududlarini jalb etish) hisobiga yumshatiladi. Yoshlar migratsiyasini kamaytirish uchun hovlili elementlar va ijtimoiy infratuzilma muhim ahamiyatga ega.

Muhokama

Tabiiy jihatdan: Qonliko‘l shaharchasidagi ekologik bosim (chang bo‘ronlari, suv tanqisligi, Aral mintaqasi ta’siri) sharoitida bioclimatik yondashuv (yopiq hovli, landshaft dizayni) energiya tejash va qulay mikroklimat yaratishga yordam beradi. Biroq, loyihalarda iqlimiy omillarni to‘liq hisobga olmaslik dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda [4].

Iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan: Bosh reja asosidagi qurilish infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Asosiy cheklovchi omillar – suv va yo‘l tarmoqlarining yetishmovchiligi hamda qurilish sifati masalalari [2].

Demografik jihatdan: Aholi o‘sishi va shahar aholisi ulushining ortishi fonida rejaviy tuzilma zichlik muammosini hal qiladi, ammo mahalla madaniyati va an’anaviy hovlili tizimni saqlash talab etiladi. Istiqbollar: GIS-monitoring, eko-dizayn standartlarini joriy etish va eksperimental majmualar qurish orqali kompleks rivojlanishni ta’minlash [1].

Ushbu yechimlar O‘zbekistonning boshqa chekka tuman markazlarida (shahar tipidagi aholi punktlarida) ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, nazariy-metodologik asoslarni mustahkamlaydi.

Xulosa

Qonliko‘l tumani markazi misolida shahar tipidagi aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini rivojlantirish masalalari O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tabiiy moslashuv, iqtisodiy samaradorlik va demografik barqarorlikni ta’minlovchi yechimlar urbanizatsiya bosimi, ekologik cheklovlar va aholi o‘sishini hisobga olgan holda shaharsozlik siyosatini takomillashtirishga yordam beradi [5].

Takliflar:

• Bosh rejada yopiq hovli va bioclimatik yechimlarni ustunlik berish;

• GIS va masofaviy zondlash orqali rejaviy tuzilmani monitoring qilish tizimini yaratish;

• Mahalla tizimini vertikal rivojlantirish va ekologik turizm elementlarini qo‘shish;

• Shahar tipidagi aholi punktlari uchun maxsus shaharsozlik normalarini ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot respublika konferensiyasi yo‘nalishiga mos holda tumanlarning nazariy-metodologik asoslarini boyitishga va amaliy rivojlanish dasturlariga ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. Qanliko‘l tumanining doimiy aholi soni bo‘yicha ma’lumotlar, 2024-yil 1-iyul holatiga. – Nukus, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining SHNQ 2.07.01-23 “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalari. – Toshkent, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadallashtirish to‘g‘risidagi farmoni (PF-213-son, 2023). – Toshkent, 2023.

4. Jalilova M.H. Shahar tipidagi aholi hududlarini rejaviy tuzilishining shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022. – B. 45–52.

5. Tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish: o‘quv qo‘llanma / Namangan davlat universiteti. – Namangan, 2024.

NUKUS SHAHRI MISOLIDA IQLIMGA MOSLASHUVCHAN SHAHARSOZLIKNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Xudaybergenova L.Q

QDU

lizaxudaybergenova0@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Orol bo‘yi mintaqasining ekstremal iqlim sharoitida Nukus shahrining shaharsozlik tizimini transformatsiya qilish masalalari tadqiq etiladi. Maqolada Nukus shahri uchun xos bo’lgan yuqori insolyatsiya, sho‘r chang bo’ronlari va suv tanqisligi sharoitida "yashil karkas" yaratish, binolarning energiya samaradorligini oshirish va barqaror shahar infratuzilmasini shakllantirish strategiyalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Nukus, iqlimga moslashuv, Orol bo‘yi ekologiyasi, barqaror shaharsozlik, sho‘r chang bo‘ronlari, yashil infratuzilma, mikroiqlim.*

Аннотация: *В данной статье исследуются вопросы трансформации градостроительной системы города Нукуса в экстремальных климатических условиях Приаралья. В статье анализируются стратегии создания "зеленого каркаса," повышения энергоэффективности зданий и формирования устойчивой городской инфраструктуры в условиях высокой инсоляции, солёных пыльных бурь и дефицита воды, характерных для города Нукус.*

Ключевые слова: *Нукус, адаптация к климату, экология Приаралья, устойчивое градостроительство, солёные пыльные бури, зелёная инфраструктура, микроклимат.*

Abstract: *This article examines the transformation of the urban planning system of the city of Nukus in the extreme climatic conditions of the Aral Sea region. The article analyzes strategies for creating a "green framework," increasing the*

energy efficiency of buildings, and forming a sustainable urban infrastructure in conditions of high insolation, salt dust storms, and water scarcity characteristic of the city of Nukus.

Keywords: *Nukus, climate adaptation, ecology of the Aral Sea region, sustainable urban development, salt dust storms, green infrastructure, microclimate.*

1. KIRISH

O‘zbekistonning shimoliy hududi, xususan Nukus shahri global iqlim o‘zgarishi va Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan lokal ekologik inqirozning markazida joylashgan. Nukus uchun xos bo‘lgan keskin kontinental iqlim, yozgi jazirama issiq ($+45\text{°C}$ dan yuqori) va Orolqum tubidan ko‘tarilayotgan sho‘r chang bo‘ronlari an’anaviy shaharsozlik usullaridan voz kechishni taqozo etmoqda [2].

Hozirgi vaqtda Nukus shahrida olib borilayotgan qurilish ishlari ko‘p hollarda hududning o‘ziga xos iqlimiy zaifligini to‘liq hisobga olmayapti. Binolarning haddan tashqari qizib ketishi, ochiq maydonlarning "betonlashishi" va sug‘orish tizimidagi uzilishlar shahar mikroiqlimini og‘irlashtirmoqda. Maqolaning maqsadi — Nukus shahrini "iqlimga chidamli shahar" modeliga o’tkazish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdir [1].

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Nukus shahrining 2018–2025-yillardagi shaharsozlik dinamikasi va iqlimiy ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Kartografik tahlil:** Nukus shahrining sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida "issiqlik orollari" (Heat Islands) lokalizatsiyasi aniqlandi.
- **Ekologik monitoring:** Shahar havosi tarkibidagi chang va tuz miqdorining qurilish zichligiga bog‘liqligi o‘rganildi [7].
- **Modellashtirish:** Nukus sharoitida binolarni soyalash va ventilyatsiya qilishning aerodinamik modellari tahlil qilindi.

3. NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar Nukus shahrida iqlimga moslashuvchan shaharsozlikning quyidagi ustuvor natijalarini ko‘rsatdi:

3.1. "Yashil karkas" va changdan himoya

Nukus uchun shahar atrofida "yashil qalqon" yaratish strategiyasi hayotiy zaruriyatdir. Tadqiqot natijasida shaharning shimoli-g‘arbiy qismida (chang bo‘ronlari kelish yo‘nalishi) ko‘p qatlamli ihota daraxtzorlarini yaratish havoni changdan tozalash samaradorligini 35-40% ga oshirishi aniqlandi.

3.2. Shaharsozlikda "Cool Pavements" texnologiyasi

Nukusda quyosh radiatsiyasi yuqori bo‘lganligi sababli, an’anaviy qora asfalt o‘rniga albedo koeffitsienti yuqori bo‘lgan (quyosh nurini qaytaruvchi) ochiq rangli qoplamalarni qo‘llash shahar sirtidagi haroratni $8\text{--}12\text{°C}$ gacha pasaytirishi hisoblab chiqildi.

3.3. Energiya samarador arxitektura

Nukusning yangi massivlarida (masalan, "Yangi O’zbekiston" massivi) binolarning fasad qismida avtomatlashgan soya beruvchi qurilmalar va qalinligi $40\text{--}50\text{cm}$ bo‘lgan energiya tejovchi devor konstruktsiyalarini qo‘llash konditsionerlash uchun sarflanadigan elektr energiyasini 25% ga tejash imkonini beradi [5].

4. MUHOKAMA

Nukus shahrining shaharsozlik strategiyasi "suvga asoslangan landshaft" (water-sensitive urban design) tamoyiliga tayanishi kerak. Nukus sharoitida ochiq suv havzalari va favvoralar nafaqat estetik, balki havo namligini oshiruvchi termoregulyator vazifasini bajaradi.

Biroq, suv tanqisligini hisobga olgan holda, shaharsozlikda "Kseriskeyping" (suvni minimal talab qiluvchi landshaft dizayni) usulini joriy etish lozim. Bu usul Nukus iqlimiga chidamli bo‘lgan saksovul, qandim va jiyda kabi o‘simliklarni shahar landshaftiga estetik tarzda olib kirishni nazarda tutadi [6].

Shuningdek, Nukusning tarixiy qurilish an’analari (masalan, binolarning ichki hovlisi, qalin paxsali devorlar) zamonaviy materiallar bilan uyg‘unlashtirilsa, iqlimga moslashuv yanada samarali bo‘ladi [3].

5. XULOSA

Nukus shahrini kompleks o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Nukus shaharsozligida iqlimga moslashuv strategiyasi majburiy davlat standarti sifatida kiritilishi shart.
2. Shaharning shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida "ekologik to‘siqlar" yaratish orqali sho‘r chang oqimini jilovlash mumkin.
3. "Aqlli sug‘orish" (tomchilatib sug‘orish) tizimiga asoslangan "yashil yo‘laklar" tarmog‘i shahar mikroiqlimini barqarorlashtiradi.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi Nukusni Orol bo‘yi mintaqasidagi eng qulay va ekologik xavfsiz shahar markaziga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2022. – 416 б.

2. Мамбетуллаева С.М. Экологический мониторинг состояния окружающей среды Приаралья. – Нукус: Билим, 2019. – 168 с.

3. Ахмедов С.О. Иқлим ўзгариши шароитида шаҳарсозликни режалаштириш асослари. – Тошкент: ТАСИ, 2021. – 156 б.

4. O‘zbekiston Respublikasining "Shaharsozlik kodeksi". – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 128 b.

5. Climate Change and Cities: Second Assessment Report of the Urban Climate Change Research Network. – Cambridge University Press, 2018. – 850 p.

6. Салимов Б.А. Қорақалпоғистон шаҳарларини кўкаламзорлаштиришнинг илмий асослари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. – 2023. – №1. – Б. 22-26.

7. UNDP Uzbekistan. Adapting to Climate Change in the Aral Sea Basin: Integrated Urban Planning. – Tashkent, 2022.

8. World Bank. Uzbekistan: Towards a Green Economy Transition. – Washington, DC, 2024.

⚖ JAMIYAT VA HUQUQ: TUMANLAR KESIMIDA SOTSIOLOGIYA, PSIXOLOGIYA, SIYOSATSHUNOSLIK, YURIDIK VA HARBIY TADQIQOTLAR

RAHBAR KADRLAR BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHRISHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Arzimatova I.M.

Farg‘ona davlat universiteti

inoyatxonarzimatova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy davlat va korporativ tizimlarda rahbar kadrlarni tayyorlash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-analitik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda rahbar kadrlar tayyorlash tizimida mavjud bo‘lgan asosiy muammolar — ta’limiy-metodik kamchiliklar, amaliyot bilan bog‘liq uzilishlar, institutsional cheklovlar, axloqiy-madaniy omillar va raqamli kompetensiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *rahbar kadrlar, boshqaruv samaradorligi, meritokratiya, kompetensiya, liderlik, boshqaruv madaniyati, raqamli iqtisodiyot, tajribaviy o‘qitish, strategik boshqaruv, HR texnologiyalar, emotsional intellekt, tashkilot samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье представлен научно-аналитический анализ вопросов подготовки управленческого персонала и повышения эффективности управления в современных государственных и корпоративных системах. Исследование рассматривает основные проблемы системы подготовки управленческого персонала – образовательные и методические недостатки, пробелы в практике, институциональные ограничения, морально-культурные факторы, а также недостаточное развитие цифровых компетенций – на основе системного подхода.*

Ключевые слова: *управленческий персонал, эффективность управления, меритократия, компетенция, лидерство, культура управления, цифровая*

экономика, обучение на основе опыта, стратегическое управление, HR-технологии, эмоциональный интеллект, организационная эффективность.

Abstract. *This article presents a scientific and analytical analysis of management training and management effectiveness improvement in modern government and corporate systems. The study examines the key challenges of management training-educational and methodological shortcomings, gaps in practice, institutional constraints, moral and cultural factors, and the insufficient development of digital competencies-using a systems approach.*

Keywords: *management, management effectiveness, meritocracy, competence, leadership, management culture, digital economy, experiential learning, strategic management, HR technologies, emotional intelligence, organizational effectiveness.*

Zamonaviy davlat va korporativ tizimlarning barqaror rivojlanishi yuqori malakali rahbar kadrlar tayyorlash va ularning boshqaruv sifatini doimiy oshirishga bevosita bog‘liq. Rahbarlar tizimni boshqarishda strategik qarorlar qabul qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hamda tashkilot madaniyati va samaradorligini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu sababli rahbar kadrlar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar butun boshqaruv tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida ushbu masalada mavjud muammolar tahlili, ularning ildiz sabablari, oqibatlari va yechim yo‘nalishlari ilmiy-analitik tarzda ko‘rib chiqiladi.

Rahbar kadrlarni tayyorlash bugungi globallashuv jarayonlarida davlat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy tizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi eng muhim omillardan biridir. Rahbar shaxsining kompetensiyalari nafaqat tashkilot yoki tizimning rivojlanish darajasini, balki jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning tezligi va sifatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Shunga qaramay, ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham rahbar kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularning boshqaruv samaradorligini kuchaytirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud.

Aksariyat boshqaruv ta’limi tizimlarida o‘quv dasturlarining mazmuni zamonaviy menejment, strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, liderlik psixologiyasi kabi yo‘nalishlarda yetarlicha yangilanmagan. Menejerlarni ko‘proq amaliy vazifalar orqali, real muammolarni hal qilish tajribasi bilan shakllantirish zarur, biroq ko‘plab ta’lim muassasalarida nazariylik ustuvor bo‘lib qolmoqda.

Rahbar kadrlarning boshqaruv malakasi amaliyot davomida shakllanadi. Biroq ta’lim jarayonida uzoq muddatli stajirovkalar, konsalting loyihalarida ishtirok etish, innovatsion boshqaruv tajribalarini o‘rganish imkoniyatlari cheklangan. Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli rahbarlik kompetensiyalari amaliy faoliyat orqali eng samarali shakllanishini isbotlaydi.

Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni saralash mexanizmlarida yuqori darajada meritokratiya tamoyillariga to‘liq rioya qilinmasligi, ba’zan subyektiv omillarning ustuvorligi boshqaruv tizimi sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Weberning byurokratik modelida asosiy tamoyil - lavozimga tayinlashda bilim, malaka va merit asosiy mezon bo‘lishi keltiriladi. Amaliyotda esa bu tamoyillar to‘liq ishlamaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbarning analitik fikrlashi, big-data bilan ishlay olish, raqamli menejment vositalaridan foydalanish kabi ko‘nikmalar zarur. Biroq ko‘plab rahbarlar bu borada yetarli darajada tayyor emas.

Jamoani motivatsiya qilish, konfliktologiya, kommunikatsiya, liderlikning emotsional-intellektual jihatlari kabi yo‘nalishlar ko‘plab rahbarlar faoliyatida yetarlicha aks etmaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, rahbarlikning 80% samaradorligi emotsional intellektga bog‘liqligini ilmiy asoslagan. Ammo ko‘plab rahbarlar kommunikativ madaniyat, motivatsiya strategiyalari va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar bo‘yicha yetarli malakaga ega emas.

Rahbarlarning boshqaruv madaniyati, jamoaga munosabati, mas’uliyati va etik tamoyillarga amal qilishi ularning professionalligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardir. Biroq ba’zan avtoritar uslub, biryoqlama qarorlar, jamoa fikrini tinglamaslik kabi holatlar samaradorlikni pasaytiradi.

Ko‘plab tashkilotlarda ish samaradorligini oshirishga qaratilgan adolatli va aniq baholash tizimlari mavjud emas. Rag‘batlar ko‘pincha natijaga emas, jarayonga qaratilgan. Bu esa innovatsiyaga bo‘lgan intilishni susaytiradi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari individual rahbarlikdan ko‘ra jamoaviy liderlik va kollegial boshqaruvni afzal deb biladi. Ammo ko‘plab tashkilotlarda qarorlar markazlashgan, vakolatlar delegatsiyasi yetarli darajada emas. Rahbar kadrlarni tayyorlash va boshqaruv samaradorligini oshirishdagi muammolar — tizimli, kompleks va ko‘p omilli jarayondir. Ularni bartaraf etish uchun ta’lim dasturlarini yangilash, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, meritokratiya tamoyillariga qat’iy rioya qilish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, boshqaruv madaniyatini oshirish va zamonaviy HR texnologiyalarini joriy etish zarur. Rahbarlik - tug‘ma iste’dod bilan birga, muntazam ilm, tajriba va axloqiy madaniyatni talab qiladigan murakkab faoliyat bo‘lib, uni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir.

Rahbar kadrlarni tayyorlash va boshqaruv samaradorligini oshirishdagi muammolarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin: (A) ta’limiy-metodik muammolar; (B) amaliy tajriba va treninglar bilan bog‘liq muammolar; (C) institutsional va boshqaruv tizimidagi muammolar; (D) axloqiy-estetik va madaniy omillar; (E) texnologik va raqamli kompetensiyalar bilan bog‘liq muammolar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, modernizatsiya jarayonlari kontekstida rahbar salohiyati jamiyat taraqqiyoti va uning a’zolarining faoliyatiga katta ta’sir etuvchi omillardan biridir. Mazkur jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshib borishi, ularning ijobiy natijasi va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy rahbar salohiyatining roli ulkan. Bu nuqtai nazardan rahbarning salohiyati va uning mohiyatini falsafiy tahlil etish nazariygina emas, amaliy jihatdan ham zarurdir. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, uning asosiy

huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartidir” [1].

Rahbar salohiyati hozirgi davr uchungina emas, kelajak taraqqiyot uchun ham muhim omil, chunki u kelajak taraqqiyotining sur’atlarini, jamiyatni harakatga keltiruvchi determinantlaridan biri hisoblanadi. Uni o‘rganish natijasida kelajak taraqqiyotining kadrlarga, mutaxassislarga va ularni yetishtirishga bo‘lgan ehtiyojlarni va qo‘yilayotgan talablarni ham anglash mumkin. Shunga ko‘ra “Inson salohiyati muammosi – bu kelajak muammosi, inson salohiyatining imkoniyatlarini baholash va uni boshqarish muammosi” [2]. Yetakchi va rahbarning boshqaruv sohasidagi faoliyati va salohiyatiga tegishli fikrlarni o‘rganishda bir qator rossiyalik olimlar, tadqiqotchilarning fikrlariga e’tibor qaratamiz. Yu.S.Zensovaga ko‘ra, shaxsning boshqaruv salohiyati – bu uning boshqa odamlarning faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid vazifalarni hal qilish qobiliyati va imkoniyatlarini aniqlab topish bilan bog‘liqdir [3].

Zamonaviy boshqaruv tizimida rahbar shaxsining professional kompetensiyalari bilan bir qatorda uning axloqiy fazilatlari, ma’naviy dunyosi va madaniyati hal qiluvchi o‘rin tutadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya kuchayayotgan bugungi davrda rahbar shunchaki boshqaruvchi emas, balki jamiyatda ijtimoiy totuvlik, ma’naviy barqarorlik, mas’uliyat hamda adolat tamoyillarini qaror toptiruvchi asosiy subyektdir. Shu bois rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida axloqiy fazilatlarni rivojlantirish hamda ularni madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish falsafiy jihatdan chuqur asoslangan zarurat hisoblanadi.

Rahbarlikning mohiyati insonni boshqarish, unga ta’sir ko‘rsatish, qarorlar qabul qilish va jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlarni tashkil etish bilan bog‘liq. Falsafiy nuqtayi nazardan bunday faoliyat “javobgarlik ontologiyasi”ni talab qiladi. Insonning mavjudligi mas’uliyat orqali mazmun topadi; rahbarlik esa bu mas‘uliyatning eng oliy shaklidir. Demak, rahbarning axloqiy fazilatlari - adolat, halollik, fidoyilik, vijdonlilik - uning ontologik tayanchi sanaladi.

Axloqiy yetukliksiz boshqaruv jarayoni mazmunini yo‘qotadi, chunki rahbar qarorlarining hal qiluvchi qismi ma’naviy tanlovlardan iborat.

Madaniyatli shaxsning shakllanishi falsafada “insonning ichki olami va tashqi faoliyati uyg‘unligi” sifatida talqin qilinadi. Rahbarning madaniyatli bo‘lishi - bu avvalo:intellektual salohiyatning yuksakligi, ma’naviy qadriyatlarga hurmat, kommunikativ madaniyat, axloqiy me’yorlarga qat’iy amal qilish, boshqalarni qadrlay bilish, o‘z ustida ishlashga intilish.

Rahbarning madaniyati va axloqiy fazilatlari uning boshqaruvdagi qarorlari, jamoaga ta’siri, vaziyatni boshqarish qobiliyati va jamoaning unga bo‘lgan ishonchi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: yuqori axloqiy fazilatga ega rahbarlar boshqarayotgan tashkilotlar 20-40% yuqori samaradorlikka ega; madaniyatli rahbarlar jamoada mehnat intizomini 2-3 barobar mustahkamlaydi; axloqiy liderlik innovatsion faollikni oshiradi va stressni kamaytiradi. Demak, axloqiy komillik boshqaruv samaradorligining ichki dvigateli vazifasini bajaradi.

Rahbar kadrlarni tayyorlashda axloqiy fazilatlar va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalash faqat qo‘shimcha talab emas, balki boshqaruvning falsafiy-ma’naviy yadrosi, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur shartdir. Axloqiy komillik, madaniy saviya, odob-axloq, ma’naviy mas’uliyat rahbarning professional kompetensiyalarini mazmun bilan to‘ldiradi, ularni insonparvarlik, adolat, halollik va ijtimoiy mehr bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada rahbar nafaqat boshqaruvchi, balki jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga yo‘naltiruvchi ma’naviy yetakchiga aylanadi. Shu jihatdan katta rahbarlik tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Qahramoni Murodilla Saidovning ham fikrlari alohida ahamiyatga ega. “...Rahbarning o‘zi qonunni mensimasa, atrofdagilar ham unga monand bo‘lishga harakat qiladilar. Bunday rahbar kelgusida o‘zi ishlayotgan joyda albatta, notinchligu tartibsizliklarni keltirib chiqaradi’ [4], deb yozadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, rahbar faoliyatini tashkil etishda yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlar rahbar shaxsninggina emas, uning etakchiligi ostida faoliyat

olib borayotgan barcha shaxslarning, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O`zbekiston, 2021. - B. 22.

2. Солнцева Г.Б., Смолян Г.Л. Человеческий потенциал: размышления содержании понятия. В кн.: Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода / РАН. Ин-т человека; Под ред. Фролова И.Т. - Москва: Эдиториал УРСС, 1999. - С. 59.

3. Зенцова Ю.С. Влияние краткосрочного социально-психологического тренинга науправленческий потенциал личности: дисс. … канд. психол. наук / Ю.С.Зенцова. - Казань, 2003. - С. 42.

4. Saidov M. Hayotim falsafasi. - Qarshi: Nasaf, 2003. - B. 27.

IJTIMOIY ONG TIZIMIDA QO‘RQUV VA XAVOTIRNI: IJTIMOIY-FALSAFIY VA TARIXIY TAHLILI

Ermatova Zamira Farxodovna
Jizzax viloyati. Paxtakor tumani 1-Texnikum
E-mail: zamiraermatova104@gmail.com

Annotasiya. *Mazkur maqolada qo‘rquv fenomenining ijtimoiy ong tizimida shakllanishi ijtimoiy-falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qo‘rquv inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir ko‘rsatishi asoslab beriladi. Tadqiqotda qo‘rquvning ijtimoiy tabiati, uning tarixi, turlari va zamonaviy jamiyatdagi namoyon bo‘lish shakllari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *qo‘rquv, ijtimoiy ong, falsafa, tarix, ijtimoiy psixologiya, xavfsizlik, madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется формирование феномена страха в системе общественного сознания с социально-философской и исторической точек зрения. Утверждается, что страх, как важная составляющая человеческого мышления, оказывает различное влияние на развитие общества. В исследовании рассматривается социальная природа страха, его история, типы и формы проявления в современном обществе.*

Ключевые слова: *страх, общественное сознание, философия, история, социальная психология, безопасность, культура.*

Abstract. *This article analyzes the formation of the phenomenon of fear within the system of public consciousness from socio-philosophical and historical perspectives. The author argues that fear, as a crucial component of human cognition, exerts a diverse influence on the development of society. The study examines the social nature of fear, its history, types, and forms of manifestation in contemporary society.*

Keywords: *fear, public consciousness, philosophy, history, social psychology, security, culture.*

Kirish. Inson ongida qo‘rquv fenomeni qadimdan mavjud bo‘lib, u faqat biologik emas, balki ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ham shakllangan. Qo‘rquv jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Qo‘rquvning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy ong tizimida muhim o‘rin tutadi. U insonning xulq-atvoriga, qaror qabul qilish jarayoniga va jamiyatdagi o‘rniga ta'sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

1. Qo‘rquv fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati

Qo‘rquv – insonning xavf-xatarga nisbatan psixik reaksiyasi bo‘lib, u ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Falsafada qo‘rquv masalasiga turli mutafakkirlar alohida e'tibor qaratgan.

Masalan, Tomas Gobbs qo‘rquvni davlat va jamiyatning shakllanishida asosiy omil sifatida ko‘radi[1]. Uning fikricha, insonlar o‘rtasidagi “hamma hammaga qarshi urush” holati qo‘rquv tufayli davlat tuzilishiga olib kelgan.

Syoren Kerkegor esa qo‘rquvni inson mavjudligining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi[2]. U qo‘rquvni “erkinlikning bosh aylanishi” deb atagan.

Shuningdek, Zigmund Freyd qo‘rquvni inson psixikasidagi ong osti jarayonlari bilan bog‘laydi[3]. Uning nazariyasiga ko‘ra, qo‘rquv ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi.

2. Qo‘rquvning tarixiy shakllanishi

Qo‘rquv tarixi insoniyat tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Qadimgi jamiyatlarda qo‘rquv tabiat hodisalari (chaqmoq, zilzila, kasalliklar) bilan bog‘liq bo‘lgan.

O‘rta asrlarda qo‘rquv diniy tasavvurlar bilan uyg‘unlashgan. Jazo, gunoh va jahannam g‘oyalari inson ongida qo‘rquv orqali mustahkamlangan.

Yangi davrda esa qo‘rquv ijtimoiy va siyosiy xarakter kasb etdi. Masalan, totalitar tuzumlarda qo‘rquv jamiyatni boshqarish vositasi sifatida qo‘llanilgan[4].

3. Zamonaviy jamiyatda qo‘rquv fenomeni

Bugungi globallashuv sharoitida qo‘rquv yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda:

axborot qo‘rquvi (informasion xavf)

iqtisodiy beqarorlik qo‘rquvi

ekologik xavflar

kiber xavfsizlik muammolari

Zamonaviy insonda qo‘rquv ko‘pincha ommaviy axborot vositalari va internet orqali shakllanadi. Bu esa “ijtimoiy qo‘rquv” tushunchasining kengayishiga olib keladi.

4. Qo‘rquvning ijtimoiy funksiyalari

Qo‘rquv faqat salbiy emas, balki ijobiy funksiyalarga ham ega:

xavfdan himoya qilish

ehtiyotkorlikni shakllantirish

jamiyatda tartibni saqlash

Biroq ortiqcha qo‘rquv insonda stress, depressiya va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Qo‘rquv fenomeni ijtimoiy ong tizimida murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida yuz beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv jamiyat taraqqiyotida ham salbiy, ham ijobiy rol o‘ynaydi. Shu sababli uni chuqur o‘rganish va boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. — New York: Free Press, 1995.
2. Foucault M. Discipline and Punish. — New York: Vintage Books, 1977.
3. Freud S. Inhibitions, Symptoms and Anxiety. — London: Hogarth Press, 1926.
4. Fromm E. Escape from Freedom. — New York: Farrar & Rinehart, 1941.
5. Hobbes T. Leviathan. — London, 1651.
6. Kierkegaard S. The Concept of Anxiety. — Princeton: Princeton University Press, 1980.
7. Hobbes T. Leviathan. — London, 1651.
8. Kierkegaard S. The Concept of Anxiety. — 1980.
9. Freud S. Inhibitions, Symptoms and Anxiety. — 1926.
10. Foucault M. Discipline and Punish. — 1977.

PROSPECTS FOR DEVELOPING COMMAND, LEADERSHIP, AND MANAGERIAL COMPETENCIES OF JUNIOR COMMANDERS IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Haydarov Jamol G‘ulommamatovich

Department of Tactics and Specialized Disciplines,Military Aviation Institute

Mustanov Anvar Ashurovich

Department of Tactics and Specialized Disciplines, Military Aviation Institute

Abstract:*This article examines the existing challenges in the development of leadership and command competencies among junior commanders serving in the Armed Forces, and presents corresponding solutions and recommendations.*

Keywords: *commander, leader, leadership, problem, group, qualities, personality.*

Leadership is understood as a set of psychological qualities, abilities, and characteristics that define a commander’s interactions with subordinates, determining their capacity to assume a leading position within a group and the effectiveness of applying leadership competencies in subsequent managerial practice.

When addressing the leadership of junior commanders and sergeants, it is also necessary to briefly consider general leadership theories. In order to identify the leadership qualities of junior commanders, it is appropriate to analyze the models of leadership attributes of organizational leaders described in the scientific literature.

It is highly desirable for a leader’s qualities to be multifaceted. There is no doubt that, in a leadership role, an individual must possess characteristics that distinguish them from other members of the group. However, the experience of leadership studies conducted within the frameworks of personal and situational

approaches demonstrates the complexity of identifying, distributing, and, accordingly, developing leadership qualities.

In 1940, the American researcher **K. Bird** compiled a list of 79 leadership traits. This list included such qualities as initiative, communicative ability, a sense of humor, self-confidence, the capacity to make quick and accurate decisions, and organizational skills. However, the limitation of these theories lies in the fact that, first, they fail to explain how these traits manifest and how they are formed; second, empirical surveys did not identify any single trait that was consistently observed with absolute frequency.

The analysis of situational factors should be conducted within the context of studying the socio-psychological conditions in which the leadership activities of junior commanders are carried out,including both training and service environments, as well as the characteristics of collective life within training groups and their specific features (*Shermatov F.T., Monograph, 2021, pp. 69-70*).

When discussing the leadership of junior commanders and sergeants, it is also necessary to briefly address general leadership theories.To date, three principal factors influencing leadership can be identified.

The first factor is related to the leadership activities of junior commanders and sergeants. The specific nature of their professional duties is based on hierarchical subordination, where behavior is strictly regulated by statutory requirements, as well as the principles of duty and obedience.

The second factor is associated with the particular conditions of their daily life. The accommodation of junior commanders and sergeants in barracks,with restricted freedom to leave the military unit, contributes to intensified interpersonal interactions within the group.

The third factor concerns age-related characteristics.The period of training for junior commanders and sergeants coincides with a developmental stage marked by the formation of social maturity and the desire to establish one’s position within a

system of social relationsThe key orientations of this stage include self-awareness and self-expression.

The perception of a leader by followers plays a crucial role in the leadership process,as ultimately it is the followers who either accept or reject an individual in a leadership position.Therefore,in addition to previously published findings on the personal qualities of commander-leaders, we sought to examine the factors that cadets consider when evaluating leadership effectiveness. For this purpose, we analyzed the subjective opinions of junior commanders regarding the qualities required of a training group leader.

The survey was conducted using a questionnaire comprising 24 qualities grouped into four blocks: personal, social, organizational, and managerial and professional activity. Junior commanders were asked to evaluate the listed qualities according to their level of importance for a training group leader. The list of qualities was developed based on the generalization and classification of various models of leadership attributes of organizational leaders.

The research findings were analyzed from two perspectives. First, the identification of the most important qualities for a training group leader within each structural block.Second, the ranking of all qualities according to their level of importance for a training group leader across different training courses.

The five most essential qualities for a leader were identified as follows:

1. **Sense of direction**-a clear understanding of one’s goals and actions both as a professional and as an individual, as well as the ability to remain persistent despite setbacks and failures.
2. **Inner drive**-the willingness to seize opportunities presented by life, closely aligned with a strong commitment to a particular profession and style of activity.
3. **Integrity of personality**-derived from self-awareness, sincerity, and maturity; including knowledge of one’s strengths and weaknesses,

adherence to personal principles, and the willingness and ability to learn from and work with others.

4. **Curiosity**-a commitment to self-education and continuous self-improvement.

5. **Courage**-readiness to take risks, experiment, and engage with new experiences.

Overall,the following qualities were recognized as the most significant across the entire sample:

- readiness to assume responsibility for decisions made and the outcomes of group activities;
-politeness, honesty, and fairness;
- the ability to organize a platoon to accomplish assigned tasks;
- self-confidence;
- the ability to defend the interests of the team;
- willingness to provide assistance and support in the course of work.

1. Individual and personal qualities.

Awareness and emotional sensitivity.A leader should be a sufficiently “*developed*” individual,capable of listening to oneself and one’s emotions.A person’s ability to sense oneself, to understand what disturbs and what one desires, is an important element of adequate self-awareness, which helps in navigating one’s life path and in understanding other people (*Shermatov F.T., Yaroslavl, May 14–16, 2021, p. 405*).

Self-confidence. A sufficiently high level of self-esteem in a leader,combined with self-confidence, increases decisiveness in critical situations and helps to take risks when necessary.This enables the expansion of one’s capabilities and the enrichment of experience.

Active life position and aspiration for leadership. An active life position allows a leader to be at the center of events, which is necessary for adequate orientation in a given situation.

Aspiration for leadership and success is a factor necessary for a leader’s self-development and self-improvement.

Moral normativity,reliability,and consistency in actions.A leader is a carrier of group norms and values; therefore, his or her behavior and worldview must correspond to universal moral standards-justice, honesty, responsibility, reliability, and consistency in actions.

A developed self-concept of the leader. The leader’s worldview and the nature of interactions with followers are largely determined by the leader’s self-awareness, which includes a system of ideas about oneself as a leader and one’s leadership role in interaction with the group.

2. Organizational and managerial qualities.

Future orientation. For a commander-leader to manage a group, he or she must know where to lead it. For this purpose, the leader must be able to foresee the prospects of group activity.

Sensitivity to situations and flexibility of behavior.A leader is often a participant in a complex process, operating in an “*arena*” where many different forces are at work,most of which are sometimes beyond his or her knowledge,understanding,and control.Therefore, sensitivity to the situation, the ability to act quickly within it, and to make correct decisions are important qualities of an organizational leader.

Ability to build a team. An important quality determining the success of a junior commander’s formation in a leadership role is the ability to involve others (*through creative programs, ideas, and ideals*) and to create a team of like-minded individuals. The formation of corporate goals and values, as well as monitoring their observance by followers, is one of the most important tasks of a leader.

Ability to organize a group to solve assigned tasks is one of the key qualities of an organizational leader. This includes the ability to distribute functions among group members, to motivate and inspire them to accomplish tasks, to coordinate

work, as well as to monitor the results of joint activities, express gratitude, and provide rewards.

3. Social qualities.

Interpersonal sensitivity and the ability to understand the needs of others. Leadership is a social phenomenon oriented toward people; therefore, the ability to understand and feel other individuals-their aspirations, problems, and concerns-as well as to comprehend leader-follower relationships, largely determines a leader’s success.

Communicative competence. A commander’s ability to quickly establish contact with people and to feel confident within a team are important qualities that ensure success in organizational and managerial activities.

The ability to create conditions for followers’ self-awareness is the basis for forming trust in the leader and the willingness of followers to follow the junior commander.

Fairness. The commander performs the function of coordinating relationships within the team; therefore, such a leader must be impartial and fair in evaluating the actions of other military personnel.

The ability to represent and defend group interests externally and to assume responsibility for group activities.A junior commander acts as a representative of the group;therefore, the ability to represent and defend group interests in external situations, as well as to assume responsibility for internal group activities, is an important quality of an organizational leader.

The qualities discussed above constitute the leadership potential of a group leader; however, possessing them does not necessarily turn a person into a leader. Each of them can be meaningful and useful both for a leader and for any person striving for success in life.In our view, qualities that can be considered truly leadership-related are those attributed to the group by others as characteristics of a leader, namely:recognition of his leadership position and authority; having followers

who are willing to follow the leader; the presence of group members' personal expectations regarding the leader's activity; delegation of part of personal activity to the leader by group members, and so on.

The identified qualities occupy different positions in the three-level model of junior commanders' leadership qualities developed by us:

- the first level includes individual-personal and professional qualities that characterize the person as an individual and determine his leadership self-awareness;
- the second level includes leadership interaction,social-psychological and organizational-managerial qualities implemented in the process of interaction with other members of the group;
- the third level includes actual leadership, i.e., qualities granted to the leader by the group (*Shermatov F.T., Beknazarov A.A., 2021, p. 49*).

For an individual to move from the individual level to the level of leadership within a group, he must be successfully realized at the level of interaction. Junior commanders who successfully demonstrate organizational, managerial, and socio-psychological qualities in the process of intra-group interaction are perceived by the group as leaders and are granted leadership qualities, meaning they are recognized and accepted as leaders.

In conclusion,the successful outcome of implementing a leadership development program is the acquisition of perceptual recognition and leadership qualities. Therefore, in order to ensure the formation of junior commanders in training groups in the status of leaders, special attention should be paid to the perception of the group of junior commanders as leaders and to the formation of leadership personality. Understanding among commanders.

Otherwise, leadership potential may remain unrealized.The practical implementation of this work can be carried out through organizational-activity and role-based games conducted with natural training groups, aimed at forming positive

experience of leadership interaction between junior commanders and classmates, and strengthening their perception of the leadership image.

References

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan, Supreme Commander-in-Chief of the Armed Forces Sh.M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. 2020. – 17 p.

2. Shermatov F.T., *Socio-psychological and specific aspects of the manifestation of professional stress in future officers: theory and practice* // Monograph. 2021. pp. 69–83.

3. Shermatov F.T., Beknazarov A.A. *Combat stress and its psychological consequences* // Training manual. 2021. pp. 48–51.

ZAMONAVIY YOSHLARDA BEGONALASHUV JARAYONI

Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti
zarinabonumamazonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy yoshlarda begonalashuv jarayonining mazmuni, kelib chiqish sabablari va ijtimoiy-psixologik oqibatlari tahlil qilinadi. Begonalashuv (alienatsiya) jarayoni yoshlarning jamiyat, oila va o‘z-o‘zidan uzoqlashishi, ijtimoiy faollikning pasayishi hamda ma’naviy qadriyatlarga befarqlikning kuchayishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada begonalashuvga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, iqtisodiy va psixologik muammolar yoritiladi. Shuningdek, ushbu jarayonning oldini olish va kamaytirish bo‘yicha ijtimoiy, tarbiyaviy va psixologik chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy yoshlar muammolarini chuqurroq tushunish va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy xulosalar berishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *begonalashuv, yoshlar, ijtimoiylashuv, globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy muammolar, psixologik holat, qadriyatlar, jamiyat*

Abstract. *This article analyzes the content, causes, and socio-psychological consequences of the process of alienation among modern youth. The process of alienation is viewed as the alienation of young people from society, family, and themselves, a decrease in social activity, and an increase in indifference toward spiritual values. The article highlights globalization, digital technologies, the impact of social networks, and economic and psychological issues as the primary factors influencing alienation. It also analyzes social, educational, and psychological*

measures to prevent and reduce this process. The study aims to provide scientific conclusions on a deeper understanding of the problems of modern youth and their elimination.

Keywords: *alienation, youth, socialization, globalization, digital technologies, social networks, social problems, psychological state, values, society*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda jamiyatning eng faol qatlami hisoblangan yoshlar hayotida turli ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ana shunday jarayonlardan biri bu begonalashuv (alienatsiya) bo‘lib, u yoshlarning jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan, hatto o‘z shaxsiy “men”idan uzoqlashishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy yoshlar orasida begonalashuv jarayoni turli omillar ta’sirida kuchayib bormoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, shaxslararo jonli muloqotning kamayishi, iqtisodiy noaniqlik, oilaviy muhitdagi muammolar hamda ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuvi ushbu jarayonni tezlashtiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Natijada ayrim yoshlar ijtimoiy faollikdan chetlashib, yolg‘izlik, befarqlik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklariga duch kelmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi zamonaviy yoshlarda begonalashuv jarayonining mohiyatini tahlil qilish, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini aniqlash hamda ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, maqolada begonalashuvning ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlari kompleks yondashuv asosida yoritiladi.

Ushbu mavzuni o‘rganish jamiyatda yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metod va materiallar. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda zamonaviy yoshlarda begonalashuv jarayonini chuqur tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy nazariyalar, empirik tadqiqotlar hamda normativ hujjatlar o‘rganildi.

Xususan Karl Marxning begonalashuv (alienatsiya) nazariyasi asosiy nazariy poydevor sifatida o‘rganildi. Bundan tashqari Emile Durkheimning anomiya nazariyasi, raqamli muhit ta’sirini tahlil qilishda Sherry Turklening “alone together” konsepsiyasi, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi o‘rganilib, ayniqsa “identiklik inqirozi” bosqichi yoshlar begonalashuvining psixologik asoslarini tushunishda muhim manba bo‘ldi. Sherry Turkle “alone together” g‘oyasi asosida esa yoshlar va texnologiyalar o’rtasidagi soxta munosabatlar o’rganib chiqildi.

Tadqiqot davomida quyidagi hujjatlar va manbalar ham tahlil qilindi: UNICEF va UNESCO tomonidan yoshlar rivojlanishi, raqamli savodxonlik va psixologik farovonlik bo‘yicha e’lon qilingan hisobotlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va ijtimoiy rivojlanishga oid davlat dasturlari.

Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

- nazariy tahlil metodi (ilmiy adabiyotlar va konsepsiyalarni o‘rganish);
- qiyosiy tahlil metodi (turli olimlarning qarashlarini solishtirish);
- kontent-tahlil metodi (hujjatlar va hisobotlarni o‘rganish);
- sotsiologik yondashuv (ijtimoiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish).

Mazkur metodlar yordamida zamonaviy yoshlarda begonalashuv jarayonining sabablari, namoyon bo‘lish shakllari va uning ijtimoiy oqibatlari kompleks tarzda o‘rganildi. Manuel Castellsning “tarmoq jamiyati” nazariyasi ham tahlil qilinib, global raqamli tarmoqlar yoshlar ijtimoiy xulq-atvoriga qanday ta’sir qilishi o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili va metododlogiya. Marxga ko‘ra, begonalashuv insonning o‘z mehnati mahsuli, jamiyat va o‘z mohiyatidan uzoqlashishi natijasida yuzaga keladi. Bu yondashuv zamonaviy yoshlar orasidagi ijtimoiy befarqlik va mehnatga bo‘lgan munosabatni tahlil qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qildi.[61]

[61] Marx K. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844. – Moscow: Progress Publishers, 1959. – 150 b.

Karl Marx begonalashuvni kapitalistik ishlab chiqarish tizimi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, inson o‘z mehnati natijasini nazorat qilmaganda, mehnat jarayonidan qoniqish olmaydi va o‘z mehnat mahsuliga begona bo‘lib qoladi.

Zamonaviy yoshlarda bu holat quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- ish va kasb tanlashda maqsadsizlik;
- “men qilayotgan ishning ma’nosi yo‘q” degan fikr;
- iqtisodiy bosim sababli majburiy ishlash;
- kelajakka ishonchsizlik.

Natijada yoshlar o‘z faoliyatini “o‘ziniki” deb his qilmaydi va bu ijtimoiy begonalashuvni kuchaytiradi.

Shuningdek, Emile Durkheimning anomiya nazariyasi tahlil qilindi. Durkheim jamiyatdagi me’yoriy tizimlarning zaiflashuvi shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasiga olib kelishini ta’kidlaydi. Ushbu nazariya zamonaviy yoshlar orasida ijtimoiy normalardan chetlashish holatlarini tushuntirishda qo‘llanildi.

Emile Durkheim jamiyatda me’yorlar va qadriyatlar zaiflashganda “anomiya” holati yuzaga kelishini aytadi.[62] Bu holatda shaxs aniq yo‘nalish va ijtimoiy tartibni yo‘qotadi.

Zamonaviy yoshlar kontekstida:

- qadriyatlarning tez o‘zgarishi;
- ijtimoiy normalarning noaniqligi;
- jamiyatga moslashish qiyinlashuvi;
- “nima to‘g‘ri, nima noto‘g‘ri” degan chalkashlik kuzatiladi.

Bu esa yoshlarni jamiyatdan ruhiy uzoqlashishiga, ya’ni begonalashuvga olib keladi.

Bundan tashqari, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi o‘rganilib, ayniqsa “identiklik inqirozi” bosqichi yoshlar begonalashuvining psixologik asoslarini tushunishda muhim manba bo‘ldi.[63]

[62] Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. – Paris: Félix Alcan, 1897. – 400 b.
[63] Erikson E. H. Childhood and Society. – New York: W. W. Norton & Company, 1950. – 335 b.

Erik Erikson inson rivojlanishini bosqichlarga ajratadi va o‘smirlik/yoshlik davrida “identiklik inqirozi” muhim bosqich ekanini ta’kidlaydi. Bu bosqichda yoshlar “Men kimman?”, “Kelajakda kim bo‘laman?” degan savollarga javob izlaydi.

Zamonaviy davrda bu jarayonni murakkablashtiruvchi omillar:

- ijtimoiy tarmoqlardagi taqqoslashlar;
- ko‘p variantli hayot yo‘llari;
- ota-ona va jamiyat bosimi;
- tez o‘zgaruvchi ijtimoiy standartlar.

Natijada yoshlar o‘zini yo‘qotib qo‘yishi va ichki begonalashuvni his qilishi mumkin.

Raqamli muhit ta’sirini tahlil qilishda Sherry Turklening “alone together” konsepsiyasi (texnologiya ichida yolg‘izlik) nazariy asos sifatida foydalanildi. Bu yondashuv ijtimoiy tarmoqlar ko‘paygan sharoitda real muloqotning kamayishi va emotsional uzoqlashuvni izohlashga yordam berdi.[64]

Sherry Turkle “alone together” g‘oyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, texnologiyalar odamlarni doimiy bog‘lab turgandek ko‘rinsa ham, aslida ular real muloqotni kamaytiradi.

Zamonaviy yoshlarda bu:

- telefon va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik;
- real suhbatlardan qochish;
- emotsional yaqinlikning kamayishi;
- “yolg‘iz bo‘lsa ham doim onlayn” holati
- ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Bu esa emotsional begonalashuvni kuchaytiradi.

[64] Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. – 360 b.

Shuningdek, Manuel Castellsning “tarmoq jamiyati” nazariyasi ham tahlil qilinib, global raqamli tarmoqlar yoshlar ijtimoiy xulq-atvoriga qanday ta’sir qilishi o‘rganildi.

Manuel Castells zamonaviy jamiyatni “tarmoq jamiyati” sifatida tushuntiradi. Bu jamiyatda asosiy aloqa vositasi — axborot tarmoqlari.

Unga ko‘ra, odamlar ko‘p “ulanishlarga” ega bo‘ladi, lekin bu aloqalar chuqur emas, yuzaki bo‘ladi, real ijtimoiy bog‘lanishlar zaiflashadi.

Zamonaviy yoshlarda bu:

- ko‘p do‘stlar va followerlar bor, lekin yolg‘izlik hissi mavjud;
- virtual aloqa real munosabatni almashtiradi;
- ijtimoiy identiklik internet orqali shakllanadi.

Ushbu nazariyalar bir-birini to‘ldiradi va zamonaviy yoshlarda begonalashuvni kompleks hodisa sifatida tushuntiradi. Ya’ni, Marx iqtisodiy begonalashuvni, Durkheim ijtimoiy tartibsizlik va anomiyani, Erikson psixologik identiklik inqirozini, Turkle raqamli emotsional begonalashuv jarayonini, Castells esa tarmoq jamiyatidagi yuzaki aloqalarni tushuntirib beradi.

Natijada begonalashuv faqat bitta sabab emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar yig‘indisi ekanligi ko‘rinadi.

Muhokama va natijalar. Karl Marxga ko‘ra, begonalashuv insonning o‘z mehnati mahsulidan, mehnat jarayonidan va jamiyatdan uzoqlashishi natijasida yuzaga keladi. Zamonaviy yoshlar orasida bu holat ko‘pincha ish faoliyatidan qoniqmaslik, kelajakka ishonchsizlik va ijtimoiy befarqlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Emile Durkheim jamiyatda me’yorlar zaiflashganda anomiya holati yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Bu holat individning yo‘nalishsizligi va ijtimoiy izolyatsiyasiga olib keladi. Bugungi yoshlar orasida qadriyatlarning o‘zgarishi begonalashuvni kuchaytirmoqda.

Erik Erikson nazariyasiga ko‘ra, yoshlar o‘z shaxsiy “men”ini shakllantirish jarayonida identiklik inqirozini boshdan kechiradi. Zamonaviy raqamli muhit bu jarayonni murakkablashtirib, ichki beqarorlik va begonalashuvga olib keladi.

Sherry Turkle “alone together” konsepsiyasida texnologiyalar insonlarni bog‘lab turgandek ko‘rinsa ham, aslida real muloqotni kamaytirishini ta’kidlaydi. Bu holat yoshlarda emotsional begonalashuvni kuchaytiradi.

Manuel Castells tarmoq jamiyatida insonlar axborot orqali bog‘langan bo‘lsa ham, bu aloqalar yuzaki bo‘lishini ko‘rsatadi. Natijada yoshlar ko‘p aloqalarga ega bo‘lsa-da, yolg‘izlik hissini sezadi.

Zamonaviy yoshlar orasida begonalashuv (ijtimoiy, psixologik va raqamli izolyatsiya) global muammo sifatida qaralib, uni kamaytirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda UNICEF va UNESCO muhim metodologik va amaliy yo‘nalishlarni belgilab bermoqda.

1. Yoshlar siyosati va ijtimoiy integratsiya islohotlari (UNICEF

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarni jamiyatga faol integratsiya qilishga qaratilgan.

Asosiy yo‘nalishlar:

a) yoshlar uchun bandlik va ko‘nikma rivojlantirish dasturlari;

b) ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish;

c) zaif guruhdagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash;

d) mahalliy boshqaruvda yoshlar ishtirokini oshirish.

O‘zbekistonda ham UNICEF hamkorligida “bolalar va yoshlarga do‘stona mahalliy boshqaruv” tashabbuslari amalga oshirilmoqda, bu esa yoshlarning jamiyat qarorlarida ishtirokini kuchaytiradi va ijtimoiy begonalashuvni kamaytiradi. [65]

2. Raqamli inklyuziya va psixologik qo‘llab-quvvatlash

[65] UNESCO. Youth and Inclusion in Digital Society Report. Paris: UNESCO, 2022.

UNICEF yoshlar orasida begonalashuvni kamaytirish uchun:

a) maktablarda psixologik xizmatlarni kengaytirish;

b) raqamli muhitda xavfsiz foydalanish (digital wellbeing);

c) ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etishni tavsiya etadi.

Bu yondashuvlar ijtimoiy tarmoqlar sababli yuzaga kelayotgan “virtual yolg‘izlik” va emotsional begonalashuvni kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Ta’lim orqali integratsiya (UNESCO islohotlari)

UNESCO begonalashuvga qarshi kurashni asosan ta’lim tizimi orqali amalga oshiradi.

Asosiy islohot yo‘nalishlari:

a) inklyuziv ta’lim tizimi (hamma uchun teng imkoniyat);

b) hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (muloqot, tanqidiy fikrlash);

c) raqamli savodxonlikni oshirish;

d) yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb qilish.[66]

UNESCO fikricha, ta’limdan uzilish (dropout) va tengsizliklar yoshlarning jamiyatdan uzoqlashishining asosiy omillaridan biridir.[67]

4. Mahalliy boshqaruv va yoshlar ishtirokini kuchaytirish

a) BMTning qo‘shma dasturlari doirasida (UNICEF + UNDP) O‘zbekistonda:

b) bolalar va yoshlar uchun inklyuziv boshqaruv tizimi joriy etilmoqda;

c) yoshlar qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinmoqda;

d) ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

[66] UNICEF. The State of the World’s Children: Mental Health and Well-being. New York: UNICEF, 2021.
[67] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.

Bu islohotlar yoshlarning “jamiyatdan ajralib qolishi” emas, balki uning faol ishtirokchisi bo‘lishini ta’minlaydi.

5. Ijtimoiy himoya va xavfsizlik tizimini kuchaytirish

So‘nggi yillarda:

a) ijtimoiy himoya tizimi modernizatsiya qilinmoqda;

b) “Inson” markazlari orqali manzilli yordam ko‘rsatilmoqda;

c) zaif qatlamdagi yoshlar bilan individual ishlash yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bu chora-tadbirlar iqtisodiy va ijtimoiy begonalashuvni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi islohotlar shuni ko‘rsatadiki, begonalashuvni oldini olish, faqat psixologik emas, balki ta’lim, iqtisodiy, raqamli va ijtimoiy siyosat darajasidagi kompleks jarayondir. UNICEF va UNESCO yondashuvlari asosida yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish begonalashuvni kamaytirishning eng samarali yo‘llari hisoblanadi.

Xulosa. Zamonaviy yoshlarda begonalashuv jarayoni bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri hisoblanadi. O‘rganilgan nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, begonalashuv birgina omil bilan emas, balki iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar uyg‘unligi natijasida yuzaga keladi.

Karl Marx nazariyasi begonalashuvni mehnat jarayoni va iqtisodiy tizim bilan bog‘lab tushuntirsa, Émile Durkheim jamiyatdagi me’yorlar zaiflashuvi natijasida anomiya holati yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Erik Erikson esa yoshlar identiklik inqirozi orqali ichki psixologik beqarorlikka duch kelishini asoslaydi. Sherry Turkle raqamli muhit insonlarni “bog‘langan, lekin yolg‘iz” holatga olib kelishini ko‘rsatsa, Manuel Castells zamonaviy tarmoq jamiyatida aloqalar ko‘p bo‘lsa-da, ularning yuzaki ekanini ta’kidlaydi.

UNICEF va UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham yoshlar orasida begonalashuvning kuchayishiga ruhiy salomatlik muammolari, ta’limdagi tengsizlik, raqamli muhit ta’siri va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining zaifligi asosiy sabab bo‘layotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu tashkilotlar begonalashuvni kamaytirish uchun inklyuziv ta’lim, psixologik yordam xizmatlari, raqamli savodxonlikni oshirish va yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb etishni muhim chora sifatida belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlarda begonalashuvni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bunda oila, ta’lim tizimi, davlat siyosati va xalqaro tashkilotlar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirish va sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Marx K. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844. Moscow: Progress Publishers, 1959.
2. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. Paris: Félix Alcan, 1897.
3. Erikson E. H. Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company, 1950.
4. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books, 2011.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
6. UNICEF. The State of the World’s Children: Mental Health and Well-being. New York: UNICEF, 2021.
7. UNICEF & WHO. Guidance on Promoting Adolescent Mental Health and Well-being. Geneva: World Health Organization, 2024.

8. UNICEF. Mental Health and Psychosocial Support for Children and Young People. New York: UNICEF, 2022.

9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.

10. UNESCO. Recommendation on Education for Peace, Human Rights and Sustainable Development. Paris: UNESCO, 2023.

11. UNESCO. Youth and Inclusion in Digital Society Report. Paris: UNESCO, 2022.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 2020.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va yoshlar siyosati bo‘yicha hujjatlar to‘plami. Toshkent, 2021–2025.

14. Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi. (2024). YOSH AVLOD TARBIYASIDA OILA INSTITUTINING O'RNI VA ROLI. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.14289603

15. Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi. OILADAGI NOQONUNIY VA DEVIANT XULQ-ATVOR. (2024). Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 3 (5), 818-821. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33045

O‘ZBEKISTONDA ILMIY-TADQIQOT LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING YANGI VA ESKI MEXANIZMI QIYOSIY TAHLILI VA TADQIQI

Mamasadiqova Dilafruz

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

E-mail: mamasadikova@my.com

Annotatsiya. *Ushbu tezis O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarining evolyutsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda eski va yangi tizimning o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida ilmiy loyihalarni tanlash, moliyalashtirish, boshqarish, monitoring qilish va natijalarni baholash mezonlaridagi farqlar tahlil etiladi. Eski mexanizmning tashkiliy-huquqiy va amaliy xususiyatlari, uning kamchiliklari hamda yangi mexanizmda joriy etilgan samarali boshqaruv tamoyillari ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Ayniqsa, grantlar asosida moliyalashtirish, ochiq tanlov tizimi, natijadorlikka yo‘naltirilgan yondashuv, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy-tadqiqot loyihalari, eski va yangi mexanizm, qiyosiy tahlil, grant tizimi, moliyalashtirish, monitoring, baholash, innovatsion faoliyat, tijoratlashtirish, samaradorlik.*

Аннотация. *Данная тезисная работа посвящена изучению эволюции механизмов реализации научно-исследовательских проектов в Узбекистане, в рамках которой на основе сравнительного анализа раскрываются специфические особенности старой и новой систем. В ходе исследования анализируются различия в критериях отбора научных проектов, их финансирования, управления, мониторинга и оценки результатов. С научной*

точки зрения оцениваются организационно-правовые и практические особенности старого механизма, его недостатки, а также эффективные принципы управления, внедрённые в новом механизме. Особое внимание уделяется вопросам финансирования на основе грантов, системе открытого конкурса, подходу, ориентированному на результативность, поддержке инновационной деятельности и внедрению научных разработок в практику.

Ключевые слова: *научно-исследовательские проекты, старый и новый механизм, сравнительный анализ, грантовая система, финансирование, мониторинг, оценка, инновационная деятельность, коммерциализация, эффективность.*

Abstract. *This thesis is devoted to the study of the evolution of mechanisms for implementing scientific research projects in Uzbekistan, and it highlights the specific features of the old and new systems on the basis of comparative analysis. During the research, differences in the criteria for selecting scientific projects, their financing, management, monitoring, and evaluation of results are analyzed. The organizational, legal, and practical features of the old mechanism, its shortcomings, as well as the effective management principles introduced in the new mechanism are assessed from a scientific point of view. Particular attention is paid to grant-based financing, the open competition system, a result-oriented approach, support for innovative activity, and the implementation of scientific developments into practice.*

Key words: *scientific research projects, old and new mechanism, comparative analysis, grant system, financing, monitoring, evaluation, innovative activity, commercialization, efficiency.*

Kirish. O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish mexanizmlari tarixiy jihatdan bir necha bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillarida, Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi tomonidan bir qancha ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ilmiy loyihalar asosan davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilar edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va

texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436-son qaroriga muvofiq ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etishni boshqarish hamda fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirishning ochiq oshkoraviy ekspertizasiga asoslangan yangi tizmi joriy etilgan.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida Innovatsion rivojlanish vazirligi zimmasiga 9 ta ustuvor yo‘nalish, 69 ta vazifa yuklatilgan. Shu bilan bir qatorda, innovatsion rivojlanish agentligi (sobiq vazirlik) tomonidan yangi mexanizm asosida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishning samarali tizimi yo‘lga qo‘yildi[1].

2022-yilga qadar ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida barcha fan yo‘nalishlari bo‘yicha yangi mexanizm asosida moliyalashtirilgan umumiy qiymati **1 092,2 mlrd so‘m** bo‘lgan **696 ta** loyiha (*shu jumladan, 611,4 mlrd so‘mlik 402 ta amaliy, 131,0 mlrd so‘mlik 120 ta innovatsion, 237,6 mlrd so‘mlik 76 ta fundamental va 112,2 mlrd so‘mlik 98 ta xalqaro loyihalar)* bajarilgan[2]. Ushbu loyihalar 74 ta tur 3 177 ta tematik mavzu (tarmoq ehtiyojlari) bo‘yicha e’lon qilingan tanlovlar natijalariga ko‘ra bir mavzuga topshirilgan har 3-4 ta loyihadan **eng yaxshi loyihalarni tanlab olish asosida** (kuchli raqobat muhitida ochiq va shaffof tarzda) moliyalashtirilgan[3].

Yangi tizim bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari raqobatga asoslangan, ya’ni iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojiga muvofiq, aniq yakuniy mahsulot (texnologiya) yaratishga yo‘naltirilganligi, tadqiqot natijalariga tijoratlashtirish bilan bog‘liq talablarning qo‘yilishi natijasida ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida ilmiy loyihalarning keskin kamayib ketishiga sabab bo‘ldi.

Tahlillar 2022-yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida bajarilayotgan loyihalar soni boshqa fan sohalariga

qaraganda sezilarli darajada kam ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich fanlar kesimida qaralsa:

ijtimoiy fanlar yo‘nalishida 4 ta;

iqtisodiyot va huquq fanlari yo‘nalishida 30 ta;

tarix va arxeologiya fanlari yo‘nalishida 20 ta;

filologiya, psixologiya va pedagogika fanlari yo‘nalishida **38 ta**, hammasi bo‘lib **92 ta** ilmiy loyiha amalga oshirilayotganligi ma’lum bo‘ladi. Bu davlat dasturlari doirasida bajarilayotgan umumiy tadqiqotlarning **13,2** foizini tashkil etadi.

2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada ijtimoiy yo‘nalishdagi 23 ta ilmiy-tadqiqot muassasasida 2010 nafar mutaxassis (shundan 8 ta akademik, 239 ta fan doktori (DSc), va 351 ta fan nomzodi (Phd) faoliyat ko‘rsatgan[4]. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida ham mazkur yo‘nalishda minglab mutaxassislar mehnat qilgan. Shunga qaramay ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida tadqiqotlar ulushi keskin kamaygan. Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatganligi, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning sifati va samaradorligini oshirish uchun qanday choralar ko‘rish zarurligi kabi masalalar chuqur tadqiqot va tahlillarni taqozo etadi[5].

Ma’lumki, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalar tanlovlar asosida saralab olinmoqda. Tanlovlar doirasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarning talab va ehtiyojlari asosida dolzarb muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan tematik mavzular davlat buyurtmasi sifatida e’lon qilinadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida asosiy buyurtmachi – ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan tematik mavzular zamonaviy ilm-fan oldiga qo‘yilgan talablar darajasida emasligi, eskicha qarashlar va qoliplar asosida shakllantirilayotganligi, natijalar aniq mahsulotga yo‘naltirilmayotganligi sababli boshqa fan yo‘nalishlariga nisbatan kam e’lon qilinmoqda.

2018-2022-yillarda ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantirish uchun mazkur fanlar yo‘nalishida jami **645 t**a ilmiy loyiha mavzu (tematika)lari taqdim etilgan. Kelib tushgan takliflar asosida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari

doirasida “Tarix va arxeologiya fanlari”, “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi loyihalar natijalarini mobil ilova va elektron platforma shaklida yaratishga qaratilgan), “Filologiya va ijtimoiy fanlar”, “Iqtisodiyot fanlari”, “Pedagogika va psixologiya” hamda “Huquq fanlari” yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy qiymati **155,2 mlrd** so‘mlik **160** ta tematik mavzular bo‘yicha tanlovlar e’lon qilingan. Bu jami e’lon qilingan tematik mavzularning **15,4** foizini tashkil qiladi.

Tematik mavzular bir necha bor qayta ishlanib, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi tanlovlarda e’lon qilingach, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan loyiha talabnomalari taqdim etiladi. Ijtimoiy-gumanitar sohalardagi aksariyat takliflar loyiha talabnomalarining noto‘g‘ri shaklantirilishi sababli rad etiladi.

Loyihani ko‘rib chiqish va moliyalashtirish jarayonida uning talab darajasida shakllantirilganligi, maqsad va vazifalar to‘g‘ri va aniq qo‘yilganligi muhim omil sanaladi[6]. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishda tanlovlarga taqdim etilayotgan loyihalarni shakllantirishda qator umumiy kamchiliklar ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqotlarni son va sifat jihatidan oshirishga davlat buyurtmasidan loyiha talabnomasini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonga yangicha talablar asosida yondashish, tadqiqot maqsad va vazifalarini, amalga oshirish bosqichlari, usul va metodlarini aniq belgilash, salohiyatli ilmiy jamoa hamda har bir ijrochining aniq reja asosida maqsadli ishlashini tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abulkosimov, X. P. “O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish omillari.” Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2022, 3(151)-63b.

2. 2017–2021-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha milliy ma’ruzasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ochiq materiallari asosida.

3. Ashurov, M. S. “O‘zbekistonda innovatsion faoliyat holati va uni rivojlantirish omillarini baholash.” *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 2023, 8(8), 56–57b. DOI: 10.54613/ku.v8i8.803;

4. *2017–2021-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha milliy ma’ruzasi* hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ochiq materiallari asosida.

5. Kurpayanidi, K. I. *Raqobatbardosh milliy innovatsiya tizimini shakllantirish muammolari va yechimlari*. Monografiya.-Farg’ona, 2021.-45b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 133-son qarori. 2020-yil 9-mart.

TOK-SHOULARDA HUDUDIY MUAMMOLARINI YORITISH VA AUDITORIYA INTERAKTIVLIGI

Shamsiddinova Gulhayo Qaytar qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
oqbotayevagulhayo@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston televideniesida namoyish etilayotgan tok-shoular orqali hududiy muammolarni yoritish jarayoni hamda auditoriya interaktivligining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tok-shoularning jamiyatdagi muammolarni ko‘tarish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va hududiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatishdagi roli o‘rganilgan. Shuningdek, tumanlar kesimida media mahsulotlarning ijtimoiy ahamiyati va ularning samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kalit so‘zlar: tok-shou, hududiy muammo, interaktivlik, auditoriya, OAV, televideniye, ijtimoiy kommunikatsiya, tuman rivoji.*

Аннотация. *В данной статье анализируются особенности освещения региональных проблем через ток-шоу на телевидении Узбекистана, а также уровень интерактивности аудитории. В ходе исследования изучена роль ток-шоу в поднятии социальных проблем, формировании общественного мнения и влиянии на развитие территорий. Кроме того, с научной точки зрения раскрыта социальная значимость медийных продуктов и их эффективность в разрезе районов.*

Ключевые слова. *ток-шоу, региональная проблема, интерактивность, аудитория, СМИ, телевидение, социальная коммуникация, развитие районов*

Abstract. *This article analyzes the process of highlighting regional issues through talk shows on Uzbek television, as well as the specific features of audience interactivity. The study examines the role of talk shows in raising social issues,*

shaping public opinion, and influencing regional development. In addition, the social significance and effectiveness of media content are explored from a scientific perspective within the context of districts.

Keywords: *talk show, regional issue, interactivity, audience, mass media, television, social communication, district development.*

KIRISH. Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari, xususan televidenie jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tok-shou janri nafaqat ko‘ngilochar, balki ijtimoiy muammolarni yorituvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston sharoitida tok-shoular tobora rivojlanib, ularning mazmuni hududiy masalalarni qamrab olishga yo‘naltirilmoqda. Bugungi kunda tumanlar kesimida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keng jamoatchilikka yetkazishda tok-shoular samarali platforma sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, auditoriya bilan interaktivlik darajasi ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Tok-shoular o‘z tabiatiga ko‘ra dialogga asoslangan media mahsulot bo‘lib, unda turli tomonlar – ekspertlar, oddiy fuqarolar, mutasaddilar ishtirok etadi. Bu esa hududiy muammolarni ko‘p qirrali yoritish imkonini beradi.

O‘zbekiston tumanlarida uchraydigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- infratuzilma yetishmovchiligi;
- ishsizlik va bandlik masalalari;
- ta’lim va tibbiyot tizimidagi kamchiliklar;
- ekologik muammolar v.h.k.

Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, ZO‘RTV telekanalida efirga uzatilyotgan “Nasl salomatligi – jamiyat mas’uliyati”, “Ijtimoiy yordam samaralimi?”, “ Ekologik barqarorlik - kelajak poydevori”, “O‘zbekiston ichimlik suv tanqislik muammosiga duch keladimi?” kabi sonlarida jamiyat rivoji, Respublika miqyosidagi muammo va kamchiliklar tahlil qilinadi va yechim, xulosa

va takliflar beriladi. Mazkur tok-shouning 75-soni suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Suv yo‘qotishlarini kamaytirish” mavzusi keng yoritilgan. Ko‘rsatuv davomida respublikamizda suv resurslariga bo‘lgan talabning yil sayin ortib borayotgani sharoitida suvdan samarali foydalanish, mavjud resurslarni tejash va suv tanqisligining oldini olish masalalari dolzarb muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Tok-shouda, shuningdek, davlat darajasida qabul qilinayotgan qaror va tashabbuslarning mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning asosiy maqsadi suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, yo‘qotishlarni kamaytirish hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgani ta’kidlangan. Mazkur qarorlarning nafaqat ayrim hududlar, balki butun respublika miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. Ko‘rsatuv davomida keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda suv resurslarining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, o‘tgan yil yakunlari asosida Sirdaryo havzasida suv miqdorining sezilarli darajada qisqarib, taxminan 73 foizga kamaygani ta’kidlangan. Ushbu holat suv tanqisligi muammosining jiddiylashib borayotganini ko‘rsatadi va mazkur muammoni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishni talab etadi.

“Renessans minbari” tok – shousi ham mana shunday ijtimoiy siyosiy muammolar yortiladigan tok- shoulardan biri bo‘lib, jamiyatda nazar solinishi kerak bo‘lgan dolzarb muammolarni olib chiqmoqda. Ushbu ko‘rsatuv har bir soni jonli efir orqali olib borilishi bu orqali fuqarolar mavzu doirasida o‘zlarini qiziqtirgan savollarni maxsus bot yoki ekranda keltirilgan raqamlarga qo‘ng‘iroqlar orqali bog‘lanib, real vaqt mobaynida javob olishlari jamiyatning bu ko‘rsatuvga bo‘lgan ishonchini va faolligini oshirmoqda. Bu esaa bevosita auditoriya interaktivliga yo‘l ochmoqda. Auditoriya interaktivligining quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- studiya auditoriyasi orqali bevosita savol-javob;
- telefon qo‘ng‘iroqlari;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr bildirish;

- YouTube platformasidagi kommentlar va reaksiyalar.

Tok-shoular aynan shu muammolarni omma e’tiboriga olib chiqish orqali ularni muhokama maydoniga aylantiradi. Natijada, muammo faqat lokal darajada emas, balki respublika miqyosida muhokama qilinadi.

Auditoriya interaktivligi quyidagi jihatlar bilan muhim:

- fikrlar xilma-xilligini ta’minlaydi
- muammoni chuqurroq yoritishga yordam beradi
- jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Masalan, ayrim tok-shoularda muhokama qilinayotgan tuman muammosi yuzasidan tomoshabinlar faol fikr bildirishi natijasida masala keng rezonansga ega bo‘ladi. Tok-shoularda auditoriya ishtiroki — demokratik jamiyatning muhim kommunikativ mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Tok-shoularning samaradorligini quyidagi mezonlar orqali baholash mumkin:

- auditoriya qamrovi;
- interaktivlik darajasi ;
- muammo yechimiga ta’siri;
- ommaviy muhokama darajasi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interaktivligi yuqori bo‘lgan tok-shoular ijtimoiy muammolarni yoritishda ancha samarali hisoblanadi. Chunki bunday ko‘rsatuvlar tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Taklif va tavsiyalar: Hududiy muammolarni yoritishda tok-shoularning samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- hududiy ekspertlar ishtirokini kengaytirish;
- real statistik ma’lumotlardan foydalanish;
- ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiyani kuchaytirish;
- muammoga yechim taklif qiluvchi formatlarni joriy etish.

Shuningdek, tumanlar kesimida maxsus tok-shou loyihalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tok-shoular O‘zbekiston tumanlaridagi ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ular orqali nafaqat muammolar ochib beriladi, balki jamoatchilik fikri shakllanadi va ijtimoiy faollik ortadi. Auditoriya interaktivligi esa ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, u tok-shoularni zamonaviy media muhitida yanada ahamiyatli qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmadova A. O‘zbekiston xususiy telekanallarida tok-shoular tahlili // Zamonaviy media tadqiqotlari. – 2025. – № 1. – B. 33–39.
2. Ahmadova A. Tomoshabin psixologiyasi va tok-shou dramaturgiyasi: O‘zbekiston xususiy telekanallarida rejissyorlik yechimlari // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar. – 2025. – 3-jild. – 4-son. – B. 524–528.
3. Karimova A. Televideniening rekreativ vazifasi (tok-shoular asosida). – Toshkent, 2012. – 58 b.
4. Qosimova N. Tok-shou janrining o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy roli // OAV va jamiyat. – 2023. – № 2. – B. 45–52.
5. Rahmatullayeva I. Televidenie va radioda boshlovchi mahorati: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2022. – 143 b.

SIYOSIY DISKURSDAGI RITORIK STRATEGIYALAR

Solijonova Mohiraxon Baxtiyorjon qizi
KSU
mohiraxonsolijonova0704@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada siyosiy diskursdagi asosiy ritorik strategiyalar IMRAD modeli asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Aristotelning ethos, pathos va logos nazariyasi hamda N. Faircloughning tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi metodologik asos sifatida qo‘llanilgan. Material sifatida zamonaviy siyosiy nutqlarning ingliz, rus va o‘zbek tilidagi namunalaridan foydalanilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, legitimatsiya, polyarizatsiya, emotsional apel, metaforizatsiya va presuppozitsiya siyosiy nutqlarda eng faol qo‘llanadigan ritorik strategiyalar hisoblanadi. Shuningdek, nutqchining ishonchliligini shakllantiruvchi ethos elementlari hamda auditoriyaga hissiy ta’sir o‘tkazuvchi pathos vositalari siyosiy kommunikatsiyada ustuvor o‘rin egallashi aniqlangan. Maqolada ritorik strategiyalarning nafaqat ishontirish, balki hokimiyatni legitimlashtirish, ijtimoiy ongni shakllantirish va ideologik ta’sir ko‘rsatishdagi funksiyalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari siyosiy diskursni lingvistik va pragmatik jihatdan o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, ritorik strategiya, legitimatsiya, polyarizatsiya, emotsional apel, metaforizatsiya, presuppozitsiya, ethos, pathos, logos, tanqidiy diskurs tahlili, siyosiy kommunikatsiya.*

Abstract. *This article analyzes the main rhetorical strategies used in political discourse within the IMRAD framework. The study is methodologically based on Aristotle’s concepts of ethos, pathos, and logos, as well as N. Fairclough’s model of critical discourse analysis. The research material consists of selected modern*

political speeches in English, Russian, and Uzbek. The findings demonstrate that legitimation, polarization, emotional appeal, metaphorization, and presupposition are among the most frequently used rhetorical strategies in political discourse. In addition, ethos-based credibility building and pathos-oriented emotional influence are shown to occupy a central role in political communication. The article highlights that rhetorical strategies function not only as persuasive tools but also as mechanisms for legitimizing power, shaping public consciousness, and transmitting ideological influence. The results of the study are of considerable scholarly and practical value for the linguistic and pragmatic analysis of political discourse.

Keywords: *political discourse, rhetorical strategy, legitimation, polarization, emotional appeal, metaphorization, presupposition, ethos, pathos, logos, critical discourse analysis, political communication.*

Kirish

Siyosiy diskurs zamonaviy jamiyatda hokimiyatni shakllantirish, jamoatchilik fikrini boshqarish va mafkuraviy mazmunlarni yaratishning asosiy vositasidir. Ritorik strategiyalar siyosatchilar tomonidan auditoriyani ishontirish, manipulyatsiya qilish va safarbar etish uchun til vositalaridan strategik foydalanishni o‘z ichiga oladi. Qadimiy ritorika nazariyotchisi Aristotelning ethos (nutqchining ishonchliligi), pathos (hissiy ta’sir) va logos (mantiqiy dalillar) tushunchalari siyosiy nutqlarda hali ham markaziy o‘rin tutadi[68].

Zamonaviy siyosiy diskursda ritorik strategiyalar klassik ritorika, tanqidiy diskurs tahlili va kognitiv lingvistika yondashuvlari asosida o‘rganilmoqda. Ular jamoatchilik fikrini shakllantirish, hokimiyatni legitimlashtirish va raqiblarni delegitimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi[69]. Mazkur tadqiqotning maqsadi siyosiy diskursdagi asosiy ritorik strategiyalarni tahlil qilish hamda ularning samaradorligini baholashdir.

Usullar

[68] Aristotle, *Rhetoric*, 2004, Dover Publications
[69] Fairclough, *Critical Discourse Analysis*, 2010, Longman

Tadqiqot sifatli diskurs tahlili usuliga asoslangan bo‘lib, Faircloughning tanqidiy diskurs tahlili modeli va Aristotelning uchta ritorik murojaati (ethos, pathos, logos)dan foydalanildi.

Material sifatida AQSh prezidentlari Barack Obama va Donald Trump nutqlari, Rossiya prezidenti Vladimir Putin chiqishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosiy nutqlari tanlandi.

Tahlil jarayonida:

- matnni kodlash
- strategiyalarni kategoriyalash
- chastota tahlili amalga oshirildi.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra, siyosiy nutqlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan strategiyalar quyidagilar:

- **Legitimatsiya (38%)** – hokimiyatni asoslash
- **Polyarizatsiya (25%)** – “biz–ular” qarama-qarshiligi[70]
- **Emotsional apel (22%)** – hissiy ta’sir[71]
- **Metaforizatsiya (15%)** – metaforalar orqali ta’sir[72]
- **Presuppozitsiya (10%)** – yashirin axborot uzatish[73]

Ethos 70%, logos esa 45% hollarda qo‘llangan. Bu esa hissiy va ishonchga asoslangan strategiyalar ustunligini ko‘rsatadi.

Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ritorik strategiyalar siyosiy diskursda nafaqat ishontirish, balki ideologik ta’sir vositasi sifatida ham xizmat qiladi[74]. Legitimatsiya

[70] Solijonova Mohiraxon Baxtiyorjon qizi. Rhetorical Strategies in Political Discourse. Luchshiye intellektualniye issledovaniya, 2026.
[71] Condor S. Political Rhetoric. Loughborough University Repository, 2015.
[72] Charteris-Black J. Politicians and Rhetoric. Palgrave Macmillan, 2011.
[73] Грудева Е. А. Языковые манипуляции и риторические стратегии в текстах политических выступлений. Политическая лингвистика, 2024, № 6.
[74] Blumenau J. The Variable Persuasiveness of Political Rhetoric. Princeton CSDP, 2023.

va polyarizatsiya hokimiyatni mustahkamlasa, emotsional apel auditoriyani faollashtiradi.

Biroq ritorik manipulyatsiyalar demokratiya uchun xavf tug‘dirishi mumkin, chunki ular jamiyatni bo‘lishi ehtimolini oshiradi,[75]

Xulosa

Ritorik strategiyalar siyosiy nutqning samaradorligini oshiradi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ularni axloqiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llash muhim hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy siyosiy nutqlar til birliklari orqali nafaqat axborot uzatish vositasi, balki jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy qarashlarni yo‘naltirish va hokimiyatni legitimlashtirish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa siyosiy diskursni lingvistik, pragmatik va kognitiv jihatdan kompleks o‘rganishni talab etadi.

Siyosiy nutqlarda eng keng tarqalgan strategiyalar sifatida legitimatsiya, polyarizatsiya, emotsional apel, metaforizatsiya hamda presuppozitsiya ajratib ko‘rsatildi. Ushbu strategiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanilib, nutqning umumiy kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi. Xususan, legitimatsiya strategiyasi orqali siyosiy yetakchilar o‘z qarorlarini “xalq manfaati”, “milliy xavfsizlik” yoki “tarixiy zarurat” kabi tushunchalar bilan asoslashga intiladi [Solijonova, *Rhetorical Strategies in Political Discourse*, 2026]. Bu esa hokimiyatning ijtimoiy qabul qilinishini kuchaytiradi.

Polyarizatsiya strategiyasi esa auditoriyani “biz” va “ular” qarama-qarshiligiga ajratish orqali ijtimoiy guruhlar orasida aniq chegaralar yaratadi. Bu strategiya ko‘pincha populistik diskursda faol qo‘llanilib, siyosiy mobilizatsiyani kuchaytiradi. Emotsional apel (pathos) esa auditoriyaning hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Qo‘rquv, umid, faxr yoki g‘urur kabi hissiy kategoriyalar orqali siyosiy yetakchilar jamoatchilikni ma’lum qarorlar yoki harakatlarga undaydi [Condor, *Political Rhetoric*, 2015].

[75] Rehbein I. Resources and Methods for Analysing Political Rhetoric. ACL Anthology, 2024.

Shuningdek, metaforizatsiya strategiyasi murakkab siyosiy jarayonlarni oddiy va tushunarli obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi. Masalan, siyosiy rivojlanish jarayonlari “yo‘l”, “kurash” yoki “qurilish” metaforalari orqali ifodalanishi auditoriya tomonidan tezroq qabul qilinishiga xizmat qiladi [Charteris-Black, *Politicians and Rhetoric*, 2011]. Presuppozitsiya esa yashirin axborotni uzatish vositasi sifatida muhim bo‘lib, u orqali nutqchi ayrim faktlarni bahs-munozarasiz qabul qildirishga erishadi [Grudeva, *Языковые манипуляции*, 2024].

Aristotelning klassik ritorik triadasi — ethos, pathos va logos — zamonaviy siyosiy diskursda ham dolzarbligini saqlab qolayotganini tasdiqlaydi [Aristotle, *Rhetoric*, 2004]. Xususan, ethos strategiyasi orqali nutqchining ishonchliligi va obro‘si shakllantirilsa, pathos orqali hissiy ta’sir kuchaytiriladi, logos esa mantiqiy asoslashni ta’minlaydi. Biroq natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy siyosiy nutqlarda hissiy va identifikatsion strategiyalar (ethos va pathos) mantiqiy dalillarga (logos) nisbatan ustunlik qiladi. Bu esa siyosiy kommunikatsiyaning tobora ko‘proq psixologik va emotsional omillarga tayanayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tanqidiy diskurs tahlili nuqtai nazaridan qaralganda, ritorik strategiyalar ideologik mazmunni yashirin yoki ochiq shaklda uzatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi [Fairclough, *Critical Discourse Analysis*, 2010]. Ular orqali hokimiyat strukturalari mustahkamlanadi, muayyan ijtimoiy guruhlar legitimlashtiriladi yoki aksincha delegitimlashtiriladi. Shu bois ritorik strategiyalarni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida ham baholash zarur.

O‘zbekiston siyosiy diskursi misolida olib borilgan tahlillar milliy birlik, taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka qaratilgan strategiyalar ustun ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa mahalliy siyosiy kommunikatsiyaning konstruktiv va integrativ xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, global siyosiy tendensiyalar,

xususan, populizm va mediatizatsiya jarayonlari milliy diskursga ham asta-sekin ta’sir ko‘rsatayotgani kuzatilmoqda[76].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ritorik strategiyalar siyosiy nutqning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ular orqali nafaqat auditoriyani ishontirish, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, siyosiy qarorlarni asoslash va ideologik ta’sir o‘tkazish mumkin. Shu bilan birga, ritorik strategiyalardan noto‘g‘ri yoki manipulyativ foydalanish jamiyatda noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda siyosiy diskursni yanada chuqurroq o‘rganish, xususan, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt asosidagi kommunikatsiya vositalarida ritorik strategiyalarning qo‘llanishini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa zamonaviy siyosiy kommunikatsiyaning yangi shakllarini tushunish va ularning jamiyatga ta’sirini baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aristotle, *Rhetoric*, 2004, Dover Publications
2. Fairclough, *Critical Discourse Analysis*, 2010, Longman
3. Solijonova Mohiraxon Baxtiyorjon qizi. Rhetorical Strategies in Political Discourse. Luchshiye intellektualniye issledovaniya, 2026.
4. Condor S. Political Rhetoric. Loughborough University Repository, 2015.
5. Charteris-Black J. Politicians and Rhetoric. Palgrave Macmillan, 2011.
6. Грудева Е. А. Языковые манипуляции и риторические стратегии в текстах политических выступлений. Политическая лингвистика, 2024, № 6.

[76] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari rasmiy transkriptlari. 2023–2025.

7. Blumenau J. The Variable Persuasiveness of Political Rhetoric. Princeton CSDP, 2023.

8. Rehbein I. Resources and Methods for Analysing Political Rhetoric. ACL Anthology, 2024.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari rasmiy transkriptlari. 2023–2025.

JAMIYATDA IJTIMOIY ISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA)

Utamurodov Alisher Alimjonovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

alisherutamurodov5@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasidagi zamonaviy islohotlar, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Mamlakatda 2023-2026 yillarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tizimi joriy etilishi, hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish strategiyasining qabul qilinishi va parvarish iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha qator muhim qadamlar amalga oshirildi. Biroq, sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish va parvarish sohasida xususiy sektor ishtirokini rivojlantirish kabi dolzarb vazifalar saqlanib qolmoqda. Maqolada ushbu muammolarni hal etish yo‘nalishlari va kelgusi rivojlanish istiqbollari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy ish, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, hududiy ijtimoiy xizmatlar, bolalarni himoya qilish, parvarish iqtisodiyoti, fanlararo yondashuv, kadrlar tayyorlash.*

Abstract. *This article analyzes modern reforms, existing problems, and development prospects in the field of social work in Uzbekistan. A number of important steps have been taken in the country to implement the "Inson" social service centers system in 2023-2026, establish regional social service centers, adopt a strategy to protect children from violence, and develop the care economy. However, urgent tasks remain, such as improving the personnel training system in*

the field, strengthening the interdisciplinary approach, expanding the territorial coverage of social services, and developing private sector participation in the care sector. The article substantiates the directions for solving these problems and the prospects for further development.

Keywords: *social work, "Inson" social service centers, regional social services, child protection, care economy, interdisciplinary approach, personnel training.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ish sohasining rivojlanishi har bir davlatning ijtimoiy siyosatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biriga aylandi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish masalalari bugungi kunda O‘zbekistonda ham davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiritilgan.

2023-2026 yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1-iyundagi Farmoni asosida turli vazirliklar tarkibida tarqoq faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xizmatlar birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, Agentlikning viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ushbu islohot ijtimoiy xizmatlarni aholiga eng yaqin bo‘lgan mahalla darajasiga olib chiqish, xizmatlarning manzilliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasidagi mavjud holat, erishilgan yutuqlar, saqlanib qolayotgan muammolar va kelgusi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda so‘nggi yillardagi qonunchilik islohotlari, amaliy tajribalar va xalqaro hamkorlik doirasidagi tashabbuslar o‘rganiladi.

Hujjatlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ijtimoiy ish tizimini

modernizatsiya qilish, professional kadrlar tayyorlash va aholiga manzilli xizmat ko‘rsatish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

2020-yildan boshlab ijtimoiy himoya tizimi institutsional jihatdan takomillashtirilib, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlari qayta ko‘rib chiqildi. Shu jarayonda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilib, aholining ehtiyojmand qatlamlariga kompleks yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri — ijtimoiy xizmatlarni mahalliy darajada kuchaytirish hisoblanadi. “Mahalla” tizimi orqali oilalar bilan individual ishlash, ularning muammolarini erta aniqlash va manzilli yordam ko‘rsatish amaliyoti kengaytirildi. Natijada, ijtimoiy ishning profilaktik va kompleks yondashuvi shakllanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy ish sohasida professional kadrlar tayyorlash va ilmiy yondashuvni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida “ijtimoiy ish” yo‘nalishlari rivojlantirilib, xalqaro tajriba asosida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda raqamlashtirish jarayoni ham jadal amalga oshirilmoqda. “Ijtimoiy reyestr” tizimi orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga yordam ko‘rsatish samaradorligi oshirilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda ijtimoiy ish tizimini isloh qilish jarayoni aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va zamonaviy ijtimoiy xizmatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda.

2023-yilda boshlangan ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi bo‘ldi. Ushbu markazlarning asosiy maqsadi – ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga mahalla darajasida kompleks ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish rejalarini ishlab chiqish;
- ichki resurslarni, shu jumladan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘ngillilarni (qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar, volontyorlar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatishga jalb qilish.

“Inson” markazlari tomonidan 12 toifadagi shaxslarga 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatib kelinmoqda. Masalan, Paxtaobod tumanida yangi markaz binosining ishga tushirilishi 5 ming 141 nafar imkoniyati cheklangan shaxslar, 339 nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalarga bo‘lgan e’tiborni oshirdi. Navoiy viloyatida esa markaz tomonidan nogironligi bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish va ishga joylashtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunda bir qator fuqarolar sangtaroshlik, payvandlash va madaniyat sohalarida mehnat qilmoqda.[77]

2025-yil 18-dekabrda qabul qilingan Prezident qarori bilan 2026-2029-yillarda bosqichma-bosqich 55 ta Hududiy ijtimoiy xizmatlar markazini tashkil etish belgilandi. 2026-2027-yillarda 20 ta, 2028-2029-yillarda 35 ta markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Ushbu markazlarning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- nogironligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish;
- 18 yoshdan katta, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar uchun qarab turish;
- rivojlanishida kechikish yoki xavf omillari mavjud bolalar uchun erta aralashuv;

[77] Husanov S. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi yangi binoda ish boshladi. – Xalq so‘zi, 2026-yil 12-mart.

- nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar uchun abilitatsiya va reabilitatsiya;
- nogironligi bo‘lgan bolalar oilalari uchun “ota-onalar klublari”;
- tarbiyasida muammosi bo‘lgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun psixosotsial reabilitatsiya.

Hududiy markazlarning xizmatlaridan imtiyozli shartlarda foydalanish huquqiga ega shaxslar “Inson” markazlarining yo‘llanmasi asosida foydalanadi. Markazlarning xizmatlaridan foydalanish bilan bog‘liq barcha tartib-taomillar to‘liq elektron shaklda amalga oshirilishi belgilangan.

2025-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevga bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiya loyihasi taqdim etildi. Strategiyaning asosiy maqsadi – bolalar uchun xavfsiz va zo‘ravonliksiz muhit yaratish, xavf ostidagi bolalarni erta bosqichda aniqlash, zo‘ravonlik qurboni yoki guvohi bo‘lgan bolalarga kompleks yordam ko‘rsatishdan iborat .

Strategiya quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi:

- bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish;
- xavf ostidagi oilalar va bolalar bilan erta bosqichda ishlash;
- bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, psixologik, pedagogik va huquqiy xizmatlar ko‘rsatish;
- bolalar bilan ishlash uchun kichik hajmdagi “ochiq” markazlarni joriy etish;
- har bir bola uchun individual rejalarni ishlab chiqish;
- bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha idoralararo hamkorlikni kuchaytirish.

Strategiyaning muhim qismi sifatida bolalarni ijtimoiy himoya qilishning yagona elektron platformasini yaratish va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini qayd etish va monitoring qilishning yagona tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan.

2026-yil 19-fevralda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda “Parvarish iqtisodiyotining gender tengligi, munosib mehnat va inklyuziv o‘sishni rivojlantirishdagi roli” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Tadbirda parvarish sohasidagi islohotlar, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash masalalari muhokama qilindi.[78]

O‘zbekistonda ayollar har kuni o‘rtacha 5,6 soatini parvarish ishlariga sarflashlari, bu esa ularning daromad topish, o‘qish yoki dam olish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi qayd etildi.[79] Bolalar va keksalarni parvarish qilish, shuningdek, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ushbu to‘siqlarni kamaytirish va shu bilan birga muhim ish o‘rinlarini yaratish mumkinligi ta’kidlandi.

Ushbu tadbirda XMTning “O‘zbekistonda uy ishchilari: huquqiy asos va mehnat sharoitlari” hisoboti va UNDPning “Kelajakka g‘amxo‘rlik: O‘zbekistondan tushunchalar – parvarish tizimining gender asosidagi tahlili” tadqiqoti taqdim etildi. Tadqiqotlar parvarish sohasidagi tarkibiy kamchiliklarni aniqlab, maqsadli davlat moliyasini isloh qilish orqali ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va milliy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy ish sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati bevosita malakali kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishiga bog‘liq. 2026-yil mart oyida O‘sh davlat universiteti va Farg‘ona davlat universiteti hamkorligida “Xalqaro ijtimoiy ishning kelajagi va modernizatsiyasi: kadrlar siyosati va amaliyot” mavzusida uchinchi Xalqaro qishki maktab tashkil etildi.[80] Tadbirda Qirg‘iziston va O‘zbekiston ijtimoiy ish sohasi vakillari, professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etib, sohadagi

[78] United Nations Development Programme.
(2026, 23-fevral). Uzbekistan Advances Dialogue on Care Economy to Promote Gender Equality and Decent Work.
[79] O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari. – 2026-yil 13-mart.
[80] Osh State University. The Future and Modernization of International Social Work: Personnel Policy and Practice. – 2026-yil 2-mart.

dolzarb masalalar, mavjud muammolarni hal etish va oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Biroq, ijtimoiy ish bo‘yicha oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy ish yo‘nalishidagi o‘quv dasturlari amaliyot bilan yetarlicha uyg‘unlashtirilmagan. Amaliyotchi ijtimoiy xodimlarning malakasini oshirish tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda.[81]

Xalqaro tajribani o‘rganish va ikki tomonlama akademik hamkorlikni rivojlantirish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘sh va Farg‘ona davlat universitetlari hamkorligidagi qishki maktab kabi tashabbuslar bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda ijtimoiy xizmatlarning qamrovi va sifati hali ham yetarli emas. 2025-yil dekabr oyida o‘tkazilgan yig‘ilishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yagona ijtimoiy himoya reestri asosida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholangan bo‘lib, shundan 739 ming oila, jumladan, kam ta’minlangan va qashshoqlik chegarasidagi oilalar reestrga kiritilgan[82]. Ularga nafaqa va turli moddiy yordam turlari tayinlangan. Kelgusida Yagona ijtimoiy himoya reestri va Kam ta’minlangan oilalar reestri asosida Ijtimoiy reestrni yaratish, oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ko‘ra davlat yordami oluvchilar, kam ta’minlangan va qashshoqlik chegarasidagi oilalar sifatida tasniflash rejalashtirilgan.

Ijtimoiy ish amaliyotida psixologik, huquqiy, tibbiy va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash masalasi hali to‘liq hal etilmagan. Avvalgi

[81] UzA. Issues of expanding social services coverage in the regions and child protection are reviewed. – 2025-yil 17-dekabr.
[82] UzA. Issues of expanding social services coverage in the regions and child protection are reviewed. – 2025-yil 17-dekabr.

maqolalarimizda tahlil qilinganidek, bog‘lanish nazariyasi kabi psixologik nazariyalarni ijtimoiy ish amaliyotiga integratsiyalash ko‘plab mamlakatlarda muhim muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimida fanlararo yondashuvni kuchaytirish strategiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun ixtisoslashtirilgan treninglarni tashkil etish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish masalalari strategiyada o‘z aksini topgan.

2026-yil mart oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy xodimlarni obodonlashtirish ishlariga jalb qilish amaliyotini tanqid qildi. Davlat rahbari ijtimoiy xodimlarni, sog‘liqni saqlash va ta’lim xodimlarini, talabalarni obodonlashtirish ishlariga jalb qilishni taqiqlash bo‘yicha qaror ishlab chiqishni topshirdi. Bu ijtimoiy xodimlarning o‘z bevosita vazifalariga ixtisoslashishlari va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishlari uchun sharoit yaratishga qaratilgan muhim qadamdir.

Xulosa. O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar muhim natijalarga erishish imkonini berdi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tizimining joriy etilishi, hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil etish, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish strategiyasining qabul qilinishi va parvarish iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslar ijtimoiy himoya tizimini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda.

Biroq, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham saqlanib qolmoqda. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish, xususiy sektor ishtirokini rivojlantirish va ijtimoiy xodimlarni nofaoliyatga jalb qilish amaliyotiga barham berish kelgusi yillarning muhim vazifalaridir.

Istiqbolda ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish, xalqaro tajriba va hamkorlikni kengaytirish, parvarish iqtisodiyotini rivojlantirish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish va hududiy markazlar tarmog‘ini kengaytirish orqali ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

O‘zbekistonning BMTning “Ish o‘rinlari va ijtimoiy himoya bo‘yicha global akseleratori” doirasidagi faol ishtiroki, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar ijtimoiy ish sohasidagi islohotlarning ilmiy asosini mustahkamlash va amaliy natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar. Yuqorida ko’rib chiqilganlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy ish sohasini yanada isloh qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni namuna sifatida keltirish mumkin:

- bolalarni himoya qilish sohasida bolalarni ijtimoiy himoya qilishning yagona elektron platformasini yaratish va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini qayd etish va monitoring qilishning yagona tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash, ularning oldini olish va jabrlangan bolalarga tezkor yordam ko‘rsatish imkonini beradi.
- BMTning “Ish o‘rinlari va ijtimoiy himoya bo‘yicha global akseleratori” doirasida O‘zbekiston “yo‘l ochuvchi” mamlakat sifatida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu dastur doirasida ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish va ko‘proq va yaxshi munosib ish o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.
- parvarish sohasida ayollar bandligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda milliy darajadagi siyosiy tavsiyalar va majburiyatlar belgilangan.
- bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar, jumladan ijtimoiy xodimlar, psixologlar, huquqshunoslar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun maxsus treninglar tashkil etish, ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish rejalashtirilgan.
- Jahon bankining “Inson” loyihasi (2026-2029 yy.) doirasida hududiy markazlarni jihozlash, xizmatlarni elektron shaklga o‘tkazish va sifat monitoringini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Bu esa ijtimoiy xizmatlarning

sifatini oshirish va aholining ularga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Husanov S. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi yangi binoda ish boshladi // Xalq so‘zi. — 2026-yil 12-mart.

2. United Nations Development Programme. Uzbekistan Advances Dialogue on Care Economy to Promote Gender Equality and Decent Work. — 2026-yil 23-fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari. — 2026-yil 13-mart.

4. Osh State University. The Future and Modernization of International Social Work: Personnel Policy and Practice. — 2026-yil 2-mart.

5. UzA. Issues of expanding social services coverage in the regions and child protection are reviewed. — 2025-yil 17-dekabr.

6. UzA. Issues of expanding social services coverage in the regions and child protection are reviewed. — 2025-yil 17-dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — 2020-yil 30-iyul.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. — 2023-yil 25-yanvar.

9. World Bank. Uzbekistan: Strengthening the Social Protection System. — 2022.

10. UNICEF. Social Service Workforce Strengthening in Uzbekistan. — 2021.

11. International Labour Organization. Building Social Protection Floors in Uzbekistan. — 2022.

12. Asian Development Bank. Uzbekistan: Social Protection and Labor Market Reforms. — 2021.

ISMOIL JO‘RABEKOVNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY SIYOSATIDAGI O‘RNI VA FAOLIYATI

Xolmirzayev Jasur Jaxongir o‘g‘li

TDIU

Elektron pochta: xolmirzayevj561@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur ishda Ismoil Jo‘rabekovning O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridagi iqtisodiy siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, uning birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov bilan hamkorlikda olib borilgan iqtisodiy boshqaruv faoliyati, ayniqsa agrar soha va paxtachilik tizimidagi markazlashgan modelni mustahkamlashdagi roli yoritilgan. Ushbu ishda 1990-yillar boshida iqtisodiy barqarorlikni saqlash strategiyasi, davlat buyurtmasi tizimi, viloyatlar kesimida hosil rejalashtirish va eksport tushumlarini markazlashtirish siyosatining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, ushbu boshqaruv modelining ijobiy va salbiy oqibatlari ilmiy tahlil qilinib, qisqa muddatli barqarorlik va uzoq muddatli modernizatsiya jarayonlari o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *smoil Jo‘rabekov, iqtisodiy siyosat, agrar sektor, paxtachilik tizimi, markazlashgan boshqaruv, iqtisodiy barqarorlik, davlat buyurtmasi*

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat iqtisodiyotida ko‘plab muammolar bor edi. Sobiq ittifoqdan ajralgan mamlakat oldida iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash, bozor tizimiga o‘tish va ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish kabi murakkab vazifalar turardi. Aynan shu davrda O‘zbekiston siyosiy va iqtisodiy hayotida faol ishtirok etgan, Islom Karimovning eng yaqin maslahatchilaridan biri — Ismoil Jo‘rabekov iqtisodiy boshqaruv tizimini shakllantirishda alohida rol o‘ynadi. U o‘z faoliyati davomida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini, ayniqsa paxta yetishtirish sohasini

nazorat qilish va hududiy boshqaruvni mustahkamlashga katta e’tibor qaratgan. Ismoil Jo‘rabekovning iqtisodiy qarashlari va amaliy faoliyati O‘zbekistonning dastlabki yillardagi markazlashtirilgan iqtisodiy modelini yaratishda muhim omil bo‘lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy siyosatning shakllanishi: 1990-yillarning boshlarida O‘zbekiston iqtisodiyoti sobiq SSSR tarkibida shakllangan markazlashgan xo‘jalik tizimining ajralmas qismi bo‘lib, asosan agrar-xomashyo yo‘nalishiga ixtisoslashgan edi. Respublikada ishlab chiqarish tarkibi bir tomonlama rivojlangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, ayniqsa paxtachilik yetakchi o‘rin egallagan. Ilmiy manbalarga ko‘ra, ushbu davrda O‘zbekiston yalpi ijtimoiy mahsulotining sezilarli qismi paxta yetishtirish va uni dastlabki qayta ishlash bilan bog‘liq tarmoqlarga to‘g‘ri kelgan. Ayrim iqtisodiy tahlillarda bu ko‘rsatkich 60 foizdan ortiq deb baholanadi. Bu holat respublikaning ittifoq miqyosidagi “paxta yetkazib beruvchi hudud” sifatida shakllantirilganini ko‘rsatadi.

Shu sharoitda hukumat tomonidan davlat iqtisodiyotini tezkor o‘zgartirish emas, balki barqarorlikni saqlab qolish strategiyasini tanlandi. Ismoil Jo‘rabekov ushbu strategiyaning amaliy ijrochilaridan biri sifatida, iqtisodiy islohotlarda ehtiyotkorlik tamoyilini ilgari surdi. Unga ko‘ra, iqtisodiy erkinlik asta-sekinlik bilan, xalq xo‘jaligining mavjud tuzilmasini buzmasdan joriy etilishi kerak edi. Shu sababli dastlabki yillarda paxtachilikni saqlab qolish, davlat nazoratidagi rejalashtirish tizimini davom ettirish, va viloyatlar iqtisodiy mas’uliyatini kuchaytirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Paxta siyosati va iqtisodiy barqarorlik: Ismoil Jo‘rabekovning eng muhim faoliyati qishloq xo‘jaligi, xususan paxtachilik sohasida ko‘rinadi. U birinchi prezidentimiz Islom Karimov bilan birga paxtani “O‘zbekiston iqtisodiyotining yuragi” sifatida himoya qilgan. Bu siyosatning maqsadi – qisqa muddatda milliy daromad manbasini saqlash va eksport balansini ta’minlash edi.

Asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- Davlat buyurtmasi tizimini saqlab qolish orqali paxta ishlab chiqarish hajmini barqaror ushlab turish;
- Fermer xo‘jaliklariga qat’iy hosil rejasini belgilash va har bir viloyat uchun aniq majburiyatlar joriy etish;
- Paxta narxini davlat tomonidan tartibga solish, eksportdan tushgan daromadni markazlashtirish.

Bu siyosat tufayli 1990-yillarda O‘zbekiston paxta eksporti bo‘yicha dunyoda 3-o‘rinni, yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rinni egallab turgan[83]. Ammo markazlashgan tizim uzoq muddatda bozor mexanizmlarining to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qilgan.

Agrar sohada boshqaruv tizimining mustahkamlanishi: Ismoil Jo‘rabekov iqtisodiy siyosat bilan birga ma’muriy boshqaruv tizimini ham kuchaytirgan. U iqtisodiy natijalarni faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki tashkiliy intizom orqali ham ta’minlash mumkin, degan fikrni ilgari surgan.

Ushbu yondashuv asosida:

- Viloyat va tuman rahbarlari uchun hosil rejasini bajarish bo‘yicha shaxsiy javobgarlik tizimi joriy etilgan.
- Paxta yig‘im-terimi davrida mehnat safarbarligi keng yo‘lga qo‘yilgan.
- Suv resurslaridan foydalanish, texnika taqsimoti va transport tizimi qat’iy nazorat ostiga olingan.
- Bu boshqaruv modeli qisqa muddatda samarali bo‘lib ko‘ringan, biroq uzoq muddatda iqtisodiy tashabbuskorlik va innovatsiyalarni cheklab qo‘ygan.

Markazlashgan iqtisodiy boshqaruvning ijobiy va salbiy oqibatlari: Ismoil Jo‘rabekov faoliyatining iqtisodiy natijalarini baholashda ikki tomonlama yondashuv mavjud.

---

[83] *Library of Congress Country Studies: Uzbekistan (March 1996).*

Ijobiy jihatlar:

1. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligi ta’minlandi.
2. Eksport tushumlari orqali davlat byudjeti to‘ldirildi.
3. Viloyatlararo iqtisodiy tafovutlar keskinlashmadi.
4. Mustaqillikning dastlabki yillarida oziq-ovqat xavfsizligi saqlab qolindi.

Salbiy jihatlar:

1. Bozor iqtisodiyoti tamoyillari sekin joriy etildi.
2. Fermer xo‘jaliklari iqtisodiy erkinlikdan mahrum bo‘ldi.
3. Mehnat unumdorligi past bo‘lib qoldi.
4. Paxta tarmog‘iga haddan ortiq tayanish boshqa sohalarni sustlashtirdi.

Natijada, Jo‘rabekov faoliyati qisqa muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatli modernizatsiya jarayonini kechiktirgan.

Ismoil Jo‘rabekov faoliyatining iqtisodiy merosi: Bugungi kunda Ismoil Jo‘rabekov faoliyati tarixiy kontekstdan kelib chiqib baholanmoqda. U davrda amalga oshirilgan iqtisodiy boshqaruv modeli O‘zbekiston uchun barqarorlik modeli sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, bu tajriba hozirgi islohotlar uchun ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan darslarni qoldirgan.

Uning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki: Iqtisodiy o‘tish davrida siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ehtiyotkorlik bir-birini to‘ldirishi mumkin, ammo uzoq muddatda iqtisodiy taraqqiyot uchun bozor tamoyillariga tayanish zarur. Jo‘rabekov faoliyati O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat boshchiligidagi modernizatsiya modelining dastlabki namunasi sifatida tarixda o‘z o‘rnini egallagan.

Xulosa: Ismoil Jo‘rabekov O‘zbekiston iqtisodiy tarixida muhim iz qoldirgan siyosiy va iqtisodiy arbobdir. U mustaqillikning dastlabki bosqichida mamlakat iqtisodiyotini beqarorlikdan saqlab qolishda, paxtachilikni markaziy tarmoq sifatida rivojlantirishda va davlat boshqaruvining iqtisodiy mexanizmlarini mustahkamlashda faol ishtirok etgan. Uning faoliyati qisqa muddatli barqarorlikni

ta’minlasa-da, uzoq muddatli islohotlar uchun yangi yondashuv zaruratini yaratdi. Shunday qilib, Ismoil Jo‘rabekov iqtisodiy tarixda markazlashgan iqtisodiy boshqaruv modelining ramziy timsoli sifatida qoladi — bu model esa keyinchalik bozor islohotlari va iqtisodiy erkinlik yo‘lida muhim saboqlarga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Jo‘rabekov I. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Abdurahmonov Q.X. O‘zbekiston iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕЖИВАНИЯ БОЛЕЗНИ РЕБЁНКА РОДИТЕЛЯМИ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В СЕМЬЕ

Асанова Гузаль Мухарамовна

Национальный педагогический университет Узбекистана им. Низами

g.m.asanova@mail.ru

Аннотация. *Онкологическое заболевание ребёнка выступает мощным психотравмирующим фактором для семьи, затрагивающим эмоциональную, когнитивную и поведенческую сферы родителей. Целью исследования является анализ социально-психологических особенностей переживания болезни ребёнка и выявление факторов, влияющих на адаптацию и ресоциализацию родителей. В работе рассматриваются изменения внутрисемейных отношений, эмоциональные реакции и стратегии совладания со стрессом. Результаты показывают, что уровень социальной поддержки, сплочённость семьи и конструктивные копинг-стратегии играют ключевую роль в успешной адаптации.*

Ключевые слова: *психоонкология, родители, адаптация, стресс, семейные отношения, ресоциализация, копинг-стратегии*

Abstract. *The child’s oncological disease acts as a powerful psychotraumatic factor for the family, affecting the emotional, cognitive, and behavioral domains of parents. The aim of the study is to analyze the socio-psychological characteristics of parents’ experience of their child’s illness and to identify factors influencing their adaptation and resocialization. The paper examines changes in intrafamilial relationships, emotional responses, and coping strategies for dealing with stress. The results indicate that the level of social support, family cohesion, and constructive coping strategies play a key role in successful adaptation.*

Keywords: *Psycho-oncology, parents, adaptation, stress, family relationships, resocialization, coping strategies*

Переживание заболевания ребёнка представляет собой один из наиболее значимых стрессовых факторов, с которым сталкиваются родители. Диагноз онкологического заболевания у ребёнка приводит к дестабилизации привычного уклада семейной жизни, оказывает влияние на эмоциональный климат в семье и способствует изменению распределения ролей и характера взаимодействия между её членами. В подобных условиях усиливаются индивидуальные эмоциональные реакции родителей, а также трансформируются поведенческие стратегии, используемые ими в процессе совместного преодоления болезни.

Анализ социально-психологических аспектов переживания болезни ребёнка позволяет более глубоко раскрыть механизмы адаптации семьи, определить уровень её эмоциональной сплочённости, особенности внутрисемейных отношений и восприятие родителями собственной роли в кризисной ситуации. Указанные параметры оказывают существенное влияние на способность семьи эффективно справляться со стрессовыми воздействиями, использовать доступные ресурсы социальной и психологической поддержки, а также на успешность процессов ресоциализации родителей.

Онкологические заболевания в детском возрасте представляют собой критическое событие, нарушающее устойчивость функционирования семейной системы и оказывающее выраженное влияние на психическое состояние родителей. Подобная ситуация сопровождается не только эмоциональными переживаниями высокой интенсивности, но и глубокой трансформацией системы ценностей, ролевых позиций и поведенческих стратегий.

Диагноз ребёнка часто воспринимается родителями как экзистенциальная угроза, что обуславливает развитие хронического стресса, тревожно-депрессивных состояний и чувства утраты контроля над жизненной ситуацией [3, 75]. В этих условиях возрастает значимость социально-психологических факторов, способствующих адаптации семьи.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью более глубокого анализа механизмов совладания родителей с кризисной ситуацией, а также факторов, влияющих на их последующую ресоциализацию.

Методологическую основу исследования составил интегративный подход, объединяющий положения клинической, социальной и семейной психологии.

В работе использованы:

- теоретический анализ научной литературы по проблеме психоонкологии;
- психодиагностические методы (оценка тревожности, стрессоустойчивости и копинг-стратегий);
- полуструктурированное интервью, направленное на выявление субъективного опыта родителей;
- наблюдение за особенностями внутрисемейного взаимодействия.

Выборку составили родители детей с онкологическими заболеваниями, проходящих лечение в стационарных условиях. Обработка данных включала качественный анализ и элементы статистической интерпретации.

Анализ эмпирических данных показал, что ситуация болезни ребёнка сопровождается выраженными эмоциональными нарушениями у родителей, среди которых преобладают тревожность, страх, эмоциональное истощение и состояние неопределённости.

Выявлены следующие закономерности:

- дестабилизация эмоционального состояния родителей;

- трансформация семейных ролей (концентрация ответственности на одном из родителей);
- усиление или, напротив, снижение внутрисемейной сплочённости;
- сокращение социальных контактов и ограничение внешней активности.

Установлено, что использование конструктивных копинг-стратегий (поиск поддержки, активное решение проблем, когнитивное принятие ситуации) способствует снижению уровня дистресса [1, 6]. В то время как избегание и эмоциональное подавление ассоциируются с более выраженными признаками дезадаптации.

Дополнительно выявлено, что наличие системной социальной и профессиональной поддержки (семья, медицинские специалисты, психологи) выступает значимым ресурсом адаптации родителей [2, 96].

Полученные результаты свидетельствуют о том, что переживание онкологического заболевания ребёнка представляет собой сложный кризисный процесс, затрагивающий когнитивный, эмоциональный и поведенческий уровни функционирования личности родителей.

Особую роль играет характер внутрисемейных отношений: эмоциональная сплочённость и поддержка внутри семьи выступают защитным фактором, способствующим снижению психологического напряжения. Напротив, дефицит поддержки и неэффективные стратегии совладания усиливают риск развития хронического стресса и эмоционального выгорания [4, 112].

Следует отметить, что длительное пребывание в стрессовой ситуации приводит к изменению социальной идентичности родителей, снижению их профессиональной активности и ограничению социальных связей. Это обуславливает необходимость организации программ психологической

помощи, направленных не только на поддержку в период лечения ребёнка, но и на последующую ресоциализацию.

Таким образом, переживание онкологического заболевания ребёнка является многоаспектным процессом, включающим эмоциональные, поведенческие и социальные изменения в жизни родителей.

Ключевыми факторами успешной адаптации выступают:

- развитая система социальной поддержки;
- высокий уровень внутрисемейной сплочённости;
- использование конструктивных копинг-стратегий.

Практическая значимость исследования заключается в возможности разработки комплексных программ психологического сопровождения семей, направленных на снижение уровня дистресса и повышение адаптационного потенциала родителей.

Список литературы

1. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни. — М.: Мысль, 1991.
2. Бодалев А. А. Психология общения. — М.: МГУ, 2002.
3. Василюк Ф. Е. Психология переживания. — М.: МГУ, 1984.
4. Холмогорова А. Б., Гаранян Н. Г. Эмоциональные расстройства и современная культура// *Психологический журнал*. — Московский психотерапевтический журнал, 1999, №2, с. 61-90
5. Холмогорова А.Б., Гаранян Н.Г. Эмоции и психическое здоровье. Вестник реабилитационной и коррекционной работы, 1996

